

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA  
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI**

**Z.Mamadiyarov, A.Norov, O'.Haydarov**

**BANK ISHI VA MOLIYA ASOSLARI**

(Darslik)

**TOSHKENT - 2021**

**UO'K: 336.5(07)**  
**KBK 65.262.1**

**Z.Mamadiyarov, A.Norov, O'.Haydarov.**  
**Bank ishi va moliya asoslari. Darslik –T.: «Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi», 2021 – 240 b.**

**ISBN 978-9943-7423-2-1**

«Bank ishi va moliya asoslari» faniga bag‘ishlangan darsligimizda oddiy va sodda tilda, savol va javob tariqasida pul va bank ishini tarixiy va nazariy jihatni, bank operatsiyalari, bank risklari va informatsion texnologiya ko‘nikmalari, ma’lumotlar bilan ishlash, statistik ma’lumotlardan foydalanish va sharhlash hamda guruhlarda ishlash va taqdimotlar tayyorlash kabi masalalar yoritilgan.

Darslik “Bank ishi va moliya asoslari” fan dasturi asosida tayyorlangan.

Darslikda bank ishiga taalluqli savollar va javoblar bilan bиргаликда har bir bo‘lim bo‘yicha alohida tayanch iboralar va nazorat savollari keltirilgan.

Darslik oliv va o‘rta maxsus ta’lim tizimida iqtisodchi mutaxassislar, bank xodimlarini tayyorlovchi o‘quv yurtlari va fakultetlarida hamda biznes maktablarida o‘quv mashg‘ulotlar, ilmiy seminarlar va suhbatlar, treninglar yushtirish uchun mo‘ljallangan.

**UO'K: 336.5(07)**  
**KBK 65.262.1**

**Taqrizchilar:** J.Isakov – i.f.d., prof.,  
H.Otamurodov- i.f.n., dotsent.,  
M.Rustamov – i.f.n., (PhD).

**ISBN 978-9943-7423-2-1**

© «Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi», 2021.

# **1-MAVZU: KIRISH (BANK ISHI VA MOLIYA ASOSLARI FANINING ASOSIY VAZIFALARI, PREDMETI VA OBYEKTI)**

## **Reja:**

- 1.1. Banklarning paydo bo‘lish sabablari.
- 1.2. Banklarning mohiyati va uning namoyon bo‘lish shakllari.
- 1.3. Fanning boshqa iqtisodiy fanlar bilan o‘zaro aloqadorligi.  
Tayanch iboralar: qiymat, mahsulot, tovar, ekvivalent, munosabat, xususiyatlar.

### **1.1. Banklarning paydo bo‘lish sabablari**

Pul – mahsulot, tovarlarni ishlab chiqarish va xaridorlarga kerakli vaqt, miqdor va sifatda ma’lum shartlarda ayirboshlashni tashkil etish va boshqarish maqsadida vujudga keldi va xizmat qilmoqda.

Fanning predmeti – pulning paydo bo‘lish sabablari, pul shakllari va turlarining evolyutsiyasi, uning mohiyati va uning namoyon bo‘lish shakllari, funksiyalari, qiymat shakllarining evolyusiyasi. Qiymatning shakllari, boshqa iqtisodiy kategoriyalardan ajralib turuvchi o‘ziga xos xususiyatlari hamda kredit pullari va ularning turlarini chuqurroq o‘rgatadi.

Shuningdek, pul to‘g‘risidagi nazariyalar, uning shakllari, uning yuzaga kelish shart-sharoitlari, nazariyalarni yaratgan olimlarni fikr va g‘oyalari, kamchiliklari haqida o‘rganadi.

Pul aylanmasi va uning tarkibi, naqd va naqdsiz pullar, ularni aylanish tamoyillari, shakllari haqida gap boradi. Shuning bilan birga, pul muomalasini tashkil qilish va pul massasi, pul muomalasi qonunlari, pul agregatlari, muomala uchun zarur bo‘lgan pul miqdorini aniqlash uslublari, pul muomalasi qonunlarining buzilishi hamda uning ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlari yoritilgan.

Pul tizimi tushunchasi, shakllari va elementlari, O‘zbekiston Respublikasi pul tizimining rivojlanish bosqichlarini o‘rganadi. Pul islohotlarini amalga oshirishning zarurligi, ularni amalga oshirish shart-sharoitlari, pul islohotlarini amalga oshirish usullari keng

yoritilgan.

Inflyatsiya va uning turlari, yuzaga kelish sabablari, ijtimoiy va iqtisodiy oqibatlari, inflyatsiya to‘g‘risida nazariyalar hamda pulning barqarorligini ta‘minlash yo‘llari yoritilgan.

Shuning bilan birga, kreditning zarurligi, mohiyati va funksiyalari, tamoyillari, xarakterli belgilari, xususiyatli tomonlari yoritilgan. Kreditning iqtisodiy barqarorlikdagi o‘rni ochib berilgan.

Kredit munosabatlarining rivojlanish bosqichlarining yuzaga kelish sabablari. Kredit munosabatlarining rivojlanish bosqichlari, shakllari va turkumlanishi, kreditning bahosi va unga ta’sir qiluvchi omillar yoritib berilgan.

Shuning bilan birga, banklarning kelib chiqishi va bank tizimi, Markaziy bank va uning funksiyalari, ularning aktiv va passiv operatsiyalari, ularning mustaqilligi keng yoritib berilgan.

Tijorat banklari va ularning bajaradigan funksiyalari, ularni tashkil etish va iqtisodiyotni rivojidagi o‘rni yoritilgan. Shuning bilan birga nobank kredit tashkilotlari, zarurligi va ularning turlari, vazifalar ularni tartibga solish masalalari hamda kredit tizimi, elementlari va uning barqarorligiga ta’sir qiluvchi omillar ochib berilgan.

Uzoq qadimdan ishlab chiqarishning va tovar munosabatlarini rivojlanishi natijasida pul yuzaga chiqqa boshlagan. Bizning fikrimizcha, pulning yuzaga chiqishiga bevosita quyidagi omillar ta’sir ko‘rsatgan:

1. Jamiatda mehnat taqsimotini hamda mahsulotlar almashuvini yuzaga chiqishi;
2. Natural xo‘jalikdan asta-sekin tovarlarni ishlab chiqarish va ularni ayirboshlashga o‘ta boshlashi;
3. Tovar mahsulotlarini ishlab chiqaruvchi va mol-mulk jihatidan mustaqil mulkdorlarning shakllanib borishi;
4. Ayirboshlash jarayonida ekvivalentligi (moslik) yuzaga chiqishi va unga rioya etila borishligi.

Insoniyat rivojlanishining ilk davrlarida insonlar jamoa bo‘lib yashaganlar va ular o‘zlarining natural xo‘jaligini yuritganlar.

Natural xo‘jalik sharoitida pul bo‘lman, chunki unga hech qanday talab va ehtiyoj bo‘lman. Natural xo‘jalikda mahsulot ishlab chiqarilgan, tovar emas. Chunki ushbu xo‘jalikda mahsulotlar o‘z ehtiyojlarini qondirishga sarflangan. Faqatgina ehtiyojdan ortib qolgan mahsulot tasodifiy tarzda boshqa natural xo‘jalikdagi ortiqcha mahsulotga ayriboshlangan, xolos.

Dehqonchilik, chorvachilik va hunarmandchilikning ajrab chiqishi tufayli ularda endi mahsulot bilan bir vaqtida tovar ishlab chiqarish paydo bo‘ldi. Ushbu ishlab chiqaruvchilar o‘rtasida o‘zlaridagi yetishtirilgan ortiqcha mahsulotlarni o‘zlarining ehtiyojini qondirish maqsadida boshqa mahsulotlarga doimiy ravishda ayriboshlashga kuchli ehtiyoj yuzaga chiqdi. Ishlab chiqaruvchilar tomonidan o‘z ehtiyojini qondirish uchun emas, balki uni ayriboshlash maqsadida yetishtirgan mahsuloti tovarga aylandi.

Umumiyliekvivalentga o‘tishning zaruriyati shundan iboratki, jamiyatda ishlab chiqarish taraqqiyotining ma’lum bosqichida bozorda tovarlar ayriboshlashi muntazam hodisaga, iqtisodiy hayotning muhim omiliga aylangan. Jamiyat a’zolari tovarlar ayriboshlashsiz yashay olmay qolgan va har bir ishlab chiqaruvchi mehnati mahsuliga umumiyliekvivalent rolini bajaruvchi tovargina barcha mahsulotlar uchun o‘lchov vositasiga aylangan. Bundan ma’lum bir tovar egasi, o‘zining shaxsiy iste’moli uchun zarur bo‘lgan boshqa bir tovarni olish maqsadida u dastlab o‘zi yetishtirgan tovarni bozorda umumiyliekvivalent rolini bajaruvchi tovarga ayriboshlagan.

Ishlab chiqarishning kengayib borishi, tovar munosabatlarini rivojlanishi natijasida bozor pul rolini o‘ynovchi metallarga quyidagi talablarni qo‘yadi:

- metallning tabiatda kamyobligi;
- metallning bir tarkibliligi;
- kerakli miqdorda olishning qiyinligi;
- qiymatni yo‘qotmasdan, yoki juda kam miqdorda yo‘qotish asosida bo‘linishi (maydalanishi);
- ixchamligi va yengilligi;
- uzoq muddat davomida zanglamasdan saqlanishi.

Biz yuqorida ta'kidlab o'tgan talablarga aynan kumush hamda undan ko'p miqdorda oltin to'la javob bergan. Ushbu talablarga javob bergan kumush ham uni ko'p miqdorda hamda kam xarajat bilan qazib olinishi va qayta ishlanishi sababli u oltinga bas kela olmagan.

Shunday qilib pulning rivojlanish bosqichida butun dunyo bo'yicha umumiyligi ekvivalent rolini o'ynovchi pul sifatida oltin tan olingan va bozorda u yakka hukmronga aylangan. Shu asosda butun dunyo bo'yicha xalqaro hisob-kitoblarda yagona to'lov vositasi bo'lib oltin hisoblangan.

## **1.2. Pulning mohiyati va uning namoyon bo'lish shakllari**

Har bir iqtisodiy kategoriyada amal qiluvchi hamda mamlakat rivojlanishining asosiy dastaklaridan biri pul bo'lib, bozor iqtisodiyotiga o'tish va unda ish yuritishda pulning mavqeyi va ahamiyati yanada oshib boradi. Darhaqiqat, pul – «bozor tili» deb bekorga aytishmagan. Har bir iqtisodiy axborot, tovarlar va xizmatlar bahosi, to'lovlar, daromadlar va xarajatlar, moliyaviy talablar va majburiyatlar, iqtisodiy aloqalar makro va mikro darajalarda faqat pulda ifoda qilinadi.

Bozor iqtisodiyotiga o'tish sharoitida pulning ahamiyatining oshishi shundaki, jamiyatimizda mavjud yuridik va jismoniy shaxslar faoliyati hamda ularning natijasi daromadi pul bilan bog'liq. Shuning uchun ham, pul barcha iqtisodiy rivojlanish pog'onalarida odamlarni o'ziga jalb qilib kelgan.

Avstraliyalik iqtisodchi olim K. Mengerning fikricha, Arastu va Aflatundan boshlab XX asrning boshigacha pul to'g'risida jahonda besh-olti mingdan ortiq maxsus ishlar chop qilingan. Agar biz, hozirgi kunda pul to'g'risida yozilgan va chop qilingan adabiyotlar soni bir necha marta oshib ketgan, desak mubolag'a bo'lmasa kerak. Tadqiqotlar shunchalik ko'p bo'lishiga qaramasdan, pul va uning xususiyatlari, har bir tizimda ishlatilishi, roli, iqtisodiyotga ta'siri, nega alohida olingan individumlar qo'lida pulning ko'payishi, ular boyligining ko'payishiga olib

keladi-yu, jamiyat miqyosida muomaladagi pul massasining ko‘payishi jamiyat boyligi ortib borishiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi, degan savollarga hali to‘liq javob berilgan emas.

Pul va uning vazifalari to‘g‘risida mavjud xorijiy mamlakatlar iqtisodchilarining qo‘llanmalarini olib qaraydigan bo‘lsak, pulning kelib chiqishi to‘g‘risida ikki xil g‘oya mavjudligini ko‘rishimiz mumkin. Bular ratsionalistik va evolyutsion g‘oyalardir.

Ratsionalistik qarashning asoschilaridan biri Arastu bo‘lib, u pulning kelib chiqishining asosini o‘zaro bir-biriga teng qiymatni harakatga keltiruvchi biror bir maxsus «qurol», kishilar orasida o‘zaro kelishuv natijasida qabul qilingan shartli birlik ekanini aytadi. O‘zaro tovarlarni almashtirishda pul qatnashmaganda, tovarni sotish jarayoni, tovarni sotib olish jarayoni sifatida yuzaga kelgan. Tovarlar o‘rtasidagi proporsiya tasodifan, masalan, sotilishi kerak bo‘lgan mahsulotga talab qay darajada va uning miqdori kam-ko‘pligiga bog‘liq holda o‘rnatilgan. Keyinchalik, shu tovarlar ichidan umumiylashtirishda ekvivalent sifatida ba’zi tovarlar ajralib chiqdi. Jamiyatning rivojlanishi muomalaga metallarning kirib kelishiga olib keladi.

Rivojlanishning birinchi bosqichlarida mis, bronza, temir ishlatilib, almashinuv T-P-T shaklida olib borilgan. XVIII asrlarning oxirigacha pul tomonlar o‘rtasidagi shartnomalar vositasi deb qarab kelingan. Hozirgi vaqtida ham ba’zi chet el olimlari, masalan, Pol Samuelson pulni sun’iy sotsial shartlashish belgisi deb izohlagan. Boshqa amerikalik olim Jon Gelbreyt qimmatbaho metallarning pul vazifasini bajarishi bu kishilar o‘rtasidagi kelishuvning mahsuli ekanligini uqtiradi.

Uzoq yillar davomida sobiq SSSRda pul va pul muomalasi sohasidagi tadqiqotlar K. Marksning ta’limoti asosida olib borilgan. U pulning kelib chiqishini tadqiq qilishda A. Smit, D. Rikardolarning tadqiqotlariga asoslangan holda, pulning mohiyatini ochib berishga harakat qilgan. Shuningdek, u pulning o‘zi ham tovar ekanligini, pulning kelib chiqishi bosqichlarini izohlab bera oldi. U oltin va kumush qazib olish va ishlatish uchun ma’lum mehnat sarflanadi, shu mehnat oltin va kumushda

gavdalangan holda, boshqa tovarlarning qiymatini o‘lchashning asosi bo‘lib xizmat qiladi, deb ko‘rsatgan. Hozirgi vaqtda yuqoridagiga o‘xshagan real pullar o‘rniga o‘z qiymatiga ega bo‘lmagan qog‘oz va kredit pullar muomalada ishlatilmoqda. Shuning uchun qog‘oz va kredit pullar pul kelib chiqishi to‘g‘risidagi ratsionalistik konsepsiyaning to‘g‘ridan-to‘g‘ri isboti bo‘la olmaydi. Qog‘oz pullar yuzaga kelguncha, jamiyat bir necha rivojlanish bosqichlarini bosib o‘tgan.

Pulning kelib chiqish tarixi ko‘proq pulning evolyutsion nazariyasi bilan bog‘liq. Tovar muomalasining evolyutsion rivojlanish jarayonida umumiyligini shaklini har xil tovarlar o‘ynagan. Har bir jamoa o‘z tovarini ekvivalent sifatida o‘rtaga qo‘ygan. Lekin jamiyat taraqqiyoti shu tovarlar ichidan ikki guruh tovarlarning ajralib chiqishiga olib keldi. Bular – birinchi ehtiyoj uchun zarur bo‘lgan tovarlar va zeb-u ziynat tovarlaridir.

Ishlab chiqarishning rivojlanishi natijasida dehqonchilik va chorvachilikdagi mehnat taqsimoti, tovar turlarining ko‘payishi almashinuv jarayonining yanada rivojlanishini taqozo qildi. Almashinuv jarayonida tovar egalari o‘zaro muloqotda bo‘lib, tovarning egasi o‘z mahsulotini (mulkini) baholagan. Shu baholash jarayoni biror o‘lchov birligi bo‘lishini taqozo qilgan. O‘tgan asrdagi iqtisodchilar pul – bu tovarlarning tovari, deb ifodalashgan va uning quyidagi xususiyatlarini izohlab berishgan: Birinchidan, pulning iste’mol qiymatida boshqa tovarlarning qiymati o‘z ifodasini topadi. Ikkinchidan, pulda ifodalanadigan aniq mehnat asosini abstrakt mehnat tashkil qiladi. Uchinchidan, pulda ifodalanuvchi xususiy mehnat ijtimoiy mehnat sifatida namoyon bo‘ladi.

Shunga asoslangan holda, pul ham tovar, lekin boshqa tovarlardan farq qiluvchi xususiyatlarga ega bo‘lgan maxsus tovar degan xulosaga kelish mumkin. Uning maxsus tovar sifatida xususiyati shundaki, u barcha tovarlarning qiymatini o‘zida ifoda qiluvchi, umumiyligini ekvivalent hisoblanadi.

Pul qanday shaklda bo‘lishidan qat’i nazar pul bo‘lib qolaveradi. Yuqoridagilarga asoslangan holda, pulning mohiyatini

quyidagicha ta’riflashimiz mumkin. Pul – bu maxsus tovar, umumiy ekvivalent bo‘lib, abstrakt mehnat xarajatlarini o‘zida aks ettiradi va tovar xo‘jaligidagi ijtimoiy ishlab chiqarish munosabatlarini ifodalaydi.

Pul to‘g‘risidagi evolyutsion nazariya uning o‘lchov birligi va muomala vositasi ekanligini ochib beradi.

Chet el iqtisodchilari pulning iqtisodiy kategoriya sifatida mohiyati va zarururiyatiga kam e’tibor qaratganlar. 1857-yilda taniqli ingliz iqtisodchisi U.Djevons, iqtisodiy fanlar uchun pul masalasi bu geometriyadagi aylana kvadraturasiga teng demakdir, degan ekan. Shuning uchun chet el iqtisodchilari bu bobni chetlab o‘tishgan. XX asrning 50-yillaridagi darsliklarning mualliflari pulning mohiyatidan ko‘ra uning iqtisodiyotga, ishlab chiqarish va bandlik, moddiy resurslar va ulardan foydalanishga ta’sirini o‘rganish muhimroqdir, deb ta’kidlashgan va ko‘p chet el olimlari shu yo‘nalishda ish olib borishgan. Hozirgi vaqtda pul to‘g‘risida bizda mavjud chet el adabiyotlarida ko‘rilgan masalalar fikrimizning isboti bo‘lishi mumkin. Haqiqatan ham, bozor iqtisodiyotga o‘tish sharoitida pulning zarurligi, mohiyatini tadqiq qilishdan ko‘ra, pulning iqtisodiyotga, ishlab chiqarishga, bandlikka ta’sirini tadqiq qilish jamiyatimiz uchun ahamiyatliroq deb o‘ylaymiz.

**Pulning turlari.** Pul o‘zining evolyutsiyasi jarayonida metall (oltin, kumush, mis), qog‘oz, kredit pullar shaklida ishlatilib kelgan. Qiymatni o‘zida ifodalashiga ko‘ra pullar ikki turga bo‘linadi:

- haqiqiy pullar;
- haqiqiy pul izdoshlari – qiymat belgilari.

Haqiqiy pullar nominal qiymatini o‘zida ifodalovchi, real qiymatga ega bo‘lgan metall pullar bo‘lib, ular har xil shakllarda chiqarilgan va keyinchalik amaliyotda qulay bo‘lgan aylana (shu shaklda metall yemirilishi kam bo‘ladi) shaklda chiqarilgan. Tarixiy ma’lumotlarga ko‘ra, birinchi tangalar bundan 26 asr oldin Lidiya va Xitoyda, XII asrlarda hozirgi Markaziy Osiyo davlatlarida, IX-X asrlarda Kiev Rusda zarb qilingan. XVIII asrning oxiri va XIX asrning boshlarida tangalar, asosan, oltindan

zarb qilingan, keyinchalik, oltin va boshqa qimmatbaho metallarni qazib chiqarish qiyinlashuvi, ishlab chiqarishning rivojlanishi va to‘lov, muomala vositasiga bo‘lgan ehtiyojning oshishi natijasida muomalaga qiymat belgilarini kiritish zarur bo‘lib qoldi. Oltin va kumush muomaladan yo‘qola bordi.

**Qog‘oz pullar.** Pulning bu turi haqiqiy pullarning vakili bo‘lib, pulning muomala funksiyasi rivojlanishi natijasida yuzaga kelgan.

Qog‘oz pullar yuzaga kelishining quyidagi bosqichlarini keltirish mumkin.

1-bosqich – tangalarning uzoq vaqt muomalada bo‘lishi, qo‘ldan-qo‘lga o‘tishi natijasida yemirilishi;

2-bosqich – tangadagi metall tarkibining buzilishi. Davlat tomonidan ongli ravishda davlat xazinasiga tushumni oshirish maqsadida tangalar metall (oltin, kumush) miqdorining kamaytirilishi;

Bu bosqichda tanga tarkibining buzilishiga oltin, kumush va boshqa qimmatbaho metallarni qazib chiqarish qiyinligi, ular zaxiralarining kamligi ham sabab bo‘lgan.

3-bosqich – davlat tomonidan emission daromad olish maqsadida xazina biletlarining chiqarilishi.

Birinchi qog‘oz pullar XII asrda Xitoyda chiqarilgan, deb ko‘rsatiladi. Lekin tarixiy ma’lumotlarga qaraganda, 700-yillarda kumush tangalar chiqarilgunga qadar, Buxoro davlatida qog‘oz materiallardan pul sifatida foydalanilgan ekan.

Qog‘oz pullar Amerika va Yevropada XVII-XVIII asrlarda, Rossiyada 1769-yilda chiqarilgan.

Qog‘oz pullar deb, hukumat tomonidan byudjet taqchilligini qoplash uchun chiqarilgan, metall pullarga almashtirilmaydigan, lekin davlat tomonidan ma’lum kurs o‘rnatilgan pul belgilariga aytildi.

To‘la oltin va kumushdan bo‘lmagan tangalar muomalada pul sifatida ishlatilsa-da, ularning nominal miqdori real miqdoridan farq qilgan. Shunday bo‘lsa ham, bu tangalar ma’lum miqdordagi metallni ifodalagan. Qog‘oz pullar bo‘lsa, muomalaga chiqarilgan

vaqtida va keyin ham uzoq yillar davomida ma'lum bir miqdordagi oltinni o'zida ifoda qilgan. Ammo biror davlatning pulida metallning zarrasi ham bo'limgan, ya'ni ular qiymatni belgilab bergen, xolos.

Qog'oz pullarning emitenti davlat xazinasi yoki emission bank hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasida muomalaga pul belgilarini O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki chiqaradi. Qog'oz pullarning tabiatи ularning infliyatsiyaga moyilligini ko'rsatadi. Qog'oz pullarni muomalaga chiqarishda pul muomalasi qonuni talablarini e'tiborga olish kerak. Lekin amaliyatda har doim ham shu talablar e'tiborga olinavermaydi. Pul muomalaga tovar aylanmasi ehtiyojini qoplash uchungina chiqarilishi kerak. Haqiqatda, pul yuqoridaidan tashqari, byudjet taqchilligini, davlatning boshqa xarajatlarini qoplash uchun ham chiqariladi, ya'ni emissiya miqdori tovar aylanmasi bilan cheklanmasdan davlatning moliyaviy resurslarga bo'lgan talablariga ham bog'liq bo'ladi. Bu, albatta, muomaladagi pul massasining o'zgarib turishiga, aksariyat hollarda uning muomalaga keragidan ortiqcha chiqib ketishiga olib keladi. Natijada pulning barqarorligiga putur yetadi, uning qadri tushadi, xalqning davlatga bo'lgan ishonchi pasayadi, to'lov balansining barqarorligi yo'qoladi, (passiv qoldiq hajmi ortadi) milliy valyuta kursi tushadi va h.k.

Iqtisodiy adabiyotlarda pulning funksiyalari xususida 2 ilmiy maktab olimlarining qarashlari mavjud:

1. Yevropa maktabi.
2. Amerika maktabi.

Yevropa maktabi pulning 5 funksiyasi xususida xulosaga kelgan:

1. Qiymat o'lchovi funksiyasi. Barcha tovarlar va xizmatlar qiymati umumiy ekvivalent bo'lgan pulda o'lchanadi. Hozirgi davrda oltinning almashilmaydigan qog'oz va kredit pullari bu funksiyani bajarmoqda.

Qog'oz pul Moliya vazirligi tomonidan muomalaga chiqariladi. Masalan: AQSHda 1 dollardan 10 dollargacha bo'lgan

kupyurlar AQSH G‘aznachiligi tomonidan muomalaga chiqariladi. AQSHda Moliya vazirligi yo‘q. Bu vazifani AQSH G‘aznachiligi bajaradi.

Angliyada tangalar Moliya vazirligi tomonidan ishlab chiqariladi. Kredit pullar bu banknotalar bo‘lib, Markaziy banklar tomonidan muomalaga chiqariladi.

O‘zbekistonda muomaladagi barcha pul birliklari banknotalar hisoblanadi va ular O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki aktivlari bilan ta’milnadi.

2. Muomala vositasi funksiyasi. Bunda tovar-pul yoki pul-tovar operatsiyasi bir vaqtning o‘zida yuz beradi, ya’ni tovarlar nasiyaga sotilmaydi.

3. To‘lov vositasi funksiyasi. Bunda tovarlar to‘lov muddati kechiktirilib sotiladi. Shuningdek, kredit va moliya munosabatlaridagi to‘lovlar ham pulning to‘lov vositasi funksiyasiga kiradi. Masalan: kredit olgan mijoz bankka kreditning asosiy qarz summasi va foizlarini qaytaradi. Bundan tashqari, korxonalar soliq to‘lovlarini amalga oshiradi, turli xildagi jarimalar to‘lovlarini to‘laydilar.

4. Jamg‘arish vositasi funksiyasi. Bunda naqd va naqd bo‘lmagan pullar jamg‘ariladi. Aholi, korxonalar o‘zlarining bo‘she pul mablag‘larini banklarga muddatli yoki jamg‘arma depozit hisob raqamalarida saqlaydilar. Aholining qo‘lida turgan har qanday pul to ishlatilgunga qadar jamg‘arish vositasi funksiyasini bajaradi. Korxonalarning joriy hisob raqamlaridagi pul mablag‘lari ham to ishlatilgunga qadar jamg‘arish vositasi funksiyasini bajaradi.

5. Jahon puli funksiyasi. Jahon puli funksiyasi jahon bozorlarida kotirovka qilinadigan ya’ni oldi-sotdi qilinadigan valyutalar bajaradi. Masalan: o‘zbek so‘mi bu vazifani bajarmaydi. Xalqaro hisob-kitob banki ma’lumotlariga ko‘ra, xalqaro valyuta bozorlarida konversion operatsiyalarning 90% ortiq qismi 5ta valyutada amalga oshirilmoqda ([www.bis.org](http://www.bis.org)). Bu valyutalar xalqaro rezerv valyutasi maqomiga ega. Bu maqomni Xalqaro Valyuta Fondi beradi.

Xulosa qilib aytganda, pulning barcha funksiyalari bir-biri bilan uzviy bog‘liq va ular bir-birini to‘ldiradi. Pulning funksiyalarining aynan shunday uzviy bog‘liqligi va bir-birini to‘ldirishi pul muomalasining barqarorligi va samarasini ta’minlashga sharoit yaratadi.

### **1.3. Fanning boshqa iqtisodiy fanlar bilan o‘zaro aloqadorligi**

“Bank ishi va moliya asoslari” fani fundamental, nazariy fanlardan biri bo‘lib, boshqa iqtisodiy va mutaxassislik fanlarini chuqur o‘rganishda asos bo‘lib xizmat qiladi.

Shuningdek, mazkur fan “Bank ishi” ta’lim yo‘nalishi uchun 2 – semestrda o‘qitiladi. Fanni o‘qitishdan maqsad talabalarni pul-kredit sohasi qonuniyatlari, uni ijtimoiy takror ishlab chiqarishdagi tutgan o‘rni, nazariy asoslarini, jamiyat hayotidagi ahamiyatini, ularni muomalasini tashkil qilish va muvofiqlashtirish va boshqalar bilan tanishtirishdan iborat. Shuning bilan birga, bank, bank tizimi, kredit tizimi va uning jamiyat taraqqiyotidaga o‘rni, mamlakat pul muomalasini tashkil qilish, maqsadi va vazifalarini o‘rgatishdan iborat.

Mazkur fan pulning xarid quvvati, uning mamlakat iqtisodiyotini barqarorligiga ta’siri, inflyatsiya hamda mavjud makroiqtisodiy omillarni chuqurroq o‘rganishga qaratilgan.

Shuning uchun “Bank ishi va moliya asoslari” fani “Bank ishi”, “Soliqlar va soliqqa tortish”, “Moliyaviy menejment”, “Tijorat banklarining qimmatli qog‘ozlar bilan operatsiyalari” fani bilan chambarchas bog‘liq.

Bugungi kunda kredit pullarga talab keskin oshib bormoqda. Kredit pullar – deb kredit munosabatlар asosida yuzaga keluvchi, to‘lov vositasini bajaruvchi qiymat belgilariiga aytildi.

Kredit pullar o‘zining mustaqil qiymatiga ega emas, chunki ularni yaratish uchun abstrakt zaruriy mehnat sarflanmaydi. Kredit pullar qog‘oz pullardan farq qilib, ular bir vaqtning o‘zida qiymatni ifodalaydi va u kredit hujjat bo‘lib, kreditor va qarz

oluvchi o‘rtasidagi iqtisodiy munosabatni aks ettiradi. Kredit pullarning asosiy turlaridan biri vekseldir.

Veksel – bu qarzdorning (oddiy veksel) yoki kreditorning (o‘tkazma veksel - tratta) ko‘rsatilgan summani, ko‘rsatilgan vaqtda va joyda to‘lash to‘g‘risidagi yozma majburiyati hisoblanadi.

Tijorat veksellarning oddiy va o‘tkazma turlari mavjud. Undan tashqari, ma’lum summani qarzga berish bilan bog‘liq bo‘lgan moliyaviy veksellar mavjud. Moliyaviy vekselning bir turi xazina veksellari bo‘lib, ularda davlat qarzdor sifatida ishtirok qiladi.

Yana veksellarning o‘rtoqlik, bronza veksel turlari mavjud.

Banknota – kredit pullarning yetakchi vakillaridan bo‘lib, Markaziy bank tomonidan, veksellarni hisobga olish yo‘li bilan chiqariladi.

O‘tmishda banknota muddatsiz majburiyat bo‘lib, xohlagan vaqtda uni bankka topshirib, o‘rniga unda ko‘rsatilgan summaga oltin yoki kumush olish mumkin bo‘lgan.

Veksel banknotadan quyidagi xususiyatlari bilan farq qiladi:

- veksel ma’lum muddatni o‘zida ifodalaydi (3-6 oy muddatga ega bo‘lgan veksel), banknota ma’lum muddat bilan chegaralanmaydi.

- veksel bo‘yicha vekselni bergen tomon uni to‘lashni kafolatlasa, banknotada uni to‘lashni davlat (davlat banki) kafolatlaydi.

Banknota qog‘oz pullardan quyidagilar bilan farq qiladi:

- kelib chiqishi bo‘yicha qog‘oz pullar asosan muomala vositasi funksiyasini bajarish asosida, banknotalar to‘lov vositasi funksiyasi asosida kelib chiqqan:

- almashinushi bo‘yicha, banknotalar oldin oltin va kumushga almashtirilgan, qog‘oz pullar esa metallarga hech qachon almashtirilmagan;

- emissiya qilinishi bo‘yicha qog‘oz pullarning banknotalardan farqi bo‘lgan (xazina biletlarini Moliya vazirligi, banknotalarni Markaziy bank chiqargan) va h. k.

Hozirgi zamon banknotalari oltinga almashilmaydi. Lekin ular quyidagi yo‘llar bilan pul muomalasiga kelib tushadi:

- xo‘jaliklarni bank tomonidan kreditlash orqali berilgan kreditlarning bir qismi muomalaga kirib keladi;
- davlatni kreditlash. Ya’ni banknotalar davlatning qarz majburiyati sifatida muomalaga chiqadi;
- aktiv to‘lov balansiga ega bo‘lgan davlatlarda rasmiy valyuta zaxiralarining o‘sishi orqali va boshqalar.

Chek veksel va banknotadan keyin paydo bo‘lgan kredit vositasi hisoblanib, to‘lovchining o‘z bankiga uning schyotidan mablag‘ni oluvchining schyotiga o‘tkazib qo‘yish to‘g‘risidagi buyrug‘idir.

Birinchi cheklar, taxminan, 1683-yillarda Angliyada qo‘llanila boshlagan.

Chekning quyidagi turlari mavjud:

1. Ismi yozilgan chek – bu chek bir kishi nomiga yoziladi va uni boshqaga berish mumkin emas.
2. Orderli chek – bir kishi nomiga yozilgan va uni indossament bo‘yicha boshqa shaxsga berish mumkin.
3. Ko‘rsatilganda to‘lanishi lozim bo‘lgan chek.
4. Hisob cheki – naqd pulsiz hisob-kitoblarda qo‘llaniladigan chek.
5. Akseptlangan chek – bank chekni to‘lash bo‘yicha rozilik beradi va boshqalar.

Chek yordamida bankdan naqd pul olish mumkin. U bilan to‘lovlarni va boshqa hisob-kitoblarni amalga oshirish mumkin.

Hozirgi vaqtida kredit pullarning zamonaviy turlari sifatida elektron pullar va kredit kartochkalardan foydalanilmoqda.

Hozirgi zamon amaliyotida qo‘llanilayotgan kredit kartochkalar naqd pullar o‘rniga hisob-kitoblarni olib borish uchun chiqarilgan bo‘lib, ular juda qulay va bir qator afzalliklarga ega. Kredit kartochka bilan barcha turdagи chakana savdo va xizmatlarga haq to‘lash mumkin. Hozirgi vaqtida kredit kartochkalar bank, savdo xizmatlarini to‘lashga mo‘ljallangan.

### **Nazorat uchun savollar**

1. Fanning predmeti va vazifalarini ayting? Pulning paydo

bo‘lish sabablarini yoritib bering?

2. Pul shakllari va turlarining evolyutsiyasi hamda pulning mohiyati va uning namoyon bo‘lish shakllarini tushuntirib bering?

3. Pulning funksiyalarini yoritib bering? Fanning predmeti va vazifalarini aytib bering?

4. Fanning boshqa iqtisodiy fanlar bilan o‘zaro aloqadorligini yoriting? Qiymat shakllarining evolyutsiyalarini hamda uning oddiy yoki tasodifiy shaklini yoritib bering?

5. Pulning boshqa iqtisodiy kategoriyalardan ajralib turuvchi o‘ziga xos xususiyatlarini ochib bering?.

6. Kredit pullari va ularning turlarini keltiring va ularga tavsif bering?

## **2-MAVZU: PUL VA BANK ISHINI TARIXIY VA NAZARIY JIHATI**

### **Reja:**

2.1. Pul aylanmasi va uni tashkil qilish prinsiplari. Naqd pullarni muomalaga chiqarish va muomaladan olish tartibi.

2.2. Naqdsiz pul aylanmasi va uni tashkil qilish prinsiplari. Naqd pulsiz hisob-kitoblar tizimi va uning elementlari.

2.3. O‘zbekiston Respublikasi pul tizimining rivojlanishi.

Tayanch iboralar: pul aylanmasi, to‘lov, naqd pul, naqdsiz pul, tizim, elementlar, tamoyillari.

### **2.1. Pul aylanmasi va uni tashkil qilish prinsiplari. Naqd pullarni muomalaga chiqarish va muomaladan olish tartibi**

Pul aylanmasi – bu pullarning naqd va naqdsiz shakldagi uzluksiz harakatlarning yig‘indisidir. I.Shakerning ta’rif berishicha, pul aylanmasi bu pullarning naqd va naqd bo‘lmagan shakllardagi doiraviy aylanish jarayoni bo‘lib, bunda pullar muomala vositasi va to‘lov funksiyasini bajaradi. Pulning bir qo‘ldan ikkinchi qo‘lga o‘tishini Shaker doiraviy aylanish deb atadi. Pullarning bir subyektdan ikkinchi subyektga o‘tishi. Pulning doiraviy aylanishi takrorlanishi pulning aylanishi deyiladi. Pul aylanmasidan tashqari to‘lov aylanmasi degan tushuncha mavjud. To‘lov aylanmasi pul aylanmasiga qaraganda keng tushuncha. To‘lov aylanmasi – bu pul shaklidagi mablag‘larning va pul bozori instrumentlarning vositasida amalga oshirilgan to‘lovlarning yig‘indisidir.

Pul bozori instrumentlariga quyidagilar kiradi :

- Obligatsiyalar – o‘z egasiga qat’iy belgilangan foiz ko‘rinishida daromad keltiruvchi qimmatli qog‘oz.

- Davlatning xazina majburiyatları.

- Depozit sertifikatlar – bu tijorat banklari tomonidan korxonalar ixtiyoridagi vaqtinchalik bo‘sh pul mablag‘larni jalgilish maqsadida chiqariladigan qimmatli qog‘oz.

- Jamg‘arma sertifikatlari – bu jismoniy shaxslar ixtiyoridagi vaqtinchalik bo‘sh pul mablag‘larni banklarga jalb qilish maqsadida chiqariladigan qimmatli qog‘oz.

- Tijorat veksellari – tijorat veksellari tovarlar kreditga sotilganda yoziladi. Vekselni mol yetkazib beruvchi to‘ldiradi. Sotib oluvchi esa vekselga mas’ul shaxsning imzosi va muhr qo‘yadi. Ana shundan keyin veksel sotib oluvchining mol yetkazib beruvchi oldidagi qarz majburiyatini tasdiqlovchi hujjatga aylanadi. Tijorat vekseli pulning to‘lov vositasi funksiyasini bajaradi. Vekselni indassament orqali boshqa shaxslarga uzatish mumkin. Indassament – vekselni boshqa shaxsga uzatish huquqini beruvchi maxsus yozuv. Vekselni boshqa shaxsga uzatgan shaxs indossant deyiladi. Vekselni qabul qilib olgan shaxs indossat deyiladi.

- Cheklar – unda ko‘rsatilgan summani to‘lash to‘g‘risidagi topshiriqdir. Amaliyotda pullik cheklar va hisob-kitob cheklari qo‘llaniladi. Fredirk Mishkenning fikriga ko‘ra, cheklarning jiddiy kamchiligi ularni chiqarish bilan bog‘liq xarajatlarning katta ekanligidir. AQSH da har yili chekni muomalaga chiqarish uchun 40 mlrd.\$ xarajat qilinadi.

- Bank akseptlari – aksept so‘zi lotincha so‘z bo‘lib, qabul qilmoq degan ma’noni anglatadi. Bank aksepti deganda bank tomonidan tijorat vekseli va chek bo‘yicha to‘loving kafolatlanishi tushuniladi.

To‘lov aylanmasining mutlaq asosiy 75-80% ini pul aylanmasi tashkil qiladi. Chunki pul eng yuqori likvidli aktiv hisoblanadi.

Pul aylanmasi 2 yirik qismdan iborat:

- 1.Naqdsiz pul aylanmasi
- 2.Naqd pul aylanmasi

**Naqdsiz pul aylanmasi** – bu pul mablag‘larining to‘lovchining bankidagi hisob raqamidan oluvchining hisob raqamiga ko‘chirish shaklidagi harakatlarining yig‘indisidir.

Sobiq Ittifoq o‘rnida tashkil topgan davlatlar o‘zaro talab va majburiyatlarini voz kechish deb nomlanuvchi naqdsiz pul aylanmasi mavjud.

*Naqd pul aylanmasi* bu pullarning naqd ko‘rinishidagi harakatlarining yig‘indisidir.

Naqd pul aylanmasi – bu naqd pullarning doiraviy aylanishi-ning doimiy ravishda takrorlanishidir.

Naqd pul aylanmasi – bu pul mablag‘larining naqd ko‘rinishidagi aylanmasidir. Taraqqiy etgan mamlakatlarda naqdsiz pul aylanmalarini yuksak darajada rivojlanganligi, naqd pullarga bo‘lgan talabni keskin pasayishiga olib keldi. AQSH va Yaponiyada plastik kartochkalarga asoslangan to‘lovlar rivojlangan. Yevropada plastik kartochkalar va pullik cheklarga asoslangan to‘lovlar rivojlangan.

Naqd pullar aylanishining amal qilishiga doir quyidagicha asosiy tamoyillar ajratib ko‘rsatiladi:

- 1) moliya muassasalari-emitentlarning mavjudligi;
- 2) bozor qatnashchilarining mablag‘larni sarflash yuzasidan iqtisodiy erkinligi;
- 3) ta’sis etilgan milliy pul birligining amal qilishi;
- 4) nazorat qiluvchi organlar oldida tushumlar va xarajatlar hajmlari uchun hisobotchilikni amalga oshirish mumkinligi;
- 5) pul mablag‘lariga egalik qilishning legitimligi.

To‘lovlar ma’lum ketma-ketlikda amalga oshiriladi. Xalqaro amaliyotda pullik to‘lovlarни amalga oshirishning 2 xil ketma-ketligi mavjud:

1. Kalendar ketma-ketlik.
2. Maqsadli ketma-ketlik.

Kalendar ketma-ketlikda qaysi qarzdorlik oldin paydo bo‘lgan bo‘lsa, o‘sha to‘lanadi. Bu ketma-ketlik taraqqiy etgan mamlakatlarda qo‘llaniladi.

Maqsadli ketma-ketlikda to‘lovlar oldindan belgilangan maqsadlarga qarab to‘lanadi. Bu ketma-ketlik rivojlanayotgan davlatlarda, shu jumladan, O‘zbekiston Respublikasida qo‘llaniladi.

Har qanday pullik to‘lovlar pul aylanmasida ishtirok etuvchi subyektlarining joriy hisob raqamlaridagi pul mablag‘lari hisobiga to‘lanadi. Joriy hisob raqamlar AQSH bank amaliyotida

transaksion depozit hisob raqamlari, Germaniyada ijro hisob raqamlari, Rossiyada “depoziti do vostrebovanie” deyiladi. Fransiyada joriy hisob raqami deyiladi, O‘zbekistonda talab qilib olinadigan depozit hisob raqamlari deyiladi.

Naqd pul aylanmasi muomalaga 2 yo‘l orqali chiqadi:

1) Markaziy Bankning zaxira vakillik tizimi orqali (Tijorat banklarining buyurtmalari asosida). Tijorat banklarida naqd pulga bo‘lgan qo‘sishimcha talab yuzaga kelganda ular bu talabni qondirish uchun markaziy bankga naqd pul olish uchun buyurtma beradilar. Markaziy Bank buyurtma qilingan naqd pulni emissiya qiladi va uni inkassatsiya xizmati orqali tijorat banklariga yetkazadi. Emissiya qilingan summaga Markaziy Bank balansining passiv qismidagi “Majburiyatlar moddasi” ko‘payadi. Tijorat bankining Markaziy Bankning balansida ochilgan “Vostro” vakillik hisob raqamining qoldig‘i ana shu summaga kamayadi.

2) Davlat byudjeti xarajatlarini moliyalashtirish asosida. Markaziy Banklarning tuman va shahar filiallari bo‘lmaydi, shu sababli ular davlat byudjetining kassa ijrosini amalga oshirish maqsadida tijorat banklarining xizmatlaridan foydalanishga majbur bo‘ladilar. Moliya vazirligi byudjet tashkilotlari xarajatlarini naqd pulsiz shaklda moliyalashtrib beradi. Moliyalashtrilgan summaning naqd pul ta’minoti Markaziy bank tomonidan amalga oshiriladi. Markaziy Bank inkassatsiya xizmati orqali naqd pulni tijorat banklariga yetkazib beradi. Yetkazib berilgan naqd pulning naqd pulsiz ekvivalenti tijorat bankining hisob raqamidan yechib oladi.

Markaziy banklar naqd pulni emissiya qilishda monopol mavqeyiga ega. Ikkinchi tomondan ayrim davlatlar o‘zining milliy valyutasiga ega emas. Shu sababali bu davlatlarning Markaziy banklari emissiya vazifasini bajara olmaydi. Salvador, Ekuador va Sharqiy Timorda to‘lov vositasini AQSH dollari bajaradi. Andora, Vatikan va Marokada milliy valyuta vazifasini yevro bajaradi. Shimoliy Kiprda esa milliy to‘lov vositasini Turkiya lirasi bajaradi.

*Pul aylanmasining tarkibi quyidagi qismlardan tashkil topadi:*

1. Markaziy bank va tijorat banklari o‘rtasidagi naqd pul aylanmasi.

2. Tijorat banklari o‘rtasidagi naqd pul aylanmasi.

3. Banklar va ularning mijozlari o‘rtasidagi naqd pul aylanmasi. (barcha naqd pul ko‘rinishidagi pullarini tijorat banklariga topshirishlari shart. Tijorat banklari o‘z mijozlariga naqd puldagi xarajatlarini moliyalashtrish uchun naqd pullar beradi: (Ish haqi, mukofot, mehnat ta’tili pullari va boshqalar.)

4. Tashkilotlar bilan tashkilotalar o‘rtasidagi naqd pul aylanmasi.

5. Tashkilotlar va ularning xodimlari o‘rtasidagi naqd pul aylanmasi.

6. Fuqarolar o‘rtasidagi naqd pul aylanmasi.

Hozirgi davrda AQSH, Germaniya, Fransiya, Kanada va Braziliyada muomaladagi naqd pul tendensiyasi kuzatilmoqda. Lekin bu davlatlarda naqd pullarning muomladagi pul massasining salmog‘i yuqori emas.

Kanada – 3.6%

Braziliya – 3.8%

AQSH – 4.9%

Fransiya – 8.5%

Rivojlanayotgan mamlakatlarda bu ko‘rsatkichning salmog‘i ancha yuqoridir. Masalan, Rossiyada bu ko‘rsatkich 29% ni tashkil etadi. Naqd pul aylanmasi bir qator kamchiliklarga ega:

- Naqd pullarni emissiya qilish, tashish va saqlash katta xarajatni talab etadi. Markaziy banklar emissiya xarajatini kamaytrish uchun kupyuralarning nominalini yiriklashtirishga majbur bo‘ladilar.

- Naqd pullarni olib yurish xavflidir.

- Naqd pullar bilan hisob-kitob qilish soliq to‘lashdan qochish imkonini beradi.

- Naqd pul aylanmasi terrorizmni moliyalashtrish bilan bog‘liq

- Naqd pullar va inflyatsiya o‘rtasida bevosita aloqadorlik mavjud.

Naqd pul aylanmasini tashkil qilish quyidagi prinsiplar asosida amalga oshiriladi:

1. Naqd pul aylanmasini tashkil qilish va tartibga solishni me'yoriy huquqiy asoslarining mavjudligi. Masalan, Markaziy bankning kassa operatsiyalarini amalga oshirish to‘g‘risidagi yo‘riqnomasi muhim me'yoriy hujjat bo‘lib hisoblanadi.

2. Barcha korxonalar va tashkilotlar o‘zlarining naqd puldagi mablag‘larini tijorat banklarida saqlashlari shart.

3. Korxonalar va tashkilotlarga kassada kichik miqdorda naqd pul saqlab turishga ruxsat etiladi. Buning uchun ularning kassasiga tijorat banklari tomonidan limit belgilanadi. Bu limit ko‘zda tutilmagan xarajatlar uchun ajratiladi.

4. Naqd pullardan maqsadli foydalanish prinsiplari.

Banklardan korxonalar naqd pullarni pul cheklari orqali oladi. Pul chekida nima maqsadda naqd pul olinayotganligi ko‘rsatiladi.

Naqd pullarning darajasiga baho berish uchun xalqaro amaliyotda iqtisodiyotda naqd pullarning yetarliligi degan ko‘rsatkich qo‘llaniladi.

M0/YaIM\*100%

M0 – Markaziy bank tomonidan muomalaga chiqarilgan jami naqd pullar

1-yanvar holatiga

Germaniyada – 8.9%

Fransiyada – 8.5%

Rossiyada – 10.9%

AQSH – 6.9%

Kanadada – 3.6%

Taraqqiy etgan mamlakatlarda bu ko‘rsatkichning darajasi past. Buning bir qancha sabablari bor. Ulardan asosiylari ikkita:

1. Naqd pulsiz hisob-kitoblar tizimi yuqori darajada rivojlangan. Naqd pul muomalasi bilan asosan aholi shug‘ullanadi. Plastik kartochkalarga asoslangan to‘lov amaliyotining rivojlanganligi naqd pullarga bo‘lgan talabni qisqartirish imkonini bergen.

2.Xufyona iqtisodiyotni kichik salmoqqa ega ekanligi.

Plastik kartochkalar mo‘ljallanishiga ko‘ra ikkiga bo‘linadi:

- Shaxsiy kartochkalar – bu kartochkalar banklar tomonidan jismoniy shaxsga beriladi.

- Koorporativ kartochkalar – bu yuridik shaxslarga beriladi.

Bu kartochkadan korxonaning xodimlari foydalanishi mumkin.

Plastik kartochkalar ishlash rejimiga ko‘ra 2 ga bo‘linadi:

1.Oflne

2.Online

Plastik kartochkalarning to‘lovni amalga oshirish xususiyatiga ko‘ra:

1.Debetli kartalar – bu kartalar faqat plastik karta hisob raqamidagi pul mablag‘lari doirasida to‘lovlni amalga oshirish imkonini beradi.

2.Kreditli kartalar – plastik hisob raqamdaggi pul tugaganini keyin ham tijorat banking krediti hisobiga to‘lovni amalga oshirish imkonini beradi.

Yaponianing Tashshiba kompaniyasi Supersmartkardni chiqardi. Bu istagan joyda to‘lovni amalga oshira oladi.

Mamlakat iqtisodiyotining rivojlanganlik darajasi pul aylanmasining tarkibiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Masalan, taraqqiy etgan mamlakatlarda iqtisodiyotning pul mablag‘lari bilan ta’minlanganlik darajasi yuqori bo‘lganligi sababli, tovar pul munosabatlarida to‘lovsizlik muammosi mavjud emas.

Taraqqiy etgan mamlakatlarda naqd pulsiz hisob-kitoblar tizimining rivojlanganligi naqd pullarga bo‘lgan talabning kamayishiga olib keldi. Bu esa pul aylanmasi tarkibida naqdsiz yuqori va barqaror darajada saqlash imkonini beradi.

## **2.2. Naqdsiz pul aylanmasi va uni tashkil qilish prinsiplari.**

### **Naqd pulsiz hisob-kitoblar tizimi va uning elementlari**

Naqd pulsiz pul aylanishi – banklarda pul mablag‘larini to‘lovchilar va oluvchilarning hisobvaraqlari bo‘yicha yozuvlar yordamida yoki o‘zaro talablarni hisobga olish yo‘li bilan amalga

oshiriladigan pul aylanishidir.

Naqdsiz pul aylanmasi quyidagi prinsiplar asosida tashkil etiladi:

1.Naqdsiz pul aylanmasining me'yoriy-huquqiy asoslarining mavjudligi. O'zbekistonda naqdsiz pul aylanmasining qonunchilik asoslari bo'lib quyidagilar hisoblanadi:

- O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi

- O'zbekiston Respublikasining Markaziy banki to'g'risidagi qonuni

- O'zbekiston Respublikasining banklar va bank faoliyati to'g'risidagi qonuni

2. Naqd pulsiz hisob kitoblarni, asosan, banklarda ochilgan hisob raqamlar orqali o'tkazilishi.

Mijozlar hisob raqam ochishda banklarni erkin tanlash huquqiga ega. Barcha naqdsiz to'lovlar to'lovchining joriy hisob raqamidagi pul mablag'lari hisobidan amalga oshiriladi.

To'lovchining va to'lovchining bankini likvidli bo'lishi. To'lovchining va to'lovchining bankini likvidli bo'lishi deganda ularni o'z majburiyatlarini pul mablag'lari bilan o'z vaqtida va to'liq to'lay olish qobiliyatiga aytildi. Xalqaro ta'mirlash va taraqqiyot banki ekspertlari korxonalarining likvidligini baholash uchun quyidagi ko'rsatkichlarni taklif qilishgan:

Joriy likvidlik koeffitsienti – (Jlk)

JA – joriy aktivlar

JP – joriy passivlar

Jlk=JA/JP

Jahon banki ekspertlarining bu koeffitsientining eng past normativ darajasini 1.25 qilib belgilangan.

Iqtisodiy kontragentlar o'rtasidagi naqd pulsiz hisob-kitoblarni amalga oshirishning asosiy shakllari quyidagilardan iborat:

1) inkasso operatsiyalari vositasidagi hisob-kitoblar;

2) akkreditivlar yordamidagi hisob-kitoblar;

3) bo'nak to'lovlar shaklidagi hisob-kitoblar;

4) ochilgan hisobvaraq bo'yicha amalga oshiriladigan hisob-kitoblar;

5) veksellar va cheklar shaklida amalga oshiriladigan hisob-kitoblar.

To‘lovni amalga oshirish uchun to‘lovchining roziligi bo‘lishi kerak. Ammo qonunchilikda ayrim hollarda to‘lovchidan so‘ramay uning pulidan olib qo‘yishga ruxsat etilgan. Misol uchun soliq inspeksiyasi tomonidan qo‘yilgan Inkasso topshiriqnomalar, sudlarning qarori bilan qo‘yilgan ijro varaqalari to‘lovni to‘lovchining roziligesiz amalga oshiradi.

To‘lovlarning muddatliligi;

Naqdsiz hisob-kitoblarni to‘g‘ri amalga oshirilganligi ustida o‘tkaziladigan nazoratning mavjudligi ;

Naqd pulsiz hisob-kitoblarda ishtirok etuvchi tomonlarning mulkiy javobgarligining mavjudligi.

Xalqaro bank amaliyotida naqd pulsiz hisob-kitoblarning 4 shaklidan foydalanadi.

1. To‘lov topshiriqnomalari

2. Cheklar

3. Hujjatlashtirilgan akkreditivlar

4. Inkasso

1. “Umumiy to‘lov aylanmasi” tushunchasi va uning tarkibi.

Mijozlar hisob raqam ochishda banklarni erkin tanlash huquqiga ega. Barcha naqdsiz to‘lovlar to‘lovchining joriy hisob raqamidagi pul mablag‘lari hisobidan amalga oshiriladi.

Amaliyotda bir tijorat bankining mijoji ikkinchi bir tijorat bankining mijoji foydasiga naqd pulsiz to‘lovni amalga oshiradi. Bir bankdan 2-bankka o‘tayotgan to‘lovlar banklarning Nostro vakillik raqamlari orqali o‘tadi. Banklarning 2 turdag‘i nostro vakillik hisob raqamlari mavjud:

1. Vertikal vakillik hisob raqami

2. Gorizontal vakillik hisob raqami

Odatda, har bir tijorat banki milliy valyutada bitta vertikal, bitta gorizontal vakillik hisob raqamiga ega bo‘ladi.

Vertikal vakillik hisob raqami Markaziy bankning balansida ochiladi.

Gorizontal vakillik hisob raqami mamlakatning boshqa tijorat

bankida ochiladi.

O‘zbekiston Respublikasida tijorat banklari milliy valyutada faqat bitta nostro vakillik hisob raqamga ega. Bu hisob raqam O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining balansida ochilgan. Aniqrog‘i, Markaziy bankning Toshkent shahar bosh boshqarmasida ochilgan.

To‘lovchining va to‘lovchining bankini likvidli bo‘lishi. To‘lovchining va to‘lovchining bankini likvidli bo‘lishi deganda ularni o‘z majburiyatlarini pul mablag‘lari bilan o‘z vaqtida va to‘liq to‘lay olish qobiliyatiga aytiladi.

Jahon banki ekspertlarining bu koeffitsientining eng past normativ darajasini 1,25 qilib belgilangan.

3. To‘lovni amalga oshirish uchun to‘lovchining roziligi bo‘lishi kerak. Ammo qonunchilikda ayrim hollarda to‘lovchidan so‘ramay uning pulidan olib qo‘yishga ruxsat etilgan. Misol uchun soliq inspeksiyasi tomonidan qo‘yilgan Inkasso topshiriqnomalar, sudlarning qarori bilan qo‘yilgan ijro varaqalari to‘lovni to‘lovchining roziligesiz amalga oshiriladi.

- To‘lovarning muddatliligi;
- Naqdsiz hisob-kitoblarni to‘g‘ri amalga oshirilganligi ustida o‘tkaziladigan nazoratning mavjudligi ;
- Naqd pulsiz hisob-kitoblarda ishtirok etuvchi tomonlarning mulkiy javobgarligining mavjudligi;
- Xalqaro bank amaliyotida naqd pulsiz hisob kitoblarning 4 shaklidan foydalanadi.
  - To‘lov topshiriqnomalari
  - Cheklar
  - Hujjatlashtirilgan akkreditivlar
  - Inkasso

Zamonaviy pul tizimi quyidagi elementlarni o‘z ichiga oladi: pul birligi; valyuta kursini o‘rnatish qoidalari, baholar masshtabi; pul ko‘rinishlari; emissiya tizimi; davlat yoki kredit apparati.

Pul tizimining tarkibiy qismi milliy valyuta tizimidir.

Pul biriligi – qonuniy tarzda o‘rnatilgan pul belgisi bo‘lib, barcha tovarlar bahosini o‘zaro solishtirish va ifodalash uchun

xizmat qiladi. Ko‘pincha pul biriligi mayda bo‘linuvchi qismlarga ajraladi. Ko‘pchilik mamlakatlarda *o’nlik* bo‘linish tizimi o‘rnatilgan. Masalan, 1:10:100 (1 AQSh dollari – 100 sentga, 1 funt sterling – 100 pensga, 1 Indoneziya rupiyasi – 100 senga teng va h.k)

Rasman baholar masshtabi o‘zining iqtisodiy ma’nosini davlat monopolistik kapitalizmi rivojlanishi va kredit pullarni oltinga almashinishi to‘xtatilgandan so‘ng yo‘qotdi. 1976 – 1978-yilda o‘tkazilgan Yamayka valyuta islohoti natijasida oltinning rasmiy narxi va pul birliklarning oltin tarkibi bekor qilindi.

Qonuniy to‘lov vositasi bo‘lgan pul ko‘rinishlari – bular asosan bank kredit biletlari, qog‘oz pullar (xazina biletlari) va tangalardir. Masalan, AQSh da muomalada quyidagi pullar mavjud: 100, 50, 20, 15, 5 va 1 dollarlar, bank biletlari. Xazina biletlaridan tashqari kumush-mis va mis-nikel tangalar (50, 20, 10, 5, 1 sentli) chiqariladi Buyuk Britaniyada muomalada 50, 20, 10, 5, 1 f. st. banknotalar: 1 f. st., 50, 10, 5, 2 pennli, 1 va 1/2 pensli tangalar amal qiladi. Yana eski 2 va 1 shilling tagalari yuritiladi, ular yangi 10 va 5 pensga teng. Agar rivojlangan mamlakatlarda, asosan, bank biletlari chiqarilsa, qator rivojlanayotgan mamlakatlarda ko‘proq xazina biletlari chiqarish keng tarqalgan. Masalan, Indoneziyada 50, 25, 10, 5, 1 sen qiymatli, Hindistonda – 1 rupiya qiymatli xazina biletlari chiqariladi.

Tizim deganda o‘zaro bog‘liq elementlarning birligi tushuniladi.

Pul tizimi – bu bir biri bilan o‘zaro bog‘liq holda harakatlanuvchi va pul tizimining yaxlitligini ta’minlovchi elementlarning yig‘indisidir.

Pul tizimi – bu mamlakatda yoki alohida olingan iqtisodiy hududda pul muomalasini tashkil qilishning davlat-huquqiy shaklidir.

Pul tizimini obyektiv va subyektiv asoslari mavjud. Pul tizimining obyektiv asoslariga tovar pul munosabatlarining rivojlanganlik darajasi kiradi. Pul tizimining subektiv asoslariga to‘lov hujjatlarini va vositalarini hamda ulardan foydalanish

tartibini qonunchilik hujjatlarida belgilab qo‘yilishi kiradi.

Pul tizimining ikkita jihat mavjud:

1. Funksional jihat(aspekt) – pul tizimi funksional jihatidan pul muomalasidan tashkil qilish prinsiplari, shakllari va usullarining yig‘indisidir.

2. Institutsional jihat – institutsional jihatdan pul tizimi pul muomalasini tashkil qiluvchi va tartibga soluvchi institutlarning yig‘indisidir. Bunday institutlarga – Markaziy bank, tijorat banklari, kliring markazlari, hisob uylari kabi muassasalar kiradi.

Pul tizimini tashkil qilish quyidagi prinsiplar asosida amalga oshiriladi.

1. Pul tizimining barqarorligi va elastikligi prinsipi. Pul tizimining barqarorligi deganda, pulning barcha funksiyalarini to‘liq bajarilishini ta’minlash tushuniladi. Pul tizimining elastikligi deganda, pul tizimining iqtisodiyotning pul mablag‘lariga bo‘lgan talabini o‘zgarishiga o‘z vaqtida javob bera olishiga aytildi.

2. Muomalaga chiqarilgan pullarning ta’minlanganlik prinsipi. XX asrning 70-yillariga qadar muomalaga chiqarilgan naqd pullar oltin bilan ta’minlanar edi. Muomaladagi har bir AQSh dollari  $1\$=0.88$  gramm sof oltin asosiga ega edi.  $1 \text{ unsiya} = 35\$$  bahoda almashtirib berdi.  $1 \text{ unsiya} = 31.1$  gramm sof oltinga teng. Milliy valyutaning oltin bilan ta’minlanishi baho masshtabi deb ataladi. 1976-1978- yillarda bo‘lib o‘tgan Yamayka jahon valyuta tizimida oltinni demonetizatsiya qilish tugatildi. Bu oltindan to‘lov vositasi sifatida foydalanishni ta’qiqlash. Natijada baho masshtabi dunyo mamlakatlarida bekor bo‘ldi, eng oxirgi davlat Shvetsariya baho masshtabini 2011-yilda bekor qildi. Hozirgi davrda muomalaga chiqarilayotgan pullar Markaziy bankning aktivlari bilan ta’minlanadi.

3. Pul aylanmasini rejorashtirish va prognoz qilish prinsipi.

4. Pul aylanmasini nazorat qilish prinsipi.

Pul tizimlari XVI-XVII asrlarda ishlab chiqarish kapitalistik usulining yuzaga kelishi va qaror topishi munosabati bilan shakllangan, biroq shunday bo‘lsa ham, uning ayrim elementlari bundan ancha oldin paydo bo‘lgan. Tovar-pul munosabatlari va

ishlab chiqarishning kapitalistik usuli rivojlanishi bilan pul tizimida sezilarli o‘zgarishlar yuz beradi.

Pul tizimi turlari pul qanday shaklda amal qilishiga bog‘liq, ya’ni umumiy ekvivalent – tovar sifatida yoki qiymat belgisi sifatida bo‘lishiga qarab quyidagicha pul tizimlar mavjud bo‘lgan.

1. Metall pul muomalasi tizimlari.

2. Qog‘oz va kredit pullar muomalasi tizimlari.

Birinchi tizimda metall pul bevosita muomalada bo‘ladi va pulning barcha funksiyalarini bajaradi, kredit pullar esa metallga almashinishi mumkin;

Kredit va qog‘oz pullar muomalaga kiritilishi bilan qog‘oz pullar muomalasi tizimi yuzaga kelgan.

Mamlakatda umumiy ekvivalent sifatida qabul qilingan metallga va pul muomalasi bazasiga qarab pul tizimi bimetalizm va monometalizm pul tizimlariga bo‘linadi.

Milliy valyuta tizimi mamlakat pul tizimining tarkibiy qismi bo‘lib, valyuta munosabatlarining yig‘indisi sifatida maydonga chiqmaydi, balki ushbu munosabatlarni faqat qonunchilik aktlari bilan tashkil etilish tartibini belgilaydi. Valyuta munosabatlarini tashkil etishning bunday tartibi, birinchi navbatda, valyuta tizimi elementlarini belgilashni o‘z ichiga oladi.

### **2.3. O‘zbekiston Respublikasi pul tizimining rivojlanishi**

Milliy valyuta tizimining qonunchilik asosida belgilanadigan elementlariga quyidagilar kiradi:

- Milliy valyuta va uning nomi;
- Milliy valyuta paritetini belgilash;
- Milliy valyutaning konvertatsiya shartlari;
- Milliy valyuta kursining rejimi;

O‘zbekiston Respublikasining zamonaviy pul tizimi 1994-yil 1-iyulda milliy valyuta muomalaga kiritilgandan so‘ng shakllandı. Chunki milliy valyuta har qanday mamlakat pul tizimining asosiy elementi hisoblanadi. Kurs Respublika valyuta birjasida aniqlanadi. O‘zbekiston Respublikasining valyutani tartibga solish

to‘g‘risida qonuniga ko‘ra, so‘mning kurs rejimi erkin suzish rejimidir, ya’ni so‘mning nominal almashuv kursini AQSh dollariga bo‘lgan talab va taklifga qarab aniqlanishini bildiradi. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki to‘g‘risidagi qonunning 23-moddasiga muvofiq hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003-yil 4-fevralidagi 63-sonli qaroriga muvofiq O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki pul massasining o‘sishini nazorat qiladi. Bunda M2 pul agregati nazorat obekti sifatida olingan. O‘zbekistonda Markaziy bank pul tizimini tartibga soluvchi rasmiy organ hisoblanadi. O‘zbekistonda pul tizimi to‘g‘risidagi maxsus qonun 1993-yilda bekor qilingan, shu sababli hozirgi kunda pul tizimining me’yoriy huquqiy asoslari bo‘lib, quyidagi qonunchilik hujjatlari hisoblanadi.

1.O‘zbekiston Respublikasining fuqarolik kodeksi

2.O‘zbekiston Respublikasining Markaziy banki to‘g‘risidagi qonun

3.O‘zbekiston Respublikasining banklar va bank faoliyati to‘g‘risidagi qonun

4.O‘zbekiston Respublikasining valyutani tartibga solish to‘g‘risidagi qonuni (1-marta bu qonun 1993-yil 7-mayda qabul qilingan, 2003-yil 11-dekabrda esa Valyutani tartibga solish to‘g‘risidagi qonun yangi tahrirda qabul qilindi)

O‘zbekiston Respublikasi pul tizimida naqd pul aylanmasini tartibga solish muhim ahamiyat kasb etadi. Iqtisodchi olimlarning naqd pul aylanmasiga bag‘ishlangan tadqiqotlari shuni ko‘rsatadiki, respublika naqd pul aylanmasi bilan iqtisodiy faollik o‘rtasida uzviy aloqadorlik mavjud.

Naqd pullarga bo‘lgan talabni qisqartirish maqsadida respublikada plastik kartochkalar muomalasini rivojlantirishga ustuvor yo‘nalish deb qaralmoqda. Muomaladagi milliy pul birliklarining barchasi banknotalar hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasi moliya vazirligi pul emissiyasi sohasida hech qanday vakolatga ega emas.

«Milliy valyuta – milliy iftixor, davlat mustaqilligining ramzi, suveren davlatga xos belgidir. Bu respublikaga tegishli umumiyl boylik

va mulkdir»<sup>1</sup>

Har bir jamiyatda pulga yuklatilgan vazifalarning samarali bajarilishi iqtisodiy va ijtimoiy o'sishni rag'batlantiradi, pul qadrining tushishi esa tartibsizlikka, jamiyat rivojlanishida boshqa to'sqinliklar bo'lishiga olib kelishi mumkin.

Pulning barqarorligi deganda, pulning sotib olish qiymatining o'zgarmasligi va valyuta doimiyligi tushuniladi.

Pulning sotib olish qobiliyati shu pul birligiga to'g'ri keluvchi tovar va xizmatlar miqdori bilan ifodalanadi. Binobarin, pulning sotib olish qobiliyatini ifodalovchi «ko'rsatkich» tovarlar va xizmatlar bahosi hisoblanadi. Agar tovar va xizmatlar bahosi barqaror bo'lsa, pulning sotib olish qobiliyati ham barqaror bo'ladi. Agar pul o'zgarmagan sharoitda tovarlar bahosi oshadigan bo'lsa, bu hol pulning sotib olish qobiliyati tushganini ko'rsatadi va aksincha, tovar va xizmatlar bahosining tushishi pulning sotib olish qobiliyatini oshganligidan dalolat beradi.

Demak, pulning qadri tovarlar va xizmatlar bahosiga teskari proporsional – narx pasaysa, pul qadri oshadi yoki narx oshsa, pulning qadri tushadi.

Pul tovar bo'lganligi uchun ham unga talab va taklif ta'sir qiladi. Pul taklifi muomalaga chiqarilgan turli shakldagi pullarning yig'indisi bo'lib, u talabdan ortiq yoki kam bo'lishi mumkin. Muomalaga chiqarilgan pul miqdori pulning aylanish tezligiga qarab ham o'zgarib turishi mumkin.

Pulga bo'lgan talab mamlakat pul aylanmasi asosida aniqlanadi. Pul talabi korxonalar, tashkilotlar, muassasalar, aholi, davlat tashkilotlari olib boradigan naqd pullik va naqd pulsiz aylanma uchun zarur pul miqdori asosida aniqlanadi. Pulga bo'lgan ehtiyoj xo'jalik subyektlari – ishlab chiqaruvchilar va iste'molchilar o'rtasida bo'ladigan pullik jarayonlarning ko'lamiga va tezligiga bog'liq. Pulni qo'llash yo'li bilan bajariladigan jarayonlarning ko'لامи qancha keng bo'lsa, pulga bo'ladigan talab shuncha ko'p bo'ladi. Agar pul bilan bog'liq operatsiyalar tez

<sup>1</sup>И. Каримов «Ўзбекистон иқтисодий ислоҳотларини чуқурлаштириш йўлида» Т.: «Ўзбекистон» 1995, 217 бет.

bajarilsa, pulga bo‘lgan talab shuncha kam bo‘ladi demak, muomalaga kam pul chiqarish kerak bo‘ladi.

Pulga bo‘lgan taklif va talabning tengligi pul muvozanatini bildiradi. Pulga bo‘lgan taklif, unga bo‘lgan talabdan oshmasa, pul barqaror deb xulosa qilish mumkin, aksincha bo‘lsa, pulning qadri tushib ketadi va puldan qochish jarayoni boshlanadi. Amaliyotda pulni jamg‘argandan ko‘ra uni tovarlarga aylantirib qo‘yish yoki boshqa bir qadrliroq valyutani jamg‘arish qulay bo‘lib qoladi.

Pulning barqarorligini ta’minlashning asosiy yo‘nalishlaridan yana biri byudjet taqchilligining bo‘lmasligidir. Davlat byudjeti xarajatlarining daromadlaridan oshib ketishi natijasida yuzaga keladigan byudjet taqchilligi muomalaga tovarlar bilan ta’minlangan pullar chiqarish hisobidan qoplanadi. Bu tadbir muomalada ta’minlangan pulning ko‘payishiga, oqibatda pul qadrining tushib ketishiga olib keladi. Shuning uchun har bir mamlakat pul taqchilligi bo‘lmasligiga yoki uning salmog‘i sezilarsiz bo‘lishiga erishishi kerak.

Pulning barqarorligini ta’minlashning yana bir yo‘nalishi – bu oltin va valyuta zaxiralarining mavjudligi va ularning ko‘payishidir. Oltin valyuta zaxiralarining salmog‘i qancha ko‘p bo‘lsa, pul shuncha barqaror bo‘lishi mumkin.

Milliy valyutani mustahkamlashning yana bir sharti – infliyatsiyaga qarshi puxta o‘ylangan siyosat yuritishdir. Muomalaga chiqarilgan har bir so‘m muayyan miqdordagi tovar va xizmatlar bilan ta’minlangan bo‘lishi zarur. Ichki bozorimizni tovarlar bilan to‘ldirish, aholiga xizmat ko‘rsatishning sifati va turlarini oshirish ham milliy valyutaning barqarorligini ta’minlashning asosi hisoblanadi.

Ma’lumki, har bir davlat o‘zining pul tizimiga ega bo‘ladi. O‘zbekistonning mustaqil davlat sifatida ajralib chiqishi uning mustaqil pul tizimiga ega bo‘lishini taqozo qildi. Mustaqil pul tizimi joriy qilinishining I bosqichi 1993-yildan boshlab «so‘m-kupon»larning muomalaga chiqarilishi hisoblanadi. O‘zbekiston pul tizimini qurishning ikkinchi bosqichi – 1994-yil iyuldan boshlab milliy valyuta – «so‘m»ning muomalaga chiqarilishi bo‘lib, u O‘zbekiston

tarixida juda katta ahamiyatga ega.

Har bir davlatning pul tizimi ma'lum elementlardan tashkil topadi va qonun asosida yuqori davlat organlari orqali boshqarib boriladi.

O'zbekiston Respublikasi pul tizimi elementlari quyidagilar hisoblanadi:

- pul birligining nomi;
- pul birligining turlari – qog'oz va metall pullar;
- ularni muomalaga chiqarish qoidalari;
- pul, kredit, valyuta boshqaruvini amalga oshiruvchi davlat organlari;
  - naqd pulsiz to'lov aylanmasi va kredit pullar (chek, veksel) muomalasini olib borishda davlat tomonidan belgilangan shartlar;
  - milliy valyutani chetga olib chiqish va chetdan olib kelish qoidalari;
  - xalqaro hisob-kitoblarni tashkil qilish asoslari;
  - milliy valyutani chet el valyutasiga almashtirish tartibi va davlat tomonidan o'rnatilgan valyuta kursi.

Alovida olingan davlatning pul tizimi o'z xususiyatlariiga ega bo'lib, uning elementlari u yoki bu tomonga o'zgarishi mumkin.

Pul tizimi ijtimoiy hayotning ko'zgusi hisoblanadi, desak xato bo'lmasa kerak. Shuning uchun ijtimoiy ishlab chiqarish jarayoni pul tizimini obyektiv talablar, ya'ni pul tizimining yagona bo'lishi, pul birligi qiymatining doimiyligi va pul muomalasining talabga qarab o'zgarib turishi kerakligini qo'yadi.

Sobiq SSSRning davlat sifatida tarqalib ketishi markazlashgan pul tizimining ham tugashiga olib keladi. Natijada ba'zi respublikalar rublni milliy valyutasi sifatida ishlatib turgani holda, o'z pul siyosatini olib bordi. Estoniya, Latviya, Litva, Ukraina birinchi bo'lib rubl zonasidan chiqib o'z milliy valyutasini qabul qilishdi. Keyinchalik, Ozarbayjon, Qирг'изистон va Moldaviya respublikalari bu yo'nalishni davom ettirdilar. Rubl tizimida vujudga kelgan tartibsizliklar, milliy valyutalar va kuponlarning muomalaga chiqarilishi, yagona pul-rubl zonasining tugashiga,

uning har xil kursga ega bo‘lishiga olib keladi.

1992-yil oxiriga kelib Rossiyada tovarlar bahosining oylik o‘sishi 25-30 foizgacha ko‘tarildi. Moskva valyuta birjasida rublning nominal qiymati bir dollarga 125 rubldan, 1992-yil dekabrda 485 rublgacha, 1993 yil martda 1 dollar 660 rublgacha tenglashdi. Pul qadrining tushishi, naqd pul yetishmovchiligiga, oxiri esa ish haqi, nafaqalarni to‘lashda qiyinchiliklar bo‘lishiga olib keldi. SSSR davridagi oxirgi banklar to‘g‘risidagi qonunga asosan davlat banki o‘rniga Markaziy bank, mustaqil davlatlarda Markaziy (yoki milliy) banklar tashkil qilindi.

### *Sobiq Sovet ittifoqi davlatlari valyutalari 1993-yil, aprel*

Respublikalar	Pul birligi va uning kursi
Armaniston	Rubl
Ozarbayjon	Manat va rubl (1manat=10 rubl)
Belorussiya	Rubl va B. Rubli (1 B. Rubli=10 rubl)
Estoniya	Krona (8 kron=1 nemis markasi)
Gruziya	Rubl va kupon
Qirg‘iziston	Som (3 may 1993-yildan)
Latviya	Latviya rubli (130 l.r. = AQSh dollari)
Litva	Talonlar (505 talon = 1 AQSh dollari)
Moldaviya	Rubl va kupon
Rossiya	Rubl
Tojikiston	Rubl
Turkmaniston	Rubl
Ukraina	Korbonavets (1 korbonavets=0,3 rubl)
O‘zbekiston	Rubl va so‘m kupon

Rossiya Markaziy banki pul emissiyasi bilan bog‘liq bo‘lgan operatsiyalarni bajarish huquqini o‘z qo‘liga oldi. Bundan tashqari, davlat pul belgilarini bosib chiqaruvchi muassasa Rossiyada joylashgan edi. Mustaqil davlatlar Markaziy banklarining pul muomalasini olib borish bo‘yicha harakatlari

cheklagan edi. Natijada pul taqchilligi yuzaga keldi va u alohida olingan respublikalarda har xil darajada namoyon bo‘ldi. Masalan, Rossiya Markaziy banki muomalaga chiqargan pullarda Rossiyaning salmog‘i 1991-yil dekabrda 64 foizni tashkil qilgan bo‘lsa, 1992-yil iyunga kelib emissiyaning 77 foizi Rossiyan ni naqd pul bilan ta’minalashga yo‘naltirilgan. Qolgan barcha Respublikalarni naqd pul bilan ta’minalash uchun muomalaga chiqarilgan pullarning faqat 23 foizigacha sarflangan, ya’ni boshqa respublikalar ehtiyojini pul bilan ta’minalash salmog‘i tushib ketgan. Masalan, Belorussiya, Gruziyaning salmog‘i 3 foizdan 1,5 foizgacha, Ukraina va Boltiqbo‘yi respublikalarining salmog‘i yanada ko‘proq qisqargan. O‘zbekistonda ham pul resurslari taqchilligi naqd pulga bo‘lgan talabning qondirilmaganligida namoyon bo‘lgan. Shu iqtisodiy tanglik sharoitida pul tizimini shakllantirish bo‘yicha mustaqil davlatlar oldida ikki muqobil yo‘l turardi.

- Yagona pul tizimi zonasasi – rubl zonasida qolish va yagona pul siyosatini olib borish;
- O‘z milliy valyutasini muomalaga chiqarib, o‘z pul tizimiga ega bo‘lish va qo‘shni mamlakatlar infliyatsiyasidan o‘zini himoya qilish.

Pul taqchilligi davom qilayotgan va Rossiya rubllari barqaror bo‘limgan sharoitda pul taqchilligini yo‘qotish maqsadida ko‘pgina respublikalar, jumladan, O‘zbekistonda ham mustaqillikning birinchi yillarda pul tizimini shakllantirish loyihasi tuzildi. Yuqorida ta’kidlaganimizdek, muomalaga kupon talonlar chiqarildi va keyinchalik O‘zbekiston o‘zining milliy valyutasini muomalaga chiqardi.

O‘zbekiston milliy pul tizimining asosiy elementi bo‘lmish so‘m jamiyat manfaatlariga xizmat qiladi. Shuning uchun pul tizimining asosiy vazifasi milliy pulimizning qadrini mustahkamlashdan iborat. Bu juda mas’uliyatli va oson bo‘limgan vazifa. O‘zbekistonning o‘z iqtisodiyotini bozor talablariga mos ravishda rivojlantirishga qaratishi, bozor iqtisodiyotiga o‘tishda mamlakatimizning o‘ziga xos xususiyatlariga ega ekanligi milliy valyutaning barqaror bo‘lishini taqozo qiladi.

Hozirgi kunimiz, iqtisodiyotimizning rivojlanishida amalga oshirilayotgan iqtisodiy jarayonlar, katta qurilishlar va moliyalash-tirishlar O‘zbekiston iqtisodiy mustaqillikka erishish uchun to‘g‘ri yo‘l tanlaganini ko‘rsatib turibdi. Zero, mustaqil pul tizimiga ega bo‘lmasdan iqtisodiy jihatdan mustaqil davlat barpo etish mumkin emas.

### **Nazorat uchun savollar**

1. “Pul aylanmasi” tushunchasining mazmuni va pul aylanma-sining tarkibiy tuzilishini yoritib bering?.
2. Naqd pul aylanmasi, uni tashkil qilish prinsiplari va naqd pullarni muomalaga chiqarish va muomaladan olish tartibini yoritib bering?.
3. Naqdsiz pul aylanmasi, uni tashkil qilish prinsiplari, hamda naqd pulsiz hisob-kitoblar tizimi va uning elementlarini tushuntirib bering?.
4. Naqd pulsiz hisob-kitob shakllarini va ularga tavsif bering?
- 5.“Umumiy to‘lov aylanmasi” tushunchasi va uning tarkibi hamda to‘lov aylanmasining tarkibini yoritib bering?
- 6.O‘zbekiston Respublikasi pul tizimi elementlarini yoriting?
7. O‘zbekiston Respublikasi pul tizimining rivojlanish bosqichlarini ochib bering?

### **3-MAVZU: BANK OPERATSIYALARI**

#### **Reja:**

- 3.1. Banklarning turlari va ular faoliyatining o‘ziga xos xususiyatlari. Bank tizimi va uning elementlari.
- 3.2. Markaziy bank faoliyatining maqsadi va vazifalari. Markaziy bankning tashkiliy tuzilishi.
- 3.3. Markaziy bankning funksiyalari: emission funksiya; “banklarning banki” funksiyasi, “davlatning banki” funksiyasi, rasmiy oltin-valyuta zaxiralarini boshqarish funksiyasi.

**Tayanch iboralar:** pul barqarorligi, emission, banklar banki, davlat banki, valyuta, zaxira, bank, tijorat banklar, markaziy bank, ikki pog‘onali bank, pul muomlasi, naqd pul emissiyasi

#### **3.1. Banklarning turlari va ular faoliyatining o‘ziga xos xususiyatlari. Bank tizimi va uning elementlari**

Kredit tizimi deb kredit munosabatlar majmuasi va kredit munosabatlarni tashkil qiluvchi va amalga oshiruvchi kredit institutlar yig‘indisiga aytildi. Kredit tizimi orqali huquqiy va jismoniy shaxslarning vaqtincha bo‘sh mablag‘lari yig‘iladi va korxona, tashkilotlarga, davlatga vaqtincha foydalanishga beriladi. Kredit tizimi bir necha bo‘g‘inlardan iborat bo‘lishi mumkin. Mablag‘larni jalb qilishi va taqsimlanishiga qarab kredit tizimi bo‘g‘inlari o‘z xususiyatlariga ega bo‘ladi. Juhon amaliyotida kredit tizimi o‘zining tashkil qilinish turiga qarab quyidagi guruhlarga bo‘linadi.

- Markaziy bank
- Tijorat banklar
- maxsus-kredit institutlar

Bozor iqtisodiyoti sharoitida ikki pog‘onali kredit bank tizimi ko‘p mamlakatlar iqtisodining asosi hisoblanadi. Bu Markaziy bank, bank institutlari va nobank kredit muassasalaridir.

Bank institutlariga quyidagi banklar kiradi:

- tijorat banklar;
- investitsiya banklari;
- jamg‘armalar jalb qiluvchi banklar (O‘zbekistonda Xalq banki);
- ipoteka banki;
- savdo banklari;
- tashqi iqtisodiy aloqalar bo‘yicha banklar;
- tarmoqlar bo‘yicha ixtisoslashgan banklar va boshqalar.

Nobank kredit tashkilotlarga:

- investitsiya kompaniyalari;
- sug‘urta kompaniyalari;
- nafaqa va boshqa fondlar kiradi.

O‘zbekiston Respublikasi qonunlariga asosan bank – tijorat muassasasi bo‘lib, jismoniy va huquqiy shaxslarning bo‘sh turgan pul mablag‘larini jalb qilish va ularni o‘z nomidan, to‘lovililik, muddatlilik, qaytib berish sharti asosida joylashtirish operatsiyalarini va boshqa bank operatsiyalarini bajaradi.

Banklar – tovar-pul xo‘jaligining ajralmas atributidir. Tarixan bular yonma-yon rivojlanib keldilar. Shuning uchun qiymatning pul shaklining muomalasining boshlanishi bank ishining boshlanishi deb hisoblash, hamda bank faoliyatining rivojlanishidagi yetukligi doimo iqtisodiyotdagi tovar-pul aloqalarining rivojlanish darajasiga mos kelgan.

Banklar-moliyaviy bozorning tashkiliy tuzilishining bir qismi bo‘lgan kredit tashkiloti bo‘lib, jismoniy va yuridik shaxslarning vaqtinchalik bo‘sh turgan pul mablag‘larini jamg‘rish, yig‘ish, jamlangan (akkumulyatsiya qilingan) mablag‘larni o‘z nomidan qaytarib berishlilik, muddatlilik asosida berish hamda mijozlarning topshirig‘iga ko‘ra, to‘lovlarni amalga oshirish vazifalarini amalga oshiradilar.

Bu bankning ilk belgilari bo‘lib, ular, aslida, tarixan banklarning shakllanishidagi 3 asosiy yo‘nalishni o‘zida aks ettiradi. Banklar ma’lum belgilariga qarab quyidagi turlarga bo‘linadi.

- mulk shakliga qarab: aksioner, noaksioner, kooperativ,

kommunal, davlat, aralash, xalqaro banklarga bo‘linadi;

- kredit beruvchi banklarga;
- milliy mavqeyi bo‘yicha: milliy va xorijiy banklarga;
- faoliyat ko‘rsatishi va bajaradigan funksiyalariga qarab: depozit, universal, ixtisoslashgan banklarga bo‘linadi.

Aksioner banklar aksioner kompaniyalar sifatida yuzaga kelgan banklar bo‘lib aksiyalar chiqarish hisobidan ular kapitalining asosiy qismi yuzaga keltiriladi. Ko‘pgina rivojlangan mamlakatlarda bank tizimining asosiy qismini aksioner banklar tashkil qiladi.

Noaksioner banklar paychilar mablag‘lari hisobidan tashkil qilingan banklar bo‘lib, ular bir yoki bir necha shaxs ixtiyorida bo‘lishi mumkin.

Mayda ishlab chiqaruvchilar, hunarmandlarning faoliyatini qo‘llab-quvvatlash maqsadida kooperativ banklar tashkil qilinadi. Bu banklarning mablag‘lari ishtirokchilarning mablag‘lari hisobidan vujudga keltiriladi va mijozlarga ularning faoliyatini rivojlantirish uchun yengil sharoitda kredit beriladi. Kommunal banklar ixtisoslashgan kredit tashkilotlar bo‘lib, kommunal xo‘jalik va uy-joy qurilishini kreditlash va moliyalashtirish bilan shug‘ullanadi.

Davlat banklari davlat ixtiyorida bo‘lgan kredit muassasa bo‘lib, o‘zining birinchi kurtaklari qadimiy Rimda, Misrda, keyinchilik XVI-XVII asrlarda Yevropada vujudga kelgan.

Ixtisoslashtirilgan banklarning turdagи sifatida investitsiya, jamg‘arma, rivojlanish va taraqqiyot banklarini keltirish mumkin. Kredit tizimining yana bir qismi nobank kredit muassasalari bo‘lib, davlat va korxonalarni moliyashtirishi, uzoq muddatli kreditlash bilan shug‘ullanadi.

Kredit – bank tizimining shakllanishi va rivojlanishi – iqtisodiy islohatlarni amalga oshirilishining ajralmas belgilaridan (xususiyatlaridan) biridir. Bu shu bilan ta’kidlanadiki, bank tizimi har qanday turdagи iqtisodiyotning markaziy tizimini tashkil qiluvchi unsurlaridan hisoblanadi. Bank tizimi vaqtinchalik bo‘sh turgan pul mablag‘larini akkumulyatsiya qilish funksiyasini

amalga oshiradi. Bank tizimining muvoffaqiyatli ishidan iqtisodiyotni samarali faoliyat ko'rsatishi, umuman olganda, mamlakatdagi iqtisodiy o'sish bilan bog'liq bo'ladi. Bank deb, pul mablag'larini yig'uvchi, saqlab beruvchi, kredit-hisob va boshqa har xil vositachilik operatsiyalarini bajaruvchi muassasalarga aytildi.

Agar mamlakatda yetarli darajadagi bank faoliyatini ko'rsata-yotgan banklar, kredit tashkilotlar hamda iqtisodiy tashkilotlar mavjud bo'lsa, u holda bank tizimi mavjudligi to'g'risida gap yuritsa bo'ladi. Ushbu sharoitda banklar va kredit tashkilotlari turli shakllarida hamda doimo o'z mijozlari – iqtisodiyot subyektlari, Markaziy bank, boshqa organlar, davlat hokimiyatlari va davlat boshqaruv organlari, o'zaro yoki yordamchi tashkilotlar bilan muloqotda (munosabatda) bo'lib turadilar.

Bank tizimi – tashkiliy tuzilma sifatida yirik tizim bo'lib – mamlakatning iqtisodiy tizimiga kiradi. Bu shuni bildiradiki, banklarning faoliyati va rivojlanishini moddiy va nomoddiy ne'matlarni ishlab chiqarish, muomala va iste'mol qilish bilan bog'liq holda ko'rib chiqish zarurdir. O'zining amaliy faoliyatida banklar xo'jalik hayotini tartibga solish mexanizmi bilan uzviy ravishda bog'liq.

Tijorat banklarini belgilariga qarab quyidagi turlarga bo'lish mumkin. Mulkchilik shakliga qarab banklar: davlat, bankiga, aksiyador banklarga, kooperativ, xususiy, mintaqaviy, aralash mulkchilikka asoslangan banklarga bo'linadi. Aksiyador banklar aksiyador jamiyat kabi ochiq turdag'i yoki yopiq turdag'i aksiyador banklar bo'lishi mumkin. Aksiyadorlar safiga kirish aksiyalarni sotib olish yo'li bilan amalga oshiriladi. Huquqiy va jismoniy shaxslar banklarning aksiyalarini sotib olishi va aksiyador bo'lishlari mumkin.

Ba'zi tijorat banklari paylar (badallar) hisobidan tashkil qilinishi mumkin. Bu turdag'i banklarning qatnashchilari ham huquqiy va jismoniy shaxslar bo'lishi mumkin.

Xususiy banklar – jismoniy shaxsning pul mablag'lari hisobi-dan tashkil qilingan banklar hisoblanadi.

Joylashish belgisiga qarab tijorat banklar: xalqaro, respublika, mintaqaviy, viloyat banklariga bo‘linishi mumkin.

Bajaradigan operatsiyalariga qarab tijorat banklar – universal va maxsus banklarga bo‘linadi.

Universal banklar xilma-xil operatsiyalar bajarish, har xil xizmatlar amalga oshirish xususiyatiga ega bo‘ladi. Maxsus banklar ma’lum yo‘nalishlarga xizmat ko‘rsatib, o‘z faoliyatini shu yo‘nalishlarda yutuqlarga, samaradorlikka erishishga bag‘ishlaydi. Bunday banklarga tarmoqlarga xizmat ko‘rsatuvchi banklar, eksport-import operatsiyalarini olib boruvchi banklar, investitsiya banklari, ipoteka-zamin banklari kirishi mumkin.

Segmentlangan bank tuzilmasi tijorat va nobank kredit tashkilotlariga faoliyat muhitini (operatsiyalarini) qat’iy qonuniy tomonidan chegaralab qo‘yilishini bildiradi. Bunday holat hozirda AQSh, Yaponiya, Kanada kabi davlatlarda mavjud bo‘lib ularda korparativ mijozlarning qimmatli qog‘ozlarni chiqarish va joylashtirish operatsiyalari bilan shug‘ullanishlari ta’qiqlanadi. Biroq, bugungi kunda AQSH 1933-yilda qabul qilingan Glass-Stegal qonuni bekor qilinishi kutilmoqda.

Ammo, rivojlangan mamlakatlarga bir yoki ikki pog‘onali bank tizimi xosdir.

Bir pog‘onali bank tizimi varianti mamlakatda yagona markaziy bank hali mavjud bo‘lmasa yoki bitta markaziy bankdan iborat bo‘lsagina, real (haqiqatda) mavjud bo‘lishi mumkin.

Ammo sivilizatsiya darajasidagi bozor iqtisodiyoti sharoitiga ikki pog‘onali bank tizimi xos. Bunda birinchi pog‘ona banklari - bu Markaziy bank, ikkinchi quyi pog‘ona esa – tijorat banklari va kredit tashkilotlaridir.

Markaziy bank – bank tizimi mavjud bo‘lgan barcha davlatlar pul-kredit tizimining asosini tashkil qiladi. Markaziy bankning moliya bozoridagi o‘rni mamlakatda bozor munosabatlarining rivojlanish darajasiga va xususiyatiga bog‘liq.

Bu esa o‘z navbatida, ikki pog‘onali bank tizimi shakllanishiga asosiy omil bo‘lib hisoblanadi. Chunki buning tepasida Markaziy bank turadi.

Ikki pogonali bank tizimining zarurati bozor munosabatlarining qarama-qarshiliklaridan kelib chiqadi. Bir tomonidan, bu xususiy moliya mablag‘laridan erkin foydalanish huquqini talab qiladi. Bu quyi pog‘ona banklar – tijorat banklari orqali amalga oshiriladi. Ikkinci tomonidan, bu munosabatlarni ma’lum miqdorda tartibga solish, nazorat qilish, maqsadli yo‘naltirish zarur. Bunday maxsus institut sifatida Markaziy bank yuzaga chiqadi.

Bank faoliyati maxsus litsenziya asosida amalga oshiriladigan faoliyatdir. O‘zbekiston Respublikasi Tijorat banklari Markaziy bank tomonidan beriladigan litsenziya asosida faoliyat olib boradilar. Ularga qo‘srimcha litsenziya zarur emas (faqat valyuta operatsiyalaridan tashqari).

Bozor iqtisodiyoti va jahon xo‘jaligi rivojlanishi bilan bank tizimi ham rivojlnana boradi. Hozirgi sharoitda banklar faqat so‘bank operatsiyalarini emas, balki boshqa turdag'i operatsiyalarni ham bajaradi.

Tijorat banklari quyidagi operatsiyalarni bajaradi:

- passiv operatsiyalar;
- aktiv ssuda operatsiyalari;
- bank xizmatlari va vostitachilik operatsiyalari;
- bankning o‘z mablag‘lari hisobidan amalga oshiradigan operatsiyalar va boshqalar.

Shu bilan birga banklar moliyaviy xizmatlar ko‘rsatadigan moliyaviy muassasalarga aylanmoqda, bu bank balansida aks ettirilmaydi, lekin juda katta daromad keltiradi. Masalan: banklar valyuta operatsiyalarini bajarganda sarroflar-brokerlar sifatida maydonga chiqadilar va katta miqdorda vositachilik haqi oladilar. Lekin bu operatsiyalar bank balansida aks ettirilmaydi. Hozirgi paytda yirik tijorat banklari qariyb 350 turdag'i moliyaviy xizmat ko‘rsatmoqda.

O‘zbekiston Respublikasining «Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida»gi qonunida tijorat banklarining quyidagi operatsiyalari qayd qilingan:

1. Mijozlarning hisob varaqalarini olib borish:

2. Mijozlarga kassa xizmati ko'rsatish:
3. Mijozning topshirig'iga binoan naqd pulsiz hisob-kitoblarni bajarish:
4. Qisqa yoki uzoq muddatli kreditlar berish:
5. Shartnoma yoki pullik asosida buyurtmachining topshirig'iga binoan kapital qo'yilmalarni mablag' bilan ta'minlash:
6. Bo'sh pul mablag'lari – depozitlarini muomalaga jalg qilish:
7. Aholidan omonatlarni qabul qilish:
8. Faktoring operatsiyalarini amalga oshirish:
9. Lizing operatsiyalarini amalga oshirish:
10. Tijorat banki davlatning hamda boshqalarning qimmatli qog'ozlarini xarid qilish va sotish:
11. Xorijiy valyuta va qimmatli metallarni xarid qilish va sotish:
12. O'z mijozlari uchun kafolat va majburiyatlar berish:
13. Byudjetning kassa ijrosini bajarish:
14. Bank operatsiyalari bo'yicha maslahatlar berish va boshqa operatsiyalar.

Ular orasida eng ko'p tarqalgani veksellarni hisobga olish usulidir. Bank veksel saqllovchidan naqd hisob-kitob qilish yo'li bilan veksel sotib oladi. Unda qayd etilgan summadan hisobga olish foizini - ko'rsatilgan xizmat uchun haq sifatida ushlab qoladi. Veksel bo'yicha to'lov muddati kelganida bank uni vekselni sotgan veksel saqllovchiga emas, balki vekselni bergen shaxsga taqdim etadi.

Qimmatli qog'oz garovga olinib, beriladigan ssudalar, shuningdek, mana shunday qog'ozlarni xarid qilish bo'yicha operatsiyalar fond operatsiyalari deb yuritiladi.

Tovar evaziga beriladigan ssudalar omborlar, yo'ldagi va savdo aylanmasidagi bo'lган tovarlarni garovga olib taqdim etildi. Ssudalar o'z muddati to'lanmagan hamma hollarda garovga qo'yilgan qimmatli qog'ozlar va tovar moddiy boyliklari bank ixtiyoriga mulk bo'lib o'tadi. To'lov qobiliyatiga shubha

bo‘lмаган ўирік мінездірлеу банк ھеч қандай та’минотсиз ссудалар және банк кредиттерінде аталаған қарзлар беради.

### **3.2. Markaziy bank faoliyatining maqsadi va vazifalari. Markaziy bankning tashkiliy tuzilishi**

Odatda Markaziy bank – бұл дәвлат банкі, масалан, Англия банкі, Фран西я банкі, Bundes bank, Япония банкі, Швейцария миллий банкі, Финляндия банкі және башқа яғона банклардан түзілген. Бироқ, AQSh Markaziy bank 12 ھудуди Federal банклардан, яғни федерал захира тизими (FRS) башқарув көңгештің оңтүстік банкы болып табылады. Оның 12 ھудуди Federal банклардан башқарылған болып табылады.

Markaziy bank капиталiga bo‘lgan mulk шаклига ко‘ра ular дәвлат (капитал дәвлатга тегішлі) акционер және аралаш капитали түрлеріне бөлінеді.

Ba’zi Markaziy banklar дәвлат банклари ко‘ринишларда шақланады. Улардың Немис Federal Banki (Германия Buides банкі) 1957-жылда Rexs bankning davomchisi (1975-жылда пайдо болып табылады) сифатта шақланды. Ba’zi Markaziy banklar – олардың xususiy bank масалан, Англия банкі (1694), Франция банклари (1800) сифатта кейіншілік еса миллиялайтында дәвлат банкига айланып жеткізілді.

Aкционер түрінде Markaziy bank қатерге AQSh FRT (Federal Rezerv тизими) кіритіш мүмкін. FRS 1913-жылдан соң Federal Rezerv ассоциациясы пайдо болып табылады. Markaziy banklar жұмысшылық капиталда дәвлат, акционер және xususiy және капитал іштірек еткін банклар кирады. Бұл гурулар қатерге кирилес және Yaponiya banklar (1882-жыл) мисолынан көрсетілгенде мүмкін. Qonun bo‘yicha 1942-жылда 55% үстел капитали дәвлатта тегішледі. Deyarli барча мемлекеттік Марказий банк хукуқи меншіктарын тартып алған, анықловчы (belgilovchi) қонулар мавжуд. Turli мемлекеттік Марказий банкларға түрлі функциялардың бейнесін беріледі. Lekin Марказий bank doimo дәвлат және банк belgilarini o‘zida mujassamlashtirган дәвлаттың тартып алған органдың бөліб болады.

Mamlakatning Markaziy Banki – shu davlat bank tizimining asosiy qismi bo‘lib hisoblanadi. Markaziy bank – birinchi o‘rinda davlat va iqtisodiyot o‘rtasida vositachi bo‘lib xizmat qiladi. Ammo Markaziy bank o‘z oldiga foyda olishni maqsad qilib qo‘ymaydi.

Markaziy bankning asosiy maqsadi bo‘lib milliy valyuta kursini barqaror holatda saqlash va shu orqali mamlakat hududida baholar barqarorligini ta’minlash hisoblanadi.<sup>1</sup>

Bugungi kunda har qanday davlatning moliya-kredit tizimida eng asosiy va muhim o‘rinni rasmiy pul-kredit siyosatini yurgizuvchi – Markaziy bank egallaydi. O‘z navbatida pul-kredit siyosati byudjet siyosati bilan bиргаликда iqtisodiyotni butun mamlakat miqyosida tartibga solishning asosi bo‘lib hisoblanadi.

Banklar paydo bo‘lishining boshlang‘ich davrlarida ular markaziy emissiya yoki tijorat banklari tariqasida yuzaga kelgan emas, ya’ni ular o‘rtasida hozirgidek bo‘linish bo‘lmagan. Bank ishi ivojlanishining birinchi bosqichlarida rivojlantarni mamlakatlarda tijorat banklari kapitallarni yig‘ish maqsadida muomalaga banknotalar chiqarganlar. Banklarning yiriklashuvi, bank ishining rivojlanishi natijasida banknotalarni muomalaga chiqarish yirik tijorat banklar qo‘liga o‘ta borgan va keyinchalik biror yirik bank ixtiyoriga berilgan. Bu bank milliy yoki emission bank keyinchalik Markaziy bank deb atalgan. Markaziy bank ya’ni kredit tizimini boshqarib turuvchi, barcha banklar faoliyatini nazorat qilib turuvchi kredit instituti sifatida namoyon bo‘ladi.

Jahon amaliyotida Markaziy banklar vujudga kelishining ikki asosiy yo‘li mavjud.

Birinchi yo‘l – bu uzoq davr davomida tijorat banklarining rivojlanishi natijasida, ularni milliylashtirish yo‘li bilan Markaziy banklarning tatqiq qilinishi. Bunga misol kilib Angliya bankini 1844-yil, Fransiya bankini 1848-yil, Ispaniya banki 1874-yil, Germaniya Reyxsbanki 1875-yil, Italiyada 1893-yilda, Ispaniyada 1874-yilda mavjud banklarning emission markaz sifatida faoliyat

---

<sup>1</sup> O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki to‘g‘risidagi qonun. Toshkent, 1995-yil, 21-dekabr.

ko'rsatishga moslashganligini keltirish mumkin.

Ikkinchi yo'1 – tashkil qilingadayoq Markaziy bank -emission markaz sifatida qabul qilingan banklar. Bunday banklarga AQSHning Federal banklari, 1913-yillarda ko'pgina Lotin Amerika mamlakatlarda tashkil qilingan banklar, Avstriya banki va boshqalarni misol keltirish mumkin.

AQShda Markaziy bank funksiyasini 12 federal rezerv bankdan iborat Federal Rezerv tizimi bajaradi. Federal rezerv banklar aksioner banklar bo'lib, bu banklarning aksionerlari sifatida milliy tijorat banklari faoliyat ko'rsatadi. Tijorat banklar aksioner sifatida dividend olishadi. Dividend miqdori 6% dan oshmasligi kerak.

Markaziy banklar ijrochi tashkilotlar ta'sirisiz, o'z faoliyatini olib borishlari kerak.

Jahonda o'z faoliyatini olib borishda eng mustaqil bo'lgan banklardan biri bu Nemis Federal banki – Bundes bank hisoblanadi. Ba'zi bir davlatlarda Markaziy bank parlamentga hisobot beradi. Ko'pgina hollarda Markaziy banklar o'z faoliyatida mustaqil bo'lsa-da, shu bilan birga davlat banki hisoblanadi:

Markaziy bank quyidagi asosiy funksiyalarini bajaradi:

- banknotalar (naqd pullar) emissiyasi,
- davlatning oltin-valyuta zaxiralarini saqlash,
- pul-kredit siyosati instrumentlari yordamida iqtisodni muvofiqlashtirish,
- kredit institutlari faoliyatini muvofiqlashtirish,
- davlat banki sifatida faoliyat ko'rsatish,
- to'lov-hisob munosabatlarini tashkil qilishni belgilab berish,
- valyuta kursini muvofiqlashtirish.

Jahonning barcha mamlakatlarida banknotalarini muomalaga chiqarish funksiyasi Markaziy banklarning asosiy funksiyalaridan biri hisoblanadi va u bu sohada monopol huquqqa ega. Kredit pullar Markaziy bank tomonidan qonunda belgilangan ravishda chiqariladi va Markaziy bank muomalaga chiqarilgan pullarning qaytib bankga kelib tushishi choralarini ishlab chiqishlari zarur.

Davlatning oltin-valyuta rezervlarini boshqarish funksiyasi. Markaziy Bank davlatning oltin, qimmatbaho metall va kamyob toshlarni valyuta zaxiralarini boshqaradi. Davlatning rasmiy oltin-valyuta zaxiralari xalqaro hisob-kitoblarda aktivlar rezervi, hisob-kitoblar bo‘yicha davlatning kafolatli sug‘urta fondi sifatida namoyon bo‘ladi. Odatda, mamlakat oltin zaxiralarining asosiy qismi Markaziy bank ixtiyoriga berilgan bo‘ladi. Ba’zi davlatlarda oltin zaxiralar moliya vazirligi ixtiyorida bo‘lib, markaziy bank oltin bilan operatsiyalarni olib boradi.

Markaziy banklar mamlakat valyuta rezervlarini o‘zida yig‘adi va bu rezervlar xalqaro hisob-kitoblarni amalga oshirish, to‘lov balansi defitsitini qoplash va mamlakat milliy valyutasi kursining barqarorligini ta’minlash uchun ishlatiladi.

Markaziy bank orqali davlatning iqtisodiy siyosati, yanada aniqrog‘I, davlatning pul-kredit siyosati olib boriladi. Markaziy bankning pul-kredit siyosati davlatning shu iqtisodni boshqarish siyosatining bir qismi bo‘lib, muomaladagi pul massasi, kredit hajmi, foiz stavkalari darajasini va boshqa pul muomalasi va ssuda kapitali bozori ko‘rsatkichlarini o‘zgartirish bilan bog‘liq bo‘lgan chora-tadbirlar yig‘indisidan tashkil topadi.

Pul-kredit siyosatining asosiy maqsadi milliy valyuta barqarorligini ta’minlash, valyuta kursi va foiz stavkalarini oqilona o‘rnatish asosida inflyatsiya sur’atlarini kamaytirish, kreditdan foydalanishning samaradorligini oshirish va iqtisodiyotning barqaror o‘sishini ta’minlashdan iborat.

Pul-kredit siyosati ikki yo‘nalishda olib borilishi mumkin. Birinchi yo‘nalish – kredit ekspansiyasi bo‘lib, bu siyosat pul-kredit emissiyasini rag‘batlantirish yo‘li bilan olib boriladi, ya’ni ishlab chiqarish sur’atlari tushib ketgan holda, konyunkturada rivojlanishga erishish mumkin. Ikkinci yo‘nalish – kredit restriksiya siyosati bo‘lib, u iqtisodiy o‘sish davrida pul-kredit emissiyasining qisqarishiga asoslanadi.

Markaziy bank “tor” va “keng” ma’noda pul-kredit siyosatini olib borishi mumkin. “Tor” siyosatda valyuta bozorida investitsiya, hisob stavkasi va qisqa muddatli kreditlar bo‘yicha

*foiz* stavkalariga ta'sir qiluvchi boshqa instrumentlar yordamida valyuta kursini maqbulligiga erishish tushuniladi. “Keng” siyosatda muomaladagi pul massasiga ta'sir qilish orqali infliyatsiyaga qarshi kurash olib borish tushuniladi. Pul-kredit siyosatining xalqaro jihatlari valyuta kursi, valyuta rezervlari va to'lov balansi kabi masalalarning yechimiga qaratilgan bo'ladi. Markaziy bank ruxsat etilgan instrumentlar yordamida pul muomalasini boshqarib boradi. Markaziy bankning pul-kredit siyosatining asosiy instrumentlari bo'lib quyidagilar hisoblanadi:

- minimal majburiy rezerv normalarini o'rnatish,
- foiz (diskont) siyosati ,
- tijorat banklarini qayta moliyalashtirish,
- ochiq bozor siyosati,
- targetlash va boshqalar.

### **3.3. Markaziy bankning funksiyalari: emission funksiya; “banklarning banki” funksiyasi, “davlatning banki” funksiyasi, rasmiy oltin-valyuta zaxiralarini boshqarish funksiyasi**

Markaziy bank banknotalarni muomalaga chiqarish bo'yicha monopol mavqeyiga ega. Bu «banknota yakka hokimligi», deb ham ataladi. Banknotalar mamlakat hududidagi hisob-kitoblarda cheklanmagan miqdorda qabul qilinuvchi yagona to'lov vositasidir. Markaziy bankning naqd pullarni berish jarayonidagi monopol mavqeyi, uning barcha pul massasining hajmini, shu jumladan, tijorat banklarining hisob-raqamlaridagi pul mablag'larini ham nazorat qilishiga imkon beradi.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki haqidagi qonunning 34-38-moddalarida Markaziy bank mamlakatda muomalaga pul chiqarish huquqiga ega bo'lgan monopol bank ekanligi qayd etilgan. Shu nuqtai nazardan, u muomaladagi pul massasining barqaror ravishda aylanishiga javobgardir.

Markaziy bank uchun banknotalarning xarid qobiliyatini barqaror darajada saqlab turish muhim ahamiyatga ega. Bu esa,

eng avvalo, muomaladagi banknotalar miqdorining o‘zgarishiga bog‘liq. Bu holatni hisobga olgan bir qator markaziy banklar, xususan, Germaniya Markaziy banki rahbariyati muomaladagi naqd pul massasini tartibga solishni, kreditlash hajmini nazorat qilish bilan bir qatorda, milliy valyutaning barqarorligini ta’minlashning muhim sharti, deb hisoblaydi.

### «Banklarning banki» funksiyasi.

Markaziy banking «banklarning banki» sifatidagi funksiyasi, bizning fikrimizcha, asosan, quyidagi to‘rt yo‘nalishda namoyon bo‘ladi:

- Barcha tijorat banklari o‘z mablag‘larining ma’lum qismini Markaziy bankdagi foizsiz hisob-raqamlarida minimal rezervlar sifatida saqlashga majburdirlar.

Xususan, Germaniya Federativ respublikasida 1984-yildan boshlab, asosan, barcha tijorat banklari bilan bir qatorda uzoq muddatli qo‘yilmalar bilan shug‘ullanuvchi kredit institatlari va qurilish jamg‘arma kassalari ham minimal rezervlarini Markaziy bankda saqlashga majbur bo‘ldilar.<sup>2</sup>

Bank mijozlari o‘z jamg‘armalarining yoki kreditlarining ma’lum qismini Markaziy bank biletlarida, ya’ni naqd pullarda oladilar. Mijozlarning bu talabini tijorat banklari Markaziy bankdagi muddatsiz jamg‘armalarining istalgan paytda naqd pulga almashtiriladigan qismi hisobidan qondiradilar. Markaziy bank ana shunday yo‘l bilan butun bank tizimining to‘lovga qobiligiga ta’sir qiladi. Ammo, bundan har bir tijorat banki o‘zining naqd pullarga bo‘lgan talabini faqatgina ikki muhim vazifani hal qilish imkoniyatiga ega bo‘lib turibdi. Birinchidan, minimal emission bank mablag‘lari hisobidangina qondira oladi, degan xulosa kelib chiqmaydi. Ayrim banklarda banknotalarning ortiqcha zaxirasi mavjud bo‘ladi va ular boshqa banklarga bu pullarni kreditga berishi mumkin. Pul bozori rivojlangan mamlakatlarda bu jarayon texnik jihatdan juda silliq ko‘chadi. Shunisi xarakterliki, tijorat banklaridagi ortiqcha naqd pullar miqdori emission bank yaratgan

<sup>2</sup> Немецкий Федеральный банк. Специальное издания Немецкого Федерального банка, №7, 1993 г., стр. 64.

pullar miqdoriga tengdir. Demak, tijorat banklarining banknotalarni kreditga berish imkoniyati cheklangan. Bu esa, ularning banknota emissiyasi sohasida Markaziy bankka bog‘liqligini saqlab qoladi.

Shunday qilib, Markaziy bank rezervlar tizimi orqali bank tizimining to‘lovga qobilligini ta’minlayotgan bo‘lsa, ikkinchidan, pul bozoridagi naqd pullarga bo‘lgan talabni boshqarish orqali tijorat banklarining pul va kredit ekspansiyasini nazorat qilish imkoniyatiga ega bo‘layapti.

2. Markaziy bank barcha tijorat banklari va boshqa kredit institutlari uchun «so‘nggi kreditor»dir.

Tijorat banklari vaqtinchalik likvidli kredit oladilar. Bu kreditlar, albatta, tijorat veksellari bilan, davlatning qimmatbaho qog‘ozlari bilan yoki bankning boshqa qarz majburiyatlari bilan ta’minlangan bo‘lishi kerak.

Markaziy bankning tijorat banklarini qayta moliyalashtirish bo‘yicha amalga oshiradigan doimiy operatsiyalari tufayli pul bozorining mo‘tadil faoliyati ta’minlanadi. Bu esa, o‘z navbatida, tijorat banklariga mijozlarga qulay bo‘lgan foiz stavkalarida kreditlar berish imkoniyatini yuzaga keltiradi.

Ayni vaqtda, Markaziy bank, tijorat banklariga bergen kreditlari uchun belgilaydigan foiz stavkalarini o‘zgartirish yo‘li bilan kredit resurslariga bo‘lgan talabni tartibga solish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

3. Markaziy bankning ushbu funksiyasi doirasidagi uchinchi yo‘nalish, asosan, ikki holatda namoyon bo‘ladi. Markaziy bank mamlakat hududida amalga oshiriladigan hisob-kitoblar shakllarini, ularni qo‘llash tartibini va muddatini belgilab beradi. Xususan, Nemis Federal banki to‘g‘risidagi qonunda Bundes bankning «hisob-kitoblar tizimining banklar tomonidan mamlakatda va xorij bilan bo‘lgan aloqalarda ijro etilishi to‘g‘risida g‘amxo‘rlik qilishi» belgilab qo‘yilgan.

Haddan ziyod katta miqdordagi zaxiralarni tijorat banklari tomonidan saqlab turilishi xazina va tijorat veksellari kabi pul bozori vositalariga bo‘lgan talabni qisqarishiga olib keladi. Shu

bilan birga, to‘loving kechikishi yuqori inflyatsiya sharoitida kelib tushadigan pul mablag‘lari real qiymatining pasayishiga, davlat va korxonalar tomonidan kreditga bo‘lgan talabning kuchayishiga olib keladi. Bunday sharoitda restriksiyaviy pul-kredit siyosatining amalga oshirilishi, shubhasiz, mablag‘lar yetishmovchiligi natijasida ijro etilmagan to‘lov topshiriqnomalarining to‘planib qolishiga va korxonalarining o‘zaro qarzdorlik summalarining sezilarli darajada o‘sishiga olib keladi.

4. Mamlakat bank tizimining mo‘tadil faoliyat ko‘rsatishida Markaziy bankning qanday usullar yordamida va qay darajada tijorat banklari faoliyatini nazorat qilishi muhim ahamiyatga ega.

Hozirgi kunga kelib banklar faoliyatini nazorat qilish rivojlangan xorijiy davlatlarda markaziy banklarning muhim faoliyatiga aylandi. Faqat Buyuk Britaniya Markaziy bankigina nisbatan kech, ya’ni 1979-yilda rasman, qonuniy asosda banklar faoliyatini nazorat qilish huquqiga ega bo‘ldi.

Bundes bankning bu sohadagi o‘ziga xos xususiyati shundan iboratki, u bevosita banklar faoliyatini nazorat qilish bilan shug‘ullanmaydi. Balki nazoratni Federal nazorat mahkamasi amalga oshiradi. Ammo Bundesbank nazorat mahkamasiga yaqindan ko‘maklashadi. Xususan, ushbu mahkamaning joylarda bo‘linmalar mavjud emas va u to‘liq Federal bankning joylardagi muassasalaridan foydalanadi. Bundan tashqari, qarorlar qabul qilishda nazorat mahkamasi bir qator masalalar bo‘yicha Markaziy bankning roziligini olishi kerak. Masalan, banklarning o‘z kapitali va to‘lovga layoqatliligi xususida qaror qabul qilinishi uchun, albatta, Bundesbankning roziligi bo‘lishi shart.

Markaziy bankning banklar faoliyatini nazorat qilishining eng asosiy sababi mamlakatda bank tizimiga bo‘lgan yuksak ishonchni ta’minlash. Bu ishonch tijorat banklarining o‘z mijozlari – huquqiy va jismoniy shaxslar oldidagi majburiyatlarini to‘liq va o‘z vaqtida bajara olishi orqali ta’minlanadi.

Markaziy bank, davlat banki sifatida, Davlat byudjetining kassali bajarilishini amalga oshiradi, davlat organlarining naqd

pulsiz operatsiyalarini ma'lum qismini amalga oshiradi, hukumatning tashqi qarzlarini to'lashga xizmat qiladi, byudjet defitsitining ma'lum qismini qoplashga va boshqa davlat muassasalarining xarajatlarini moliyalashtirish maqsadlariga qisqa muddatli kreditlar beradi. Hamda hukumatga pul-kredit va valyuta masalalari bo'yicha maslahatlar beradi.

Masalan, Bundesbank davlat banki sifatida Federatsiyaga, ma'muriy-hududiy bo'linmalarga hamda Federatsiyaning parabyudjet fondlariga kreditlar berish huquqiga ega. Bu kreditlar hajmi cheklangan bo'lib, qisqa muddatli xarakterga egadir.

Davlat banki sifatida Bundesbank, hukumat nomidan uning obligatsiyalarini, moliyaviy veksellarini sotadi va ularni sotish uchun e'lon qiladi. U federal zayomlar kursini barqaror darajada saqlanishi uchun javobgar hisoblanadi.

Markaziy bank davlatning asosiy bankiri va hukumatning moliyaviy maslahatchisi bo'lib hisoblanadi. Bu borada:

- hukumat miqyosidagi tashkilotlarning hisob raqamlarini yuritadi;
- davlat zayomlarini chiqarish, saqlash va ular bilan tegishli operatsiyalarni amalga oshiradi;
- xukumatga kredit beradi;
- davlatning oltin-valyuta va qimmatbaho toshlardan iborat rezervini o'zida saqlaydi va boshqaradi;
- mamlakat miqyosida valyuta kursini o'rnatadi, foiz siyosatini yurgizadi va davlatning boshqa davlatlar oldidagi majburiyatlariga javob beradi. Ular bilan korrespondentlik munosabatlarini o'rnatadi va olib boradi.

Markaziy bankning davlat banki sifatidagi funksiyasining muhim ko'rinishlaridan biri hukumatning tashqi qarzlarini to'lash jarayonida namoyon bo'ladi.

#### Oltin-valyuta zaxiralarini boshqarish funksiyasi.

Rivojlangan davlatlarda hukumatning odatda, chet el valyutalarida hisob-raqamlari bo'lmaydi. Mamlakatning oltin-valyuta zaxiralarini boshqarish Markaziy bank zimmasida bo'lib,

ularning summasi Markaziy bank balansida aks etadi. Hukumatning esa, chet el valyutalarida tashqi qarzlari mavjud bo‘ladi. Qarzni to‘lash muddati kelishi bilan hukumat Markaziy bankka to‘lov topshiriqnomasi yozadi. Bank o‘zining valyuta zaxiralari hisobidan hukumatning tashqi qarzini to‘laydi va to‘langan summaning milliy valyutadagi ekvivalentini hukumatning hisob raqamlaridan chegirib oladi.

Rivojlangan industrial davlatlarda Markaziy bank bajaradigan an’anaviy funksiyalardan biri – valyuta zaxiralarini boshqarishda Markaziy bankning monopol mavqeyiga ega ekanligidir. Xususan, Avstriya, Buyuk Britaniya, Germaniya, AQSh kabi davlatlarning markaziy banklari mamlakat valyuta zaxiralarini boshqarishda ana shunday huquqqa egadirlar.

Markaziy banklarning maslahatlar berish va ma’lumotlar bilan ta’minalash funksiyasini uning davlat banki sifatidagi funksiyasiga kiritish mumkin.

Markaziy bankning ma’lumotlar talab qilish huquqi to‘g‘risida tijorat banklari uchun hisobotlar shaklini va topshirish muddatini belgilab berishini Markaziy bankning ma’lumot-tadqiqot funksiyasining bir ko‘rinishi sifatida ko‘rsatadi.

Shuni alohida ta’kidlash lozimki, Markaziy bankning funksiyalari qo‘yilgan maqsadlarga erishishni ta’minalash uchun xizmat qiladi. Shu sababli asosiy maqsadga erishish yo‘lida belgilangan u yoki bu vazifani hal etish Markaziy bank funksiyalarining ayrimlarini boshqalariga nisbatan faolroq jalg qilinishini talab etadi.

Yuqorida qayd etib o‘tilgan Markaziy bankning asosiy an’anaviy funksiyalari xalqaro bank tizimida an’anaviy ko‘rinish sifatida keng tarqalgan, ya’ni har bir rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar Markaziy banklarining funksiyalari bir-biriga o‘xshab ketadi.

## Nazorat uchun savollar

1. Banklarning paydo bo‘lishiga sabab bo‘lgan tarixiy shartsharoitlarini yoritib bering?

2. Banklarning turlari va ular faoliyatining o‘ziga xos xususiyatlarini, bank tizimi va uning elementlarini aytib bering?
3. O‘zbekiston Respublikasining bank tizimini, pul xo‘jaligining yuzaga kelishi va pullarni saqlash uchun maxsus muassasalarining zarurligini, pul xo‘jaligining nomarkazlashuvi va uning shakllarini kengayishi bo‘yicha nimalarni bilasiz?
4. Pul va kredit xo‘jaliklarining barqaror shakllarining yuzaga kelishi, markaziy banklarning yuzaga kelish sabablari va shartsharoitlari bo‘yicha nimalarni bilasiz?
5. Markaziy bank faoliyatining maqsadi, uning tashkiliy tuzilishi va funksiyalarini yoriting?
6. Markaziy bank faoliyatining maqsadi, vazifalari va uning tashkiliy tuzilishini ochib bering?
7. Markaziy bankning funksiyalari: emission funksiya; “banklarning banki” funksiyasini yoritib bering?
8. Markaziy bankning “davlatning banki” funksiyasi; rasmiy oltin-valyuta zaxiralarini boshqarish funksiyasini tushuntirib bering?

## **4-MAVZU: BANK RISKLARI VA ULARNI BOSHQARISH**

### **Reja:**

- 4.1. Bank risklarini boshqarish tizimi va uning tuzilishi.
- 4.2. Kredit riski mazmuni, baholash va uni boshqarish usullari.
- 4.3. Foiz riski va uni boshqarish usullari.

### **4.1. Bank risklarini boshqarish tizimi va uning tuzilishi**

Risk – bu tadbirkorlik faoliyatining eng asosiy elementlaridan biri hisoblanib, u keng ma'noga ega bo'lgan ko'p qirrali tushuncha. Shuning uchun bank faoliyatining samaradorligiga erishish, uning moliyaviy barqarorligini ta'minlash uchun iqtisodiyotda mavjud risklar, ularning bank faoliyatiga ta'sir qilish tomonlarini chuqur o'rganib chiqish zarur. Shu sababli maxsus adabiyotlarda, amaliyotda mavjud bo'lgan ba'zi bir fikr va mulohazalarni ko'rib chiqish maqsadga muvofiqdir.

Tovar-pul munosabatlarinig rivojlanishi riskning iqtisodiy kategoriya sifatida yuzaga kelishiga va subyektlar faoliyatida mustahkam o'rashib olishiga imkoniyat yaratdi. Shuning uchun ham risklar bizni tunu-kun, har yer va har joyda o'rab kelmoqda. U bizning hayotimizda har doim ham qochib bo'lmaydigan va yechish lozim bo'lgan bir jarayon bo'lib biror bir natijani yuzaga kelishiga asos bo'ladi. Bunday natija salbiy va ijobjiy bo'lishi mumkin.

Riskning sinonimi sifatida biz ishonchsizlikni, imkoniyatsizlikni, bir voqeа bo'lish-bo'lmasligini oldindan aytib bera olmaslik kabilarni misol qilib ko'rsatishimiz ham mumkin.

Endi biz riskning tub mohiyatini ko'rib chiqadigan bo'lsak, "risk" so'zi ispancha-portugalcha so'zdan olingan bo'lib "suv ostidagi qoya" degan ma'noni bildiradi. Shuning uchun ham risk xavf tug'dirish ehtimoli mavjudligini ifoda qiladi. Taniqli lug'atshunos S.N. Ojegovning rus tili lug'atida "risk" bu "muvaqqiyatga intilish, baxtli hodisa, umid" degan ma'noni

anglatadi deyilsa, mashhur Vebstera lug‘atida riskga “xavf, zarar yoki talofat ko‘rish ehtimoli”, deb qaralgan. V.T. Sevruk<sup>3</sup> “risk – bu zarar ko‘rish yoki manfaatni qo‘ldan chiqarish bilan bog‘liq ehtimollar o‘lchamidir”<sup>4</sup> degan ta’rif beradi.

Professor V.M.Usoskin “Risk doimo noaniqlik bilan birga kelib, o‘z navbatida oldindan ko‘ra bilish qiyin yoki mumkin bo‘lmagan voqealar bilan bog‘liq bo‘ladi”<sup>5</sup> deb izohlaydi. Ba’zi mualliflar tomonidan risk bu noaniqlik deb ta’riflanadi.

Y.S.Stoyanova “Risk bu rejorashtirilgan variantga nisbatan daromad ola olmaslik yoki zarar ko‘rish ehtimolidir”<sup>6</sup> deb ta’rif keltirsa, boshqa bir guruh mualliflar<sup>5</sup> risk bu korxona resurslarining bir qismini yo‘qotish yoki daromad ola olmaslik, qo‘srimcha xarajatlar qilish xavfidir, deb uqtirishadi.

Ba’zi bir iqtisodchilar riskni «xavf-xatar» deb ifodalaydilar. Ba’zi olimlar riskni «tavakkalchilik» deb ifodalaclar, boshqalari riskga «xato», «ikkilanish», «noaniqlik», «mavhumiylik» va hokazolar deb ta’rif berish to‘g‘riroq, degan xulosa qiladilar.<sup>7</sup>

Har bir faoliyatni amalga oshirishda ikkilanish yoki xavf-xatar bo‘lishi mumkin. Lekin ularni risk mazmunida ifoda qilib bo‘lmaydi.

Bugungi kunda mamlakatimiz banklari o‘z tasarrufidagi resurslaridan to‘liqligicha real sektorni kreditlash uchun foydalanganligi achinarli hol. Bundan kelib chiqib, iqtisodiyotning real sektori ehtiyojlarini moliyalashtirish maqsadida ortiqcha bank likvidliligidan voz kechish, ushbu resurslardan real iqtisodiyotni kreditlash orqali samarali foydalanish lozim.

Aslida, «risk» so‘zi italyancha «risk» so‘zidan olingan bo‘lib, «suv ostidagi qoyatosh» ma’nosini anglatadi, ya’ni qadimda dengizchilar suv osti toshlarining chiqib qolishi xavfi – risk deb

<sup>3</sup> Севрук В.Т. Банковские риски. М.: Дело., 1995 г.. с. 3

<sup>4</sup> Ольшаннов А.И.. Банковское кредитование. М.: РДЛ., 1997 г.с.34.

<sup>5</sup> Усоcкин В.М. Современный коммерческий банк. – М.: Финансы и статистики, 2003. 26 - б.

<sup>6</sup> Стоянова КС. Финансовый менеджмент. - М.: Дело, 2002. – 121 с.

<sup>5</sup> Грабовой П.Г., Петрова С.Н., Полталаев С.И. и др. Риски в современном бизнесе. М.: Альянс.. 1994 г. С.27.

atalgan<sup>8</sup>.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida risk bu – tadbirkorlikning eng asosiy elementlaridan biri hisoblanadi. Riskning o‘ziga xos xususiyatlari bu – noaniqlik, kutilmagan holat, ishonchszizlik va tahmin. Siyosiy va iqtisodiy nobarqarorlik sharoitida risk darajasi oshadi.

Riskning ikkita funksiyasi bor: rag‘batlantiruvchi va himoyalovchi.

Riskning rag‘batlanturuvchi funksiyasining ikkita jihatni bor, ya’ni konstruktiv va destruktiv. Konstruktiv jihatni shunday bir holatda yuzaga keladiki, bunda risk iqtisodiy qarorlarni hal qilishda katalizator rolini o‘ynaydi, ayniqsa, innovatsion, investitsion qarorlarni qabul qilishda. Destruktiv ko‘rinishi esa asoslanmagan risk bilan qabul qilingan va amalga oshirilgan qarorlar natijasida yuzaga keladi.

Riskning himoyalovchi funksiyasi ham ikki jihatga ega: tarixiy-genetik va ijtimoiy-huquqiy. Tarixiy-genetik jihatni shundan iboratki, insonlar doimo stixiyali tarzda kutilmagan noxush voqealardan o‘zlarini asrash shakllari va vositalarini izlaydilar. Amaliyotda bu sug‘urtalangan rezerv fondlarini tashkil etish, tadbirkorlik risklarini sug‘urtalash kabi ko‘rinishlarda namoyon bo‘ladi. Ijtimoiy-huquqiy jihatni esa, xo‘jalik, mehnat, jinoiy qonun hujjatlari to‘plamida risk kategoriylarini joriy qilishda namoyon bo‘ladi.

Bulardan tashqari, riskning yana quyidagi xususiyatlari mavjud bo‘lib, ular qarama-qarshilik, alternativlilik va noaniqliklardir.

Qarama-qarshiliklar quyidagilarda namoyon bo‘ladilar: risk bir tomonlama muhim iqtisodiy, siyosiy va ma’naviy-axloqiy natijalarga olib keladi, ya’ni ijtimoiy, texnik rivojlanishni tezlashtiradi, jamiyatning fikr va ma’naviy muhitiga ijobiy ta’sir qiladi. Ikkinchi tomonlama esa, aksincha, ta’sir qilishi mumkin,

---

<sup>8</sup> A.O’lmasov, Sharifxodjaev M. Iqtisodiyot nazariyasi. T.: Mehnat., 1995 yil, 387-b. Abdullaev Yo, Boboqulov T. Kredit.100 savolga 100 javob.T.: 1996 y., 80-b.

ya’ni risk ijtimoiy-iqtisodiy va ma’naviy rivojlanishga to’sqinlik qilishi mumkin.

Alternativlilik – bu bir yoki bir qancha ko‘rinishdagi qarorlarni tezlik bilan tanlashda namoyon bo‘ladi. Tanlash lozim bo‘lmagan joyda riskli jarayonlar ham vujudga kelmaydi va risk bo‘lmaydi.

Noaniqlilik, bu, albatta, noaniq, ya’ni kutilmagan holatlar bilan bog‘liq. Uning yuzaga kelish va tus olish shakli noaniq bo‘lib qolaveradi. A.Marshal, Dj.fon Neyman, O.Morgenshtern, F.Naytlar riskga quyidagicha yondashganlar<sup>9</sup>: «Risk va noaniqlilik kategoriysi iqtisodiy munosabatlarda katta rol o‘ynaydi. Xo‘jalik faoliyatining ajralmas qismi bo‘lgan noaniqlilik barcha murakkab va muhim iqtisodiy hodisalarning asosida yotadi. Noaniqlilik mohiyati riskda namoyon bo‘ladi».

O‘tgan asrning 20-yillarida F.Nayt<sup>10</sup> birinchilardan bo‘lib daromad doim noaniqlilik bilan bog‘liq, degan fikrni olg‘a suradi. Bank mijozning foya olishi uchun shart-sharoit yaratar ekan, demak, o‘zining manfaatini ham amalga oshirgan bo‘ladi. Banklarning kelajakdagi yangi xizmat turlarini kengaytirish va mijozlarni yanada jalb qilish maqsadi yuzasidan; “Zamonaviy bank xizmatlari bu tarmoqning kengayishiga turtki bo‘ladi”, deydi amerikalik tahlilshunos olima Keyt Stalter.<sup>11</sup> Shunday ekan, tijorat bankning mijozlarga nisbatan sheriklik munosabati o‘zaro manfaatdorlik qoidasiga asoslanishi lozim. P.Samuelson esa, quyidagilarni ta’kidlagan: «Noaniqlilik qarama-qarshiliklar natijasida kelib chiqadi, ya’ni insonlar nimalarни kutmoqdalar-u, nimalar sodir bo‘lmoqda, buning natijasi esa foya yoki zararda namoyon bo‘ladi».

Iqtisodiyotning tabaqlashgan darajasida risklarni quyidagicha ta’riflash mumkin:

- iqtisodiy risk;
- ijtimoiy-siyosiy risk;

<sup>9</sup> «Система страхования банковских рисков» Ю.А.Соколов, Н.А.Амосова, Москва-2003йил, 6-бет.

<sup>10</sup> «Система страхования банковских рисков» Ю.А.Соколов, Н.А.Амосова, Москва-2003йил, 7-бет.

<sup>11</sup> “The Future of Banking” by Kate Stalter, Contributor. U.S.News/Money/ June 29, 2015.

- fiskal-monetary risk.

Iqtisodiy risk deganda, umumi yirik tizim va uning tarkibi rivojlanishida, shu jumladan, agar bunday tizimning umumiqtisodiy muvozanatini va uning YaIMning o'sish sur'atini jahon bozorida raqobatbardosh mahsulotni chiqarish orqali o'rnatish maqsadi qo'yilgan bo'lsa, u holda ishlab chiqarish shakllarini oqilona uyg'unlashuvini tanlashda yuzaga keladigan risklar majmui tushuniladi, davlatning antisiklik usullar va boshqalardan foydalanib samarali chora-tadbirlar o'tkazishini taqozo qiladi.


Ijtimoiy-siyosiy risk deganda, umuman yirik tizim va uning tarkibi rivojlanishida, shu jumladan, davlatning narxni shakllantirish siyosatiga, shuningdek, mulk va intellektual boylik jamg'armalarining manbalarini:

- aholining barcha guruhini umumi tavsifdagi risklardan ijtimoiy himoyani ta'minlashga;
- daromadlarning adolatli taqsimlanishiga;
- ishsizlikni qisqartirishga;
- taklif yoki talabning jismoniy hajmlarini narx va boshqalar orqali tartibga solishga safarbar etish va jamlash bo'yicha masalalarni yechishga aralashuvida yuzaga keladigan risklar majmui tushuniladi.

Siyosiy risk – bu korxonalar va tashkilotlar faoliyatiga siyosiy ahvoldagi o'zgarishlar ta'siridir, bunga chegaralarning bekilishi, boshqa davlatlarga mahsulot, xom ashyo olib chiqish ta'qiqlanishi va aksincha, boshqa davlatlardan mahsulot, xom ashyo olib kirilishining ta'qiqlanishi. Fiskal-monetary risk davlat o'tkazayotgan moliyaviy va byudjet siyosati yordamida, narxlar darajasini barqarorlashtirish va optimal soliq me'yorlarini, pul massasining ta'minoti va konyukturasini tartibga solish bo'yicha Markaziy bankning samarali aralashuvi va boshqalar orqali yirik, murakkab tizimlar barqarorligi va iqtisodiy o'sishini ta'minlash bo'yicha masalalarni yechishda yuzaga keladigan risklar majmuidan iborat. Bozor iqtisodiyoti sharoitida risklar tizimini quyidagi 1-chizma orqali ifodalash mumkin.

## 1-chizma.

### Risk turlarining tizimlanishi<sup>12</sup>



Tarmoqlar riski ham mavjud bo‘lib, u ma’lum bir tarmoqning iqtisodiy-moliyaviy faoliyatidagi boshqa tarmoqlarga nisbatan o‘zgarib turish darajasi bilan to‘g‘ridan to‘g‘ri bog‘liqdir. Tarmoq riskini boshqarishda quyidagilarni e’tiborga olish kerak bo‘ladi:

- alternativ tarmoqlar faoliyati qay darajada, tarmoqlar natijalari o‘rtasidagi farq va sabablari;
- yaxshi faoliyat ko‘rsatib kelayotgan tarmoqda keskin o‘zgarishlar bor bo‘lsa, sababi nimadan iborat;
- bank mablag‘idan foydalanoqchi bo‘lgan korxonaning moliyaviy natijasi bilan o‘z tarmog‘i ichidagi o‘xshash korxonalar moliyaviy natijalari o‘rtasidagi farq.

Tarmoq riskini boshqarishda ishlatiladigan tushuncha bu tizimli risk deb yuritiladi. U orqali tarmoqlarda yuz berayotgan tebranishlar darajasi butun iqtisodda yuz berayotgan tebranishlar

<sup>12</sup> Iqtisodiy adabiyotlar materiallari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

darajasiga nisbatan solishtiriladi.

Riskning ko‘payishi, o‘z navbatida, ishbilarmonlik erkinligining ko‘payishi hisoblanib, ma’lum ma’noda u o‘sha erkinlik, o‘sha ixtiyorilik uchun to‘lanadigan «boj», ya’ni «to‘lov» dir.

Sof risklar zarar ko‘rish yoki hech qanday natijaga erishmaslik riskini anglatadi. Chayqovchilik risklari ham ijobjiy, ham salbiy natijalarga duch kelish mumkinligi bilan izohlanadi.

Moliyaviy risklar chayqovchilik risklari sifatida ifodalanadi. Ya’ni, investor vechur (xavfli, tavakkalchilikka asoslangan) kapital qo‘yilmani amalga oshirayotib, oldindan biladiki, u faqat 2 turdagи natijaga ega bo‘lishi mumkin: daromad yoki zarar.

Moliyaviy riskning xususiyati shundaki, zarar ko‘rish ehtimolligi moliya-kredit va birja sohasida, fond qimmatli qog‘ozlari bilan olib boriladigan biron-bir operatsiyani amalga oshirish chog‘ida ushbu operatsiyalarning tabiatidan kelib chiqqan holda yuz beradi.

Tijorat banklarida mavjud bo‘lgan moliyaviy risklarni tahlil etilsa, ularni bank moliyaviy faoliyati davomida foydani yoki kapitalini yo‘qotish ehtimoli sifatida, ifodalash mumkin. Ularni bir necha turga bo‘lish mumkin.

Yuqoridagilardan xulosa qilib ta’kidlamoqchimizki, risk va xavf-xatar bir xil tushuncha emas. Bu xulosamizning asosi bo‘lib, quyidagilar hisoblanadi:

- birinchidan, xavf-xatar riskga nisbatan askariyat hollarda birlamchidir. (albatta, ba’zi hollarda birlamchi xavf-xatardan keyin yana ikkilamchi xavf-xatar ham yuzaga kelishi mumkin. Lekin bu kam hollarda hisobsiz – «ko‘r» risklarda uchrashi mumkin);

- ikkinchidan, xavf-xatar darajasi past bo‘lgan hollarda risk qilinadi;

- uchinchidan, xavf-xatar va risk bir-biriga teskari proporsional bo‘lgan jarayondir;

- to‘rtinchidan, xavf-xatar darajasi (ko‘lami) yuqori bo‘lgan holda risk «0» bo‘ladi.

Bundan kelib chiqadiki, risk ma’lum miqdorda noaniqlikni o‘z ichiga olsa-da, uning natijasi aniq bo‘lib, undan aksariyat hollarda ijobjiy natija kutiladi.

Iqtisodiyotda noaniqlik deganda, mo‘ljallangan loyihalarni, faoliyatni amalga oshirish shartlari haqida, hamda ular bilan bog‘liq bo‘lgan xarajatlar va olingan natijalarning noaniqligi tushuniladi.

Noaniqlikning sabablarini uchta asosiy guruhga bo‘lib ko‘rsatish mumkin.

Birinchi guruh – bu bilmaslik, ya’ni bizni o‘rab turgan muhit haqidagi bilimlarimizning kamligi va to‘liq emasligi.

Ikkinci guruh – bu tasodifiylik. Bunga biz bir xil sharoitda turli xil bo‘lib sodir bo‘ladigan voqealarni kiritamiz. Har doim sodir bo‘ladigan voqeaga ishonchli voqea deyiladi va uning oqibati oldindan ma’lum bo‘lib, oldini olish chorasi ko‘zda tutilgan bo‘lishi mumkin, ya’ni risk “0” ga tenglashtirilishi mumkin

Uchinchi guruh – qarshilik, ya’ni bu guruhdagi noaniqliklar firmaning tovarga bo‘lgan talabning o‘zgarishiga, uning sotilishiga, ijarachilar bilan buyurtmachilar o‘rtasida kelishmovchiliklarning kelib chiqishiga, mol yetkazib beruvchilar tomonidan shartnomalarni bekor qilishga, jamoadagi kelishmovchiliklarga olib kelishi mumkin.

Ixtisoslashgan, tarmoqlashgan va universal tijorat banklarining har birida riskning hamma turlari mavjud bo‘ladi, lekin ularning paydo bo‘lish ehtimoli va xususiyati bank muassasasining turiga bog‘liqdir.

Risk toifalarining darajalanishi bank aktivlarini risk darajasini hisobga olgan holda guruhlash ko‘rinishida namoyon bo‘ladi.

Vujudga kelish shakllariga ko‘ra bank risklari: tizimli yoki tizimsiz risklarga bo‘linadi. Tizimli risklar – bank tizimidagi umumiyligi vaziyat natijasida bankning moliyaviy ahvoli o‘zgarishi ehtimoli sifatida ta’riflanadi. Tizimsiz yoki nomuntazam risklar – bank tizimida umumiyligi ahvol barqaror saqlangan holda alohida olingan bankning moliyaviy ahvoli yomonlashish ehtimolini bildiradi. Bank riskining bu turlari, odatda, bir-biri bilan juda bog‘liq bo‘lganligi uchun amaliyotda bu turdagisi risklarni bir-biridan ajratish juda qiyin.

Vujudga kelish sabablariga ko‘ra risklar: sof va sun’iy risklarga bo‘linadi. Sof risklar – ko‘pincha obyektiv xususiyatga ega bo‘ladi va salbiy («0») natijaga erishish ehtimolini bildiradi. Bu risklarga tabiiy, ekologik, transport risklari, tijorat riskining bir qismi kiradi. Chayqovchilik risklari iqtisodiy faoliyat, jumladan, bank faoliyati bilan bevosita bog‘liqdir. U ijobjiy yoki salbiy natijaga erishish imkoniyatida namoyon bo‘ladi. Bu risklarga paydo bo‘lish sabablariga qarab tabiiy, ekologik, siyosiy va boshqa kategoriylar vositasida yuzaga keluvchi moliyaviy risklar kiradi.

Vujudga kelish sohasiga ko‘ra bank risklari: tashqi va ichki risklarga bo‘linadi.

Tashqi risklar orasida ko‘pincha ta’sir darajasi bog‘liqligiga ko‘ra siyosiy risklar, iqtisodiy risklar va tabiiy-iqlim risklari ajratib ko‘rsatiladi. Siyosiy risklar mamlakatdagi siyosiy vaziyat va davlatning faoliyati bilan bog‘liq. Iqtisodiy risklar mamlakatdagi umumiyligi vaziyatdan kelib chiqadi.

Mamlakat riski, xalqaro bank amaliyotida va bank tashkilotlari, qo‘shma banklar faoliyatida pul oqimi, kredit va hisob operatsiyalari sohasida bo‘lgan risklar bilan bevosita bog‘liq. Bu risklarning bo‘lishi va ularning darajasi esa importyor yoki eksportyor davlatlar yoki kontragent mamlakatlardagi siyosiy-iqtisodiy barqarorlikka bog‘liq.

O‘zbekistonda bozor munosabatlari tamoyillarining amal qilishi tijorat banklaridan o‘z faoliyatlari bilan bog‘liq risklarni boshqa xo‘jalik subyektlariga nisbatan ko‘proq o‘rganishlarini talab etadi. Chunki tijorat banklari o‘z faoliyatlari bilan bir tomonidan, o‘z aksiyadorlari oldida javobgar bo‘lsalar, ikkinchi tomonidan, o‘z mablag‘larini ishonib topshirgan va bank xizmatlaridan foydalana-yotgan mijozlar oldida majburiyatga egadirlar.

Rivojlangan mamlakatlar banklariga nisbatan MDH davlatlari shu jumladan, respublikamiz banklari faoliyati yanada ko‘proq riskka ega bo‘lmoqda. Buning asosiy sababi rejali iqtisodiyot davridagi bank faoliyatini bugungi davr talabiga javob beradigan holda qayta tashkil etilmaganligi va yangi turdagiligi bank operatsiyalarini amalga oshirishda yetarli tajribaning yo‘qligi banklar

faoliyatidagi risk darajasining yanada oshishiga olib kelmoqda.<sup>13</sup>

Iqtisodiy risklar – bular mamlakat yoki bankning iqtisodiy ahvoldagi salbiy o‘zgarishlar oqibatida yuzaga keladigan risklar. Eng ko‘p tarqalgan iqtisodiy risk turiga balanslashmagan likvidlilik riski kiradi, ya’ni majburiyatlar bo‘yicha to‘lovlarini o‘z vaqtida bajara olmaslik.

Iqtisodiy risk deganda, umumiy yirik tizim va uning tarkibi rivojlanishida, shu jumladan, agar bunday tizimning umumiqtisodiy muvozanatini va uning YaIMning o‘sish sur’atini jahon bozorida raqobatbardosh mahsulotni chiqarish orqali o‘rnatish maqsadi qo‘yilgan bo‘lsa, u holda ishlab chiqarish shakllarini oqilona uyg‘unlashuvini tanlashda yuzaga keladigan risklar majmui tushuniladi, davlatning antisiklik usullar va boshqalardan foydalanib samarali chora-tadbirlar o‘tkazishini taqozo qiladi.

Har bir mamlakatning rivojlanish mavqeyi bilan bog‘liq bo‘lgan iqtisodiy risklar, xalqaro bank amaliyotida pul oqimi, kredit va hisob operatsiyalari sohasida bo‘lgan risklar bilan bevosita bog‘liq. Bu risklarning bo‘lishi va ularning darajasi esa importchi yoki eksport davlatga yoki kontragent mamlakatlardagi siyosiy-iqtisodiy barqarorlikka bog‘liq. Har bir mamlakatda iqtisodiy yoki siyosiy barqarorlikka asoslanib, shu mamlakatdagi iqtisodiy risk darajasini baholay olish chet el kapitali ishtirokida tashkil topgan qo‘shma banklar va bosh litsenziyaga ega bo‘lgan bank tashkilotlari uchun dorlzarbdir. Shuning uchun biror davlat bilan uzviy iqtisodiy aloqani o‘rnatishda, ayniqsa kredit va hisob-kitoblar bilan bog‘liq munosabatlarni olib borishda, undagi iqtisodiy-siyosiy barqarorlikni tahlil qilib risk darajasini aniqlash lozim. Jahon amaliyotida shu maqsadda tavsiya etiladigan yo‘llardan biri bu mamlakat iqtisodiy risklari hajmini tahlil qiluvchi BERI indeksidan foydalaniladi. Uning yordami bilan oldindan mamlakat iqtisodiy risklarining hajmi belgilanadi.

Mamlakat iqtisodiy riskini bashorat qilish davlat qurilmasining tarkibi va sifat darajalarini tahlil qilishga, shuningdek, amaliy ma’lumotlar va nisbatlarni o‘rganishga asoslangan miqdor

---

<sup>13</sup> «Bank risklari va kreditlash» Sh.Z.Abdullayeva, «Moliya» nashriyoti 2002-yil, 85-bet.

ko‘rsatkichlariga tayanishi kerak.

Makrodarajada mamlakat iqtisodiy riskini baholashda asosiy ko‘rsatkichlar sifatida quyidagilar tahlil qilinishi mumkin:

- iqtisodiyotning samaradorligi (bunda YaMMning o‘rtacha yillik o‘sishi hisoblanadi);
- siyosiy risk darajasi;
- jahon banki ma’lumotlariga asosan olingan kreditlar miqdori, ular bo‘yicha qarzdorlik darajasi, kreditni qaytib to‘lash jarayonining amalga oshirilish sifati, eksport hajmi, tashqi qarzlar, tashqi savdo oboroti va boshqalar;
- bank kreditlarini olish imkoniyati;
- qisqa muddatli kreditlash imkoniyati;
- uzoq muddatli kreditlash imkoniyati;
- fors-major holatlarining yuzaga kelishi;
- mamlakatning kreditga layoqatlilik darajasi;
- tashqi qarzlar bo‘yicha to‘lannagan majburiyatlar.

Iqtisodiyotning mezodarajadagi risklarining salmoqli turi – sanoat riski ma’lum tarmoqning ichida ham, boshqa tarmoqlarga nisbatan ham alohida olingan tarmoq iqtisodiy ahvolning o‘zgarishi, uning rivojlanishi va amal qilishining o‘ziga xosligi bilan bog‘liq.

Xo‘jalik tarmog‘iga nisbatan soliq me’yorlaridagi, tarmoq yo‘riqnomalari, kredit olish shartlari va boshqalardagi o‘zgarishlar risk manbayi bo‘lib hisoblanadi. Sanoat riskini baholashda quyidagi-larni e’tiborga olish kerak:

- alohida olingan tarmoqning bir-biriga bog‘liq tarmoqlar bilan o‘zaro aloqada ma’lum vaqt mobaynidagi faoliyati (tarmoqning hayotiy davri);
- bir-biriga bog‘liq tarmoqlar faoliyati mamlakat iqtisodiyotiga nisbatan qanchalik barqaror bo‘lishi;
- korxona yoki firmalarning o‘z kapital qo‘yilmalarini boshqa tarmoqlarga o‘tkazish imkoniyati;
- firmalarning bajarayotgan ish hajmi, ishlaydiganlar soni, tarmoq ichidagi ularning xo‘jalik faoliyati moliyaviy natijalari bo‘yicha qaydarajada tasnif qilinganligi va h.k.

Iqtisodiyotning ishlab chiqarish va iste’mol jarayonlarining subyektlari hisoblangan korxonalar, xorijiy investorlar, davlat, yakka

xo‘jaliklar va ular bilan bog‘liq ashyoviy (tovar) va monetar (pul) oqimi tebratadi. Xo‘jalik oborotining g‘ildiragi bu – pul mablag‘lari bo‘lib, ular banklar va boshqa moliyaviy muassasalar orqali oqib o‘tadi. Shuning uchun iqtisodiyotning qaysidir bir sohasi yoki kanalida mavjud risklar banklar faoliyatiga ham ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

Iqtisodiyotda nafaqat pul oqimida, balki barcha jarayonlarda riskning yuzaga kelishi uni yuzaga keltiruvchi manbalarga bog‘liq bo‘ladi. Aniqroq qilib aytadigan bo‘lsak, risk bu faoliyat ko‘rsatuvchi subyektlar amaliyotida yuzaga kelib iqtisodiy kategoriya sifatida ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarda aniq va yechimi bo‘lmagan holatning son va sifat jihatdan bog‘liq bo‘lgan voqelikni anglatadi.

Banklar bajaradigan operatsiyalariga qarab emissiya va tijorat banklariga bo‘linadi. “Banklarning eng muhim vazifalaridan biri bu “*pulni yaratish*”. Pulni yaratish bu pulni “*ishlab chiqarish*” bilan cheklamasdan, buning o‘rniga bank rezervlaridan “*tomchilanma*” usulida ham pulni ko‘paytirish mumkin”, deydi xorijlik olim Stefan D.Simpson.<sup>14</sup>

Har qanday mamlakatda emissiya banklari kredit tizimining markazi hisoblanadi, ularga davlat banknotalar chiqarish, emissiya uchun monopoliyalik huquqini beradi. Ular boshqa banklarni kreditlaydi va shu ma’noda banklarning banki sanaladi. Bizning mamlakatimizda kredit tizimining markazi, emissiya banki va banklarning banki O‘zbekiston Respublikasining Markaziy banki hisoblanadi.

Ma’lumki, tijorat banklarida risklarni minimallashtirishga risk strategiyasini ishlab chiqish orqali erishish mumkin.

Bank riskini boshqarish tizimi riskning yuzaga kelishini oldindan xom cho‘t qilish, risk tufayli yuzaga keladigan salbiy holatlarga yo‘l qo‘ymaslik yoki ularning ta’sirini kamaytirish borasida chora-tadbirlar, usullar yig‘indisini o‘z ichiga oladi.

Bank riskini boshqarish tizimining obyekti banklar faoliyatida yuzaga keluvchi risklar bo‘lsa, uning subyekti sifatida riskga o‘z ta’sirini o‘tkazuvchi guruh, bank bo‘limi hodimi yoki menejeri

---

<sup>14</sup> “The Banking System” by Stephen D.Simpson, CFA. Investopedia 2016

hisoblanadi.

Bank risklarini boshqarish strategiyasini ishlab chiqish uchun bank faoliyatini chuqur bilish, bank bajaradigan operatsiyalarning samaradorligini aniqlay bilish, bankning kredit, investitsiya, valyuta siyosati va boshqa faoliyatlari bo'yicha optimal qarorlar qabul qilishga erishish, mijozlarning xo'jalik faoliyati va ularning moliyaviy ahvoli, tarmoqlar faoliyatining xususiyatlari va boshqalarini bilish lozim.

Bankning risklarni boshqarish strategiyasi bankning barcha imkoniyatlaridan to'la foydalanish, bankni rivojlantirish istiqbolalarini belgilab berish va bank risklarini oldini olib banklar faoliyatining samaradorligini oshirishga imkon yaratadi.

Hozirgi paytda O'zbekistonda ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotini shakllantirish jarayoni tijorat banklarining barqaror faoliyat yurituvchi tizimini yaratishni ko'zda tutadi. Chunki tijorat banklari bozor infratuzilmasining muhim tarkibiy qismlaridan biri hisoblanadi. Ularning barqarorligi davlat ahamiyatiga egadir.

Bank faoliyatida riskning yuzaga kelishi ba'zi bir salmog'i, ta'siri, shakli jihatdan turlicha bo'lgan noaniqliklar bilan bog'liq bo'ladi. Chunki bank faoliyati tashqi muhitga bog'liq bo'lib, unga obyektiv iqtisodiy va siyosiy jarayonlar va ulardagи bo'ladigan o'zgarishlar ta'sir ko'rsatadi.

Bank faoliyatida risklarning yuzaga kelishining quyidagi sabablari mavjud:

- bozorni yaxshi o'rganmaslik;
- resurslarni jalb qilish va ularni joylashtirish sohasida ma'lumotlarning yetarli emasligi;
- kreditlanadigan loyiha, obyekt va mijozlar to'g'risida, ularning moliyaviy ahvoli to'g'risidagi ma'lumot va axborotlarning to'liq emasligi;
- tarmoqlar faoliyati xususiyatining inobatga olinmasligi;
- subyektlar yoki mijozlarning ongi, saviyasi, mablag'lardan foydalanish bo'yicha bilimi va maqsadlarining turli xilligi va boshqalar hisoblanadi. Shu sababli bank risklarining iqtisodiy kategoriya sifatida ta'rifi uning obyektiv va subyektiv sabab va oqibatlarini o'zida ifoda qilmog'i lozim.

Bugungi kunda biz bu sohani rivojlantirmasdan turib iqtisodiyotimizning kelajagini ta'minlay olmaymiz. “Aqli biznes egalari bilishadiki, xodimlarni maqsad sari to‘g‘ri yo‘naltirish bu omad sari yetaklovchi kuchdir”, - deb ta’kidlaydi iktisodchi Jim Blasingeym o‘zining zamonaviy qarashlarida.<sup>15</sup>

Risk darajasini baxolashga hamda uni kamaytirishga qaratilgan eng qadimiy choralardan biri bu risklarni sug‘urta qilish usulidir. Bugungi kunda respublikamiz tijorat banklarining bu usulidan foydalanishlari bir muncha kiyinroq bo‘lmoqda, chunki o‘tish davrida barcha MDH davlatlaridagi kabi bizning respublikamizda ham sug‘urta faoliyati yangi davr talablari ostida qayta tashkillashtirilmoqda va yangi o‘zlashtirilayotgan sohalar qatoriga kirmoqda. Bank risklarini paydo qiluvchi faktorlar asosida, eng avvalo, iqtisodiy hamda siyosiy faktorlar yotadi. Quyidagi 1-jadvalda bank risklarini boshqarish jarayonining vazifalarini belgilovchi to‘rtta asosiy bosqichi ko‘rsatilgan:

### **1-jadval** **Bank risklarini boshqarish jarayonining vazifalarini belgilovchi bosqichlari**

<b>Bank risklarini tahlil qilish va baholash.</b>	<b>Risk miqdorini aniqlash.</b>	<b>Bank risklarini boshqarish.</b>	<b>Bank risklarini boshqarish.</b>
Bank axborot manbalari-dan kredit risklarini va ular o‘rtasidagi bog‘liqliklarni o‘rganib chiqish hamda ularni nazorat qiladigan risklarga ajratish kerak.	Riskning miqdoriy ko‘rsatkichini aniqlash ehtimoliy yo‘qotishlar miqdorini aniqlashga va aktiv boshqarish instrumentlari vosisida risk darajasini shakllantirishga imkoniyat yaratadi.	Boshqariladigan risklar va ularning miqdori aniqlanganidan keyin, kredit risklarini boshqarish metodologiyasi va strategiyasi ishlab chiqilishi zarur.	Risklarni boshqarish bo‘yicha tadbirlar natijalari nazorat ostida bo‘lishi lozim.

Bank nazorati bo‘yicha Bazel qo‘mitasi 2004-yil iyun oyida tijorat banklari kapitali yetarliligini ta’minalash muammosi hamda

<sup>15</sup> “Motivating employees is good business” by Jim Blasingame, “The Small Business Advocate” August 5/2015.

ular tomonidan iqtisodiy me'yorlarga rioya qilinishi ustidan nazoratni yaxshilash masalalariga bag'ishlangan yangi yondashuv «Kapitalni o'lchash va kapital standartlarining halqaro konvergen-siyasi (Bazel III ni) e'lon qildi. Bu talablar uchta komponentga asoslanadi:<sup>16</sup>

1. Kapital yetarlilikiga minimal talab (kredit, operatsion va bozor risklarining baholash jihatlarini aks ettiruvchi tijorat banklari kapitali yetarliliga minimal talab). Bundan asosiy maqsad, bank regulyativ kapitalining mavjud iqtisodiy risklarga nisbatan ta'sirchanlik darajasini yanada aniqlashtirishdan iborat.

2. Nazorat jarayonlari (joriy nazorat). Bazel qo'mitasi risklarni hisoblashda nafaqat kapitalga nisbatan minimal talablarga rioya qilinishini tekshirish, balki tijorat banklari va nazorat organlarining tahlil imkoniyatlarini rivojlantirish, xususan, kapital yetarliliginin ichki baholash metodlari bilan baholashda stress-testni yo'lga qo'yishni taklif etadi.

3. Bozor dastaklaridan samarali foydalanish (bozor intizomi). Bu komponent yuqorida ikkita komponentni to'ldiradi, shuningdek, bozor intizomining mustahkamlanishiga imkon yaratadi.

## **4.2. Kredit riski mazmuni, baholash va uni boshqarish usullari**

Kredit vaqtincha bo'sh turgan pul mablag'larini ma'lum muddatga, haq to'lash sharti bilan qarzga olish va qaytarib berish yuzasidan kelib chiqqan iqtisodiy munosabatlar majmuidir.

Banklar faoliyatini to'g'ri tashkil etish, ularda mavjud risklarni minimallashtirish masalalaridan biri – kredit risklari, ularning sifati va darajasini aniqlash va tahlil qilishdan iborat.

Ma'lumki, bank amaliyotida foyda, asosan, berilgan kreditlar bo'yicha olinadigan foizlardan tashkil topadi. Qarz oluvchi tomonidan olingan kreditlar bo'yicha foiz stavkasining yoki kreditning asosiy summa o'z vaqtida to'lanmasligi umuman to'lanmasligi oqibatida bank foydasining kamayishi bankning kelajakdagi mablag'lari salmog'ining tushib ketishiga olib keladi.

<sup>16</sup> «Bozor, pul va kredit» jurnali, 2007-yil, 9-sentabr, 27-29 betlar.

Banklar faoliyatida kredit operatsiyalari asosiy o‘rinni egal-lagani uchun ularning kredit portfelini to‘g‘ri tashkil qilish banklarning samarali va barqaror faoliyat ko‘rsatishi uchun imkoniyat yaratib beruvchi asosiy omillardan biri hisoblanadi.

Kredit riski mijoz tomonidan asosiy qarz summasini va kredit bo‘yicha foizlarni to‘lay olmaslik ehtimoli bo‘lganda yuzaga keladi. Bank kredit berib, uning o‘rniga mijozning tegishli hujjatlarini oladi. Bu hujjatlar mohiyati jihatidan to‘lash to‘g‘risidagi va’da xolos. Bank kreditlari risklarining eng ko‘p ishlataladigan ko‘rsatkichlari:

- harakatsiz (muammoli) kreditlarning kreditlar va lizing bo‘yicha majburiyatlarning jami hajmiga nisbati;

- kreditlar bo‘yicha hisobdan chiqarish (zararga olib borish) summasining kreditlar va lizing bo‘yicha majburiyatlarning jami summasiga nisbati.

Berilgan kreditlarning o‘z vaqtida banklarga qaytarilishi kreditlash jarayonining qay darajada tashkil qilinishiga, kredit berish va qaytarilishining muddatlariga rioya qilinishiga, ssudalar, ayniqsa, muddati o‘tgan yoki uzaytirilgan kreditlar bo‘yicha hisob-kitob operatsiyalarining to‘g‘ri olib borilishiga, ssudalar bo‘yicha zararlarni qoplash rezervi miqdoriga, banklararo kredit va markazlashtirilgan kreditlar bo‘yicha operatsiyalarning qonuniyligiga va kreditlarni to‘g‘ri turkumlash bo‘yicha banklarda o‘tkaziladigan analitik operatsiyalarning sifatliligi va boshqa omillarga bog‘liq bo‘ladi.

Banklar tomonidan bajariladigan barcha kredit operatsiyalari ularning kredit portfelida o‘z ifodasini topishi, har bir bank kredit portfelining sifatli bo‘lishiga erishishi zarur. Bu esa kreditlarning o‘z vaqtida qaytib kelishiga asos bo‘lishi mumkin.

Tijorat banklarining iqtisodiy roli uning faoliyat doirasining keng bo‘lishiga olib keladi. Hindistonlik olma Shrita Chand o‘zining “Tijorat banklari va ularning funksiyalari” haqidagi maqolasida quyidagicha fikr bildirgan; “Banklarni ularning tuzulishi asosida yoki ularning funksiyalariga qarab turli guruxlarga bo‘lish mumkin. Bank strukturasi bank ishlari

doirasida bank bo‘limlarida shakllanadi. Bankning bajaradigan funksiyalariga qarab depozit va investitsion banklar faoliyatiga bo‘lish mumkin”.<sup>17</sup>

Tijorat banklari o‘z faoliyati bilan bozor iqtisodiyoti talablariga mos ravishda ishlay oladigan tashkilotlarni o‘z vaqtida mablag‘ bilan qo‘llash va bunday tashkilotlarni aniqlash kabi muxim bir vazifani amalga oshirmoqda. Tijorat banklari kreditlash jaraenlari orqali mamlakat iqtisodining rivojlanishiga xam juda katta xissa qo‘shmoqda. Bir guruh rus iqtisodchilari tomonidan keltirilib, ular «...tijorat banklarining kredit portfeli – bu kreditlarni ma’lum belgilar bo‘yicha turkumlashdir», degan fikrni oldinga suradilar. Bu keltirilgan ta’riflarni kredit portfeliga berilgan to‘liq ta’rif, deb xulosa qila olmaymiz. Chunki turkumlash, jarayoni ikkilamchi bo‘lib, uni amalga oshirish uchun bank avvalombor kredit portfeliga ega bo‘lishi lozim. Kreditlarni turkumlash bizning fikrimizcha, kredit portfelining sifatiga baho berish uchun zarur.

Shunday qilib, tijorat banklarining kredit portfeli turli xil kredit risklarga asoslangan, muayyan mezonlarga qarab turkumlangan kreditlar miqyosidagi bank talablarining yig‘indisi bo‘lib, uni samarali boshqarish kredit risklarini va umuman olganda, bank risklarini kamaytirishning muhim omili hisoblanadi.

Bankning kredit faoliyati, uni boshqa nobank tashkilotlardan farqlovchi asosiy mezonlardan biridir. Jahon amaliyotida aynan kreditlash bilan bank foydasining talaygina qismi bog‘liq. Shu bilan bir vaqtida, kreditlarning, asosan, yirik kreditlarning qaytarilmasligi, bankning bankrot bo‘lishiga olib kelishi ham mumkin.

Shuning uchun kreditorlar ular bergen mablag‘larning qaytishi bilan bog‘liq risklarni kamaytirishga harakat qiladilar.

Qarz oluvchi faoliyatida mavjud risklar darajasini kreditor kredit bergunga qadar, keyinchalik kredit bergandan keyin, undan foydalanish davomida aniqlashi mumkin. Riskni minimallashtirish

---

<sup>17</sup> “Commercial Banks; Types and Functions of Commercial Banks of India” by Smriti Chand, “Your Article Library” 2015

maqsadida kreditor kredit berishdan oldin riskni aniqlashga harakat qiladi.

Kreditlarning belgilangan muddatda qaytarilishi quyidagi qator sabablarga bog‘liq:

- alohida olingan banklarda kredit berish jarayonining tashkil qilinish darajasi;
- ssudalar berilishi va qaytarilishi tartibiga amal qilinish darajasi;
- ssudalar va ayniqsa, muddati uzaytirilgan va muddati o‘tgan; ssudalarni hisobga olish jarayonining to‘g‘ri aks ettirilishi;
- ssudalarning to‘g‘ri tasniflanishi;
- sudalar bo‘yicha ehtimoliy yo‘qotishlarga ajratilgan zaxiralar miqdori va boshqalar.

Kredit portfelining mohiyatini ochib berishda quyidagi omillarni inobatga olish zarur. Bular:

- kreditlar bo‘yicha risk darajasi;
- kredit berish obyektlari;
- kreditdan foydalanish muddati;
- kreditning hajmi va ta’minlanganligi;
- mijozning moliyaviy holati, mulk shakli va boshqalar.

Shularni inobatga olgan holda bizning fikrimizcha, kredit portfelia quyidagicha ta’rif berish mumkin. Banklarning kredit portfeli – bu turli xil kredit risklarga asoslangan muayyan me’zonlarga qarab turkumlangan kreditlar miqyosidagi bank talablarining yig‘indisidir.

Mazkur ta’rif kredit portfelining mohiyatini to‘g‘ri tushunish va tahlil qilishga yordam beradi. Chunki:

- berilgan kreditlar bo‘yicha risklilik darajasini ifodalovchi mezonlar;
- bankning barcha bergen kreditlari bo‘yicha talablari yig‘indisini hisobga olish zaruligi;
- kreditlarning asosiy me’zonlari bo‘yicha turkumlash lozimligi va boshqalar o‘z aksini topgan.

Kredit riskining yuzaga kelishiga quyidagi hollar:

- a) turli xil makro va mikroiqtisodiy omilar, iqtisodiy

qonuniylik va me'yorlardagi o'zgarishlar;

b) qarz oluvchi o'z faoliyatida bo'ladigan iqtisodiy va siyosiy muxitdagi o'zgarishlar, salbiy hollar tufayli olingan kreditni to'lashga mos pul oqimini tashkil qila olmasligi;

v) kreditning ta'minlanganligi uchun olingan garovning qiymati va sifati bo'yicha to'liq ishonchning yo'qligi;

g) yuqori bilimga ega bo'lgan bank xodimlar va mijozlarning kamyobligi;

d) qarz oluvchi subyektning mahalliy yoki davlat miqyosida obro'sining tushib ketishi, uning ishchanlik faoliyatida yuzaga kelgan o'zgarishlar va boshqa sabablar bo'lishi mumkin.

Kredit riski tashqi omillarga (bozor holati bilan, iqtisodiy muhit holati bilan bog'liq) va ichki omillarga (bankning o'zining xato faoliyati sabab bo'lgan) bog'liq bo'ladi.

Tashqi omillarni boshqarish imkoniyatlari cheklangan bo'lsa ham, ammo o'z vaqtidagi harakatlar bilan bank ushbu omillarning ta'sirini yumshatishi va yirik zararlarni bartaraf qilishi mumkin.

Bankda kredit riskining yuzaga kelishi, birinchidan, puxta ishlab chiqilgan kredit siyosati va unda qayd etilgan mijozlar bilan bo'ladigan operatsiyalarga tegishli umumiy yo'riqnomalarning mavjudligiga; ikkinchidan, ushbu yo'riqnomalarni hayotga tadbiq etayotgan bank xodimlarining bilim darajasiga va harakatlariga, ya'ni riskni boshqarish qobiliyati bank rahbarlarining omilkorligiga hamda kredit shartnomalarining shartlarini ishlab chiquvchi, kredit loyihalarni tanlab oluvchi bank xodimlarining malaka darajasiga bog'liq bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasi kreditlash tizimini rivojlantirish quyidagilarga bog'liq:

1. Banklar va boshqa maxsus kredit institutlarining kredit berish hajmi, ular tomonidan jalb qilingan kredit resurslari miqdoriga bog'likdir. (1:10):

2. Banklar tomonidan kredit berish tijorat asosiga mo'ljallangan (arzon olib – qimmat sotish va marja):

3. Kredit berish, olish, qoplash, nazorat qilish kredit oluvchi bankning kelishuviga ya'ni kredit shartnomasiga asoslanadi:

4. Kreditlashda hozirgi kunda asosiy bo‘lib, ya’ni birlamchi bo‘lib kredit subyekti, so‘ng esa kredit obyekti hisobga olinadi:

5. Kreditlash miqdori (hajmi) bank bo‘yicha (potensiali) Markaziy bankning iqtisodiy normativlariga bog‘liqdir (N1 – kapital yetarligi, bank likvidligi, majburiy zaxira miqdori, qayta moliyalashtrish stavkasi va boshqalar).

Ba’zi bir mijozlar kredit olish, uni to‘ldirish jarayonida oldingi davrdagi kabi kredit obyektlari bo‘yicha hujjat, ba’zi bir mijozlar esa yangi usul yordamida kredit olish uchun harakat qiladilar. Bularning barchasi hozirgi davr kredit berish tizimiga o‘tish davrini boshidan kechirayotganidan xabar qiladi. O‘tish davrining asosiy kamchiliklari bo‘lib esa quyidagilar hisoblanadi.

1. Turli tijorat banklari faoliyati hali ham eski kredit berish usullarining saqlanib qolayotganligi.

2. Tijorat va maxsus banklarning texnik jihatdan to‘liq rivojlanmaganligi, texnologiyaning to‘la-to‘kis bank operatsiyalari joriy qilinmaganligi.

O‘tish davri kredit berish tizimining eng muhim xususiyati shuki, unda tashkilot va aholini unifitsirlashgan usullari kredit berishi saqlanib qolganida.

Bu xususiyatlar quyidagilardan iboratdir.

1. Kredit berish tizimi bankning korxona sifatida o‘z resurslariga bevosita asoslanadi.

2. Hosil bo‘lgan kredit mexanizmi tijorat xarakteriga egadir. Tijorat banklari hozirgi kunda savdo korxonasi xususiyatlarini olmoqda. Ularga arzon olib, qimmat sotish prinsipi to‘g‘ri kelishini ta’kidlash maqsadga muvofiq bo‘lmoqda.

3. Bugungi kundagi kredit berish tizimining o‘ziga xos xususiyatlaridan yana biri, ularning nafaqat o‘z kredit mablag‘lariga bog‘liqligi, balki Markaziy bank tomonidan o‘rnataladigan iqtisodiy normativlarga ham bevosita bog‘liqligidir.

4. Hozirgi davr kredit berish tizimining eng muhim belgilaridan (xususiyatlaridan) yana biri ularning shartnomaga asoslanmaganligidir. Kredit berish uni boshqarish davrida vujudga keladigan barcha muammolar shu mijoz bilan tuziladigan

shartnoma orqali xal kilinadi. Bunda bank va mijozning huquq – majburiyatlari qonun, hamda kelishuv asosida belgilab quyiladi. Mijoz tomonidan ham, bank tomonidan ham qiziqish qolmagan taqdirdagina shartnoma bekor qilinishi mumkin.

5. Kredit berish tizimining yaqqol ajralib, ko‘zga tashlanadigan belgisi – bu kredit berish tizimining obyektidan subyektiga o‘tganligidir.

6. Yangi kredit berish tizimi, kreditning eski, ammo prinsipial (maxsus) prinsiplariga asoslanadi. Ya’ni kredit berish jarayonida uning maxsus prinsiplari – qaytarib berishlik, to‘lovililik, ta’milanganlik va muddatlilik prinsiplariga to‘la-to‘kis amal kilinadi.

Kredit berish tizimining yangi zamonaviy belgilaridan keyingisi – bu banklar tomonidan yuqori darajada kafolatlangan, bank ssudalarini berishni tashkil qilishdir.

Kredit munosabatlarida kreditorlar kreditga yoki qarzga berilgan summaning o‘z vaqtida qaytib to‘lanishini va mo‘ljallangan foiz stavkalarini belgilangan vaqtda olishni kutadilar. Ular riskdan qochadilar, kredit berishgacha u bilan bog‘liq risk darajasi bilan qiziqadilar, uni aniqlaydilar va o‘zlari uchun risk darajasi minimal bo‘lgan hollarda kredit ajratish to‘g‘risida ijobiy xulosa qabul qiladilar. Lekin kreditor tomonidan kutiladigan natija har doim ham u o‘ylaganidek bo‘lmasligi mumkin.

Kredit riskini boshqarishning asosiy bosqichlari quyidagilardan iborat.

1. Kreditning maqsadi, ya’ni boshqarish strategiyasi determinatlarini aniq belgilab olish.

2. Turli kreditlarning daromadlilik darajasi to‘g‘risidagi taxminga ega bo‘lish.

3. Tanlab olingan vositalarning oqilona nasbatini ta’minalash maqsadida taxminlar ustuvorligini aniqlash.

4. Portfel tarkibida tub o‘zgarishlarga sabab bo‘luvchi omillarni doimiy tarzda tahlil qilish va o‘rganish.

5. Portfel faoliyatini baholash, ya’ni kredit riskiga nisbatan portfeldan olinadigan daromadlarga baho berish.

Kredit portfeliniboshqarishda asosiy o‘rinni alohida olingan ssudalarning sifatini baholash me’zonlarini ishlab chiqish va ular baholash asosiy o‘rinni egallaydi.

Bozor iqtisodi sharoitida xorijiy mamlakatlarda kredit munosabatlarini rivojlanishi berilgan kreditlar sifatini baholash mezonlarining kengayishiga olib keldi.

Tijorat banklari faoliyatida yuqorida keltirilgan risk turlarining barchasi uchrab turadi, lekin ularning faoliyatiga ko‘proq ta’sir qiladigan risklar kredit riski, likvidlilik riski va foiz stavkasi riski hisoblanadi. Tijorat banklar faoliyatining asosiy qismi kreditlar berish va shu asosda foyda olishga yo‘naltirilgan bo‘lganligi uchun ular faoliyatida bu risklarning salmog‘i ham yuqori bo‘ladi.

O‘zbekiston Respublikasida 2015-yil 14-iyulda 2696-son bilan davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan “Tijorat banklarida aktivlar sifatini tasniflash va aktivlar bo‘yicha ehtimoliy yo‘qotishlarni qoplash uchun zaxiralar shakllantirish hamda ulardan foydalanish tartibi to‘g‘risidagi nizom” iga muvofiq tijorat banklarining kredit qo‘yilmalari tasniflanadi va ular bo‘yicha maxsus zahiralar shakllantiriladi.

Kredit portfelining sifat darajasini tahlil qilish quyidagi bosqichlar bo‘yicha ya’ni:

- 1-bosqich ta’milanganlik darajasi bo‘yicha;
- 2-bosqich kreditni haqiqiy to‘lash holati bo‘yicha;
- 3-bosqich risk darajasi bo‘yicha;

4-bosqich kredit portfelining turkumlangan kreditlar tarkibi bo‘yicha amalga oshirish mumkin.

Bunda kreditlar yuqoridagi belgilariga qarab guruhlarga birlashtiriladi va bir guruh bo‘yicha barcha kreditlar yig‘ib chiqilib, har bir guruhning hajmi to‘g‘risida axborot yig‘iladi, ular tahlil qilinadi va yakunida butun kredit portfeli bo‘yicha ma’lumotlarga ega bo‘linadi.

5-bosqichda kredit portfeli bo‘yicha umumiyl risk aniqlanadi. Bunda har bir kredit summasi bo‘yicha risk darajasiga asoslaniladi.

Oldingi davr bilan hozirgi kundagi bankning kredit portfeli

holati taqqosladi va salbiy natijaga ega bo'lingan bo'lsa, uning sabablari aniqlanadi.

6-bosqich. Kredit portfeli sifatiga qarab yetarli rezerv fondini tashkil qilinadi.

7-bosqich. Kredit portfelining holati, tarkibi, unga ta'sir qiluvchi omillarni hisobga olib, bankning kelajakdagi kredit siyosati ishlab chiqiladi. Bu siyosatga:

Kredit resurslarini tashkil qilish va ularning qaysi maqsadga yo'naltirilganligi, qo'shimcha garantiyalar olish, kredit shartnomasining bajarilishi ustidan oldindan va keyingi nazorat qilish, kreditlash jarayonini takomillashtirish va boshqalar lozim bo'ladi.

Shuning uchun kredit bo'limi xodimi muammoli kredit yuzaga kelganini aniqlaganidan keyin quyidagi ishlarni amalga oshirishi zarur:

- qarz oluvchining muammolarini tahlil qilish;
- mijozning moliyaviy ahvoli to'g'risida rahbariyatni xabardor qilish va bank boshqa bo'limlar bilan mijoz to'g'risida maslahatlashishi;
- mijozning umumiyligi tashkiliy asosi, yuqori tashkiloti to'g'risida ma'lumot yig'ishi;
- kredit hujjatlarini, kafolat, garov, veksel, shartnoma va boshqalarni ko'rib chiqish;
- muammoli holatdan chiqish rejasini ishlab chiqishi.

Bank faoliyati doimo riskli operatsiyalar bilan bog'liq bo'lgani uchun, ular faoliyatida doimo muammoli kreditlar yuzaga keladi.

Kredit riskining vujudga kelishi ikki asosiy parametr kredit beruvchi va qarz oluvchining o'z funksiyalarini qay darajada bajarilishiga bog'liq. Qarz oluvchi tomonidan tayyorlangan kredit paketini tahlil qilish va kredit berish bo'yicha loyiha tayyorlash kreditlovchi bank uchun risk va uning turlarini aniqlab olish imkoniyatini beradi. Bu bosqichda kredit beruvchi:

1. Qarz oluvchining iqtisodiy, moliyaviy ahvoli, uning ishchanlik, ma'naviy qiyofasi, ishlab chiqarish imkoniyatlari, marketingi, moliyaviy boshqaruvi va boshqalarni;

2. Kreditga bo'lgan talabning qanchalik darajada to'g'ri asoslaniganligi va shu asosning korxonanining real iqtisodiy holatidan kelib

chiqqanligi;

3. Kreditning maqsadi bank manfaati uchun ham to‘g‘ri kelishi kabi savollarga to‘liq va aniq javob olishi lozim. Agar bu beriladigan kredit bankning kredit portfeli yanada ko‘proq diversifikatsiyalanishiga olib kelsa, bu bankning kredit portfeli riskini kamaytiradi. Agar bu kredit bir tarmoqqa kreditlarning yig‘ilishini kuchaytiradigan, to‘lash muddati bir vaqtida to‘g‘ri keladigan bo‘lsa, kredit portfelining riski oshishi mumkin.

Kredit riskning yuqori bo‘lishi bank tomonidan pul bozoriga murojaat qilish va uning mablag‘laridan foydalanishda ehtiyotkor bo‘lishiga da’vat qiladi. Kredit risklarini tahlil qilish nafaqat qarz oluvchining moliyaviy holatini o‘rganish, shuningdek bankning ichki faoliyatini yaxshilash uchun zarur axborotlar yig‘ish imkoniyatini yaratadi. Kreditlarni risk bo‘yicha jihatlarga bo‘lish, ularni minimallashtirish yo‘llarini ishlab chiqish, bank manfaatlarini himoya qilish kredit risklarini kamaytirishga asos bo‘lishi mumkin. Kredit risklarning vujudga kelishining asosiy sabablari kreditlarning bir soha, bir tarmoqqa ko‘p ajratilishi, bir qarzdorga to‘g‘ri keluvchi riskka rioya qilmaslik tufayli ham bo‘lishi mumkin. Kreditlarni risk darajasi bo‘yicha bo‘lish kredit qo‘yilmalarning qaysi (qancha) miqdori normal risk yoki yuqorida risk zonasida ekanligini ko‘rsatishi mumkin.

Tijorat bankning kredit risklarini baholash va boshqarish jarayonida bir nechta umumi bosqichlarni ajratish mumkin. Bular:

- bank kredit siyosatining maqsad va vazifalarini ishlab chiqish;
- qarzdorning moliyaviy holatini tahlil qilish;
- qarzdorning kreditlash tarixini, uning aloqalarini aniqlash;
- kredit shartnomasini ishlab chiqish va imzolash;
- kreditlarning qaytarilmaslik riskini tahlil qilish;
- barcha ssudalar portfeli bo‘yicha qarzdorning kredit monitoringini yo‘lga qo‘yish va uzluksizlashtirish;
- muddati o‘tgan va shubhali kreditlarni qaytarish va garovni sotish bilan bog‘liq tadbirlarni amalga oshirish va boshqalar.

Kredit riskini boshqarish uchun bank xodimi ssudalar portfelining sifatli tarkibi va tuzilishi ustidan doimo nazorat olib borishi kerak. «Foydalilik – risk» munozarasi doirasida bank xodimi

o‘zini ortiqcha risklardan saqlagan holda foyda normasini cheklashga majbur. U riskni bo‘lib-bo‘lib qo‘yish siyosatini olib borish hamda kreditlarni bir nechta yirik qarzdorlarda to‘planishiga yo‘l qo‘ymasligi kerak. Aks holda, qarzdorlardan birining kreditni to‘lay olmasligi bankning moliyaviy ahvolini qiyinlashtirishi mumkin.

Kredit riski likvidlilik riskiga va bankning to‘lovga noqobilligi riskiga, shuningdek, bankning ma’muriy-xo‘jalik xarajatlarini qoplay olmasligi bilan bog‘liq risklarga olib kelishi mumkin, foiz stavkasi riski o‘zicha mustaqil bo‘lsa-da, u kredit riski va boshqa barcha risklar zanjirini chuqurlashtirib borishi mumkin.

Kredit portfelini sug‘urtalashning asosiy muammolari va ularni boshqarish quyidagilardan iborat.

1. Kreditning maqsadi, ya’ni boshqarish strategiyasining aniq belgilab olinmaganligi.
2. Turli kreditlarning daromadlilik darajasi to‘g‘risidagi taxminga ega bo‘lmasligi.
3. Tanlab olingan vositalarning oqilona nasbatini ta’minlash.
4. Portfel tarkibida muammolik kreditlarning ko‘pligi.
5. Portfel faoliyatini baholash, ya’ni kredit riskiga nisbatan portfeldan olinadigan daromadlarga baho berish.

Bankning kredit siyosatini va kredit portfelini tahlil qilishning asosiy maqsadi – ssuda bo‘yicha asosiy qarz va u bo‘yicha foizlarni o‘z vaqtida to‘lashga erishishdan iborat. Albatta barcha kreditlar bo‘yicha ma’lum bir sabab bilan to‘lay olmaslik sharoiti yuzaga kelishi mumkin. Agar bank kreditni faqat juda ishonchli mijozga beradigan bo‘lsa, uning yuqori foyda olishi imkoniyati qisqarishi mumkin. Shu bilan birga agar kreditni to‘lash bo‘yicha muammolar yuzaga kelsa, bu bankka juda qimmatga tushushi mumkin. Shuning uchun biz oldin ta’kidlab o‘tganimizdek, bankning kredit siyosati ehtiyyotkorlik bilan bank resurslarini oqilona joylashtirishi asosida yuqori foyda olish o‘rtasidagi balansni ta’minlashga qaratilagn bo‘lishi kerak.

Bankning kredit siyosati kreditlash bilan bog‘liq strategiya va taktika yig‘indisidir. Kredit siyosati, boshqacha aytganda, banklarning kredit risklarini kamaytirish hamda bank daromadini oshirishga

yo‘naltirilgan kompleks chora-tadbirlardir.

Banklarning kredit siyosati – banklarning kreditlarni olish va berish borasidagi strategiya va taktikasidir.

Tijorat banklarining kredit siyosati – bu banklarning kredit risklarini kamaytirish va kredit operatsiyalarining daromadliligin ko‘paytirish maqsadida amalga oshiradigan kompleks tadbirlari majmuasidair.

Banklarning kredit siyosati o‘z ichiga qo‘yidagi elementlarni oladi:

- maqsadni aniqlash va natijada bank kredit portfelini shakllantirish (turi, muddati, hajmi va ta’milot sifati);
- kreditlarni berish, yuritish va qoplash jarayonlarida bank bo‘limlari vakolatlari;
- kerakli hujjatlar ro‘yxati;
- kredit ta’milotini qabul qilish, baholash va sotishning asosiy qoidalari;
- kredit operatsiyalari chegaralari (limiti);
- kreditlar bo‘yicha foiz stavkalarini o‘rnatish siyosati;
- kredit arizalarini baholash uslublari;
- muammoli (qiyin) kreditlarni istiqbolini belgilash (diagnostika) va qiyin holatdan chiqish yo‘llarini tahlil qilish.

### *5-jadval*

#### **Bank kredit siyosatini aniqlovchi (belgilovchi) omillar**

Makroiqtisodiy omillar	Mamlakat iqtisodiyotining umumiy holati. Markaziy bank pul-kredit siyosati. Hukumatning moliyaviy siyosati
Regional (sho‘ba) va tarmoq omili	Hudud va tarmoqdagi iqtisodiyot holati (bank bo‘limiga tegishli). Mijozlar tuzilmasi, ularning kreditga bo‘lgan talabi. Raqobatchi banklarning mavjudligi.
Bank ichidagi omillar	Bank (kapitali) o‘z mablag‘lari hajmi (miqdori). Passivlar tuzilishi. Bank personali (xizmatchilar) tajribasi va qobiliyatি

Bank mablag‘larini mavjudligi va ularning tashkiliy tuzilishi bank kredit siyosatini olib borilishini belgilaydi. Kredit siyosati bank likvidligiga bevosita bog‘liqdir. Bank kredit siyosati bank xizmatchilarining kreditlarni rasmiylashtirish, berish va boshqarish borasidagi o‘z faoliyatlarida amal qiladigan standartlari, miqdori (parametrlari) va jarayonlarini aniqlab beradi. Bank kredit siyosati odatda yozma ravishda, qat’iy belgilangan hujjat tarzida rasmiylashtiriladi. Bank kredit siyosati – bu tijorat bankingning kredit berish madaniyatini anglatadi. Bank kredit siyosatini turli bosqichlarga va omillarga bog‘liq tomonlari mavjud.

Banklar va boshqa maxsus kredit institutlarining kredit berish hajmi, ular tomonidan jalb qilingan kredit resurslari miqdoriga bog‘liqdir. 1:10

Banklar tomonidan kredit berish tijorat asosiga mo‘ljallangan (arzon olib – qimmat sotish va marja).

Kredit berish, olish, qoplash, nazorat qilish kredit oluvchi bankning kelishuviga ya’ni kredit shartnomasiga asoslanadi.

Kreditlashda hozirgi kunda asosiy bo‘lib, ya’ni birlamchi bo‘lib kredit subyekti, so‘ng esa kredit obyekti hisobga olinadi.

Kreditlash miqdori (hajmi) bank bo‘yicha (potensiali) Markaziy bankning iqtisodiy normativlariga bog‘liqdir (N1 – kapital yetarligi, bank likvidligi, majburiy zaxira miqdori, qayta moliyalashtrish stavkasi va boshqalar).

Kreditlash tizimi kreditning eski tan olingan tamoyillariga – muddatlik, qaytarib berish, to‘lovilik va ta’minotga asoslanadi.

Tijorat banklarining kreditlarni bank faoliyatida asosiy o‘rin tutgan operatsiyalardan biridir. O‘zbekiston Respublikasi «Bank va bank faoliyati to‘g‘risida» gi Qonunida bank tizimiga tushuntirish berilganda bu tashkilot uchta operatsiyani, albatta, amalgaga oshirishi kerakligiga urg‘u berilgan; bulardan biri – kredit berish operatsiyasidir.

***6-jadval***

**Tijorat banklari tomonidan tuziladigan kredit siyosati elementlari**

Kredit bosqichlari	Tartibga soluvchi parametrlar (ko‘rsatkichlar) va jarayonlar
Kreditni berish bo‘yicha birlamchi ish (faoliyat)	<ul style="list-style-type: none"> <li>- kelgusi qarz oluvchilar turi (turkumi)</li> <li>- kreditlash turlari</li> <li>- kreditlash jarayoning miqdoriy ko‘rsatkichlari (chegaralari)</li> <li>- qarz oluvchini kredit olish qobiliyatini baholash standartlari</li> <li>- kreditlarni baholash standarti</li> <li>- foiz stavkalari</li> <li>- kreditni qaytishini ta’minlash usullari</li> <li>- jarayonlarni borishini nazorat qilish va berishga tayyorlash</li> </ul>
Kreditni rasmiylashtirish	<ul style="list-style-type: none"> <li>- hujjat shakllari</li> <li>- kreditni berishning texnik (texnologik) jarayonlari</li> <li>- kreditni to‘g‘ri rasmiylashtirish nazorati</li> </ul>
Kreditni boshqarish	<ul style="list-style-type: none"> <li>- kredit portfelini boshqarish tartibi</li> <li>- kredit shartnomasini bajaralishini nazorat qilish</li> <li>- muddati o‘tgan kreditlarni kechiktirish yoki yangilash shartlari</li> <li>- qarzlarni (zararni) qoplash tartibi</li> <li>- kreditlarni boshqarish nazorati</li> </ul>

Kredit operatsiyalarini amalga oshirish foydalilik jihatidan yuqori darajada bo‘lganligi bilan, o‘z navbatida, uning risklilik darajasi, qaytarilmasligi mumkin bo‘lgan mablag‘ hajmi haligacha dunyo banklarini tashvishga solib kelmoqda. Formula ko‘rinishida ko‘radigan bo‘lsak, u holda [1-d] bo‘ladi. Kredit operatsiyalarini amalga oshirishda bu operatsiyaning risklarini va ularni yuzaga

keltiruvchi omillarni o‘rganish muhim ahamiyat kasb etadi.

Kredit siyosatida kredit portfelin shakllantirish va uni boshqarish muhim rol o‘ynaydi. Kredit portfeli deganda, bank tasarrufida bo‘lgan jami kredit resurslari tushuniladi. Kredit resurslaridan samarali foydalanish bankning asosiy faoliyati turi hisoblanib, uning natijasida bank daromadlarning asosiy qismiga ega bo‘ladi.

Qarz oluvchi faoliyatida mavjud risklar darajasini kreditor kredit bergunga qadar, keyinchalik kredit bergandan keyin, undan foydalanish davomida aniqlashi mumkin.

Tijorat banklari faoliyatining barqarorligi va raqobat-bardoshligi ularning resurslarini to‘g‘ri tashkil qilish va ulardan oqilona foydalanishga bog‘liq. Shuni ta’kidlash lozimki, tijorat banklarining depozit va kredit portfelin tashkil qilish, boshqarish, uni diversifikatsiya qilish sohasida qator yechilmagan muammolar mavjud. Ma’lumki, bozor iqtisodi keng rivojlangan mamlakatlarda tijorat banklarning kredit siyosatiga, ularning kredit portfeli va uning sifatiga, undan foydalanish darajasiga katta e’tibor beriladi, chunki kredit portfelining to‘g‘ri tashkil qilinishi ularning samarali faoliyati ko‘rsatayotganidan dalolat beradi.

Kredit operatsiyalarini olib borishda yo‘l qo‘ylgan kamchiliklar banklar daromadining kamayishiga, ba’zi hollarda ularning sinib ketishiga olib kelishi mumkin. Shu sababli banklarning kredit portfeli va uning sifatini nazorat qilib borish tijorat banklarining samarali faoliyatining garovidir. Uning kredit portfelin oqilona boshqarish esa kredit risklarini kamaytirishning omili hisoblanadi.

Banklarning kredit portfeli, uning holati to‘g‘risida biron fikr bildirishdan oldin, dastlab kredit portfelining iqtisodiy mohiyatini tushunib olishimiz lozim. Banklarning kredit portfeli to‘g‘risidagi tushuncha bizning amaliyotimizga va iqtisodiy tushunchalarimiz safiga yaqinda kelib qo‘silgan tushunchalardan hisoblanadi. O‘zbekiston iqtisodchilari o‘rtasida banklarning kredit portfeli, uning mohiyati, tarkibi, uning sifati bo‘yicha tahlili sohasida ilmiy ishlar o‘tkazilib, chop qilingan emas. Xorijiy davlatlar iqtisodchi-

lari tomonidan yuqoridagi mavzuning ba’zi tomonlarini olib beruvchi ilmiy ishlar chop etilgan. Shu sababli banklarning kredit portfeli va uni tashkil qilish masalalari juda dolzarb va bahslashuvni talab qiluvchi masalalardan biri hisoblanadi.

Tijorat banklari kredit portfelining mohiyati to‘g‘risida mu-kammal ilmiy ishlar yozilmagan bo‘lsa-da, ba’zi mualliflarning tadqiqotlarida bu tushunchani va uning mohiyatiga berilgan ta’riflarni uchratish mumkin. Keltirilgan ta’riflar mohiyati jihatdan xilma xil bo‘lib, ular banklarning kredit portfeli, uning iqtisodiy mohiyati, tarkibi, qiyosiy ta’rifi to‘g‘risida barcha tomonidan ma’qullangan aniq bir fikrni ifoda qilmaydi. Turli mualliflar kredit portfelining mohiyatini turlicha talqin qilishadi. Masalan, amerikalik iqtisodchilar Kris J. Barlton, Diana Mak Noton kredit portfeli – bu kreditlarni turkumlashni o‘z ichiga oladi, deb ta’riflashsa, boshqa bir guruh iqtisodchilar kredit portfelini bankning aktiv operatsiyalarining yig‘indisi sifatida ta’riflaydilar.

Kredit portfeliga banklarning aktiv operatsiyalarining yig‘indi si, deb qarash ham bizning fikrimizcha to‘g‘ri emas. Banklarning aktiv operatsiyalari deb banklarning o‘z kapitali va jalb qilgan mablag‘larini daromad olish maqsadida joylashtirish bilan bog‘liq bo‘lgan barcha operatsiyalarga aytildi.

Bir guruh rus olimlarining «Bankovskiy nadzor i audit» kitobida – «Banklarining kredit portfeli uzoq muddatli, qisqa muddatli, vaqt o‘tgan kreditlar bo‘yicha balans raqamidagi mablag‘lar qoldig‘idan tashkil topadi» deb ta’rif berilgan. Bunday ta’rif, bizning fikrimizcha, bank mablag‘larini hisobga olishni yengillashtirish, audit uchun axborot, hisobot materiallarini soddalashtirish uchun qo‘l kelishi mumkin. Ammo bu ta’rif banklarning kredit portfeliga berilgan miqdoriy ta’rif bo‘lib, uning sifat jihatini o‘zida aks yettira olmaydi.

N. Sokolinskaya «Kredit portfelini qisqa va uzoq muddatli kreditlar yig‘indisidan iborat», deb ta’riflaydi. Bu ta’rifda asosiy e’tibor kreditlarning muddatiga qaratilgan. Garchi banklar tomonidan amalga oshiriladigan operatsiyalar, ayniqsa, kreditlash jarayonida kreditning muddatliligiga e’tibor berish va unga rioya

qilish kreditlash jarayonining asosiy tamoyillaridan biri hisoblansa-da, kreditning faqat muddatiga qarab tijorat bankining kredit portfeliga to‘liq ta’rif berish yetarli bo‘lmaydi. Bank tomonidan berilgan kreditning muddatining belgilab qo‘yilishi va unga rioya qilinishi kredit portfelining sifatini aniqlashda zarur omil bo‘lishi mumkin.

Kredit portfelining sifat bo‘yicha tavsifi kreditlarning qaytarilishi va kredit riskining qisqartirilishini bank tomonidan ta‘minlanishini baholashda qo‘llaniladi.

Kredit portfeli faqat normal kreditlarni emas, balki muddati o‘tgan kreditlarni ham o‘z ichiga oladi. Bu omillarni e’tiborga olish tijorat banklarining kredit portfelini shakllantirishda, ularning faoliyatini to‘g‘ri tashkil qilishda katta ahamiyatga ega. Kredit risklarining darajasi xorijiy banklar va bizning banklarimiz amaliyotida ham banklarning kredit portfelini ifodalovchi me’zonlardan asosiysi hisoblanadi. Aynan shu ko‘rsatkichning darajasiga qarab, kredit portfelining sifati aniqlanadi. Banklarning kredit portfelini baholash va tahlil qilish bank menejerlariga ssuda operatsiyalarini samarali boshqarishga imkon beradi.

Banklarning kredit portfelini tashkil qilishning asosiy maqsadi bankning kredit siyosati sohasidagi strategiyasini ishlab chiqish, kreditlarning sifatini tahlil qilish va uni yaxshilash sohasida choralar ishlab chiqishdan iborat. Buning uchun bank berilgan kreditlarning belgilangan limitlarga mos kelishi, kredit resurslardan foydalanish samaradorligi, kredit risklarni kamaytirish va kreditlarning sifatini yaxshilash kabi ko‘rsatkichlarning haqiqiy holatini tekshirib borishi zarur.

Tijorat banklarining kredit portfelini tashkil qilish kreditlashni tashkil qilish tamoyillariga asoslangan bo‘lmog‘i lozim. Kreditning muddatliligi, uning o‘z vaqtida qaytarilishi va to‘lovligi kredit portfelining barqarorligini va sifatlilagini ta‘minlashga asos bo‘lishi mumkin.

Kredit portfelining sifatini doimiy ravishda nazorat qilish tijorat banklari faoliyatining samaradorligini oshirish garovidir. Ularning kredit portfelini oqilona boshqarish esa kredit risklarini

kamaytirishning asosiy omillaridan hisoblanadi. Shuni qayd qilish lozimki, banklarning moliyaviy hisobotlari va boshqa qo'shimcha ma'lumotlari ulardagi aktivlar sifatining real holatini, shuningdek, kredit portfeli bo'yicha mavjud muammolarning bank daromadiga ta'sirini aks ettirishi lozim. Bunday ma'lumotlarning yo'qligi nafaqat bank aksiyadorlari yoki Markaziy bank va boshqa manfaatdor tomonlarni chalg'itib qo'ymasdan, balki bankning o'ziga ham risklarni boshqarish jarayonida zarar yetkazishi mumkin. Bankning kredit portfeli va uning sifati to'g'risida aniq ma'lumotga ega bo'lmaslik, zarur hollarda oldindan choralar ko'rilmaslik natijasida muammoli kreditlar yuzaga kelishi mumkin. Muammoli kreditlar banklardagi risklarni minimal darajaga yetkazishga to'siq bo'lib turadi.

Banklarning kredit portfelini tashkil qilishda:

- kredit risklari darajasini inobatga olgan holda kreditlarning sifatini baholash me'zonlarini tanlash;
- va ular asosida kreditning sifatini baholash usullarini ishlab chiqish, ssudalarning asosiy guruhlarini, ularning foiz stavkalar asosida aniqlash;
- kreditlarni tavsiflash (turkumlash);
- har bir kredit guruhi bo'yicha risk foizi darajasini aniqlash;
- har bir kredit va bank bo'yicha kredit riskining absolyut summasini aniqlash;
- tegishli ma'lumotlar asosida kreditlar bo'yicha zararlarni qoplash uchun yetarli rezerv summasini aniqlash;
- koeffitsientlar bo'yicha kredit portfelining sifatiga baho berish;
- kredit portfelining tarkibini yaxshilash bo'yicha tadbir-choralar ishlab chiqish zarur.

Bank aktivlarining sifatini aniqlashga ularning kredit portfelini o'rnatilgan me'yorlar asosida tavsiflab chiqish orqali erishilishi mumkin. O'zbekistonda 1996-yili yo'lidan boshlab Markaziy bank tasdiqlagan ko'rsatmaga asosan tijorat banklari aktivlarini tavsiflash va ssudalar bo'yicha yo'qotishlar bo'yicha rezervlarni tashkil qilish amalga oshirilmoqda. O'zbekiston Respublikasining

«Markaziy banki to‘g‘risida»gi va «Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida»gi qonunga asosan aktivlarni tavsiflash, muammoli yoki harakatsiz kreditlar bo‘yicha rezervlarni tashkil qilish amalga oshirilmoqda.

Kreditlarni tasniflash qarz oluvchining faoliyatini quyidagi mezonlar orqali baholashdan boshlanishi kerak:

- mijozning to‘lovlari tarixi;
- tarmoqning kelajagi va an’anaviy rivojlanish usullari;
- korxonaning umumiy holati;
- kreditlanadigan loyihaning holati va samaradorligi;
- korxonaning moliyaviy holati;
- korxonada boshqaruva va rahbarlik sifati;
- korxonaning rivojlanish rejasi, strategiyasi va boshqalar.

Banklarning kredit portfelini quyidagi yo‘nalishlar bo‘yicha tasniflash mumkin:

1. Risklar bo‘yicha;
2. Iqtisodiyot tarmoqlari bo‘yicha;
3. Berilgan kreditlarning qaysi maqsadga yo‘naltirilganligi bo‘yicha;
4. Foydalanish muddati bo‘yicha;
5. Mablag‘ning hajmi bo‘yicha;
6. Ta’minlanganlik shakli bo‘yicha;
7. Mulkchilik shakli bo‘yicha.

Kredit portfelini berilgan ssudalarning ta’minlanganlik darajasiga qarab quyidagi turlarga, ya’ni:

- birinchi darajada ta’minlangan;
- boshqa ta’minotga ega bo‘lgan;
- to‘liq ta’minmagan;
- ta’minmagan ssudalarga bo‘lish mumkin.

Birinchi darajada ta’minlangan kreditlar guruhiba to‘liq ta’minlangan kreditlar kiradi. Ular:

- O‘zbekiston Respublikasi hukumati kafolati;
- O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki kafolati;
- O‘zbekiston Markaziy banki roziligi bilan birinchi sinf xorijiy banklari kafolati;

- erkin ayirboshlanadigan valyutadagi garov;
- O‘zbekiston Respublikasi davlat qimmatli qog‘ozlari ko‘rinishidagi garov;
- standartlashtirilgan qimmatbaho metallar qo‘yilmalari ko‘rinishidagi garov kabilar bilan ta’minlanadi.

Boshqa ta’minotga ega bo‘lgan ssudalar:

- mol-mulk garovi;
- qimmatli qog‘ozlar ko‘rinishidagi garov;
- boshqa huquqiy va jismoniy shaxslarning kafolat xati kabilar bilan ta’minlanadi.

To‘liq ta’minlanmagan kreditlar guruhiga qisman ta’minlangan kreditlar kiradi (ssuda qiymatining 60% idan kam bo‘lmagan miqdorda)

Ta’minlanmagan ssudalar guruhiga ta’minotga ega bo‘lmagan yoki o‘rnatalgan tartibda rasmiylashtirilmagan kreditlar kiradi.

“Aksariyat hollarda mikrokredit va mikromoliyalash mazmun mohiyati birdek tushunilsa hamki, ular o‘rtasidagi farqni to‘g‘ri tushunib olish lozim. Mikrokredit, kredit ishlab chiqarish jarayonida vujudga kelsa, mikromoliyalash esa xuddi shu mijozlarga jamg‘arma institatlari va sug‘urta kompaniyalari orqali moliyaviy xizmatlarni ko‘rsatadi”, deb mikromoliyalash institutlariga iqtisodchi olimlar ta’rif keltirganlar.<sup>18</sup>

Tijorat banklarining kredit portfelini bo‘lib-bo‘lib tasniflash ham mumkin. Bu holda aktivlar bir va undan ortiq turkum bo‘yicha tasniflanishi mumkin.

Muammoli kredit ta’minotga ega bo‘lsa va ushbu ta’minotning qiymati qaytarilmagan qarz miqdoridan kam bo‘lsa, bu holda ushbu kredit (agar ta’minot uchun bozor mavjud bo‘lsa):

- ta’minotning bozor narxiga teng bo‘lgan miqdordagi qaytarilmagan qarz substandart qarzning qolgan qismi esa shuhbali yoki ishonchsiz deb tasniflanadi.

Shuhbali yoki ishonchsiz deb tasniflangan muammoli kredit ta’minotga ega bo‘lmasa, lekin ba’zi bir aniq omillar asosida yaqin

---

<sup>18</sup> “The Microfinance Revolution; An Overview” Sengupta, Rajdeep, Craig P., “Federal Reserve Bank of St.Louis Review” January 2008

kelajakda qisman qoplanish ehtimoli bo‘lsa, u holda bunday ssuda yuqorida aytib o‘tilgan qoplanish ehtimoli bo‘lgan qiymatga teng bo‘lgan to‘lanmagan qarz miqdorida shuhbali deb, qarzning qolgan qismi esa ishonchsiz deb tasniflanadi.

Tijorat banki Boshqaruvi qaroriga ko‘ra, kredit komitetining xulosasi bo‘yicha va bank Kengashi bilan kelishuviga binoan ishonchsiz deb topilgan beshinchi sinf kreditlari ssudalar bo‘yicha ehtimoliy yo‘qotishlarga shakllantirilgan zaxira hisobiga, zaxira etishmagan taqdirda 31203 hisob varaq «taqsimlanmagan foyda» hisobiga balansdan chiqariladi.

Bankning kredit portfelini diversifikatsiya qilish yo‘li bilan kredit portfelini boshqarish bankning strategik rejalashtirish jarayoni bilan uzlucksiz bog‘liq.

Diversifikatsiyaning muhim xususiyatlari shundaki:

Diversifikatsiya hamma vaqt riskni yoqtirmaydigan banklar uchun qulay keladi, chunki u riskni kamaytiradi;

Ikki xil kredit bo‘yicha foyda harakati qancha kam mos kelsa, riskni kamaytirish hisobiga diversifikatsiyadan shuncha ko‘p naf ko‘rish mumkin.

Diversifikatsiyalangan portfel – bu risk jihatdan bir-biriga bog‘liq bo‘lmagan kichik kreditlar to‘plamidir.

Kredit portfelini (KP) diversifikatsiyalash qarzni to‘lamaslik riskini eng oddiy va arzon usul bilan xedjirlashga yordam beradi. Bank portfelni diversifikatsiyalash bankning ssuda va depozitlari keng mijozlar ko‘lamiga bo‘lib chiqishni anglatadi.

Qarz berishda diversifikatsiyalash bankning ssuda portfelida absolyut miqdor yoki yalpi o‘tgan salmoqni to‘g‘ridan-to‘g‘ri cheklashni anglatadi.

Kredit portfelini diversifikatsiyalash usulidan foydalanishda bank kreditlarini turli sohalardagi kompaniyalarga, kichik miqdorda qisqa muddatlarga va ko‘proq mijozlarga berishni afzal ko‘rishi lozim.


Yana kreditlarni diversifikatsiya qilishda berilgan kreditlarning ta’minlanganligini hisobga olish yo‘li bilan kreditlar bo‘yicha risklarni kamaytirib, bank uning foyda olishiga erishish

mumkin. Kredit portfelini diversifikatsiya qilish usuli to‘rt asosiy xususiyatni o‘zida ifoda qilishni e’tiborga olish zarur. Bular:

- birinchidan, kreditni ko‘p sonli, turli tarmoqqa taaluqli mijozlar o‘rtasida taqsimlash;
- ikkinchidan, kreditni kam miqdorda berish va bir mijozdan kurilishi mumkin bo‘lgan zararni boshqa mijozlardan keladigan foyda orkali qoplash;
- uchinchidan, kreditning umumiyligi hajmini saqlab turgan holda qisqa muddatlarga kredit berish;
- to‘rtinchidan, kreditlarning ta’minlanganligi bo‘yicha diversifikatsiya o‘tkazish.

Kreditlarni diversifikatsiya qilishda ko‘proq kreditlarni kam miqdorda ko‘proq mijozlarga berishga e’tibor qilish lozim.

## **2-chizma** **Kredit portfelini boshqarish tizimi<sup>19</sup>**



Kredit riski tijorat banki kredit portfeli tarkibi bilan uzviy ravishda bog‘liq.

Tijorat banklari tomonidan beriladigan barcha kreditlar uning kredit portfelida o‘z ifodasini topadi. Xorijiy iqtisodiy manbalarda; “Bank kreditlari o‘zida iqtisodiy o‘sish jarayonida yangi

<sup>19</sup> Bank axborotnomasi 2006-y.

texnologiyalarni jalg qilish orqali ishlab chiqarishni tubdan yangilash, kengaytirish, yangi tovarlar ishlab chiqarish bilan hamda sifat darajasini yangilash maqsadida xarajatlarni qoplashda xizmat qiladi”, deb keltirib o’tilgan.<sup>20</sup>

Kredit portfelini boshqarish – mavjud kredit resurslaridan samarali foydalanish san’ati demak, ya’ni samarali boshqaru natijasida kredit resurslari nafaqat o’zining qiymatini saqlab qoladi, balki sezilarli darajada daromad keltiradi (inflyatsiya darajasidan qat’i nazar).

Kredit portfelini boshqarishning asosiy bosqichlari quyida-gildan iborat:

1. Kreditning maqsadi, ya’ni boshqarish strategiyasi determinantlarini aniq belgilab olish.
2. Turli kreditlarning daromadlilik darajasi to‘g‘risidagi taxminga ega bo‘lish.
3. Tanlab olingan vositalarning oqilona nasbatini ta’minalash maqsadida taxminlar ustuvorligini aniqlash.
4. Portfel tarkibida tub o‘zgarishlarga sabab bo‘luvchi omillarni doimiy tarzda tahlil qilish va o‘rganish.
5. Portfel faoliyatini baholash, ya’ni kredit riskiga nisbatan portfeldan olinadigan daromadlarga baho berish.

Tijorat bankining asosiy strategik maqsadga erishishida kredit riskini boshqarish uchun tijorat banki resurslarni joylashtirish sohasidagi uchta muhim yo‘nalishning oqilona nisbatiga erishishga harakat qilishi lozim:

1. Kreditlash, loyihaviy moliyalashtirish va yuridik shaxslarning qimmatli qog‘ozlarga mablag‘ kiritishini ta’minalash resurslarni oqilona joylashtirishning asosiy yo‘nalishi kreditlash, loyihaviy moliyalashtirish va yuridik shaxslarning qimmatli qog‘ozlarga mablag‘ kiritishlarini ta’minalashga erishishlari kerak.

---

<sup>20</sup> “Banks” by Menzies, Sir Joseph “Collins Discovery Encyclopedies” 2005

### **3-chizma**

## **Zamonaviy tijorat bankining samarali kredit portfelini tarkib toptirish yo‘nalishlari<sup>21</sup>**

Samarali kredit portfelini tarkib toptirish yo‘nalishlari		
Kreditlash, loyihaviy moliyalashtirish va yuridik shaxslarning qimmatli qog‘ozlarga mablag‘ kiritishini ta’minalash.	Resurslarni joylashtirishning eng istiqbolli yo‘nalishlaridan biri jismoniy shaxslarni kreditlashdan iborat.	O‘zbekiston Respublikasining istiqbolli korxonalari bilan uzoq muddatli hamkorlik qilishga yo‘naltirilgan bankning investitsiya faoliyati resurslarni oqilona joylashtirishning yana bir muhim yo‘nalishi hisoblanadi.

2. Resurslarni joylashtirishning eng istiqbolli yo‘nalishlaridan biri – jismoniy shaxslarni kreditlashdan iborat. Bu yo‘nalishi nafaqat kredit riskini diversifikatsiya qilish, balki yaxshi daromad ko‘rish imkoniyatini ham beradi.

O‘zbekiston Respublikasining istiqbolli korxonalari bilan uzoq muddatli hamkorlik qilishga yo‘naltirilan bankning resurslarni oqilona joylashtirishning yana bir muhim yo‘nalishi hisoblanib, bundan maqsad bank qo‘yilmalaridan yuqori dividendli daromadlar olish va ushbu korxonalarini boshqarishga ishtiroy etishdan iborat.

### **4.3. Foiz riski va uni boshqarish usullari**

Tijorat banklarining foiz siyosati depozitlar va kreditlarning oqilona foiz stavkalarini shakllantirish va foiz riskini boshqarish

<sup>21</sup> Iqtisodiy adabiyotlar materiallari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

bilan bog‘liq tadbirlar majmuasidir.

Foiz riski deganda, foiz stavkalarining tebranishi natijasida banklarning zarar ko‘rishi tushuniladi. Tijorat banklarining foiz siyosati depozitlar va kreditlarning oqilona foiz stavkalarini shakllantirish va foiz riskini boshqarish bilan bog‘liq tadbirlar majmuasidir.

Tijorat banklarining foiz siyosatining asosiy jixatlari quydagilardan iborat:

1. Foiz siyosatining asosiy maqsad va vazifalari: foiz siyosatining asosiy maqsadi foiz siyosatida aniq belgilab qo‘yilgan bo‘lishi lozim. Ayrim banklarda foiz siyosatining asosiy maqsadi sifatida foiz risklarini boshqarish tizimini takomillashtirish belgilab kuyiladi, boshqalarida esa sof foizli daromad darajasini oshirish ko‘rsatiladi.

2. Foiz riskini yuzaga keltirishi mumkin bo‘lgan holatlar: bunday holatlar, odatda, kredit qo‘yilmalarining hajmini keskin oshirilishi natijasida yoki kreditlarning bozor stavkalarini sezilarli darajada oshishi natijasida yuzaga kelishi mumkin.

3. Foiz riskini boshqarish usullari: odatda bank amaliyotida foiz riskini asosiy boshqarish usullari sifatida foizli svoplardan keng foydalanadilar, kichik banklarda esa ko‘proq kredit riskiga limitlar o‘rnatish uslubidan foydalanadilar.

4. Foiz stavkalarini o‘stirmaslik maqomini belgilash tartibini joriy qilish.

Tijorat banklarining daromad olish sohasi faoliyati uning foiz siyosati orqali amalga oshiriladi. Bank kredit bera turib mijozning foya olishi uchun shart-sharoit yaratish ekan, demak, o‘zining manfaatini ham amalga oshirgan buladi. Banklar foiz siyosatini amalga oshirishda omonatlar bo‘yicha to‘lanadigan foizni ularning o‘zları taqdim yetadigan ssudalar uchun oladigan ssuda foizidan pastroq qilib belgilaydi. Olingan va to‘langan foizlarning summlari o‘rtasidagi farq banklarning foydasini tashkil etadi.

Tijorat banklari yuqori foya olish maqsadida o‘zlarining foiz siyosatini yuritadilar. Tijorat bankida ko‘p foya olish imkoniyatlari cheklangan. Birinchidan, katta marja ketidan quvish

mijozlardan mahrum bo‘lib qolishga olib kelishi mumkin, chunki ular haddan tashqari yuqori qo‘yilgan foiz stavkali kreditdan voz kechishlaridan tashqari yuqori qo‘yilgan foiz stavkali kreditdan voz kechishlari mumkin. Ikkinchidan, banklararo raqobat sharoitida boshka tijorat banklari orasidagi bir qadar samaraliroq ishlar uchun ancha arzon kreditlar taklif etilishi mumkin. Foyda olish qoida sifatida shuni anglatadiki, busiz bank mavjud bo‘la olmaydi.

Rossiyalik yirik iqtisodchi N.G.Antonovning fikricha, foiz stavkasi bu tomonlarning kredit asosida yuzaga keladigan iqtisodiy munosabati bo‘lib, kreditning oqilona foydalanishini ta’minlaydi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitda kredit munosabatlarida bank foizining ahamiyati o‘sib borayotganini ko‘rish mumkin. Umuman olganda foiz siyosati nafaqat pul-kredit mablag‘larining boshqaruvchisi hisoblanadi, shu bilan birga, butun kredit munosabatlarini boshqarib turuvchi iqtisodiy usuli hamdir.

Markaziy bank tomonidan o‘rnatilgan majburiy zaxira talablari bank tizimida depozit va kreditlarni oshirishning bevosita cheklovchisi bo‘lib xizmat qiladi.

Bankning foiz siyosati kredit siyosatining asosiy bo‘limi hisoblanadi. Bu siyosat turli kreditlar va qarzdorlar bo‘yicha belgilanuvchi foiz stavkalarini aniqlashda foydalaniladigan quyidagi 3 omillarni o‘z ichiga oladi:

1.O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining qayta moliyalashtirish stavkasi;

2.Kredit resurslari (o‘z va jalb qilingan mablag‘lari) manbalari;

3.Kreditlash, qarzdorlar turlari va yo‘nalishlari.

Tijorat banklari foiz siyosatining foizli risklarni boshqarishdagi o‘rni.

Foiz riski, odatda, tijorat banklarining depozitlari bilan kreditlarning foiz stavkalarini sezilarli darajada o‘zgarishi natijasida yuzaga keladi.

Bank depozitlari bo‘yicha foizlarni hisoblash usullari.

Depozitlar (omonatlar)ga doir foiz stavkalari banklar tomonidan depozitorlar bilan kelishuvga muvofiq O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki belgilagan qayta moliyalash stavkasini, bankning narx siyosatini hisobga olgan holda belgilanadi.

Shartnomada ko‘zda tutilgan foizlar miqdori qonunchilik asosida kamaytirilgan hollarda, foizlarning yangi miqdori, depozitorlarga foizning kamayishi haqida xabar berilganidan so‘ng qo‘yilgan depozitlarga nisbatan qo‘llaniladi. Ushbu xabargacha qo‘yilgan depozitlarga nisbatan kamaytirilgan foizlar miqdori bank omonat shartnomasida boshqa muddat ko‘zda tutilmagan bo‘lsa, tegishli xabar berilgan vaqtdan boshlab bir oy o‘tgach qo‘llanadi.

Agar shartnomada boshqa holatlar ko‘zda tutilmagan bo‘lsa, depozitorning birinchi talabiga ko‘ra depozit hisob varaqlaridan omonatning butun summasi yoki uning bir qismini olishga doir hech qanday cheklashlar belgilanmaydi.

Depozit operatsiyalari, hisoblangan foizlar hisobini yuritish va ular bo‘yicha hisobot “Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida” gi qonun va O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining boshqa me’yoriy hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladi.

Analitik hisob depozit turlari va alohida depozitorlar bo‘yicha yuritiladi.

Valyutadagi depozit hisob varaqlarini yuritish “O‘zbekiston Respublikasida valyutani tartibga solish to‘g‘risida”gi Qonun, boshqa qonunchilik hujjatlari, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining depozit va kredit hisob varaqlarini tartibga solishga doir me’yoriy hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladi.

Foiz riski o‘zida foiz stavkalari darajasining o‘zgarishi natijasida moliyaviy yo‘qotishlar ehtimolini aks ettiradi.

Qo‘mitasi foiz riskining paydo bo‘lishida quyidagi omilarni aniqladi:

1. Narxlar o‘zgarishini riski.

Bunda foiz riski aktiv va passivlarning to‘lov muddatlari bo‘yicha balanslashtirilmaganligi orqali aniqlandi.

## 2. Egri daromad o‘zgarishi riski.

Aktiv va passivlar bo‘yicha foiz stavkalari o‘zgarishida vaqtlar bo‘yicha mos kelmasligi natijasida olinayotgan daromad tengligining buzilishi.

## 3. Bazaviy risk.

Moliyaviy instrumentlarni qayta baholash vaqtida olingan va to‘langan foizlarni boshqarishda noaniq korrelyatsiya o‘tkazish.

## 4. Opcionlar bilan bog‘liq risklar.

Aktiv va passivlar muddatlari bo‘yicha o‘zgarishi opson bitimlarda foiz risklarini keltirib chiqaradi.

Tijorat banklarida foiz riski deganda, bankning sof foydasi qisqarishi riskidan to foiz stavkalari darajasining o‘zgarishi natijasida uning kapitali qiymatining yo‘qolishigacha, natijada jalb qilingan mablag‘larning o‘rtacha qiymati joylashtirilgan mablag‘lar qiymatidan oshib ketishi holatiga olib kelish jarayonini tushunish kerak. Bunday holatda foiz riski kredit tashkiloti moliyaviy holatining foiz stavkasining salbiy o‘zgarishiga duchor bo‘lishi darajasini aks yettiradi. Bankning foiz riskini qabul qilish normal holat bo‘lib, u qo‘srimcha foyda olishda manba sifatida xizmat qiladi. Foiz riski, odatda, pul bozorining kelgusi holati haqida noto‘g‘ri axborot olish, shuningdek, makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarning o‘zgarishi, ya’ni inflyatsiya, byudjet defitsiti hajmi, YaIM va boshqa ko‘rsatkichlarning o‘zgarishi natijasida paydo bo‘ladi.

Bankning foiz siyosati kredit siyosatining asosiy bo‘limi hisoblanadi. Bu siyosat turli kreditlar va qarzdorlar bo‘yicha belgilanuvchi foiz stavkalarini aniqlashda foydalaniladigan quydagi 3 omillarni o‘z ichiga oladi:

1.O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining qayta moliyalashtirish stavkasi;

2.kredit resurslari (o‘z va jalb qilingan mablag‘lari) manbalari;

3.kreditlash, qarzdorlar turlari va yo‘nalishlari.

Foiz riskini baholashda foiz marjasidan foydalaniladi.

Foiz marjasи deganda, daromad keltiruvchi aktivlar bo‘yicha

foiz daromadlar bilan bankning majburiyatları bo‘yicha foizli xarajatlari o‘rtasidagi farq tushuniladi.

Foiz marjası quyidagi yo‘nalishlarda tahlil qilinadi:

- haqiqiy foiz marja bilan uning bazasi bilan solishtirish, natijada foizlar bo‘yicha daromadning o‘sishi yoki kamayishini aniqlash mumkin;

- foiz marjaning standartlarga yoki bank qoidalariga mos kelishini nazorat qilish;

- qaysi turdagı daromad (xarajat) foiz marjasining o‘zgarishiga ta’sirini aniqlash uchun uning tarkibini tahlil qilish;

- boshqaruq qarorlarini qabul qilish uchun foiz marjasining o‘zgarishi chegaralarini aniqlash;

Foiz marjasining hajmiga ta’sir qiluvchi omillarga kredit qo‘yilmalarining tarkibi va hajmi hamda ularning manbasi, to‘lovlar muddati, foiz stavkalarining foydalanilishi va ularning harakati kiradi.

Ta’minlangan va yuqori riskli ssudalarni uzoq va qisqa muddatlarda joylashtirish, shuningdek kreditlash hajmi daromad qo‘yilmalarini aniqlaydi. Foiz marjasining hajmiga kredit qo‘yilmalari va ularning to‘lov vaqtлari bo‘yicha manbasi nisbati, shuningdek, foiz stavkalarini ko‘rib chiqish muddatları ta’sir qiladi. Bizda, asosan, o‘rnatilgan (kredit to‘liq qaytarilmaguncha o‘zgarmaydi) foiz stavkalar qo‘llaniladi. Shu shartlar doirasida aktivlar va passivlar to‘rt guruhga bo‘linadi:

- bozor shartlarining o‘zgarishida foiz stavkalarining to‘liq ko‘rib chiqilishi bo‘yicha aktiv va passivlar;

- uch oy davomida to‘liq boshqariladigan aktiv va passiv;

- uch oydan ko‘proq muddatda ko‘rib chiqiladigan stavkalar bo‘yicha aktiv va passiv;

- o‘rnatilgan stavkalar bo‘yicha aktiv va passivlar.

Birinchi ikki guruh bankning foiz marjası o‘zgarishini sezuvchi majburiyatlar va aktivlarni aks ettiradi. Ularning nisbati foiz riskini aniqlash imkonini beradi (APS). APS quyidagi yondashuvlarda boshqariladi:

- yuqori likvidlikni ta’minalash maqsadida stavkalarning,

muddatlarning, aktivlarning diversifikatsiyasini qo'llab-quvvatlash;

- foiz stavkaning o'zgarish bosqichlariga bankning aktiv va passivlarini boshqarish strategiyasini mos tanlash. Masalan, past foiz stavkalarning o'sishi kuzatilganda majburiyatlar bo'yicha mablag'lar muddatini oshirish, o'rnatilgan foiz stavkalardagi kreditlar hajmini kamaytirish, investitsiya muddatlarini qisqartirish, uzoq muddatli qarzlarni jalb qilish va kredit limitlarini yopishga to'g'ri keladi.

Tijorat banklari har bir aniq kelishuvlarida foiz me'yorini hisoblaganda quyidagilar e'tiborga olinadi:

- ta'minlangan ssudalar buyicha eng kreditga layoqatli mijozlar uchun aniq muddatga beriladigan bazaviy foiz stavkasining darajasini;

- har bir alohida kelishuvning shartlarini inobatga olgan holda tavakkalchilik uchun qo'shimcha to'lov.

G'arb mamlakatlarining pul-kredit munosabatlarida turli xil foiz stavkalari qo'llaniladi. 1-darajali foiz stavkasi Markaziy bankning qayta moliyalash foiz stavkasi hisoblanadi. Bu muhim ahamiyatga ega. Stavkaning Markaziy bank tomonidan pasaytirishi bozorda kredit resurslarining taklifini kupayishiga va arzonlashishiga olib keladi. Bu foiz stavkasining pasaytirshdan maqsad – investitsiya harakatini tezlashtirish, mamlakatning iqtisodiy o'sishiga turtki berishdir.

Qayta moliyalash foiz stavkasini oshirish orqali pul-kredit hajmining qiskarishiga, inflyatsiya sur'atining pasayishiga, shu bilan birga, iqtisodiyotga investitsiyalar hajmining qisqarishiga olib keladi. Demak, Markaziy bankning qayta moliyalashtiruvchi foiz siyosati inflyatsiya darajasini hamda iqtisodiy o'sish harakatlarini hisobga olgan holda mamlakatning pul-kredit tizimining holatidan kelib chiqib amalga oshirilishi kerak.

Tijorat banklarining foiz siyosati ikki assosiy yo'nalishni uz ichiga oladi. Birinchisi, bu bank resurslarini yaratishda mablag'larni jalb qilish jarayonida olib boriladigan foiz siyosati, ikkinchisi, banklar tomonidan resurslarni joylashtirish sohasida

olib boriladigan foiz siyosatidir.

Kreditlar va depozitlar bo‘yicha foiz to‘lash vaqtida emas, balki foyda ko‘rish davrida hisoblanib, moliyaviy hisobotlarda davriylikka mos aks ettirilib borilishi lozim. Depozit va kreditlar bo‘yicha hisoblangan foizlarni ifodalash uchun har bir depozit turi va kredit bo‘yicha alohida hisob varaqlar ochiladi.

Depozitlar va kreditlar bo‘yicha foiz stavkalari, ularning summasi, ularni tulash vakti davri, tulash shartlari va boshqalar mijoz bilan bank o‘rtasida kelishib olinadi va tuziladigan shartnomada aks ettiriladi. Kreditlar bo‘yicha foiz stavkalar kreditning muddati, qarz oluvchi tomondan tavsiya qilingan garov holati va qiymati, uning likvidligiga, kredit resurslari bahosiga, kredit tavakkalchiligining darajasiga ko‘ra tijorat banki tomonidan mustaqil belgilanadi va u kredit shartnomasida aks ettiriladi. Kredit bo‘yicha foizlar muddati kelganda, memorial order bilan rasmiylashtirilib, mijozning asosiy talab qilib olinguncha bo‘lgan depozit varag‘idan grafik bo‘yicha undirib olinadi.

Foizlarni hisoblash quyidagi formula bo‘yicha amalga oshiriladi:

summa\*foiz stavkasi\*amaldagi kunlar soni 365

Banklar orasidagi resurslarni jalg qilish uchun raqobatli kurashda muhim vosita bo‘lib turlicha foiz siyosati hisoblanadi, chunki qo‘yilgan mablag‘larga daromad olish mijozlarning qo‘yilma qo‘yishga undovchi muhim omil hisoblanadi. Depozit foiz stavkalari darajasini har bir tijorat banki O‘zbekiston Respublikasi Markaziy Banki hisob stavkasi, pul bozori holati va o‘zining depozit siyosatidan kelib chiqib, mustaqil ravishda belgilaydi. Depozit schyotlarining alohida ko‘rinishlari bo‘yicha daromad hajmi qo‘yilma muddati, summasi, hisobvarag‘ini amal qilish xususiyati, xizmatlar hajmi va xarakteri va nihoyat, mijozning qo‘yilma shartnomasi shartlariga amal qilishiga bog‘liq.

Talab qilingungacha bo‘lgan depozitlar bo‘yicha hisob varaqalari egalari tomonidan joriy operatsiyalarni amalga oshirish uchun ishlatiladi va ular qoldiqning nomuntazamligi bilan xarakterlanadi. Shuning uchun bunday schyotlar guruhi

daromadlik darajasi bilan ajralib turadi. Yuridik shaxslarga ochilgan talab qilinguncha hisobvaraqalaridagi mablag‘lar qoldig‘i bo‘yicha foizlar umuman to‘lanmasligi mumkin. Bunday foyda, odatda, mijozlarni hisob kassa xizmatlari uchun to‘lov mablag‘larini talab qilinguncha hisobvaraqalarda mablag‘larni minimallashtirish va ortiqcha summalarini qo‘yilmalarning daromadliroq shakllariga joylashtirishga undaydi.

Jismoniy shaxslar uchun ochilgan talab qilinguncha varaqalar bo‘yicha foizlar deyarli majburiy tartibda o‘rnatiladi, ammo u bo‘yicha daromad hamisha muddatli qo‘yilmalarga qaraganda pastroq bo‘ladi. Muddatli qo‘yilmalar bo‘yicha foiz stavkasi hajmini o‘rnatishdagi muhim omil bo‘lib, mablag‘lar joylashtirilgan muddat hisoblanadi.

Markaziy bank emissiya markazi sifatida makroiqtisodiy darajadagi pul aylanishi hamda bank tizimining likvidliligi nuqtai nazaridan tijorat banklarining ular tomonidan jalg qilingan mablag‘lardan foydalanish imkoniyatlarini doimiy ravishda tartibga solib turadi.

Aktiv va passivlar, foiz stavkalarning muddatlariga bog‘liq holda foiz marjasining o‘zgarishi quyidagicha ifodalanadi:

$$M = APS \times I$$

Bu yerda:  $M$  – foiz marjasi;

$I$  – foiz stavkalarining o‘zgarishining kutilishi.

Bankning foiz riskiga tushib qolish darajasini baholashda quyidagi ko‘rsatkich qo‘llaniladi:

$$Fr = APS / Aktivlar \times 100\%$$

Foiz siyosatini erkin yuritilishi uchun bank, uning xizmatlari qiymati koeffitsiyenti qaysi chegaralarda olib borilayotganligini bilish kerak. Ushbu ko‘rsatkich ta‘minlanmagan xarajatlar hajmini aks ettiradi. Bu ko‘rsatkich **minimal foiz marjasi ( $M_{min}$ )** ko‘rinishida aniqlanadi, ya’ni xarajatlarni qoplash imkonini beruvchi, lekin foyda olib kelmaydigan aktivlar va passiv operatsiyalar bo‘yicha minimal stavkalarni ko‘rsatadi. U quyidagicha aniqlanadi:

$$M_{\min} = \frac{X_t - X_b}{A_x} \times N^4 \times 100\%$$

Bu yerda:  $A_x$  – harakatdagi bank aktivlari;  
 $X_t$  – bank faoliyatini ta'minlovchi xarajatlar;  
 $X_b$  – bankning boshqa xarajatlari;  
 $N$  – ko'rileyotgan hisobot davridagi choraklar soni.

**Mo'ljallanayotgan foiz marjasি (Mm)** – mazkur ko'rsatkich orqali bank kredit shartnomasiga kirishdan oldin, xarajatlarni qoplabgina qolmay, balki rejalashtirilgan foydani olish imkoniyatiga ega bo'ladi, u quyidagicha aniqlanadi:

$$Mm = 0,1 QR + M_{\min} + P_{\min};$$

bu yerda: 0,1 QR – majburiy zaxiralar fondini shakllantirish bilan bog'liq jalg qilingan resurslarga qo'shimcha (jalg qilingan resurslar qiymatining 10% i qo'shiladi).

$P_{\min}$  – minimal risklar bo'yicha bankning aktiv operatsiyalarining minimal foydalilik me'yori.

**Bank aktiv operatsiyalarining minimal daromadliligi (Dmin) :**

$$D_{\min} = QR + 0,1QR + M_{\min} + P_{\min}.$$

Bank boshqaruvining asosiy maqsadi **foiz marjasini**, ya'ni daromad keltiruvchi aktivlari bo'yicha foizli daromadlari bilan uning majburiyatları bo'yicha foizli xarajatlari o'rtasidagi farqni boshqarish (nazorat) dan iborat. Undan tashqari, **spredga**, ya'ni aktivlar bo'yicha olingan o'rtacha tortilgan stavkalar bilan majburiyatlar bo'yicha to'langan o'rtacha tortilgan stavkalar o'rtasidagi farqqa e'tibor qaratiladi. Foiz stavkasini boshqarishda GEP (nomutanosiblik) hisobga olinadi – u bankning fiksirlangan va suzib yuruvchi stavkalardagi aktiv va passivlarining balanslash-maganligini ko'rsatadi – BA/P.

Inflyatsiya sharoitida foiz stavkalari prognoz qilish juda qiyin, shuning uchun risklarni boshqarishda bankda aktiv portfellarning muddatlari bo'yicha balanslashtirish kerak. Bu ham juda mushkul,

agar bank aktiv va passiv balanslarida suzib yuruvchi va fiksirlangan stavkalarga ega bo'lsa. Shuning uchun foiz stavkalarni baholash juda muhim. Aktiv va passiv portfellarning muddatlari bo'yicha balanslashtirish foiz spredini, ya'ni foiz riskini aniqlashda yordam beradi. Agar balanslashmagan muddatlar munosabati katta daromadni talab qilsa, bank xodimlari aniqlanmagan risk spredini ma'qul ko'rishadi. Jalb qilingan mablag'larning balanslashganligini balanslashmaganlik bilan solishtirib ko'ramiz.

#### **4-jadval.<sup>22</sup>**

#### **2-variant (balanslashgan)**

Stavkalar	Muddat, kunlarda	Kreditlar bo'yicha foiz stavkasi	Jalb qilingan mablag'lar bo'yicha foiz stavkasi	Spred
Joriy bozor	90 180	20 25	15 20	5 5
Prognoz qilinishi (90 kundan keyin)	90	17	12	5

2-variant (balanslashmagan): 180 kunga muqobil kreditlash strategiyasi:

- a. Qarzlarni 180 kunga jalb qilish, spred 5%;
- b. Qarzlarni 90 kunga jalb qilish (yana 90 kunga uzaytirish sharti bilan) spred  $\frac{1}{2} (10+13) = 11,5\%$ .

Bizning misolda qisqa muddatli stavkalarni aniq prognoz qilinganligi tufayli 180 kunlik kreditlash uchun balanslashmagan boshqaruvni tashkil etishni taqozo qildi, ya'ni foiz marjasini

---

<sup>22</sup> Банковское дело. Учебник для вузов. 2-е изд./Под ред. Коробов Г. Г. - СПб: Питер. 2005 - 400 с.

kengaytirish lozim. Berilgan ma'lumotlarga ko'ra, II variant bo'yicha spred 11,5% ni, I variantdagi 5% lik emas. Bu BA/P ni to'g'ri prognoz qilish hisobiga erishildi. Qarz mablag'larini ikki mustaqil bosqichli shartnomaga bo'yicha 180 kunga jalg qilishga qaror qilindi: boshida 90 kunga jalg qilish keyin esa uni 90 kunga yana yangilash. Bu holatda spred 180 kunlik balanslashmagan kreditga 11,5% ni tashkil qilib, quyidagi tarzda namoyon bo'ldi:

1-bosqich: 180 kunlik kreditlar bo'yicha stavka = 25%;

mablag'larni sotib olish (birinchi 90 kun) = 15%;

spred = 10%;

2-bosqich: 180 kunlik kreditlar bo'yicha stavka = 25%;

mablag'larni sotib olish (ikkinchi 90 kun) = 12%;

spred = 13%.

Spred 180 kunlik kreditga 11,5% ni tashkil qiladi.

BA/P ijobiy va salbiy bo'ladi. **Ijobiy BA/P** da o'zgaruvchan stavkalardagi aktivlar o'zgaruvchan stavkalardagi passivlardan yuqori bo'ladi. Ijobiy BA/P da foiz stavkasining pasayishi foiz marjaning pasayishiga olib keladi va aksincha. **Salbiy BA/P** da o'zgaruvchan foiz stavkalardagi passivlar, o'zgaruvchan foiz stavkalardagi aktivlardan oshib ketadi. Bu holatda foiz stavka pasaysa marja o'sadi, foiz stavka oshsa, marja kamayadi.

Bankning **foiz siyosatini** amalga oshirish **bosqichlari**:

1-bosqich – past foiz stavkalar (o'sish kuzatilmogda):

- qarz mablag'lari muddatini oshirish;

- fiksirlangan stavkalardagi kreditlarni qisqartirish;

- portfel investitsiyalar muddatini qisqartirish;

- qimmatli qog'ozlarni sotish;

- uzoq muddatli qarzlarni sotish;

- kredit liniyalarni yopish.

2-bosqich – o'suvchi foiz stavkalar (maksimal o'sish kuzatilmogda);

- qarz mablag'larni muddatini qisqartirish;

- investitsiyalar muddatini uzaytirish;

- fiksirlangan stavkalardagi kreditlar ulushini oshirish;

- qimmatli qog'ozlarga investitsiyalar ulushini oshirish;

- fiksirlangan stavkalardagi qarzlarni muddatidan oldin qaytarish.

3-bosqich – yuqori foiz stavkalar (pasayish kuzatilmoqda):

- qarz mablag‘lari muddatini qisqartirish;
- fiksirlangan stavkalardagi kreditlarni ulushini oshirish;
- investitsiyalar portfeli muddatlarini oshirish;
- aktivlarni sotish rejasini tuzish.

4-bosqich – kamayuvchi foiz stavkalar (minimal tushish mumkin):

- qarz mablag‘lari muddatini uzaytirish;
- investitsiya muddatlarini kamaytirish;
- o‘zgaruvchan foiz stavkalardagi kreditlar ulushini oshirish;
- qimmatli qog‘ozlarga investitsiyalarni kamaytirish;
- uzoq muddatli qarzlarni oshirish.

### **Nazorat uchun savollar**

1. Kurs maqsadi va vazifalari?
2. Bank operatsiyalari nima?
3. Banklar tomonidan vujudga keladigan risklar deb nimaga aytildi?
5. Risk va noaniqlik qanday bog‘liq?
6. Bank riski va ularning farqini ayting
7. Kredit riski tushunchasiga ta’rif bering.
8. Kreditlash operatsiyalari nima?
9. Qanday banklar vakolatli banklar deyiladi?
10. Kapital harakati bilan bog‘liq kredit operatsiyalari deganda qanday operatsiyalar tushuniladi?
11. Kredit pozitsiyasi nima?
12. Kredit portfelini diversifikatsiyalash deganda nimani tushunasiz?
13. Kreditlash operatsiyalari nima?
14. Banklar tomonidan beriladigan kafillik qanday ahamiyat kasb yetadi?
15. Banklar aktivlarining turlari qanday?
16. Kredit siyosati va kredit portfelining farqini ayting.

17. Foiz riski tushunchasi
18. Foiz riskini keltirib chiqaruvchi omillar qaysilar?
19. Foiz riskini boshqarish bosqichlariga nimalar kiradi?
20. Foiz riski va Markaziy bank qayta moliyalashtirish stavkasi orasidagi bog‘liqlik.
21. Markaziy bank foiz siyosati

## **5-MAVZU: QIMMATLI QOG‘OZLAR BOZORI**

### **Reja:**

- 5.1. O‘zbekistonda qimmatli qog‘ozlar bozori.
- 5.2. Moliyaviy bozor va bunda tijorat banklarining roli.
- 5.3. Banklarning qimmatli qog‘ozlar bo‘yicha tijorat va investitsion operatsiyalari.
- 5.4. Tijorat banklarining qimmatli qog‘ozlar bilan passiv operatsiyalari va ularning tarkibiy tuzilishi.
- 5.5. Tijorat banklarining qimmatli qog‘ozlar bilan aktiv operatsiyalari va ularni turkumlanishi

### **Tayanch iboralar**

Investitsiya, qimmatbaho qog‘oz, aksiya, obligatsiya, sertifikat, moliya bozori, moliya tizimi, lombard, garov, vosita, trast, portfel, mult huquqi, ishonch operatsiyalari.

### **5.1. O‘zbekistonda qimmatli qog‘ozlar bozori**

Moliyaviy munosobatlar ustun keladigan bozorlar moliya bozorlari deb hisoblanadi va uning tarkibiga quyidagi bozorlar kiradi:

- xalqaro kreditlar bozori;
- valyuta bozori;
- qimmatli qog‘ozlar bozori;
- sug‘urta va pensiya fondlari bozori;
- hosilaviy moliyaviy instrumentlar bozori.

Qimmatli qog‘ozlar bozori yoki fond bozori deganda, fond instrumentlari bilan savdo xususida, o‘z egalarining yuqorida zikr etilgan bozorlar moliyaviy tovarlarining muayyan bir turiga bo‘lgan mulkiy ehtiyojlarini qondiruvchi pul bozori va kapitallar bozori yig‘indisi tushuniladi. “So‘nggi yillarda tijorat banklari o‘zlarining faoliyat ko‘lamini qimmatli qog‘ozlar operatsiyalari bilan ham kengaytirib kelmoqdalar”, deb xorijiy iqtisodiy manbalardan birida keltirib o‘tilgan.

Fond instrumentlari (qimmatli qog‘ozlar)ning quyidagi turlari ajratib ko‘rsatiladi:

- aksiyalar (oddiy va imtiyozli, nomli va nomsiz aksiyalar);
- aksiyalar hosilalari (surogatlari), bularga depozitar tilxatlar kiradi: ADR, JDR, warrantlar, opson va fyucherslar, konvertatsiya qilinadigan obligatsiyalar;
- obligatsiyalar, davlat va korxona obligatsiyalari;
- depozit va jamg‘arma sertifikatlari;
- veksellar va cheklar.

Fond bozori davlat qimmatli qog‘ozlar bozori va korporativ qimmatli qog‘ozlar bozorlariga bo‘linadi.

Birinchi birja maydonchalari XII-XV asrlarda o‘sha zamonning Venetsiya, Genuya, Florensiya, Shampan, Bryugge, London va boshqa shu kabi asosiy savdo shaharlarida dastavval veksel yarmarkalari sifatida paydo bo‘lgan. Birja (“Borsa”) nomi gerbida uch charm qop (ter buerse) aks ettirilgan va uyi Bryugge shahrining veksel savdolari amalga oshgan shox maydonida joylashgan qadimgi savdogar oilasining nomi Van der Burse dan kelib chiqqan.

XVI asrda dastlabki ikki fond birjasi Antverpen va Lion shaharlarida tashkil topgan va tugatilgan. Bu yerda savdolar nafaqat veksellar bilan, balki davlat zayomlari bilan ham o‘tkazilgan hamda rasmiy birja kurslari belgilangan. XVII asrda dunyoda eng qadimgi bo‘lgan Amsterdam fond birjasi tashkil etiladi. Savdolarda dastlab aksiyalar paydo bo‘ladi.

XVII asrning oxirida London fond birjasi (LCE) tashkil etiladi, hozirgi kunda u moliyaviy instrumentlar savdolari hajmi bo‘yicha jahonda ikkinchi birja bo‘lib hisoblanadi. LCE da qimmatli qog‘ozlar bilan savdo qiluvchilarga nisbatan “ho‘kiz” va “ayiq” so‘zları birinchi bor qo‘llanila boshlagan. Ushbu so‘zlarni qimmatli qog‘ozlar bilan savdo qiluvchilarga nisbatan ishlatalishi mazkur hayvonlarning ov qilishdagi xatti-harakatlaridan kelib chiqqan.

Birjalar ichida birinchi o‘rinda 1792-yil 17-mayda tashkil yetilgan Nyu-York fond birjasi (NYSE) turadi. Hozirgi kunda

NYSE ida umumiyligi qiymati 6 trln. AQSh dollarari (ularning egalari 50 mln. odamdan ziyod) bo‘lgan 3000ta kompaniyaning aksiyalari savdo qilinadi. Jahonda ikkinchi o‘rinda Tokio, to‘rtinchi o‘rinda – Frankfurt Mayndagi fond birjasi turadi.

Qimmatli qog‘ozlarning Yevropadagi birjadan tashqari bozori o‘z tarixini dastlab XVI asrning 60-yillarida birinchi aksiyadorlik jamiyatlari paydo bo‘lishidan, ya’ni 1568-yilda ro‘yxatga olingan birinchi shartnomadan boshlagan. XVII asrning 90-yillarida esa mazkur bozor nafaqat aksiyalar bilan, balki fyucherslar va opsiyolar kabi qimmatli qog‘ozlarning hosilalari bilan ham savdo qila boshladi. Ayni paytda ushbu bozorda 100dan ortiq aksiyadorlik jamiyatlarning qimmatli qog‘ozlari va davlat majburiyatlari muomalada bo‘lgan. Qimmatli qog‘ozlar bo‘yicha broker – mutaxassisligi paydo bo‘ldi. Birja savdolarining hajmi hozirgi kunda birjadan tashqari bozor aylanmasidan turli mamlakatlarda 3 barobardan 30 barobargacha ko‘mdir (pasayish tendensiyasiga ega bo‘lgan holda). Yangi axborot texnologiyalari, INTERNETni paydo bo‘lishi va rivojlanishi birjadan tashqari fond bozorlari rolini kuchayishida yangi rag‘batlantiruvchi omil bo‘ladi. Yetakchi va eng rivojlangan birjadan tashqari tizim bo‘lib NASDAQ – Investitsiya dilerlari milliy assotsiatsiyasining avtomatik kotirovka tizimi (AQSh) hisoblanadi.

Valyuta savdosi deganda valyuta bozori ishtirokchilari tomonidan bozor kursi yoki foiz stavkasi asosida amalga oshiriladigan xorijiy valyutalardagi ayriboshlash (konversion) va depozit-kredit operatsiyalarning yig‘indisi tushuniladi.

Agarda Germaniyada joylashgan bank AQSh da joylashgan bankdan AQSh dollarida kredit olsa, unda u xalqaro valyuta bozorida savdo qiladi. Aksincha, agarda xuddi shu bank Londonda yoki Shvetsariyada joylashgan bankdan AQSh dollarida kredit olsa, undu u savdoni yevrovalyutalar bozorida amalga oshiradi.

Yevrovalyuta tushunchasi mavjud – yevrodollar, yevrorubl, yevroyena. Bularning barchasi AQSh, Rossiya va Yaponiya hududlarida (ya’ni, ushbu valyutalar vatanida yemas) mavjud bo‘lmagan, balki banklar ssuda hisobvaraqlaridagi valyutalardir.

Shunday qilib, bevosita valyuta bozori haqida gap ketganda biz milliy valyutalar bozorlari (forex) singari yevrovalyutalar bozori (deposits/ loans)ni ham ko‘zda tutamiz.

Moliyaviy bozorlarda savdo obyektlari bo‘lib tovar-xom ashyo resurslarining prognoz qilinadigan baholari ham hisoblanadi. Yaponiya davlatida bundan 300 yildan ziyodroq vaqt oldin “gurunchning bo‘sh savatlari”, ya’ni kelgusi hosil ustidan fyucherslar (forwardlar) bilan savdo qilishgan. Zamonaviy sharoitda mazkur savdolarning eng faol obyektlari bo‘lib neft, paxta, kofe, g‘alla, oltin, rangli metallar va boshqa shu kabilarga prognoz qilinadigan baholar hisoblanadi.

Moliyaviy bozorlardagi operatsiyalarning mohiyati valyutalar (qimmatli qog‘ozlar) kurslarining farqi, tovar-xom ashyo birjalaridagi tovarlar baholarining yoki qimmatli qog‘ozlar kotirovkalari indekslarining o‘zgarishi sifatida daromad olishdan iboratdir.

Globallashuv jarayonlarining kengayishi jahon mamlakatlari o‘rtasidagi iqtisodiy munosabatlarning yanada takomillashuviga olib keladi. Jumladan, globallashuv natijasida transmilliy korporatsiyalar, ularning turli ko‘rinishdagi xalqaro birlashmalari faoliyatining tarkib topishi va kengayishi, xalqaro ishlab chiqarish kooperatsiyasi va mehnat taqsimotining nisbatan yuqori darajaga o‘tishi, xalqaro iqtisodiy tashkilotlar faoliyatining yanada kuchayishi ro‘y beradi.


Umuman olganda, globallashuv jarayonlari jahon xo‘jaligining yaxlit iqtisodiy tizim sifatida rivojlanishida sifat bosqichi hisoblanib, yangi imkoniyatlarni ochib beradi.

Xalqaro moliyaviy markazlar deganda, xalqaro valyuta, kredit, moliyaviy operatsiyalar hamda qimmatli qog‘ozlar va oltin bilan bitimlarni amalga oshiruvchi banklar va ixtisoslashgan moliya-kredit tashkilotlarining to‘plangan joyi tushuniladi. Dastlab ular sanoat jihatidan rivojlangan mamlakatlar (AQSh, G‘arbiy Yevropa)da barpo etilgan. Keyinchalik esa ma’lum omillarning ta’siri ostida ularning joylashishi kengayib bormoqda. Agarda Tokio Yaponiyaning jahon bozoridagi raqobat kurashi borasidagi

kuchayishi munosabati bilan moliyaviy markazga aylangan bo‘lsa, Singapur, Bagam orollari, Panama, Baxrayn kabi moliviy markazlar ushbuga past soliqlar, davlat aralashuvining deyarli yo‘qligi, liberal qonunchilik va operatsion xarajatlarning nisbatan pastligi tufayli aylangan.

#### 4-chizma

#### Moliya bozorining tarkibiy tuzilishi



Moliya bozorlari – bu, pul oqimlarini mulk egalaridan qarz oluvchilarga qarata yo‘naltira oladigan bozor institutlarining yig‘indisidir.

Moliya bozorlari ko‘p turdagи xilma-xil “kanallardan” iborat bo‘lib, ushbu kanallar orqali pul mablag‘lari egalaridan qarz oluvchilarga oqib o‘tadi. Ushbu kanallar asosan 2 guruxga bo‘linadi, ya’ni:

1. To‘g‘ridan to‘g‘ri moliyalashtirish kanallari. Ushbu kanallar bo‘yicha pul mablag‘lari bevosita pul egalaridan qarz oluvchilarga

oqib o‘tadi. Mazkur to‘g‘ridan-to‘g‘ri moliyalashtirishning o‘zini 2 (ikki) kichik guruhga bo‘lish mumkin, ya’ni:

a) kapitalni moliyalashtirish. Ushbu har qanday ko‘rinishdagi kelishuvdan iborat bo‘lib, unga asosan investitsiya qilish niyati bo‘lgan pul mablag‘ining egasiga firmaning mulkida ulush ishtirokiga ega bo‘lish huquqi evaziga, uning pul mablaglarini oladi. Bunga yaqqol misol bo‘lib, korporatsiya tomonidan oddiy aksiyalarни sotilishi hisoblanadi.

Oddiy aksiya – bu, korporatsiya mulkidagi ulushga egalik to‘g‘risidagi sertifikatdir hamda o‘z egasiga korporatsiya tomonidan olingan foydaning bir qismiga davogarlik qilish huqiqini beradi;

b) qarz (zayom) olish orqali moliyalashtirish (debt finance) - ushbu toifaga xar qanday kelishuv kirib, unga asosan firma investitsiyalarni amalga oshirish maqsadida pul mablag‘larini qarzga, ularni kelishilgan foizlari bilan kelgusida so‘ndirish buyicha majburiyatni o‘z zimmasiga oladi. Ushbu xolatda kreditor shaxs, aksiyadagiga o‘xhash firma mulkidagi ulush ishtiroki xuquqiga ega bo‘lmaydi. Bunga, koorporatsiyalar tomonidan obligatsiyalar sotilishini misol sifatida keltirish mumkin.

2. Moliyalashtirishning kanallari. Egri kanallar orqali moliyalashtirishda oila xo‘jaliklaridan firmalarga oqib o‘tayotgan pul mablag‘lari maxsus institutlar orqali oqib o‘tadi. Bunday institutlarga banklar, o‘zaro fondlar, sug‘urta kompaniyalari kiradi. Ushbu turdagи tashkilotlar – moliyaviy vositachilar deb ataladi.

Moliyaviy bozordagi pul sarmoyalari bиринчи bor qarashda stixiyali asosda taqsimlanilayotgандек tuyuladi, ammo ushbu tushuncha yuzakidir. Ushbu bozordagi pul sarmoyalarning taqsimoti va qayta taqsimoti, jamiyatdagi o‘zgarishlarga o‘ta sezgir va ta’sirchan mexanizm bo‘lmish talab va taklif mexanizmi orqali amalga oshadi.

Qimmatli qog‘ozlar bozorida moliyaviy vositachilar sifatida maydonga odatda brokerlar va dilerlar chiqadi.

Broker – qimmatli qog‘ozlar bozorining professional ishtirok-

chisi bo‘lib, brokerlik faoliyati bilan shug‘ullanadi. Ya’ni, ushbu davlatda qimmatli qog‘ozlar muomalasini tartibga soluvchi qonunlarga muvofiq, ishonch bildirilgan shaxs yoki komissioner sifatida qimmatli qog‘ozlar bilan fuqarolik-huquqiy shartnomalarini, topshiriq-shartnomasi yoki komissiya hamda ishonch asosida amalga oshirilgan operatsiyalar brokerlik faoliyatiga kiradi.

Brokerlar sifatida bozorda jismoniy va yuridik shaxslar harakat qilishi mumkin. Fond bozoridagi professional brokerlik faoliyati maxsus tartibda olinadigan litsenziya asosida amalga oshiriladi.

Diler – bu, qimmatli qog‘ozlar bozorining professional ishtirokchisi bo‘lib (yuridik yoki jismoniy shaxs, u dilerlik faoliyatini amalga oshiradi. Ya’ni, “qimmatli qog‘ozlar bozori haqida”gi qonunga muvofiq, ommaviy ravishda muayyan qimmatli qog‘ozlarni sotish va sotib olish baholarini e’lon qilgan holda ularni o‘z nomidan va o‘z mablag‘i hisobiga sotib olish hamda sotish, shu bilan birgalikda dilerlik faoliyatini amalga oshiruvchi shaxs tomonidan e’lon qilingan baholar asosida qimmatli qog‘ozlarni sotib olish yoki sotish bilan bog‘liq shartnomalarni amalga oshiruvchi shaxs.

Ushbu faoliyat o‘z ichiga quyidagilarni oladi:

- egalari tomonidan mazkur boshqaruvchi kompaniyaga berilgan qimmatli qog‘ozlarni boshqarish;
- qimmatli qog‘ozlarga foydali joylashtirish uchun mo‘ljallangan mijozlar pul mablag‘larini boshqarish;
- kompaniyalar tomonidan qimmatli qog‘ozlar bozoridagi faoliyat borasida olingan qimmatli qog‘ozlar va pul mablag‘larni boshqarish.

Moliyaviy bozorda, moliyaviy tovarlar sotiladi va sotib olinadi.

Ularni ishlab chiqaruvchi shaxslar esa, asosan, pul sarmoyalariha muxtoj bo‘lgan yoki pul sarmoyalalarini sotib olmokchi bo‘lgan shaxslardir.

Moliyaviy tovar boshqa oddiy tovarlardan tubdan farq qiladi.

Birinchidan, moliyaviy tovarlar tovar sifatida, albatta, ist’emolchini hamda ishlab chikaruvchi shaxsning ma’lum bir extiyojini qondiradi. Masalan, moliyaviy tovarni sotib oluvchi shaxsning vaqtincha bo’sh bo’lgan pul sarmoyalarini muxofazali, samarali va unga zarur bo’lgan muddatga joylashtirish ehtiyojini.

Ikkinchidan, moliyaviy tovarning sotuvchisini esa pul sarmoyalariga bo’lgan vaqtincha ehtiyojini, o’ziga xos shartlar va muddatlar asosida. Uchinchidan, boshqa tovarlar ularni ishlab chikaruvchi shaxslarga shu zahoti iqtisodiy samara keltirmaydi. Ushbu samara olingunga qadar ma’lum bir vaqt o’tadi. Mazkur vaqtning katta yoki kichikligi texnologik jarayon, taqsimot va muomala jarayonlaridagi vaqtga bevosita bog’likdir. Bulardan moliyaviy tovarlar tubdan farq qilib, o’z ishlab chiqaruvchilariga samarani shu zahoti keltiradi.

Bozorga moliyaviy tovarlarni chiqarayotgan shaxslarni jahon amaliyotida “emitent” deb atashadi. Moliyaviy tovarlarni sotib olaetgan shaxslarni esa “investor” deb atashadi. Moliyaviy tovarning bozordagi oldi-sotdisida bevosita ishtirok etadigan hamda sotuvchi va sotib oluvchining topshirig‘ini bajaradigan shaxslar esa moliyaviy vositachilardir.

Moliyaviy vositachilar, ixtisoslashgan moliyaviy tashkilotlar yoki jismoniy shaxslardir. Jahon amaliyotida moliyaviy bozorda quyidagi moliyaviy vositachilar mavjud: Investitsiya firmalari (banklari), Broker firmalari (kontoralari), Investitsiya fondlari, Sug‘urta kompaniyalari va Pensiya fondlari. Jismoniy shaxslar esa brokerlar yoki dilerlar sifatida mavjuddirlar.

## **5.2. Moliyaviy bozor va bunda tijorat banklarining roli**

Har qanday jamiyatda moliyaviy bozor faoliyati bo’lishligi uchun yana bir muhim shart-sharoit mavjud bo’lishi lozim. Ushbu shart-sharoit, moliya bozori ishtirokchilarini va moliyaviy vositachilarni iqtisodiy ma’lumot (axborot) bilan ta’minlanganligini ko’zda tutadi. Bundan tashqari, jamiyatda iqtisodiy axborotlar erkin, ochiq, oydin matbuotda e’lon qilinmog‘i lozim.

Boshqacha qilib aytganda, moliya bozoridagi har bir ishtirokchi va har bir moliyaviy vositachi bir xil iqtisodiy va axborot muxitiga ega bo‘lmog‘i kerak. Ushbu bozorda munosabatlarni tartibga solib turuvchi qonun-qoidalar ham barcha ishtirokchilar uchun bir xil bo‘lishi lozim. O‘zbekiston Respublikasida “Fond birjasi va qimmatli qog‘ozlar” haqida qonun 1994-yilda qabul qilingan.

Shu qonunga asosan, O‘zbekiston Respublikasida hozirgi kunda qimmatli qog‘ozlar bozori rivojlanib, shakllanib bormoqda. Respublikada qimmatli qog‘ozlarni oldi-sotdisiga ixtisoslashgan “Toshkent” fond birjasi faoliyat ko‘rsatmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi banklari Markaziy bank tomonidan beriladigan umumiy litsenziya asosida qimmatbaho qog‘ozlar bank operatsiyalarini amalga oshirishlari mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015-yil 26-oktabrdagi «Banklarning kapitallashuv darajasini oshirish bo‘yicha qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi PQ-2420-sonli Qaroriga muvofiq, 2016-yil davomida Tashqi iqtisodiy faoliyat milliy banking ustav kapitaliga 75,0 mlrd. so‘m, «Agrobank» ATB ustav kapitaliga 50,0 mlrd. so‘m, «Mikrokreditbank» ATB ustav kapitaliga 25 mlrd. so‘m va «Qishloq qurilish bank» ATB ustav kapitaliga 25 mlrd. so‘mlik mablag‘larning joylashtirilishi ta’minlandi.

Shu bilan birga, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015-yil 21-dekabrdagi «Aksiyadorlik jamiyatlariga xorijiy investorlarni jalb qilish borasidagi qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi PQ-2454-sonli Qarori talablaridan kelib chiqqan holda tijorat banklari tomonidan bank ustav kapitalining 15 foizidan kam bo‘lmagan qismini xorijiy investorlarga sotish yuzasidan o‘tgan davr mobaynida zaruriy chora-tadbirlar amalga oshirildi.

Xususan, ushbu qaror talablaridan kelib chiqib, Markaziy banking «Banklarni ro‘yxatga olish va ular faoliyatini litsenziyalash tartibi to‘g‘risida»gi Nizomiga tegishli o‘zgartirishlar kiritildi.

Bugungi kunda respublikamizda faoliyat yuritayotgan 12 ta

tijorat banklarining («KDB Bank O‘zbekiston» AJ, «O‘T-bank» AJ, CHEKI «Savdogarbank ATB, CHEKI «Hamkorbank» ATB, «Ipak Yo‘li banki» AITB, «Asia Alliance Bank» ATB, «Orient Finans» XATB, «Madad Invest Bank» XATB, «Ravnaq-bank» XATB, «Kapitalbank» ATB, «Trastbank» XAB va «Invest Finance Bank» ATB) ustav kapitaliga Osiyo taraqqiyot banki, Xalqaro moliya korporatsiyasi, Koreya taraqqiyot banki, Gollandiya rivojlanish va taraqqiyot tashkiloti kabi molivayi tashkilotlar hamda boshqa xorijiy investorlarning ulushlari jalg yetildi .

Banklar quyidagi shartlar bajarilgan holda qimmatbaho qog‘ozlarga qo‘yilmalarni amalga oshirishlari mumkin:

a) bankning bir korxona ustav kapitaliga, shuningdek ushbu korxonaning boshqa qimmatbaho qog‘ozlariga qo‘yilmasining miqdori 1- darajali bank regulyativ kapitalining 15% oshmasligi kerak.

b) bankning barcha elementlar ustav kapitaliga va boshqa qimmatbaho qog‘ozlariga qilgan investitsiyalari miqdori 1-darajali bank regulyativ kapitalning 15% idan oshmasligi kerak.

v) oldi-sotdi uchun nodavlat qimmatbaho-qog‘ozlariga qilingan bank qo‘yilmasi miqdori 1-darajali bank regulyativ kapitalining 25% idan olinishi kerak.

Bank ist’emol korxona (molivayi institutlar miqdori) ustav kapitaliga 20% idan ortig‘iga to‘g‘ridan to‘g‘ri yoki bilvosita egalik qilishi mumkin yemas.

Umaman olganda, banklarning foyda operatsiyalariga quyida-gilar kirishi mumkn:

1. qimmatbaho qog‘ozlarga asosan kreditlar (lombard).
2. qimmatbaho qog‘ozlarni o‘z portfeli uchun sotib olish (investitsiya).
3. yangi chiqarilgan qimmatbaho qog‘ozlarni birlamchi taqsimlash (jamlashtirish);
4. Mijozning topshirig‘iga ko‘ra qimmatbaho qog‘ozlarni sotib olish va saqlash (qimmatbaho kog‘ozlar ikkilamchi muomalasiga xizmat ko‘rsatish).

## Bank brokerlik operatsiyasi

a) Banklarning o‘zlarining mijozlari topshirig‘iga ko‘ra komission operatsiyalarni amalga oshiruvchi masalan (o‘zlar nomidan mijoz uisobidan qimmatbauo qog‘ozlar sotib olish operatsiyalari amalga oshirishlari mumkin.

b) banklar amaliyotning kelishuvi asosida qimmatbaho qog‘ozlarni chiqarishni tashkil etishi mumkin.

v) 3-shaxs nomidan (foydasiga) qimmatbaho qog‘ozlarni joylashtirishni kafolotini olishi mumkin. Qimmatbaho qog‘ozlar saqlash yoki ularni hisoblash olib borish huquqi depozitlar operatsiyalari.

O‘zbekiston tijorat banklarining ushbu bozorda xarakat qilish salohiyati qimmatbaho qog‘ozlar bozorining boshqa institutlari-nikiga nisbatan katta. Hozirgi bosqichda bu qonuniydir. Jahon tajribasi ko‘rsatishicha, iqtisodiy taraqqiyot jarayoni qimmatli qogozlar bozorida bankdan tashqari moliya institutlari qatnashuvi ulushining ortib borishiga olib kelmoqda, buning natijasida tijorat banklari ulushi kamayib bormoqda (qimmatli qog‘ozlar bozori subyektlari o‘rtasida raqobatchilik mavjud bo‘lgan vaqtida).

Hozirgi vaqtida qimmatli qogozlarning quyidagi besh turi O‘zbekiston fond bozorining obyektlari bo‘lib koldi: xususiyash-tirilgan korxonalar aksiyalari, davlat qisqa muddatli obligatsiyalari, davlat 12 foizli ichki zayomi, tijorat banklari va boshqa xo‘jalik yurituvchi subyektlarning diskont Veksellari, tijorat banklarning depozit sertifikatlari va depozit obligatsiyalari.

O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq, tijorat banklariga qimmatli qog‘ozlar aksiyalari, obligatsiyalar, depozit va jamg‘arma sertifikatlari, Veksellar, shunindek, hosila qimmatli qogozlar (fyucherslar va opsonlar) kabi turlarini chiqarishga ruxsat beriladi. Muayyan moliyaviy vosita uning emitent uchun ham, xaridor uchun ham qulay va foydaligi hisobga olingan holda, tanlab olinadi. Bank qimmatli qog‘ozining nobank muassasi tomonidan chiqarilgan qogozdan farqi, tijorat banki faoliyatining davlat organlari tomonidan nisbatan to‘liqroq tartibga solinishidan iborat. Tijorat banki o‘z faoliyatida unga balans likvidligi va

kapitalning yetarlilik darajasini pasaytirishga yo‘l qo‘ymaydigan bir qancha majburiy normativlarga amal qiladi.

O‘zbekistonda tijorat banklarining emission faoliyati va ayrim turdag‘i qimmatli qog‘ozlari muomalasi «Banklar va bank to‘g‘risida qonun» «O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki to‘g‘risida qonun», shuningdek, «Tijorat banklariga qimmatbaho qog‘ozlar bozorida amalga oshiriladigan operatsiyalar bo‘yicha tavsiyalar» bilan tartibga solinadi.

Qimmatli qog‘ozlar emissiyasi bilan bog‘liq faoliyat tartibga solinishi tijorat banklari uchun emissiya prospektini chiqarish, uni ro‘yhati belgilab quyilganligi ta’minlanadi. Ushbu tartib O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi qimmatli qogozlar va fond birjalari bo‘yicha davlat komissiyasi tomonidan belgilangan. Banklar uchun yemissiya prospektlaridagi ma’lumotlar ro‘yxatlarini O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi Markaziy bank bilan kelishilgan holda belgilaydi.

### **5.3. Banklarning qimmatli qog‘ozlar bo‘yicha tijorat va investitsion operatsiyalari**

Iqtisodiy adabiyotlarda «innovatsiya» so‘zining ma’nosi bir qancha ma’noda ishlatiladi. Ishlab chiqarish takror ishlab chiqarish jarayonida termin kapital qo‘yilma ma’nosini bildiradi. Bu pul mablag‘larining takror ishlab chiqarish jarayonining kengaytirilishiga ishlatilishini anglatadi.

Investitsiyani mulkiy tomondan qo‘yilmalarga ishlatilishi – bu kompaniyani korxonaning real aktivlariga yoki shaxsiy mulkka joylashtirilishi deganidir.

Moliyaviy faoliyat amaliyoti bo‘yicha ya’ni investitsiyani moliyaviy tomondan tushuniladigan tushunchasi esa – bu kapitalni qiymatini saqlash yoki ko‘paytirish (ijobiy miqdor keltirish maqsadida) joylashtirish uslubiga aytildi.

Investitsiya yoki kapital qo‘yilma deganda, umuman, iqtisodiy subyektni ixtiyorida bo‘lgan mablag‘larni (kelishi) ist’emolidan voz kechib kelgusida yaxshi hayot kechirishi uchun mablag‘larni

ko‘paytirishi uchun foydalanishidir.

Investitsion faoliyatning asoiy belgilari bo‘lib quyidagilar hisoblanadi:

- kapitalning vaqtinchalik yo‘qotilgan ist’emol qiymatini (likvidligini kapitalning vaqtinchalik yo‘qotilgan ist’emol qiymatini (likvidligini) qaytib kelmasligi; (bo‘lmasligi).

- boshlang‘ich farovonlik darajasini o‘sishini kutish;

- uzoq muddatga qo‘yilgan kapitalning natijasini noaniqliligi;

Shunday qilib investitsion jarayon – bu vaqtinchalik bo‘sh pul mablag‘lari bor bo‘lgan shaxslar bilan, pul mablag‘larining talabi bo‘lganlar o‘rtasidagi ma’lumotlarni berish mexanizmidir. Tijorat banklari investitsion faoliyati – bu bankning pul mablag‘larining ustav fondiga qimmatbaho toshlar va boshqa obyektlarga joylashtirishidir.

Investitsiya maqsadiga ko‘ra ikkiga bo‘linadi;

1) To‘g‘ri investitsiyalar – bu investitsiya obyektini bevosita boshqarish maqsadida amalga oshiriladigan investitsiyalardir. Agar bunday investitsiyalar qimmatli qog‘ozlarga qo‘yilsa u holda korxonaning kontrol paketini sotib olishi kerak. Masalan investitsiyalar mulk, ishsizlik patent va boshqalar ham bo‘lishi mumkin.

2) Portfel investitsiyalari – qimmatbaho qog‘ozlar portfelin tashkil qilish uchun kontrol paketini tashkil qilmasdan va investitsiya obyektini to‘g‘ridan to‘g‘ri bevosita faoliyatidir.

Agar to‘g‘ri investitsiyalar bank o‘z faoliyatini boshqa sohada ta’sirini kengaytirish maqsadida amalga oshirilsa, bank portfel investitsiyalari (qimmatbaho qog‘ozlar portfeli) quyidagi funksiyalarni amalga oshiradi:

- bank daromadlari boshqarilishi; agar banka qarzlari bo‘yicha kreditlari foizi (daromadi) pasaysa, qimmatbaho kog‘ozlar bo‘yicha daromadi ko‘tarilishi mumkin:

- bank kredit portfelidan keladigan kredit risklarini to‘plash maqsadida, yaxshi qimmatbaho qog‘ozlari sotib olishi yoki saqlab turishi mumkin. Bu o‘z navbatida bankning kredit risklari pasaytirishi mumkin.

- geografik diversifikatsiyani ta'minlashi mumkin.
- bankning soliq pasaytirishi mumkin. Ba'zi qimmatbaho kog'ozlar soliqqa tortilmaydi yoki pas foizda soliqqa tortiladi.
- bozor foiz stavkalarning o'zgarishi jarayonida (sharoitida) bank yo'qotishlarini sug'urtalaydi.
- bank aktivlari portfelini o'zgartiruvchanligini ta'minlashi mumkin.
- bank balansi moliyaviy ko'rsatkichlarni yaxshilashga imkon yaratadi.

Banklarning investitsiyalariga ko'rsatkichlarini yaxshilashga imkon yaratadi.

Banklarning investitsiyalariga odatda, 1 yilgacha qoplash muddatiga ega bo'lgan qimmatbaho qog'ozlarni kiritish mumkin.

Banklarning investitsion operatsiyalarini o'tkazishdan asosiy maqsad:

- bankning daromad bazasini kengaytirish va diavrsifikasiatsiyalash;
- bank faoliyati turlarini kengaytirish asosida hamda bank risklarini umumiylarini pasaytirish hisobiga – bankning moliyaviy barqarorligini oshirish;
- bankning mijoz va mablag'lar bazasini xizmatlar to'rini, fiskal (docherniy) moliya institutlarini tashkil qilish hisobiga kengaytirish;
- mijozlarga bo'lgan ta'sirni kuchaytirish (qimmatbaho qog'ozlar portfelini sotib olish hisobiga).

Asosan bankning investitsiyalari deganda, bank tomonidan kapital xarakterga (belgiga) yega bo'lgan xarakterni va qimmatbaho qog'ozlarni sotib olishga yo'naltirilgan muddatli kreditlash yoki moliyalashtirish tushuniladi.

Banklar tomonidan faoliyat amalga oshirilishi mumkin:

- Brokerlik faoliyati.
- Dilerlik faoliyati.
- Depozit faoliyati.
- Qimmatbaho qog'ozlar bilan mablag'larga (qimmatbaho qog'ozlar bilan bog'liq bo'lgan) o'tkazish bilan bog'liq

bo‘lgan hisob-kliring faoliyati.

- Aksionerlar resrini olib borish va saqlash faoliyati.
- Qimmatbaho qog‘ozlar savdosini tashkil etish faoliyati.

O‘zbekistonda iqtisodiyotni qayta ko‘rishning o‘ziga xos xususiyatlaridan biri – bank sohasini isloh qilish bilan birlgilikda, qimmatli qogozlar bozorini, shunindek, moliya bozorining boshqa segment (bo‘g‘in)larini ham yaratishdan iboratdir. Ma’lumki, bank tizimi va qimmatbaho qog‘ozlar bozori iqtisodiyotning tezkorlik bilan rivojlanib boruvchi sohalari bo‘lib, texnologiyada ham, tashkil yetishda ham eng tomonlarini, novatorlikni o‘z ichiga qamrab oladi. Qimmatbaho qogozlar bozori va moliya bozori obyektlari hamda subyektlari o‘ta qat’iy tartibga solinganligi, tuzilmalashtirilganligi va sertarmoqligi tufayli eng kichik o‘zgarishlar, shu jumladan, me’yoriy-huquqiy bazadagi o‘zgarishlar ham qimmatbaho qogozlar bozori va bank tizimi faoliyatiga ta’sir ko‘rsatadi.

#### **5.4. Tijorat banklarining qimmatli qog‘ozlar bilan passiv operatsiyalari va ularning tarkibiy tuzilishi**

Tijorat banklarining asosiy faoliyati bu vaqtincha bo‘sh pul mablag‘larini kreditorlar va qarzdorlar o‘rtasida hamda sotuvchilar va xaridorlar o‘rtasida aylanishini vositachilik asosida olib borish hisoblanadi. Shuni ta’kidlash lozimki, iqtisodiyotda pul mablag‘larini joylashtirish yuzasidan faoliyatni tijorat banklaridan tashqari bir qator maxsus-ixtisoslashgan moliya-kredit institutlari, ya’ni investitsiya fondlari, kredit uyushmalari, sug‘urta kompaniyalar, brokerlik va dilerlik firmalari ham olib boradi. Lekin, tijorat banklarining mamlakat moliya bozorida faqatgina o‘ziga xos xususiyatlari mavjud. Ular quyidagilardan iborat:

- birinchidan, tijorat banklari faoliyati uchun qarz majburiyatlarini yuzasidan ikki tomonlama tasnif mavjud. Ular birinchi tomonidan yuridik va jismoniy shaxslar uchun muomalaga o‘zlarining qarz majburiyatlarini, ya’ni depozit sertifikatlari, depozit-jamg‘arma sertifikatlari, obligatsiyalarini chiqaradilar.

Ikkinchi tomondan esa, tijorat banklari qo'shimcha daromad olish maqsadida boshqa emitentlarning muomalaga chiqargan qarz majburiyatlarini (aksiyalar, obligatsiyalar, depozit sertifikatlari) sotib oladilar:

- ikkinchidan, tijorat banklari o'z nomidan chiqarilgan qimmatli qog'ozlar (obligatsiyalar, depozit sertifikatlari) bo'yicha qat'iy belgilangan foiz bo'yicha daromad to'lanishi majburiyatini oladilar. Investitsiya fondlari esa daromad to'lanishi yuzasidan risklarni investorlar zimmasiga yuklaydilar.

Tijorat banklari o'z faoliyatini yuritish uchun chetdan qo'shimcha mablag' jalb etishlari lozim. Bu faoliyat – tijorat banklari tomonidan yuridik va jismoniy shaxslardan vaqtincha bo'sh pul mablag'larini qaytarib berishlilik, to'lovilik hamda muddatlilik shartlari asosida jalb etish bilan bog'liq faoliyat passiv operatsiyalar hisoblanadi. Tijorat banklarining aktiv operatsiyalarini amalga oshirish uchun pul sarmoyalariga bo'lgan ehtiyojning 90 foizi chetdan jalb qilingan mablag'lar hisobiga qoplanadi. Chetdan jalb qilingan mablag'lar jalb qilinish usullariga ko'ra asosan quyidagilarga bo'linadi:

- banklararo bozorda kreditlar olish;
- Veksellar hisob-kitobi va Markaziy bankdan kredit olish;
- muomalaga qimmatli qog'ozlarni chiqarish (aksiyalar, obligatsiyalar, depozit sertifikatlari, depozit-jamg'arma sertifikatlari, Veksellar);
- depozitlarni jalb etish;
- qimmatli qog'ozlarni qaytib sotib olish sharti bilan sotish shartnomalari («Repo» operatsiyasi) amalga oshirish;
  - Yevronota va Yevrobondlar bozorida ishtirok etish;
  - Bank akseptlarini (aval sifatida) sotish.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining obligatsiyalari pul-kredit siyosatining vositasi hisoblanadi va ular muomalaga pul massasini tartibga solib turish maqsadida chiqariladi. Obligatsiyalarni chiqarish, muomalada bo'lish va ularni so'ndirish tartibi O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 2002-yil 22-

apreldagi 1140сонли «О‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining yuridik shaxslar uchun obligatsiyalar chiqarish va ular muomalasi to‘g‘risida» Nizom ga asosan amalga oshiriladi.

O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining jismoniy shaxslar uchun obligatsiyalari davlat qimmatli qog‘ozlari hisoblanadi va uning egalariga obligatsiyalarning nominal qiymatiga nisbatan foiz ko‘rinishida daromad olish huquqini beradi. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining jismoniy shaxslar uchun obligatsiyalar chiqarilishi, uning muomalasi tartibi va so‘ndirilishi O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 2002-yil 22-apreldagi 1141сонли «O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining jismoniy shaxslar uchun obligatsiyalarini chiqarish va ular muomalasi to‘g‘risidagi» Nizomga asosan olib boriladi.

O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki depozit sertifikatlari mamlakatimizda pul bozorida likvidlikni tartibga solib turish maqsadida chiqariladi. Depozit sertifikatlarini chiqarish, muomalada bo‘lish va u bo‘yicha to‘lovnini amalga oshirish tartibi O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 1998-yil 26-dekabrdagi «O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki depozit sertifikatlarini chiqarish to‘g‘risida Nizomga asosan amalga oshiriladi.

O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki depozit sertifikati – bu O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining pul mablag‘larini omonatga qo‘yilganligi haqidagi guvohnomasi bo‘lib, u omonatchi yoki uning huquqiy vorisining omonat summasini va u bo‘yicha foizlarni belgilangan muddat tugagandan so‘ng olish huquqini tasdiqlaydi.

Depozit sertifikatining to‘lovi muddatidan oldin amalga oshirilayotganda pul mablag‘lari depozit sertifikati yegasining hisobvarag‘iga depozit sertifikatni muddatidan oldin to‘lovga qabul qilish to‘g‘risidagi ariza tushgan kundan boshlab 5 bank ish kuni davomida ko‘chiriladi.

O‘zbekiston Respublikasida muomalaga depozit sertifikatlarini chiqarish muomalaga kiritish va ularni so‘ndirish O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 1994-yil 24-

dekabrda tasdiqlangan «Banklarning depozit sertifikatlarini chiqarish, ro‘yxatga olish va muomalada bo‘lish qoidalari» asosida amalga oshiriladi.

Investorlar tomonidan qimmatli qog‘ozlarni qaytarish bilan bog‘liq barcha xarajatlarni qoplash, shuningdek, qimmatli qog‘ozlarni sotib olish bo‘yicha ular kiritgan pul mablag‘larini qaytarish emitent tijorat banki hisobidan amalga oshiriladi.

### **5.5. Tijorat banklarining qimmatli qog‘ozlar bilan aktiv operatsiyalari va ularni turkumlanishi**

Tijorat banklari faoliyatining pirovard maqsadi daromad topishdir. Xalqaro amaliyotda banklarning daromad topish uchun faoliyati aktiv operatsiyalar deb nomlanadi. Tijorat banklarining o‘zlik va yuridik va jismoniy shaxslarning vaqtincha bo‘sh turgan pul mablag‘larini jalb etilgan mablag‘laridan o‘z nomidan ma’lum daromad topish uchun foydalanishdagi faoliyati aktiv operatsiyalardir. Tijorat banklarining aktiv operatsiyalari juda xilma-xildir, lekin xalqaro amaliyotda aktiv operatsiyalar quyidagi asosiy turlarga ajratiladi:

- yuridik va jismoniy shaxslarga turli muddatlarga, turli maqsadlarga hamda turli shartlar asosida kreditlar berish;
- bank mijozlariga turli vositachilik xizmatlarini ko‘rsatish;
- davlat va boshqa yuridik shaxslarning qimmatli qog‘ozlariga o‘z nomidan va o‘z hisobidan investitsiya qilish;
- lizing operatsiyalarini amalga oshirish;
- investitsiya loyihibarini amalga oshirish;
- «repo» operatsiyalarini amalga oshirish;
- valyuta dilingi operatsiyalarini amalga oshirish;
- mijozlarga boshqa turdagи an'anaviy va noan'aviy bank xizmatlarini ko‘rsatish.

Amalda tijorat banklarining investitsiyalariga – bank aktivining so‘ndirilish muddati bir yildan ortiq bo‘lgan qimmatli qog‘ozlarga qo‘sishimcha daromad olish uchun yo‘naltirilishi hisoblanadi.

Xalqaro bank amaliyotida tijorat banklarining investitsiya faoliyati jarayoni strategiyasida ikki xil strategiya ajratiladi:

- passiv strategiya
- aktiv strategiya

Tijorat banki investitsiya faoliyati olib borishning passiv strategiyasida, asosan, kutish, ya’ni qimmatli qog‘ozlar bo‘yicha bir maromda va doimiy ravishda daromad olishda ularning bozordagi o‘rtacha darajadagi daromadga yaqin darajada foydalanadi. Passiv strategiyani olib borishda banklar ikki xil usuldan foydalanishlari mumkin;

- «zinapoya» usuli;
- «shtanga» usuli;

Tijorat banki bиринчи usuldan foydalanganda o‘zi tomonidan aniqlangan investitsiya muddati asosida qimmatli qog‘ozlarni turli muddati bo‘yicha sotib oladi va ularni investitsiya portfeli tarkibida bir tekis joylashtiradi. Passiv strategiyani «shtanga» usulida tijorat banki investitsiyaga yo‘naltirilayotgan mablag‘larning asosiy qismini investitsiya portfelining likvidligini ta’minlaydigan juda qisqa muddatli qimmatli qog‘ozlarga va ma’lum qismini yuqori foyda beradigan uzoq muddatli qimmatli qog‘ozlarga sarflaydi.

Tijorat banklarning qimmatli qog‘ozlar bilan agressiv siyosati asosida qimmatli qog‘ozlarning fond bozorida kursi va foiz stavkasining tebranishidan imkonni boricha ko‘p daromad olish yotadi. Lekin shuni ta’kidlash lozimki, bunday agressiv siyosatni faqatgina katta miqdordagi investitsiya portfeliga ega bo‘lgan moliyaviy barqaror yirik banklar olib borishi mumkin. Qimmatli qog‘ozlar bilan agressiv siyosat oqilona va muvaffaqiyatli olib borish uchun esa bank tegishli analistik imkoniyatga ega bo‘lishi lozim.

### **Nazorat uchun savollar.**

1. Qimmatbaho qog‘ozlar bozorida tijorat banklari o‘rni
2. Asosiy kapitalni investitsiyalash shakllari tahlili
3. Tijorat banklarining qimmatbaho qog‘ozlar bilan aktiv operatsiyalari
4. Tijorat banklarining investitsion faoliyati
5. Moliyaviy bozor tushunchasi, uning tashkiliy tuzilishi va vazifalari.

6. Moliyaviy bozor insrumentlari, qimmatbaho qog‘oz bozori va uni tashkiliy tuzilishi.
7. Banklarning qimmatbaho qog‘ozlar bilan operatsiyalarining boshqa turlari
8. Bank tomonidan amalga oshiriladigan operatsiyalarining daromadligi darajasi
9. Banklarning qimmatbaho qog‘ozlar bilan operatsiyalarini rivojlantirish muammolari

## **6-MAVZU: MASOFAVIY BANK XIZMATLARI**

### **Reja:**

- 6.1. Bank operatsiyalari va xizmatlari klassifikatsiyasi va tarkibi.
- 6.2. Masofaviy bank xizmatlarining vujudga kelishi va rivojlanish bosqichlari.
- 6.3. Bank xizmatlarini transformatsiya qilishning ahamiyati va amaliyoti.

### **Tayanch iboralar**

“Bank-Mijoz” tizimi, internet-banking, magnitli kartalar, mol yetkazib beruvchi, mobayl banking, “of-line” rejimi, “on-line” rejimi, plastik karta, regress huquqi, smart kartlar, supersmart-kartlar, tratta, xotira kartalari, xalqaro savdo, xalqaro moliya bozorlari, forfeyting, forfeytor, SMS-banking.

### **6.1. Bank operatsiyalari va xizmatlari klassifikatsiyasi va tarkibi**

Barcha tijorat banklarining bajaradigan operatsiyalari deyarli bir hildir. Ammo banklarning bugungi kundagi ko‘rsatayotgan xizmatlariga e’tibor beradigan bo‘lsak, ularning soni yanada oshganini ko‘rshimiz mumkin.

Tijorat banklari xizmatlarining iqtisodiy mazmuniga va ko‘zlangan maqsadiga ko‘ra ikki yirik guruhga bo‘lish mumkin:

1. Ma’lum darajada bankning likvidlilagini saqlab turish uchun bajariladigan xizmatlar.

2. Daromad olish maqsadida bajariladigan xizmatlar. Ushbu ikki xizmatlar guruhi o‘rtasida ma’lum nisbat mavjud bo‘lib, u bank faoliyatini sifat jihatdan ma’lum darajada ta’minlab turish imkonini beradi. Bank likvidligini ta’minalash maqsadida bajariladigan xizmatlarning ba’zi birlari bankka daromad keltirsa-da, ular mavjudligining sababi bank umumiyligi likvidligini ma’lum darajada ushlab turishdan iboratdir.

Bugungi kunda Respublikamiz tijorat banklari tomonidan mijozlarga 250-350 dan ortiq bank xizmat turlari taklif etilgan. Tijorat banklari yangi turdag'i bank xizmatlarini yo'lga qo'yish orqali korxona, tashkilotlarga qulayliklar yaratmoqda. Bular qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin:

- lizing xizmatlari;
- faktoring xizmatlari;
- investitsiya operatsiyalarini;
- moliyaviy brokerlik xizmatlari;
- trast xizmatlari;
- iqtisodiy va moliyaviy axborotlar va maslahatlar berish va boshqalar.

Bank xizmati – bank operatsiyalarini o'tkazishni optimallashtiruvchi nazariy, texnologik, moliyaviy, intellektual va professional bank faoliyatidir.

Bank xizmati haqiqatdan ham bank faoliyati majmuasidir. Mijozlarning bank faoliyatiga bo'lgan talablarini qondirish bilan bog'liq bo'lgan xizmatlardir.

Bank operatsiyasi – bank tomonidan amalga oshiriluvchi pul mablag'larini joylashishini nazarda tutuvchi va aniq iqtisodiy masalani yechishga qaratilgan o'zaro bog'liq bo'lgan bank va mijoz harakatlari majmui .

Bank xizmatlari bozori – mijozlar talabini qondirishga qaratilgan bank xizmati talabi va taklifining shakllanish sohasi.

Xususan, A.I.Jukov bank xizmatlariga quyidagicha ta'rif beradi: "tijorat banklari xizmatlari – bu bank foydasiga ma'lum bir haq olish evaziga, mijozning talabiga binoan bank operatsiyalarini bajarishdir".<sup>23</sup>

Ko'pgina iqtisodiy adabiyotlarda "bank mahsuloti" termini ishlatiladi. Hatto ba'zida bu termin "bank xizmatlari" termini o'rnida ishlatiladi.

Zamonaviy iqtisodiy adabiyotlarda «bank mahsuloti» atamasi, odatda, «bank xizmati» tushunchasi bilan tenglashtiriladi, ba'zida

---

<sup>23</sup> А.И.Жуков, "Банковская система России". М. - Проспект, 2009. 186 б.

esa, uning o‘rnida ishlataladi.

Bank xizmati bank operatsiyalarini optimal darajada bajarishga ko‘maklashadi, ishlab chiqilgan va sotilgan bank xizmatlari esa bank operatsiyalari bilan birgalikda bank mahsulotini yaratadi.

A.N. Ivanov o‘z asarida bank xizmatlarini mijozlarga ko‘rsatilishi xususiyatlarini xarakterlovchi bir qator kriteriyalariga ko‘ra quyidagicha tasniflaydi [2]:

a) Mijozlar ehtiyojini qanoatlantirishga yo‘naltirilganligi

- Bevosita xizmatlar – to‘lovlар bo‘yicha xizmatlar, tijorat xizmatlari va investitsion xizmatlar;

- Bilvosita xizmatlar – kliring xizmatlari, hisob raqamlarni telefon orqali boshqarish bo‘yicha xizmatlar, konsultatsiya - maslahat xizmatlari, depozit hisob raqamlar asosida plastik kartochkalar bo‘yicha xizmatlar;

- Eksportni kreditlash Agentligi kafolati ostida bitimlar tuzishda bank xizmatlari, overnayt xarajatlarini kamaytirish yoki qo‘srimcha daromadlarni keltiruvchi xizmatlar;

b) Mijozlar guruhi bo‘yicha segmentatsiya.

Bank xizmatlari va mahsulotlari qiyinligi darajasidan kelib chiqib quyidagicha darajaga ajratiladi:

1-darajali xizmatlar – ko‘plab mijozlar tomonidan talab qilinuvchi mahsulot va xizmatlar (hisob raqam ochish, naqd pulni boshqarish, kliring xizmatlari);

2-darajali xizmatlar – bank xodimlarining maxsus tayyorgarligini talab qiluvchi xizmat va mahsulotlar (aktivlarni boshqarish, investitsion xizmatlar);

3-darajali xizmatlar – foydalanish sohasida professional bilimlarni talab etuvchi xizmatlar (korporativ moliyalash sohasidagi xizmatlar, aralash aktivlarni boshqarish);

4-darajali xizmatlar – maxsus malakani talab qiluvchi xizmatlar (moliyaviy rejalashtirish sohasidagi xizmatlar, moliyaviy injiniring xizmatlari).

Quyida keltirilgan jadval ma’lumotlaridan shu narsani sezish mumkinki, bank xizmatlari va operatsiyalari o‘rtasidagi farq

asosan uning foyda olish va o‘z mavqeyini yanada mustahkamlashga qaratilgan.

Tijorat xizmatlarining namunaviy portfeli vakillik munosabatlar, risklarni boshqarish, mijozlarning tashqi iqtisodiy faoliyatiga xizmat ko‘rsatish sohalarida vakil banklar hisobidagi mablag‘lar qoldig‘i tufayli universal banklarni bank xizmatlari bozorida yuqori mavqeni yegallashlariga va daromadini oshirishga imkon berishi aniqlandi.


### **5-jadval**

#### **Zamonaviy adabiyotlarda «Operatsiya» va «Xizmat» tushunchalarining farqlanishi**

<b>Xizmat</b>	<b>Operatsiya</b>
Boshqaga foyda keltiradigan harakat.	O‘zi kabilar bilan bir qatorda alohida harakat.
Nafaqalar va boshqa ijtimoiy yordamlar.	Bir maqsadda birlashtirilgan harakatlar majmui.
Moddiy tabiatni o‘zgarishi bilan bevosita bog‘liq bo‘lмаган mehnatning barcha turlari. Bu narsalar iste’moliga xizmat ko‘rsatish vositasida aholining har xil individual talablarini qondirishga qaratilgan mehnat turlari.	Mijozlar hisobidan va topshiring‘iga asosan bajariladigan huquqiy, komission operatsiyalar.
Yangidan mavjud bo‘lмаган mahsulot yaratilmaydigan, lekin mavjud mahsulot sifati o‘zgaradigan jarayonni amalga oshiruvchi ishlar, faoliyat turlari. Bu ashyolar ko‘rinishida emas, balki faoliyat xizmatlar ko‘rinishida taklif etiluvchi ne’matdir.	Pul mablag‘larini jalb qilish va joylashtirish operatsiyalari. Bir iqtisodiy masalani yechishga qaratilgan o‘zaro bog‘liq bo‘lgan bank faoliyati. Ko‘zlangan maqsadni amalga oshirish bilan bog‘liq harakat.

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinish turibdiki, bank xizmatlari bank operatsiyalaridan o'zi kabilar bilan bir qatorda alohida harakat qilishi, bir maqsadda birlashtirilgan harakatlar majmui, mijozlar hisobidan va ularning topshirig'iga asosan bajariladigan huquqiy, komission operatsiyalari, pul mablag'larini jalg qilish va joylashtirish operatsiyalari hamda bir iqtisodiy masalani yechishga qaratilgan o'zaro bog'liq bo'lgan bank faoliyati deb ataladigan faoliyatlar bilan farqlanadi.

Xo'sh bank operatsiyalarini va xizmatlarini boshqarish funksiyalari qaysilar?



### **1-rasm. Bank xizmatlarini boshqarish funksiyalari.**

Bank xizmatlarini boshqarish funksiyalari iqtisodiy adabiyotlarda bir nechta deb ko'rsatiladi. Ularning asosiyлари quyidagilar:

- bozorni umumlashgan holda o'rganish va istiqbolini belgilash, hamda unga bo'lgan talabni, bankga tashqi muhitning ta'sirini o'rganishdan iboratdir;
- bankning ishlab chiqarish (iqtisodiy kredit) potensialini, barcha qobiliyatini real baholash;
- uzoq muddatli xizmatlarini (aktiv va passivlarini) boshqarish

strategiyasini bozor talablarini hamda o‘z potensialini hisobga olgan holda rejorashtirish;

- talab asosida yangi xizmatlarni joriy qilish va ularni sotish;
- bankning aktiv va passivlarini boshqarish faoliyatini tashkil qilish va uning ustidan doimiy nazorat o‘rnatishdir

Banklar aktiv va passivlarini boshqarishning qoidalarini o‘zlashtirdi va intensiv ravishda o‘z faoliyatlarini strategik rejorashtira boshladilar. Hozirgi kunning holati bankning muammolariga e’tibor kuchaytirish bilan xarakterlanadi. Buning asosida jahon iqtisodiyotiga xos bo‘lgan ikki tendensiya mavjud:

1. Bank muassalarining internatsionallashuvi.
2. Moliya bozorlarining boshqarmaslik (deregulirovanie)

Bank bozor segmentatsiyasini ikki tamoyilga ko‘ra amalga oshirish mumkin.

Bank mahsulotlari bo‘yicha (kredit operatsiyalari, investitsiya, trast operatsiyalari bozorlari )

Mijozlar bo‘yicha (kuchmas mulk egalari, korporatsiya bozori, davlat hukumati bozori)

Bozorlarni alohida segmentlash bo‘yicha bo‘lishni mohiyati shuki, bozorning barcha kuchini sochib yuborish emas, balki alohida segmentlarga mo‘ljal olishdir. Bozor segmenti alohida olingan gruppaning bir xil turdag'i operatsiyalarga bo‘lgan talabi va uni to‘lashga tayyorgarligini bildiradi. Banklar bozorlarni segmentlashi quyidagilarga asoslanadi:

Bozor segmenti alalohida aniq tasvirlanishi shart

Olingan barcha ma’lumotlar tahlil uchun etarli bo‘lishi shart

Olingan segmentlar bankka foyda keltirishi shart

Tanlab olingan segmentlarda reklama qilish imkoniyati bo‘lishi kerak.

Jahon bank tizimida ro‘y berayotgan tub o‘zgarishlar, MDH mamlakatlari bank tizimiga ham tobora ko‘proq ta’sir ko‘rsatayotir. Bular

Birinchidan, bu o‘zgarishlar to‘ulovlarning yangi integratsiya vositalarini yuqori sur’atlar bilan shakllantiradigan bank operatsiyalarini kompyuterlashtirishning texnologik inqilobi bilan bog‘liq.

Bu jarayonlar talaygina moliyaviy xarajatlar talab qiladi, bank ishi qimmatlashadi, biroq uning samaradorligi va uning tezkorligi oshadi, bu esa xarajatlar o'sishini qoplaydi.

Ikkinchidan, bank ishida o'sib borayotgan raqobat banklarning qo'shilib ketishiga olib keladi. Bu esa sarmoyalar bozorida va iqtisodning investitsiyalar sohasida yangi sharoitlarni vujudga keltiradi. O'zbekistonning bank tizimi unga kam quvvatli talay banklar kirganligi sababli, yakin vakt ichida bu tamoyilning ta'sirini boshdan kechiradi. Bu hodisaga respublika bank xizmati bozorida anchagina raqobatbardosh va samarali bo'lgan chet el banklarining paydo bo'lishi ham yordam beradi.

Uchinchidan, bu an'anaviy bank xizmatlari bozoriga tobora shaxdam odimlar bilan kirib kelayotgan bankdan tashqari tuzilmalar bilan raqobatning kuchayishi. Jumladan, aholiga kredit kartochkalari bilan xizmat ko'rsatish sohasida turli xildagi tijorat tuzilmalari faoliyat ko'rsata boshlaydilar.

To'rtinchidan, bank ishlariga bu xizmatlarning ko'p sonli iste'molchilari ta'siri ortadi. Iste'molchi operatsiyalarining tezligi va sifati, hisob-kitoblarning qulayligi, mijozlarning ehtiyojlariga diqqat e'tibor qaratilishiga nisbatan banklarga tobora qattiq talablar qo'ya boshlaydi. Bank tizimi hozir hal qilinishi qiyin bo'lgan dilemmaning keskinlashuvi sharoitida turibdi. Qo'yilmalarni jalb qilishda banklar ekspansiyasi va omonatchilarni zararlardan kafolatlash o'rtasida asosiy muvozanatsizlik mavjud. Kafolatlar moliya institutlariga qo'shimcha qo'yilmalarni jalb qilish imkonini beradi. Qo'yilmalar faoliyatining omonatchilar tomonidan boshqarilmasligi esa, banklarga bu qo'yilmalardan foydalanishda keng imkon yaratib beradi.

## **6.2. Masofaviy bank xizmatlarining vujudga kelishi va rivojlanish bosqichlari**

So'nggi paytlarda tijorat banklarida masofadan bank xizmatlarini ko'rsatish borasida sezilarli o'zgarishlar yuz bermoqda,

shuning uchun tijorat banklari mijozlariga xizmatlaridan qanday foydalanish borasida tushuntirish ishlarini olib borishi natijasida bu xizmatlarning kelgusida yanada keng ommalashishiga olib keladi.

Moliyaviy xizmatlar yetkazib berish va iste'mol qilish borasida so'nggi yillarda katta o'zgarishlar bo'ldi. Texnologik rivojlanish natijasida biznes, bank va moliya tizimi muhitida katta o'zgarishlar ro'y bermoqda. Bank xizmatlar bozorida ham internet va mobil texnologiyalarni qo'llash va ulardan foydalanish yetakchi tarmoqlar qatoriga kirdi va natijada uning xizmat ko'rsatish tarixida misli ko'rilmagan o'zgarishlarga olib keldi. Ko'p sonli elektron kanallar orqali elektron bank xizmatlarini rivojlantirish mijozlarga qo'shimcha qulayliklarni taqdim etish imkonini berdi. Bugungi kunda rivojlangan davlatlar bank tizimida ko'plab moliyaviy xizmatlarning ortib borishi, masofadan bank xizmatini ko'rsatish katta ahamiyatga ega ekanligini e'tirof etish mumkin, shuning uchun butun dunyo bo'ylab yirik banklar tomonidan bank xizmatlarining turli xil variantlari onlayn rejimda taqdim etilmoqda.

Bank xizmatlari nazariyasi evolyutsiyasi qator rivojlanish bosqichlarini o'z ichiga oladi.

XX asrning 1960-1980-yillari bank xizmatlari nazariyasi rivojlanishining boshlang'ich bosqichi hisoblanadi. Bu paytda X.Duglas<sup>24</sup> Michigan universitetining «Kreditlash sohasidagi bank siyosati» (1971-y.), D.Revel Uels universitetining «Raqobat va bank faoliyatini boshqarish» (1978-y.), Jeneva universitetining «Jamg'arma banklarining kredit xizmatlari» (1974-y.) tadqiqotlari, Sh.Dereyning «Britaniya banklari strategiyasi va xalqaro raqobat» asari (1977-y.) hamda G.Brayanning<sup>25</sup> «Bank sohasidagi raqobat» tadqiqoti (1970-y.) chop etiladi. Yuqorida qayd etilgan ilmiy ishlar bank xizmatlari bozori va uning bank xizmati segmentini o'rganishga bag'ishlangan.<sup>26</sup>

XX asrning 1980-2000-yillarini bank xizmatlari nazariyasi rivojidagi ikkinchi bosqich deb hisoblash mumkin. Ushbu davr

<sup>24</sup> Дуглас Х. Банковская политика в области кредитования. - М.: Слово, 1971. - 508 с.

<sup>25</sup> Брайан Г. Конкуренция в банковской сфере. - М.: Экономика и финансы, 1970. - 428 с.

<sup>26</sup> А.В. Васильев, Е.Б. Герасимова, Л.С. Тишина. Мониторинг качества банковских услуг. 2004.

alohida mamlakatlarning kredit-moliya tizimlari faoliyatining o‘ziga xos xususiyatlarining hamda bank kapitali globallashuvi va markazlashuvining bank xizmatlari bozoriga ta’sirining ehtimoliy oqibatlarini tadqiq etishga urinishlar sifatida tavsiflanadi.

Banklar mijozlar uchun bank binosiga kelmasdan masofadan turib bank xizmatlaridan foydalanish imkonini beruvchi onlayn-banking, home banking va internet-banking xizmatlaridan foydalanish imkoniyati yaratildi.

#### 1960-1980 -yillar

- Bank xizmatlari bozori vujudga keldi.
- Bank xizmatlari bozoridan bank xizmatlari segmenti vujudga keldi.
- Mamlakat moliya-kredit tizimlarining o‘ziga xos xususiyatlari va bank kapitali globallashuvining bank xizmatlari bozoriga ta’siri ortdi.
- Bank xizmatlari kompyuterlar yordamida avtomatlashtrila boshladi.



#### 1980-2000 -yillar

- Banklarning qo‘silishi va mijozlarining sonlari keskin oshdi.
- Masofaviy bank xizmatlarining vujudga keldi va rivojlandi.
- Moliyaviy xizmatlar borasida ko‘plab tadqiqotlar olib borildi.
- Biznesni elektron tarzda yuritish rivojlandi.



#### 2000– yildan hozirgacha

- Smartfonlar vujudga keldi va ular orqali bankka ulanish kanallari rivojlanmoqda.
- Internetning bank tizimidagi imkoniyatlari keskin ortmoqda.
- Masofaviy bank xizmatlarining turlari ortmoqda va taraqqiy topmoqda.
- Innovatsyon bank texnologiyalaridan foydalangan holda bank xizmatlari takomillashmoqda.

## **1-rasm. Bank xizmatlari nazariyasining rivojlanish evolyutsiyasi<sup>27</sup>**

<sup>27</sup> Z.Mamadiyarov Tijorat banklarida masofaviy bank xizmatlarining evolyutsiyasi va rivojlanish bosqichlari (xalqaro tajriba), “Xalqaro moliya va hisob” ilmiy elektron jurnali. № 6, dekabrь, 2018-yil

2000-yildan bank xizmatlari nazariyasi rivojidagi uchinchi bosqich deb hisoblash mumkin. Chunki, 2000-yil iyul oyida Birlashgan Millatlar Tashkilotining (BMT) Iqtisodiy va ijtimoiy kengashi sessiyasi o'tkazilib, unda rivojlangan mamlakatlar va boshqa mamlakatlar o'rtasida «raqamli jarlik» shakllanayotganligidan dalolat beruvchi bu sohadagi joriy vaziyat haqidagi ma'ruza ko'rib chiqildi. Natijada «XXI asrda taraqqiyot va xalqaro hamkorlik: bilimlarga asoslangan global iqtisodiyot kontekstida axborot texnologiyalarining roli» deb nomlanuvchi deklaratsiya tayyorlandi.<sup>28</sup>

Axborot-kommunikatsion texnologiyalarni (AKT) joriy etish va ularning iqtisodiyotda qo'llanilishi mamlakatning iqtisodiy o'sishiga katta ta'sir ko'rsatadi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, texnologiyadan foydalanishni kamaytirish aholi jon boshiga daromad va samaradorlikka salbiy ta'sir qiladi.<sup>29</sup>

Shu o'rinda, bank hisobvarag'iga masofadan xizmat ko'rsatish yoki masofaviy bank xizmatlari tushunchalarning mohiyatiga e'tibor qaratsak.

Bank xizmatlarining rivojlanishida texnologiya yangiliklari-ning ta'siri asosiy omil bo'lmoqda. Dastlab, 70-yillarda banklar aloqa kanallari sifatida bankomatlarni joriy qilish bilan boshlagan, keyinroq 1980-yillarda telefon aloqasi, 1990-yillarda internet-banking va 1990-2000-yillar mobaynida mobil banking xizmati bilan o'zgarib bormoqda<sup>30</sup>.

2000-yildan turli xildagi smartfonlar vujudga keldi va ular orqali bankka ulanish kanallari rivojvana boshladidi. Masofaviy bank xizmatlarining turlari ortib bordi va ularidan millionlab bank mijozlari foydalana boshladidi. Hozirgi kunda ham bank xizmatlari innovatsion bank texnologiyalari imkoniyatlaridan unumli foydalanish evaziga takomillashib bormoqda.

Rus iqtisodchi olimi V.K.Spijnichenkoning fikricha, «Bank

<sup>28</sup> [http://www.un.org/ra/documents/decl\\_conv/decl2010.html](http://www.un.org/ra/documents/decl_conv/decl2010.html) сайти маълумотлари асосида тайёрланган.

<sup>29</sup> Ramayah, T., (2005). Course website usage among distance learning business students: the role of prior experience. International Journal of Learning 11, 1507–1517.

<sup>30</sup> Devlin, J.F. (1995), "Technology and innovation in retail banking distribution", International Journal of Bank Marketing, Vol. 13 No. 4, pp. 19-25.

hisobvarag‘iga masofadan xizmat ko‘rsatish bu informatsion xizmatlarning kompleksi va mijozning hisobvarag‘i bo‘yicha operatsiyalarni uning bankka tashrif buyurmasdan bergen topshirig‘iga asosan bajarishdir. Bank hisobvarag‘iga masofadan xizmat ko‘rsatish tizimi telekommunikatsiya tizimi orqali bankning ma’lumotlar bazasiga mijozning murojaatiga asoslanadi.<sup>31</sup>

N.I.Lixodeeva esa bank hisobvarag‘iga masofadan xizmat ko‘rsatish tizimini mijoz tomonidan kompyuter texnologiyalaridan foydalangan holda bankka tashrif buyurmasdan ya’ni masofadan buyurtmalar asosida bank xizmatlarini taqdim etish texnologiyasi sifatida e’tirof etgan.<sup>32</sup>

K.A.Zabrodiskaya, A.O.Zaxarova “Masofaviy bank xizmatlari – bankning mijozlariga bank hisobvarag‘iga masofadan xizmat ko‘rsatish orqali optimal sharoit yaratish faoliyatidir”.<sup>33</sup>

Bank tizimida masofaviy bank xizmatlarining rivojlanishi mavjud bo‘lgan iqtisodiy va ijtimoiy muhitning bir qator obyektiv xususiyatlariga, birinchi navbatda, odamlar hayotidagi o‘zgarishlar, yangi axborot texnologiyalarining joriy etilishi va bank operatsiyalarining avtomatlashtirilgani bilan bog‘liq.

Bank mijozlari masofaviy bank xizmatlardan foydalanishni tanlashda o‘z vaqtini tejash va xarajatlarini tejash muhim jihatlardan sanaladi. “Gap shundaki, masofaviy bank xizmatlari tizimi to‘g‘ridan to‘g‘ri daromad keltirmaydi. U daromad keltirishda yordamchi vazifasini bajaradi”.<sup>34</sup>

Yangi kommunikatsion texnologiyalarning aloqa va hisobkitobning yaqinlashishiga olib keldi. Mobil banking bank xizmatlarini ko‘rsatishda kuchli provayder sifatida paydo bo‘ldi. Mobil bankingning ommalashishi, uning xavfsiz, ishonchli va

<sup>31</sup> Спильниченко В.К. Трансформация банковских платежных систем в экономике России // Экономический журнал. 2012. № 2 (26).

<sup>32</sup> Лиходеева Н. И. Применение электронного банкинга при заключении и исполнении банковских договоров [Текст] / Н. И. Лиходеева // Юридическая работа в кредитной организации. – 2014. - №2. – С. 23-27.

<sup>33</sup> Забродская К.А., Захарова А.О. Основы развития дистанционного банковского обслуживания. БГЭУ Белорусский государственный экономический университет. Библиотека. 2012 г. 57-63.

<sup>34</sup> <https://bankir.ru/avtori/1659981/> Dmitriy Miroshkinov “Banks soft biznes” kompaniyasi boshqaruvchisi

foydanuvchi interfeyslarini oson sozlash mumkinligi hisobiga amalga oshmoqda. Mobil telefonlar va mobil internetdan foydanuvchilar soni ortib borishi sababli mobil texnologiyalar imkoniyatlarini rivojlantirish va mobil-bankingni rivojlantirish strategiyasini takomillashtirishni talab etmoqda.<sup>35</sup>

Masofaviy bank xizmatlarining mijozlarga xizmat ko'satishning an'anaviy usullariga nisbatan quyidagi umumiy ustunliklarga ega:

- xizmat ko'satish tezligi va sifatining oshishi, masofaviy bank xizmati orqali vaqt ni tejash imkoniyati mavjudligi hamda mijoz o'z hisobvarag'ini kunu-tun boshqarish imkoniyati yaratiladi. Yana, mijoz dunyoning istalgan nuqtasidan o'z o'tkazmalarini amalga oshirish mumkin bo'ladi, buning uchun personal kompyuter va internet yoki mobil telefon va aloqa tarmoqlari bo'lsa kifoya;

- yangi bank xizmatlarini yaratish, ularni amaliyotda qo'llash yoki mavjud moliyaviy xizmatlarni ham axborot-kommunikatsion texnologiya vositalari bilan integratsiyalash orqali bank mijozlariga qulay bank xizmatlarini taklif etish imkon ortadi;

- bank xizmatlarini soddalashtirish va ular bilan bog'liq xarajatlarni minimallashtirish orqali kelgusida bank xizmatlari uchun xizmat haqining mijozlar uchun qulay tariflarga yetkazish imkonini yaratadi.

Bank mijozlariga internet orqali bank xizmatlarini ko'satish bu taraqqiyotning navbatdagi muhim yutuqlaridan biri, ayniqsa, bu elektron tijorat va onlayn bank xizmatlarining taraqqiyotiga asos bo'lib xizmat qildi.

1950-yillarning oxirlarida va 1960-yillarning boshlarida jaryonlarni avtomatik ravishda tekshirishi uchun MICR, Magnetic Ink Character Recognition va ERMA kabi texnologiyalar bilan bank xizmatlarini avtomatlashtirish g'oyasi erishish maqsadi bo'lgan.

**Internet-bankingning konsepsiysi bir vaqtning o'zida butun**

---

<sup>35</sup> Z.Mamadiyarov Tijorat banklarida masofaviy bank xizmatlarining evolyutsiyasi va rivojlanish bosqichlari (xalqaro tajriba), "Xalqaro moliya va hisob" ilmiy elektron jurnali. № 6, dekabr, 2018-yil

dunyo bo‘ylab web-tarmog‘ining rivojlanishi bilan parellel ravishda rivojlanmoqda. Bank dasturiy ta’mintonchilari 1980-yillarda onlayn-bank operatsiyalarini amalga oshirish bo‘yicha anchagina fikr va mulohazalar olib bordi. Ko‘plab kompaniyalar onlayn xarid qilish konsepsiyasini boshlagach, bu xizmatlarni rivojlantirishning zarurligi sezilarli ravishda oshdi.

1970-yillarda Amerikada zamonaviy banklar davri boshlandi, chunki bank xizmatlari kompyuterlar yordamida avtomatlashtirildi.

Xususan, 1980-yillarda Yevropa va AQShdagi bank va moliya tashkilotlari “Home Banking” konsepsiysi bo‘yicha ilmiy izlanishlar va dasturiy tajribalarni boshladilar. Dastlab 80-yillarda kompyuterlar va internetning yaxshi rivojlanmaganligi sababli, “Home Banking” asosan faks-mashinalar va telefonlardan foydalangan holda mijozlariga xizmat ko‘rsatar edi. Internet va dasturiy vositalarning keng tarqalishi “Home Banking”ning rivojlantirish uchun qo‘srimcha imkoniyatlar yaratdi.<sup>36</sup> Bu davrda shaxsiy kompyuterlardan uy sharoitida ham foydalanish ortib bordi, “Bank of America” odamlar uchun masofadan turib o‘z hisobvaraqlariga kirish imkoniyatini o‘rgandi.

#### **6-jadval**

#### **Masofaviy bank xizmatlarining rivojlanish bosqichlari<sup>37</sup>**

<b>t/r</b>	<b>Yillar</b>	<b>Amalga oshirilgan tadbirlar</b>
<b>1.</b>	1951-1970	Operatsiyalarni avtomatik ravishda tekshirishi uchun MICR, Magnetic Ink Character Recognition va ERMA kabi texnologiyalar bilan bank xizmatlarini avtomatlashtirish bo‘yicha tadqiqotlar olib borildi.
<b>2.</b>	1971-1980	Bank xizmatlari kompyuterlar yordamida to‘liq avtomatlashtirildi. Ekranli terminallari yordamida bank mijozlari hisob raqamlariga real vaqt rejimida kira olishlari hamda “Home Banking” konsepsiysi bo‘yicha ilmiy izlanishlar va dasturiy tajribalar olib borildi.

<sup>36</sup> <https://wealthhow.com/history-of-internet-banking>.

<sup>37</sup> Z.Mamadiyarov Tijorat banklarida masofaviy bank xizmatlarining evolyutsiyasi va rivojlanish bosqichlari (xalqaro tajriba), “Xalqaro moliya va hisob” ilmiy elektron jurnali. № 6-dekabr, 2018-yil

3.	1981-1990	“Home Banking” vujudga keldi. “Home Banking” xizmatlaridan mijozlar hafta davomida kechayu-kunduz soat 6:00 dan yarim kechagacha kirish imkoniyati yaratildi. Buyuk Britaniyada birinchi bor internet-banking xizmatini taklif qilindi va uni “Home-link” deya atadi. First Direct banki birinchilardan bo‘lib telefon orqali bank xizmatlarini ko‘rsata boshladi.
4.	1991-2000	AQSHda birinchi onlayn banking xizmati vujudga keldi. Birinchi bor onlayn banking bankofamerica.com veb-sayti yaratildi va endi maxsus bank dasturlariga ehtiyoj yo‘q edi, mijozlar bankning veb-saytiga kuniga 24 soatdan kirish imkoni yaratildi. Birinchi sof internet banki First Security Network Bank paydo bo‘ldi va 1997-yilda to‘liq virtual bankka aylandi.
5.	2001-2010	Onlayn rejimda xizmatlar taraqqiy etishi natijasida The Federal Financial Institutions Examination Council qonun va qoidalarni ishlab chiqdi. Bu davrda bank filiallari birlasha boshladi hamda iste’molchilarining bank operatsiyalarini kiosk va onlayn xizmatlar orqali bajara boshladi. Mobil-banking xizmati va mobil ilovalari vujudga keldi.
6.	2011-h.v.	Onlayn-banking yo‘nalishlari rivojlanishda davom etdi. Xususan, mobil-banking xizmati tezkorlik bilan ommalashishib bordi. Filialsiz faoliyat yurituvchi Direct banklar soni ko‘paymoqda. Bank hisobvaraqlarini masofadan boshqarish kanallari, turlari ko‘paymoqda va taraqqiy etmoqda.

1983-yilda bank birinchi bor Home Banking mahsulotini mijozlariga taqdim etdi. Home Banking orqali mijozlar o‘zlarining hisob-kitob balanslariga kirishlari va asosiy bank xizmatlarini bajarishlari mumkin edi. Ushbu “Home Banking” xizmatlaridan dastlab mijozlar o‘zlarining hisobvaraqlariga hafta davomida kechayu-kunduz soat 6:00 dan yarim kechagacha kirish imkoniyati mavjud edi.

Ekranli terminallari yordamida bank mijozlari hisob raqamlarini

riga real vaqt rejimida kira olishlari, hisob-kitoblar ochish, to‘lovlar bo‘yicha buyurtmalarni to‘xtatish va pul o‘tkazmalarini to‘xtatishi mumkin edi. 1982-yilda “Bank of Amerika” qariyb 2000 ta terminalga ega bo‘lib, xodimlarning bank tarmog‘iga kira olishiga imkon berdi. Bu bankning mijozlar uchun yanada samarali ishslashiga imkon berdi. 1982-yilning noyabr oyida Nottingam Building Society (NBS) qurilish kompaniyasi va Shotlandiya banki British Telecom telefon kompaniyasi bilan hamkorlikda Buyuk Britaniyada birinchi bor internet-banking xizmatini taklif qiladi va uni “Home-link” deb ataydi. Televideniya orqali ularish va pul o‘tkazmalarini jo‘natish va to‘lovlar uchun telefondan foydalanish onlayn-banking uchun asos bo‘lib xizmat qildi.<sup>38</sup> Bu tizim ham 1983-yil o‘rtalarida to‘liq hajmda ishga tushirildi va shundan so‘ng bu singari xizmatlarni boshqa kredit tashkilotlari ham joriy eta boshladи.

Bank xizmatlarini faqat telefon orqali ko‘rsatish imkoniyatini birinchi bo‘lib ingлиз banki First Direct (1989 yil) taklif qildi. Bu bank ishi tarixida ilk marotaba faqat telefon orqali xizmat ko‘rsatadigan bankning yuzaga kelganligini alohida ta’kidlash joiz, chunki bu bankning birorta ham bo‘limi yo‘q edi. First Direct banki o‘z mijozlariga elektron kanallar orqali xizmat ko‘rsatayotgan eng birinchi hamda hozirda ham juda samarali faoliyat yuritayotgan banklardan biridir.

1990-yillarda AQShda telefon orqali masofadan bank xizmatlarini amalga oshirishga zamin yaratildi. Bu davrda kashfiyotchilaridan biri North Carolina National Bank bo‘lib, u 1990-yilda o‘z mijozlariga telefon tizimi orqali 30 dan ortiq xizmat va operatsiyalarni taklif qildi, buning uchun katta miqdordagi Call-sentrлar<sup>39</sup> tashkil etildi va bu keyinchalik operatorlar sonining qisqarishi bilan yaxshilandi. 1990-yilda tizimga kunlik qo‘ng‘iroqlar soni qariyb 200 mingtani tashkil etar

<sup>38</sup> “Infographic: The History of Internet Banking (1983-2012)”, The Financial Brand (October 2, 2012), <http://thefinancialbrand.com/25380/yodlee-history-of-internet-banking/>.

<sup>39</sup> Call-sentr – (inglizchada call center – qo‘ng‘iroqlarni qayta ishslash markazi) – ixtisoslashtirilgan tashkilot bo‘lib qo‘ng‘iroqlarni amalga oshiruvchi va ovozli aloqa kanallari haqida pudratchi organ yoki bosh tashkilot manfaatlari bo‘yicha axborot beruvchi tashkilotdir.

edi.<sup>40</sup>

Home Banking – bugungi kunda biz bilgan Online Banking uchun asos yaratdi. AQShda birinchi onlayn banking xizmati 1994 yil yanvardan Microsoft Money personal finance software dasturida 100000 dan ortiq uy xo‘jaliklari bank hisobvaraqlarini onlayn boshqarishni boshladi.

1995-yilda Stenford Federal Kredit Uyushmasi (Stanford Federal Credit Union) birinchi bor onlayn banking bankofamerica.com veb-saytini yaratdi va bu xizmatni moliyalashtirdi. U orqali endi maxsus bank dasturlariga ehtiyoj yo‘q edi, mijozlar bankning veb-saytiga kuniga 24 soatdan kirish imkoniga ega bo‘lishdi va internetdan foydalanish orqali bu bank xizmati taraqqiy etib bordi. Natijada, onlayn banking xizmatlarining afzalliklari va kamchiliklari mavjud bo‘lsa-da, tobora keng tarqalib bank tizimidagi inqilobga aylandi.<sup>41</sup>

Internet orqali o‘z xizmatlarini taklif etuvchi birinchi so‘f internet banki 1995-yilda paydo bo‘lgan First Security Network Bank hisoblanadi. Elektron xizmatlarning birinchi yili natijalariga ko‘ra uning aktivlari 110 mln dollarni tashkil qilgan. Kapitalining o‘rtacha oylik o‘sishi 20% ni tashkil etgan. Mijozlarining hisobvaraqlari esa o‘n mingtaga oshgan. 1997-yilda to‘liq virtual bankka aylangan bo‘lsa-da, mijozlarning ishonchsizligi tufayli muvaffaqiyatsizlikka uchragan. 1998-yilda AQSh ning “Royal Bank Financial Group” tomonidan sotib olingan.

2001-yil dekabrga kelib, AQShning sakkizta yirik banklarining har biri kamida 1 million onlayn foydalanuvchilarga ega edi. Bu davrda 19 milliondan ortiq AQShlik uy xo‘jaliklari internet orqali bank hisobvaraqlarini onlayn boshqarar edi. 2005-yilda banklar onlayn rejimda xizmatlarni amalga oshira boshlagan edi va albatta bank qonunchiligini ham real vaqt rejimiga moslashtirilishi lozim edi. Shu sababdan, Federal Moliyaviy Institutlarni Ekspert kengashi (The Federal Financial Institutions

<sup>40</sup> Call-центр для банка: мода или необходимость? // Банковские технологии. – 2003. – №3. – С. 59–60

<sup>41</sup> “Infographic: The History of Internet Banking (1983-2012)”, The Financial Brand (October 2, 2012), <http://thefinancialbrand.com/25380/yodlee-history-of-internet-banking/>.

Examination Council (FFIEC)) Moliya institutlari uchun qonun va qoidalarni ishlab chiqdi.

Ko‘rinib turibdiki dastlab AQSH hamda Yevropa mamlakatlarda keng qo‘llanila boshlagan Internet-banking xizmat turi vaqt o‘tishi bilan dunyoning boshqa mamlakatlarida ham faol qo‘llanila boshladи.

2000-yillardan turli smartfonlar va 2007-yildan Apple korporatsiyasi “The iPhone” smartfonlarni ishlab chiqara boshlagandan so‘ng, bankka bog‘lanish kanallari shaxsiy kompyuterlardan smartfonlarga almasha boshlandi.

Keyinchalik, mobil telefon texnologiyasi vujudga kelish bilan, bank mijozlariga mobil qurilmalarga asoslangan bank xizmatlarini taklif qildi. 2007-yildan boshlab, uyali aloqa vositalari bank mijozlar bilan ishlash uchun muhim platformaga aylandi. Bugungi kunda Bank of America 24 milliondan ziyod faol uyali aloqa foydalanuvchilarga va 30 milliondan ziyod onlayn-banking xizmatidan foydalanuvchilarga innovatsion xizmatlarni ishlab chiqish va taqdim etishda bank sohasida yetakchi bo‘lishda davom etmoqda.<sup>42</sup>

Keyinchalik mobil telefonlarning hajmi va imkoniyatlari ortdi, mobil-banking samaradorligi ham oshdi. Banklar ham mobil telefonlar uchun ko‘proq ilovalarni taklif qildilar, smartfon foydalanuvchilari mobil-banking xizmatining ilg‘or ilovalaridan foydalanishni qo‘llab-quvvatladı. Bank tomonidan taqdim etilgan yangilangan, qulay navigatsiya, rasmlar va grafikalar bilan texnologik jihatdan takomillashtirilgan ilg‘or ilovalarni afzal ko‘rishdi.

2007-yilda AQShda 54 milliondan ortiq uy xo‘jaliklari bank hisobvaraqlarini internet orqali amalga oshira boshladи va bu davrda bank filiallari birlasha boshladи. AQSh aholisining bank filiallariga nisbati 1970-yilda 9340 tani tashkil etgan bo‘lsa, 2009-yilda esa 3684 tani tashkil etgan. Iste’molchilarining bank operatsiyalarini kiosk va onlayn xizmatlar orqali bajara boshlashi

---

<sup>42</sup> [www.bankofamerica.com](http://www.bankofamerica.com) “Bank of America” rasmiy veb-sayti ma’lumotlari asosida.

bank filiallarining borgan sari kamroq ahamiyat kasb eta boshladi.

2008-yilga kelib yirik banklar va ularning mijozlari ushbu xizmatlardan muntazam foydalanganlar, hatto kichik banklar ham mobil bank xizmatlari va ilovalarni taklif qila boshladilar.

Mobil vositalar dunyodagi iste'molchilarining ishonchini oqlab, 2011-2012-yillar mobaynida mobil-banking ilovalarini qabul qildi. Yaqinda Pew Internet va America Life loyihasi bo'yicha so'rov o'tkazilganda, internet foydalanuvchilarining 61 foizi, yoki Amerikalik voyaga yetgan yoshlarning 51 foizi onlayn-banking xizmatidan foydalanishgan.

2017-yil mobaynida mobil ilovalar to'lov tizimidagi o'rni keskin tarzda o'sib bordi. Aytish joizki, 2017-yilda bank mijozlari tomonidan tekin yuklab olingan mobil dasturlarning soni 253,91 mlrd.ga yetdi. Bu ko'rsatkichni 2012-yilda 57,33 mlrd. ekanligini ta'kidlab o'tish lozim. Shu bilan birga pullik yuklab olingan mobil ilovalar 2012-yilda 2,78 mlrd.ni tashkil etgan bo'lsa, 2017-yilda 14,78 mlrd.ni tashkil etgan. Tabiiyki, pullik yuklab olingan mobil ilovalar daromadning oshishiga olib keladi va 2015-yilda 69,7 mlrd. AQSh dollardan 2020-yilga borib 188,9 AQSh dollarga yetishi prognoz qilinmoqda. Bugungi kunda ham mobil ilovalarni yanada ilg'or dasturiy ta'minot, qo'shimcha qurilmalar va yanada murakkab ishlab chiqish vositalari ustida doimiy izlanishlar olib borilmoqda. Global miqyosda mobil ilovalarni yaratish moliyaviy xizmatlar bozorida 2016-yildan 2022-yilgacha 14 foizga o'sishi kutilmoqda.<sup>43</sup>

Hozirgi kunda internet butunlay insoniyat hayotidan ajralmas bo'lakka aylanib qolmoqda. Shuning uchun banklar keng ko'lamli mijozlariga bank filiallarini ochmasdan masofadan onlayn bank xizatlarini ko'rsatib kelmoqda.

Ko'pchilik rivojlangan bozorlarda internet-banking yaqin vaqt ichida to'yinganlik darajasiga yetdi va tijorat banklar esa so'nggi yillarda mobil-bankingga ko'proq e'tibor qaratmoqda. Aksariyat iste'molchilar o'zlarining operatsiyalarini mobil-banking orqali

---

<sup>43</sup> Mahavir Jain. Trend Report: Mobile App Development in 2018. January 17, 2018

amalga oshirayotganligi uchun ayrim banklar internet-banking xizmatidan foydalanishda pasayish kuzatdilar. Rivojlanayotgan bozorlarda ham internet-banking, ham mobil-banking sezilarli darajada ortib bormoqda. Biroq, mobil-bankingning o'sishi yanada ta'sirchan bo'lmoqda. Bank mijozlari xizmat ko'rsatishda smartfonlarni tanlamoqda natijada, mobil-banking juda tez sur'atlar bilan o'sib bormoqda.

Ta'kidlash joizki, masofaviy bank xizmat tizimlarining funksional imkoniyatlarini kengaytirish o'z navbatida, foydalanuvchilarni masofadan identifikatsiya qilish tizimlari orqali keng qamrovli amaliyotlarini amalga oshirish imkoniyatini yaratadi. Masofadan identifikatsiya qilish bank xizmatlarini soddalashtirgan holda, bank operatsiyalarini nazorat qilishda xavfsizlik choralarini ko'rishni talab etadi. Mijozlar uchun esa bank xizmatlarini amalga oshirishda qog'oz hujjatlarni taqdim etmagan holda bajarish, bankning bir filiali mijozni bo'la turib, boshqa filiallari, va kelajakda, boshqa bank xizmatlaridan foydalanish imkoniyatlarini amalga oshirish lozim.

### **6.3. Bank xizmatlarini transformatsiya qilishning ahamiyati va amaliyoti**

So'nggi 2008-yilda yuzaga kelgan global moliyaviy inqirozda muammoning katta qismiga banklar daxldor sifatida qaralgan edi. COVID-19 pandemiyasi sharoitida esa banklar ushbu muammo-larni hal qilishda muhim ahamiyat kasb etishi mumkin. Ya'ni, banklar COVID-19 ning tarqalishini sekinlashtirish uchun mijozlariga raqamli va masofadan boshqaruvchi kanallardan yanada samaraliroq foydalanishda yordam berishlari mumkin. Binobarin, banklar mijozlariga mablag'larini boshqarishda, to'lovlarni amalga oshirishda va davlatning boshqa tashkilotlari bilan uzluksiz ish faoliyatini tashkil etish orqali muqarrar inqiroz ta'sirini kamaytirishga yordam berishlari mumkin.

2020-yilgi pandemiya inson faoliyatining barcha sohalarini yangi bosqichiga olib chiqadi. Moliya institutlari o'z xodimlarini

himoya qilish, ish jarayonlarini o‘zgartirish va mijozlarga yangi, takomillashtirilgan usullarda xizmat ko‘rsatish choralarini ko‘rishga majbur qildi.

Natijada, banklar mijozlari talablariga binoan faoliyatini transformatsiya qilishi, ya’ni bank mahsulotlari va xizmatlarini zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalan-gan holda yangi bank xizmatlarni yaratishni taqozo qilmoqda.

Bugungi kunda banklarni transformatsiya qilish, birinchidan, raqamli banklarni tashkil qilishni talab etsa, ikkinchidan, amaldagi bank bo‘limlari ish faoliyatining o‘zgarishiga va bank xarajatlarini qisqartirish imkonini beradi. Raqamli banklarda bank xizmatlari maksimal darajada avtomatlashtiriladi va bank mijozlari uchun o‘z-o‘zini boshqarish tizimlari yaratiladi. Chunonchi, bugungi kunning talabi ham raqamli iqtisodiyotning taraqqiy etishi natijasida banklar filiallar sonini oshirish yo‘li bilan emas, balki masofaviy bank xizmatlarini rivojlantirish orqali ko‘p sonli mijozlariga xizmat ko‘rsatishni talab etmoqda.

Pandemiya davrida dasturiy ta’minot inqilobi – bu allaqachon ko‘plab sohalarni to‘xtatib qo‘ygan va ba’zi sanoat tarmoqlarini eskirgan holatga keltirgan, hali ham moliyaviy xizmatlar sanoatini jadal o‘zgartirmoqda.


Raqamli transformatsiya bank strategiyasining muhim maqsadlariga aylandi. Bu davr raqamli banklar kelajagi uchun juda ta’sirli va an’anaviy banklar imijini butunlay o‘zgartirishi, shuningdek, mijozlarga ko‘proq xizmatlarni taqdim etishni taqozo etmoqda.

Koronavirus butun dunyoga tarqalishda davom etar ekan, strategik va operatsion o‘zgarishlar va mijozlar talabining susayishi sababli tobora ko‘proq tashkilotlar moliyaviy maqsadlari ham kutilgandek bo‘lmayapti. COVID-19 qancha davom etishi ham aniq emas va qisqa muddatli hodisa emasligi ham aniq. Bu esa banklarning ham uzoq muddatga rejalar tayyorlashi kerak emasligini ko‘rsatadi.

Shunga qaramay, bu sohadagi jarayon juda sust. Hozirgi kunda bank sohasini raqamli o‘zgartirish jarayonida yordam

beradigan bir qator texnologiyalar mavjud. Bu raqamli transformatsiya bank uchun ham, uning mijozlari uchun ham samara keltiradigan texnologiyalarni o‘z ichiga olishi kerak.

O‘zbekiston tijorat banklarining jahon banklari bilan hamnafas bo‘lib yashashi integratsiyalashuv va globallashuv jarayonlarining faollashuviga keng yo‘l ochmoqda. Bir tomonidan integratsion jarayonlarning rivojlanishi zamonaviy AKTdan foydalanishni taqozo etsa, ikkinchidan, biznes transformatsiyasini vujudga keltiradi. Ushbu jarayonlarni iqtisodiy-siyosiy jihatdan o‘rganish va ilmiy xulosalar chiqarish davr talabi hisoblanadi. Raqamli iqtisodiyot korrupsiya va «qora iqtisodiyot»ning asosiy kushandasidir. Chunki, raqamlar hamma narsani muhrlaydi, elektron arxivda saqlaydi, kerak paytda ma’lumotlarni tez taqdim etadi. Bunday sharoitda biron ma’lumotni yashirish, yashirin bitimlar tuzish, u yoki bu faoliyat haqida to‘liq axborot bermaslikning iloji yo‘q, kompyuter hammasini namoyon qilib qo‘yadi. Ma’lumotlarning tizimliligi yolg‘on va qing‘ir ishlarga yo‘l bermaydi, chunki tizimni aldash imkonsiz. Natijada «iflos pullarni» yuvish, mablag‘larni o‘g‘irlash, samarasiz va maqsadsiz sarflash, oshirib yo yashirib ko‘rsatish imkonini qolmaydi.<sup>44</sup>




## 2-rasm. O‘rnatilgan to‘lov terminallari, bankomat va infokiosklar soni

Yuqoridaagi rasmdan ham ma’lumki, 2019 yil 1 oktyabr holatiga to‘lov terminallari soni 339588 tani, bankomat va

<sup>44</sup> Z.Mamadiyarov. Pandemiya: banklarni transformatsiya qilishni yanada jadallashtirmoqda. “Logistika va iqtisodiyot” ilmiy elektron jurnali. № 1, yanvar-fevral, 2021-yil

infokiosklar soni 8327 tani tashkil etgan bo‘lsa, 2020 yilning huddi shu davriga kelib terminallari soni 437231 tani, bankomat va infokiosklar soni 12455 tani tashkil etgan. Ushbu davrda to‘lov terminallari soni 97643 taga, bankomat va infokiosklar soni 4128 taga ortgan ya’ni to‘lov terminallari 28,7 foizga, bankomat va infokiosklar 49,6 foizga ortgan.

Muomaladagi bank kartalari soni 2020-yil 1-oktabr holatiga 24 mln. dan oshib, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 4,2 mln. donaga, ya’ni 21,5 foizga ko‘paygan. Garchi plastik kartalar soni keskin ortib borgan bo‘lsa ham ular orqali mobil banking xizmatlarini ko‘rsatish to‘liq qamrab olinmagan. Ya’ni 2020-yil 1-yanvar holatiga jami mobil banking xizmatidan foydalanuvchilar soni 9,5 mln. tani tashkil etgan.




**2-rasm. Muomaladagi bank kartalari soni**

2020-yilning fevral oyidan boshlab tadbirkorlik subyektlarining to‘lov operatsiyalari tunu-kun onlayn rejimda Tezkor to‘lovlari tizimi orqali amalga oshirmoqda. Mazkur tizim dam olish va bayram kunlarida ham uzlusiz ravishda real vaqt (24/7) rejimida yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlar o‘rtasida pul mablag‘larining banklararo o‘tkazmalarini amalga oshirish hamda byudjet va byudjetdan tashqari jamg‘armalarga to‘lovlarni o‘tkazish imkoniyatini beradi. Bu esa pul o‘tkazmalarini hech qanday to‘sqliarsiz va o‘z vaqtida amalga oshirish uchun juda muhim va qulaydir. Ayniqsa, mablag‘lar aylanma tezligini oshirish imkonini beradi.

Bugungi kunga kelib respublikamizdagi barcha tijorat banklar Tezkor to‘lovlar tizimiga ulangan bo‘lib, masofaviy xizmat ko‘rsatish tizimlari orqali ishlayotgan mijozlar uchun yangi mexanizmdan foydalanish imkoniyati yaratilgan. 2020-yilning oktabr oyida Tezkor to‘lovlar tizimi orqali amalga oshirilgan to‘lovlar hajmi banklararo o‘tkazmalar umumiy hajmining 18 foizini tashkil etdi.<sup>45</sup>

Bu mijozlarning mazkur tizimga bo‘lgan qiziqishi ortib borayotganidan dalolat bermoqda. Tezkor to‘lovlar tizimiga barcha banklarning ularishi natijasida yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirdorlar tomonidan joriy yilning III choragida 43,6 trln. so‘m mablag‘ o‘tkazilgan, bu oldingi chorakka nisbatan ikki baravarga ko‘pdir. Shuningdek, 2020-yil mobaynida mazkur tizim orqali jami 2.7 mln. dan ortiq tranzaksiya yoki 64,3 trln. so‘mlik to‘lovlar amalga oshirilgan. Shundan 83 foizi yoki 53,4 trln. so‘mga yaqin tranzaksiyalar tizimda aktiv faoliyat yuritayotgan o‘nta tijorat bankining mijozlari tomonidan tizimning qulay imkoniyatlaridan foydalangan holda amalga oshirilgan (4-rasm).



**4-rasm. Tezkor to‘lovlar tizimi orqali 2020-yilda 3 choragi yakunigacha amalga oshirilgan to‘lovlar hajmi**

<sup>45</sup> <https://bank.uz/uz/news/markaziy-bankning-tezkor-t-lovlar-tizimi-masofaviy-xizmat-ko‘rsatishning-yangi-bosichi244122>

Shu bilan birga masofaviy bank xizmatlarini yanada rivojlantirishda hal qilinishi lozim bo‘lgan amaliy va nazariy muammolar mavjud bo‘lib bular:

Birinchidan, hozirgi paytda masofaviy bank xizmat turlarini ko‘paytirish va mavjudlarida yetaricha innovatsiyalar joriy qilinmayapti, ya’ni masofaviy bank xizmatlari orqali hali bank mijozlari to‘lig‘icha bankka tashrif buyurmasdan barcha bank xizmatlarini amalga oshira olmayapti. Birgina, O‘zbekiston Respublikasida mobil abonentlari soni 2019-yil 1-yanvar holatiga 22,8 milliondan ortiq, shundan, mobil internet foydalanuvchilar soni esa 15 milliondan ortiq bo‘lsa-da, mobil bankingdan foydalanuvchilar soni ushbu davrda 7,6 mln.ni, 2020-yil 1-yanvar holatiga 9,5 mln.ga yetgan. Bu esa O‘zbekistonda ham masofaviy bank xizmatlaridan foydalanuvchilar soni ortib borsa-da lekin, mijozlarni qamrab olish darajasi past darajada ekanligi xali bu borada yana ko‘plab ishlarni amalga oshirishni taqozo etadi.<sup>46</sup>

Ikkinchidan, masofaviy bank xizmatlarining keskin oshishida iqtisodiy risklarning ham tahdidlari ortadi. Ya’ni, mijozlarga ko‘rsatiladigan xizmatlarning qonuniyligi, ular pul o’tkazmalarining legalizatsiya qilish darajasi va boshqalar.

Uchinchidan, masofaviy bank xizmatlarini rivojlantirishda banklarning yangi axborot texnologiyalari bilan ta’minlanganlik darajasi pastligi va aholining moliyaviy savodxonligi pastligi muayyan muammolarni keltirib chiqarmoqda.

To‘rtinchidan, naqd pulsiz hisob-kitoblarning avtomatlasmashirilgan tizimini yaratish, natijada, pul aylanish tizimini soddallashtiruvchi va yanada tezlashtiruvchi yangi zamonaviy shakllari va vositalarini izlab topishni taqozo etadi.

Beshinchidan, O‘zbekistonda masofaviy bank xizmatlarini rivojlantirishning asosiy muammolaridan biri, aholining bank tizimiga bo‘lgan ishonchidir.<sup>47</sup>

<sup>46</sup> Z.Mamadiyarov. Pandemiya: banklarni transformatsiya qilishni yanada jadallashtirmoqda. “Logistika va iqtisodiyot” ilmiy elektron jurnali. № 1, yanvar-fevral, 2021-yil

<sup>47</sup> Mamadiyarov, Z. (2020). The innovative approaches of remote banking types services in the process of transformation of banks to E-commerce. Архив научных исследований, 1(12). извлечено от <https://journal.tsue.uz/index.php/archive/article/view/1795>

Garchi masofaviy bank xizmatlarining foydali jihatlari ko‘plab bo‘lsa-da, bu yangi texnologik xizmatlarda maxfiy ma’lumotlar, mijozlarning shaxsiy ma’lumotlari va tranzaksiyalari bilan bog‘liq bo‘lgan ayrim xavflarni keltirib chiqaradi.

O‘zbekiston bank tizimi tomonidan ko‘rsatilayotgan masofaviy bank xizmatlarini yanada rivojlantirish, aholining bunday mahsulot va xizmatlarga bo‘lgan talabini marketing xizmati yordamida aniqlash, shundan kelib chiqib, bank strategiyasiga tegishli o‘zgartirishlarni kiritish bankning mazkur bozor segmentida barqaror faoliyat yuritishi va raqobatbardosh bo‘lishini ta’minlashga xizmat qiladi.

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, masofaviy bank xizmat tizimlarining funksional imkoniyatlarini kengaytirish o‘z navbatida, foydalanuvchilarni masofadan identifikatsiya qilish tizimlari orqali keng qamrovli amaliyotlarini amalga oshirish imkoniyatini yaratadi. Masofadan identifikatsiya qilish bank xizmatlarini soddalashtirgan holda, bank operatsiyalarini nazorat qilishda xavfsizlik choralarini ko‘rishni talab etadi. Mijozlar uchun esa bank xizmatlarini amalga oshirishda qog‘oz hujjatlarni taqdim etmagan holda bajarish, bankning bir filiali mijozni bo‘la turib, boshqa filiallari va kelajakda, boshqa bank xizmatlaridan foydalanish imkoniyatlarini amalga oshirish lozim.

O‘z navbatida, tijorat banklari mijozlariga masofadan bank xizmatlarini ko‘rsatish orqali xizmat ko‘rsatish xarajatlari kamayishi natijasida yangi mijozlarni jalb qilish hamda moliya bozorida raqobatni rivojlantirish imkoniyatini beradi. Natijada bu ishlarni yo‘lga qo‘yish bank daromadini oshirishga ham turtki bo‘ladi.

Zamonaviy axborot texnologiyalari asosida yangi bank mahsulotlari va xizmatlarining joriy etilishi O‘zbekiston bank xizmatlari bozori kengayishiga sharoit yaratmoqda. O‘zbekistonda bozor iqtisodiyoti munosabatlari rivojlangan sari tijorat banklari ham mijozlarga taqdim etadigan masofaviy bank xizmatlari turlarini oshirish orqali xizmat ko‘rsatishda diversifikatsiyaga erishadi.

Masofaviy bank xizmatlari ko'rsatishni terminal, bankomat va infokiosklarsiz tasavvur etib bo'lmaydi. Foydalanishi sodda bo'lgan ushbu uskunalar bugungi kunda mijoz va kassir o'rtasidagi an'anaviy muomalaga chek qo'yib, o'ziga xos minibank-ofis vazifasini o'tamoqda. Hozirgi paytda ushbu tashqi vositalardan nafaqat naqd pul yechib olish, balki ular orqali tovar va xizmatlar bo'yicha turli to'lovlarni amalga oshirish mumkin. Shuni qayd etish o'rinniki, COVID-19 pandemiyasi holatida mijozlar istalgan bank terminal, bankomat va infokiosklardan 7/24, ya'ni 7 kunu 24 soat gigiyenik qoidalar asosida foydalanish tavsiya etiladi.

Xususan, O'zbekiston Respublikasining 2035-yilgacha rivojlanish strategiyasining konsepsiyasida O'zbekistonda to'lov tizimini rivojlantirishni ikki davrga ajratilgan, birinchi davr 2020-yilgacha bo'lgan vaqtini o'z ichiga olgan, unda bank xizmatlarini ko'rsatuvchi ilovalar yaratilishi, mijozlarni yagona to'lov platformaga ulash, ushbu to'lov platformasida mijozlarni qo'llab-quvvatlash servisini tashkil etish, Kardrider va mobil POS terminallarni to'lov tizimiga joriy qilish, R2R hisob-kitoblarini yuritish, ma'lumotlarni toplash va qayta ishslash tizimlarini yaratish kabi vazifalar belgilab olingan. Ikkinchi davr esa 2025-yilgacha bo'lgan davrni o'z ichiga olgan, unda tovarlarni hisobga olish va sotish portali, tranzaksiyalar boshqaruvi tizimi, mobil-banking kriptografik identifikatorlari, turli xizmatlarni banklarning raqamli platformalariga integratsiyalash, B2B, B2C tezkor o'tkazmalarini joriy qilish, ochiq dasturlarni dasturlash interfeysi, bank biznesida masofadan identifikasiya qilish, sun'iy intellekt va avtomatlashgan mashinalarni o'rGANISH asosida bank mahsulotlari va xizmatlarini taqdim qilish imkoniyatlari yaratilishi nazarda tutilgan.<sup>48</sup>

Bugungi kunda an'anaviy bank xizmat turlarining o'rnini raqamli banking xizmat turlari egallamoqda. Chunki banklar xizmat turlarini takomillashtirib bormas ekan, ular daromadi va

---

<sup>48</sup> O'zbekiston Respublikasining 2035-yilgacha rivojlanish strategiyasining kontsepsiysi, 2018-y.

mijozlar sonini keskin oshirib borish imkoniyatidan mahrum bo‘lishi mumkin.

Banklar aktivlari va passivlari diversifikatsiyasini oshirish maqsadida kelajakda chakana mijozlar segmentidagi o‘zining mavqeyini yanada oshirishni rejalashtirish lozim va bu borada quyidagilarni strategik reja sifatida belgilab olishi kerak bo‘ladi:

- mijozlar talablarini proaktiv tarzda o‘rganib borish orqali doimiy tarzda yangi moliyaviy xizmatlar turlarini joriy etib borish. Qo‘sishimcha tarzda bank faoliyatiga yaqin bo‘lgan aktivlarni boshqarish, moliyaviy sohada maslahatlar berish xizmatlarini yo‘lga qo‘yish;

- kichik biznesni ekspress kreditlash, skoring tizimini joriy qilish, innovatsion onlayn kreditlash xizmatlarini yo‘lga qo‘yish zarur;

- bank xizmatlari ko‘rsatilishida keng tarzda informatsion kanallari, internet-banking, mobil-banking, SMS-banking, Bankmijoz dasturlari, 24/7 formatidagi o‘z-o‘ziga xizmat ko‘rsatish markazlari kabi xizmat turlarini rivojlantirish;

- kross-sotuv amaliyotlari samaradorligini oshirish va ayni bir sohaga ixtisoslashgan sotuv modellarini joriy qilish.

- plastik kartochkalarning imkoniyatlardan bank xizmatlarini taklif qilishda keng foydalanish, turli xil kartalarni muomalaga chiqarish, plastik kartochkalarda muddatli omonatlarni joriy qilish, bankomatlar tarmog‘ini yanada kengaytirish, bunda turistlar tashrif buyuradigan hududlar va bank xizmatlariga talab yuqori bo‘lgan joylarga ustuvorlik berish;<sup>49</sup>

- aholidan kommunal to‘lovlarni yig‘ish bo‘yicha erishilgan natijalarni yanada mustahkamlash, elektron axborotlarni bevosita almashuvi bo‘yicha communal tashkilotlar bilan tashkil qilingan aloqalarni takomillashtirish, ushbu kanallarning on-line tizimida ishslashini yo‘lga qo‘yish;

- bank mobil ilovasini takomillashtirish. Mobil ilova orqali mijozlarga mikroqarz va overdraft kreditlarini berishni yo‘lga

<sup>49</sup> Z.Mamadiyarov. Pandemiya: banklarni transformatsiya qilishni yanada jadallashtirmoqda. “Logistika va iqtisodiyot” ilmiy elektron jurnali. № 1, yanvar-fevral, 2021-yil

qo‘yish, xalqaro pul o‘tkazmalarini joriy qilish;

- internet sahifa orqali mijozlarga karta ochish uchun elektron arizalar qabul qilishni tashkil etish;

- bankning internet sahifasi orqali mijozlarga hisob raqam ochish, jismoniy shaxslarning shaxsiy kabineti orqali kreditlarni so‘ndirishni tashkil etish;

- chakana bank xizmatlarini ko‘rsatish, mijozlar bilan muloqot va korporativ madaniyatni shakllantirish masalalari bo‘yicha bank xodimlarining malakasini oshirish.

### **Nazorat uchun savollar.**

1. Plastik karta nima va uning qanday turlari mavjud?
2. O‘zbekistonda plastik kartalar muomalasi qachon joriy yetilgan va uning qanday me’yoriy-huquqiy asoslari mavjud?
3. Debetli plastik kartalar bilan kreditli kartalar o‘rtasida qanday farqli jihatlar mavjud?
4. “Bank-Mijoz” tizimi nima va u orqali operatsiyalar qanday amalga oshiriladi?
5. Internet-banking nima va u orqali to‘lovlar qanday tartibda amalga oshiriladi?
6. SMS-banking nima va u qaysi amallarni amalga oshirish imkonini beradi?
7. Bank hisobvaraqlarini masofadan boshqarish qanday amalga oshiriladi?

## **7-MAVZU: VALYUTA BOZORLARI**

### **Reja:**

- 7.1. Jahon moliyaviy markazlari va valyuta bozori tushunchasi.
- 7.2. Valyuta bozori tushunchasi, uning institutsional tarkibi va o‘ziga xos xususiyatlari
- 7.3. Tijorat banklarining valyuta operatsiyalari.
- 7.4. Valyuta munosabatlari va valyuta operatsiyalari.

### **Tayanch iboralar**

Valyuta, tizim, kurs, kross, spot, forward, opson, arbitraj, svop operatsiyalari, xalqaro hisob-kitoblar, Veksel, akkkreditiv, inkasso, xalqaro kreditlar, aksept krediti, firma krediti, import va yeksport operatsiyalari.

### **7.1. Jahon moliyaviy markazlari va valyuta bozori tushunchasi**

Iqtisodiy, siyosiy va madaniy tusdagi xalqaro munosabatlar turli mamlakatlar fuqarolari bo‘lmish yuridik hamda jismoniy shaxslarning pul shaklidagi talablari va majburiyatlarini keltirib chiqaradi. Xalqaro hisob-kitoblarning xususiyatli tomoni shundaki, ushbu hisob-kitoblarda baho va to‘lov valyutasi sifatida, odatda, xorijiy valyutalar ishlataladi, chunki hozircha umum tan olingan hamda barcha davlatlarda qabul qilinishi lozim bo‘lgan jahon kredit pullari mavjud emas. Shu bilan birgalikda har qanday mustaqil mamlakatda qonuniy to‘lov vositasi sifatida uning milliy valyutasi ishlataladi. Shu sababli tashqi savdo, xizmatlar, kreditlar, investitsiyalar bo‘yicha hisob-kitoblar hamda davlatlararo to‘lov-lardagi muhim shartlardan biri bo‘lib to‘lovchi yoki benefesiar shaxs tomonidan xorijiy valyutani sotib olish yoxud sotish shaklidagi bir valyutani boshqa bir valyutaga ayirboshlanishi hisoblanadi.

Jahon valyuta, kredit, moliya va sug‘urta bozorlari shartno-

maning obyekti pul kapitali hisoblangan bozor munosabatlarining o‘ziga xos jarayoni bo‘lib hisoblanadi. Ular xalqaro iqtisodiy munosabatlarning rivojlanishi asosida shakllangan. Amal qilish nuqtai nazaridan ushbu bozorlar takror ishlab chiqarishning uzluksizligi va rentabelligini ta’minlash maqsadida jahon miqyosidagi moliyaviy oqimlarning to‘planuvi hamda ularning qayta taqsimotini ta’minlovchi bozor munosabatlarining tizimi bo‘lib xizmat qiladi. Institutsional nuqtai-nazardan esa jahon moliyaviy oqimlari ular orqali amalga oshadigan banklar, ixtisoslashgan moliya-kredit tashkilotlari hamda fond birjalari yig‘indisidan iboratdir.

Jahon valyuta, kredit hamda moliyaviy bozorlari rivojlanishining obyektiv asosi bo‘lib amaldagi kapitalning doiraviy aylanish qonuniyatları hisoblanadi. Jahon bozorining ayrim uchastkalarida vaqtincha bo‘s sh bo‘lgan kapitallar paydo bo‘lsa, uning boshqa bir joylarida mazkur kapitallarga doimiy talab paydo bo‘ladi. Kapitalning harakatsizligi uning tabiatini va bozor qonuniyatlariga ziddir. Jahon valyuta, kredit hamda moliyaviy bozorlari ushbu qarama-qarshilikni umumjahon xo‘jaligi miqyosida hal etadilar. Vaqtincha bo‘s sh bo‘lgan pul kapitallari bozor mexanizmi yordamida takror ishlab chiqarishning uzluksizligi va tadbirkorlarga foydani ta’minlagan holda kapital doiraviy aylanishi jarayoniga yana jalb etiladi.

Jahon valyuta, kredit hamda moliyaviy bozorlari taalluqli milliy bozorlar negizida paydo bo‘lgan va milliy bozorlar ular bilan yaqindan munosabatdadir. Jahon valyuta, kredit hamda moliyaviy bozorlarga quyidagilar xosdir:

- nihoyatda katta ko‘lamlar. Ayrim baholarga qaraganda jahoning valyuta va moliyaviy bozorlaridagi kunlik operatsiyalarning hajmi tovarlar bilan jahon savdosi hajmidan 50 marotaba ko‘pdir;
- geografik chegaralarning yo‘qligi;
- operatsiyalarning uzluksiz, sutka davomida olib borilishi;
- yetakchi davlatlarning valyutalari hamda xalqaro hisobvalyuta birliklaridan foydalanishi;

- ishtirokchilari bo‘lib, asosan, nufuzli banklar, korporatsiyalar hamda yuqori reytingga ega moliya-kredit institutlari hisoblanadi;

- ushbu bozorlarga nihoyatda ishonchli yoki salmoqli kafolatga ega mijozlar chiqish huquqiga ega;

-moliyaviy xizmatlar jarayonidagi inqilobiy sharoitlarda bozor segmentlari va shartnoma instrumentlarining diversifikatsiyasi;

- o‘ziga xos, xalqaro tusdagi foiz stavkalari;

- kompyuter va boshqa elektron texnikaning eng yangilaridan foydalanish zaminida qog‘ozsiz operatsiyalarni standartlashtirish hamda axborot texnologiyalarining yuqori darajasi.

Jahon valyuta, kredit hamda moliyaviy bozorlari rivojlanishining obyektiv asosi bo‘lib xo‘jalik munosabatlari globallashuvining chuqurlashishi hamda tegishli milliy bozorlarning cheklangan imkoniyatlari o‘rtasidagi ziddiyatning kuchayishi hisoblanadi. Jahonning valyuta, kredit, qimmatli qog‘ozlar hamda oltin bozorlari rivojlanishini harakatlantiruvchi kuch bo‘lib jahon moliyaviy oqimlari, bozor ishtirokchilariga taklif etilayotgan kreditlar qiymatining hajmi va taqsimotini muvofiqlashtiruvchi raqobat hisoblanadi. Biroq raqobat kurashi hamma vaqt ham samarali va nuqson siz emas. Shu sababli ushbu jarayonlarni bozor hamda davlat tomonidan muvofiqlashtirilishi birgalikda olib boriladi. Davlat jahon bozorlari faoliyatiga inqirozli jarayonlarning oldini olish yoki ularni bartaraf etish maqsadida aralashadi.

Xalqaro iqtisodiy munosabatlarning rivojlanishi xom ashyo manbalari va iste’molchilar bozorlari uchun raqobat kurashining kuchayishi bilan samarali investitsiyalar hamda moliyaviy oqimlar milliy xarakterini yo‘qotgan va o‘zining kosmopolistik tabiatini ko‘rsatgan holda bir mamlakatdan boshqa bir mamlakatga stixiyali asosda oqib o‘tadi. Milliy valyuta, kredit va moliyaviy bozorlar o‘zlarining mustaqilligini nisbatan saqlab qolgan holda faoliyatlarini to‘ldiruvchi hamda milliy iqtisodiyot va pul-kredit tizimlari bilan bog‘liq bo‘lgan boshqa shu kabi jahon bozorlari bilan

chambarchas bog'lanib ketmoqdalar. Jahan valyuta, kredit va moliya bozorlari o'zlarining katta imkoniyatlari hamda ko'p maqsadliligining tez o'sishi natijasida xalqaro valyuta-kredit va moliyaviy munosabatlar hamda jahon iqtisodiyotining muhim zvenolaridan biriga aylandi.

Milliy valyuta, kredit va moliya bozorlarining jahon valyuta bozori operatsiyalaridagi ishtiroki quyidagi bir qator omillar bilan belgilanadi:

- mamlakatning jahon xo'jaligi tizimidagi tegishli o'rni hamda valyuta-iqtisodiy holati;
- rivojlangan kredit tizimi va yaxshi tashkil etilgan fond birjasining mavjudligi;
- soliqqa tortishning o'rta me'yorligi;
- xorijlik qarz oluvchilarga milliy bozorga chiqish va xorijiy qimmatli qog'ozlarga birja kotirovkasiga kirish imkonini beruvchi imtiyozli valyuta qonunchiligining mavjudligi;
- qulay geografik joylashishi;
- siyosiy tuzumning nisbatan barqarorligi va boshqa shu kabilalar.

Yuqorida zikr etilgan omillar xalqaro operatsiyalarni amalga oshiruvchi milliy bozorlar doirasini cheklaydi. Raqobat kurashi natijasida Nyu-York, London, Lyuksemburg, Frankfurt-Mayna, Singapur va boshqa shu kabi jahon moliyaviy markazlari shakllandi.

Jahon moliyaviy markazlari – xalqaro valyuta, kredit, moliya operatsiyalari, qimmatli qog'ozlar hamda oltin bilan bitimlarni amalga oshiruvchi banklar va ixtisoslashgan kredit-moliya institutlari to'planuvining markazlaridir. Tarixan ular milliy bozorlar negizida, so'ng esa jahon valyuta, kredit, moliya hamda oltin bozorlari zaminida paydo bo'lgan.

Birinchi jahon urushigacha hukmron moliyaviy markaz bo'lib London hisoblangan. Ushbu Buyuk Britaniyadagi kapitalizmning nihoyatda yuqori darajada taraqqiy etganligi boshqa mamlakatlar bilan keng savdo aloqalari, funt sterlingning nisbiy barqarorligi, mamlakatning rivojlangan kredit tizimi bilan asoslanadi. Turli

mamlakatlardan kelgan kapitallar xalqaro savdoning katta ulushini kreditlagan London bozorida to‘planar edi. Tashqi savdoni kreditlashning qisqa muddatli vositasi bo‘lib Londonda akseptlangan “sterlingli veksel” xizmat qilgan edi. Xalqaro hisob-kitoblarning 80 foizi funt sterlingslarda amalga oshirilar edi.<sup>50</sup>

Birinchi jahon urushidan so‘ng mamlakatlar rivojlanishining notekisligi qonunining harakati tufayli yetakchi jahon moliyaviy markazi AQSHga ko‘chib o‘tdi hamda ushbu mamlakat Londonning xalqaro valyuta, kredit va moliya operatsiyalarida muhim rol o‘ynab borayotganligiga qaramasdan XX asrning 60-yillarigacha monopol pozitsiyalarga ega bo‘ldi. XX asrning 60-yillaridan boshlab AQSHning jahon moliyaviy markazi sifatidagi monopol holatiga zil ketdi, chunki G‘arbiy Yevropa va Yaponiyada yangi moliyaviy markazlar paydo bo‘ldi. Sanoat jihatidan rivojlangan davlatlar asta-sekin cheklovlarini, ayniqsa, valyuta cheklovlarini bekor qilgani holda xalqaro operatsiyalarini amalga oshiruvchi milliy banklarning raqobatbardoshligi va reytingini oshirish maqsadida ularning faoliyatlarini nomuvofiq-lashtirish jarayonini amalga oshirdilar.

AQSH XX asrning 70-yillarini o‘rtalaridan boshlab birinchilar qatorida o‘z milliy valyuta, kredit va moliya bozorlarini erkinlashtirish jarayonini boshladi. 1978-1986 y.y. depozit-ssuda operatsiyalari bo‘yicha foiz to‘lovlariga bo‘lgan cheklovlar asta sekin bekor qilindi, talab qilib olinguncha omonat turlari bo‘yicha foizlar joriy etildi. 1984-yilda AQSHda chiqarilgan va norezidentlarga tegishli obligatsiyalar daromadlariga bo‘lgan 30 foizlik soliq bekor qilindi. 1981-yilning oxiridan boshlab AQSHda erkin bank hududi tashkil etildi va ushbu hududda xorijiy banklar AQSH soliqlari hamda bank cheklovlaridan ozod etildi. AQSH banklari faoliyatining erkinlashuvi, ularning bankrotlikka uchrashi va to‘planuvi moliyaviy innovatsiyalar va sekyuritizatsiya rivojiga turki berdi. Shu sababli tijorat va investitsiya banklari faoliyatining amaliyotda o‘zaro ajratilishiga hamda banklarga bir

---

<sup>50</sup> Л.Н. Красавина «Международные валютно-кредитные и финансовые отношения» Москва «ФиС» 2001г.

nechta shtatlarda faoliyatni amalga oshirishga (Glas-Stigoll qonuni) bo‘lgan taqiqlanishga amal qilinmaydi.

Yevropa Ittifoqi mamlakatlari o‘z moliyaviy markazlarini barpo etishga azaldan intilayotgan edilar. Biroq valyuta, kredit va moliya bozorlarining integratsiyalashuvi sanoat, qishloq xo‘jaligi hamda tashqi savdo jarayonidagi integratsiyalashuvdan uzoq vaqt davomida orqada qolayotgan edi. Ushbu esa Yevropa Ittifoqidagi kelishmovchiliklar, a’zo-mamlakatlarning byudjet, kredit va investitsiya siyosatlarini amalga oshirishdagi o‘z mustaqilligidan millat usti qarorlar foydasiga voz kecha olmayotganligi bilan izohlanadi. Yevropa Ittifoqi mamlakatlari iqtisodiy va valyuta ittifoqini barpo etishning “Delor rejasi”ga muvofiq XX asrning 90-yillarida barcha valyuta cheklovlarini bekor qilgan holda yagona moliyaviy makonni faol shakllantirdilar. 1993-yilning noyabr oyidan kuchga kirgan Maastricht shartnomasiga muvofiq paydo bo‘lgan kapitallar va moliyaviy xizmatlarning yagona G‘arbiy Yevropa bozori integratsiyaning yuksak yutug‘iga aylandi. 1999-yilda yevroning muomalaga kiritilishi munosabati bilan Yevropa Ittifoqi kattaligi bo‘yicha AQSHdan so‘ng ikkinchi o‘rinda turuvchi fond bozoriga ega bo‘lib qoldi. Barcha qimmatli qog‘ozlar va derivativ (hosilaviy qimmatli qog‘oz)lar nominallari yagona valyuta, yevroda ifodalanganligi sababli investorlar tanloving birinchi o‘rnida mamlakat emas, fond operatsiyalarining sektori turadi. Ushbu sharoitlarda valyuta xavf-xatari yo‘q bo‘ladi. Agarda Buyuk Britaniya “yevro hududi”ga qo‘silmasa u jahon moliyaviy markazi sifatidagi o‘z mavqeyini yo‘qotish xatariga uchraydi.

Jahon moliyaviy markazlari bo‘lib Syurix va Lyuksemburg hisoblanadi. Ular oltin bilan operatsiyalarini amalga oshirish borasida London bilan bellashib kelmoqdalar. Yevrovalyutadagi barcha kreditlarning  $\frac{1}{4}$  qismi Lyuksemburg zimmasiga to‘g‘ri keladi.

Yaponianing jahon xo‘jaligida mavqeining mustahkam-lanishi, xorijda yapon banklarining salobatli tizimining barpo etilishi, milliy pul birligi “yena”ning xalqaro iqtisodiy muomalaga

kirib borishi hamda valyuta cheklovlarining bekor qilinishi sababli Tokio jahon moliyaviy markaziga aylandi. 1985-yilda netto-qarzdorga aylangan AQSHdan farqli o‘laroq Yaponiya – netto-kreditor mamlakatidir. Yaponiya banklari jahonda, shu jumladan xalqaro operatsiyalar jarayonida ham (XX asrning 90-yillarining boshida deyarli 40%) AQSh va G‘arbiy Yevropa banklaridan (15%) ushbu sohada o‘zib o‘tgan holda yetakchilik qiladi. XX asrning 90-yillarini oxirlarida iqtisodiy inqiroz va ko‘proq jihatdan Janubiy-Sharqi Osiyo hududidagi so‘nggi 30 yil ichida misli ko‘rilmagan moliyaviy hamda valyuta inqirozlarining bo‘lib o‘tishi sababli Yaponiya egallab turgan xalqaro mavqeyining vaqtinchalik pasayishi ro‘y berdi.

Jahon xo‘jaligining chekka hududlarida Bagam orollari, Singapur, Syangan (Gonkong), Panama, Bahrayn va boshqa shu singari moliyaviy markazlarning paydo bo‘lishi nisbatan past soliqlar hamda operatsion xarajatlar, nomiga bo‘lgan davlat aralashuvi, valyuta qonunchiligining erkinlashtirilishi bilan ma’lum bir darajada asoslanadi.

Kredit tashkilotlari norezidentlar bilan ushbu mamlakat uchun xorijiy hisoblangan valyutada operatsiyalarni amalga oshiruvchi jahon moliyaviy markazlari “offshor” moliyaviy markazlari nomini oldi. Ushbu atama mazmun jihatidan yevrobozor tushunchasiga taxminan mosdir. Mazkur moliyaviy markazlar, shuningdek, soliq panohxonasi rolini bajaradi, chunki amalga oshirilayotgan operatsiyalar mahalliy soliqlarga tortilmaydi hamda valyuta cheklovlaridan xolisdir.

Zamonaviy sharoitda 13ta jahon moliyaviy markazida xorijiy banklarning 1000 ziyod filial va bo‘limlari to‘plangandir.

Bank offshor hududlari ko‘rinishlaridan biri bo‘lib xalqaro bank hududi hisoblanadi. Ularning o‘ziga xosligi amalga oshirilayotgan bank operatsiyalarining milliy kredit bozoridan farqli xususiyatlari, qattiq ixtisoslashuvi, soliqlardan qisman ozod etilishidadir. Xalqaro bank hududlariga bir qator bank me’yorlari, shu jumladan, majburiy zahiralar tizimi, bank omonatlarini sug‘urta qilish fondidagi ishtiroki aloqasizdir.

AQSHda xalqaro bank hududlari bank qonunchiligining erkinlashtirilishi munosabati bilan shakllangan. 24 shtatdagi ularning soni 500dan ziyoddir. Ular AQSH banklari, bank assotsiatsiyalari, shu jumladan, xorijiy va Edj (faqat xalqaro operatsiyalarni amalga oshirish litsenziyasiga ega) korporatsiyalari, xorijiy banklarning ayrim filiallarini birlashtiradi. Xalqaro bank hududi yuridik shaxs bo'lman holda xalqaro operatsiyalarning hisobi alohida yuritiluvchi bank tuzilmalari yig'indisidan iboratdir. Xalqaro bank hududining faoliyati operatsiyalarning ma'lum bir turlari bilan cheklangandir. Masalan, ushbularga xorijiy valyutadagi depozitlarni, 2 yilgacha muddatga 100 ming AQSH dollaridan kam bo'lman summaga muddatli omonatlarni ochish operatsiyalari kiradi. Qimmatli qog'ozlar bilan operatsiyalar o'tkazish va depozit sertifikatlar emissiyasiga ruxsat etilmagan. Bitimlarni faqat nobank norezidentlari bilan amalga oshirishga ruxsat etiladi. AQSHdagi xalqaro bank hududlaridan AQSH kapitallarining yevrobozordan qisman repatriatsiyasi uchun foydalaniadi.

Xalqaro bank hududlari "qochoq" kapitallar uchun panoh xizmatini bajaradi.

AQSHdan farqli o'laroq Yaponiyadagi xalqaro bank hududi kapitallarni o'zining ichki hisob raqamlaridan ichki bank hisobvaraqlariga oyning oxirida mablag'larning qarama-qarshi oqimi sharti bilan o'tkazish huquqiga ega.

Shunday qilib, sutka davomida uzluksiz faoliyat ko'rsatadigan, jahon moliya oqimlari boshqaruving vositasi bo'lib xizmat qiluvchi xalqaro bozor mexanizmi shakllandi. Iqtisodiy fanning maxsus bo'limi valyuta, kredit va moliya bozorlarining samaradorligi, ularning ishtirokchilari kutayotgan samaraning shakllanishini hamda yangi ko'rinishdagi axborotlarga moslasha olish muammolarini o'rganadi. Maxsus axborot agentliklarining monitorlarida bozor baholari, kotirovkalar, valyuta kurslari, foiz stavkalari va xalqaro operatsiyalarning, amalga oshirilish joyidan qat'iy nazar, boshqa valyuta-moliyaviy shartlari real vaqt rejimida aks etadi. Samarali bozor (shu

jumladan, valyuta, kredit, moliya) konsepsiyasining mohiyati axborotning joriy baholarga bo‘lgan ta’siridadir. Shu sababli jahon bozorining subyektlari ushbu bilan bog‘liq o‘z tashqi iqtisodiy faoliyatlari strategiyasini muvofiqlashtirishlari lozim.

XX asrning 80-yillaridan boshlab jahon valyuta, kredit va moliya bozorlarining qayta qurilishi faol amalga oshirilmoqda. Ular faoliyatining tavsifi ham o‘zgarmoqda. Yangi moliyaviy instrumentlar va bozor infratuzilmasi kiritilmoqda. Ishtirokchilar soni kengaymoqda (4.1. jadval).

### *7-jadval*

#### **Jahon valyuta, kredit va moliya bozorlari: ishtirokchilar va tarkibiy tuzilishi**

<b>Milliy ishtirokchilar</b>	<b>Bozorlarning tarkibiy tuzilishi</b>	<b>Xalqaro ishtirokchilar</b>
Korporatsiyalar	Valyuta bozorlari, shu jumladan yevrovalyutalar bozori	Xalqaro korporatsiyalar, Trans Milliy Korporatsiyalar
Banklar va ixtisoslashgan kredit-moliya institutlari, shu jumladan, sug‘urta kompaniyalari	Ssuda kapitallari bozorlari: a) pul bozori b) kapitallar bozori v) yevrobozor	Xalqaro banklar, Trans Milliy Banklar Ixtisoslashgan kredit-moliya institutlari, shu jumladan, sug‘urta kompaniyalari
Fond va tovar birjalari  Davlat	Moliyaviy bozorlar	Eng yirik fond va tovar birjalari
	Sug‘urta bozorlari Oltin bozorlari	Xalqaro valyuta- kredit va moliya tashkilotlari

Quyida jahon moliya oqimlari harakatlanadigan asosiy bozor turlariga to‘xtalib o‘tamiz.

## **7.2. Valyuta bozori tushunchasi, uning institutsional tarkibi va o‘ziga xos xususiyatlari**

Iqtisodiy, siyosiy va madaniy tusdagi xalqaro munosabatlar turli mamlakatlar yuridik shaxslari hamda fuqarolarining pul talabnomalari va majburiyatlarini keltirib chiqaradi. Xalqaro hisob-kitoblarning o‘ziga xosligi shundaki, baho va to‘lov valyutasi sifatida, odatda, xorijiy valyutalar ishlatiladi, chunki hozirgi kunda barcha davlatlarda qabul qilinishi majburiy bo‘lgan umum tan olingan jahon kredit pullari yo‘q. Shu bilan birgalikda qonuniy to‘lov vositasi sifatida har bir suveren davlatda uning milliy valyutasi ishlatiladi. Shu sababli tashqi savdo, xizmatlar, kreditlar, investitsiyalar, davlatlararo to‘lovlar bo‘yicha hisob-kitoblarning zaruriy sharti bo‘lib to‘lovchi yoki oluvchi tomonidan bir valyutani boshqa bir valyutaga sotib olish yoxud sotish shaklidagi almashinishi hisoblanadi.

Valyuta bozorlari – bu talab va taklif asosida shakllanadigan kurs bo‘yicha xorijiy valyutalarning milliy valyutaga oldi-sotdisi amalga oshadigan rasmiy markazlaridir.<sup>51</sup>

Turli mamlakatlar yuridik va jismoniy shaxslarining pullik qarz majburiyatlarini to‘lovi bilan bog‘liq xalqaro to‘lov aylanmasiga valyuta bozori tomonidan xizmat ko‘rsatiladi.

Keng ma’nodagi valyuta bozori – bu, xorijiy valyuta oldi-sotdisini amalga oshirish hamda xorijiy investorlar kapitallari harakati bilan bog‘liq operatsiyalarda paydo bo‘ladigan iqtisodiy munosabatlar jarayonidir. Valyuta bozorida valyuta qimmatliklarining investorlari, sotuvchilari va sotib oluvchilari manfaatlarining kelishivi amalga oshadi. G‘arb iqtisodchilari valyuta bozorini tashkiliy-texnik nuqtai nazardan milliy va xorijiy banklar hamda broker firmalarini o‘zaro birlashtiruvchi zamonaviy aloqa vositalari tarmog‘ining yig‘indisi sifatida tavsiflaydi.

Zamonaviy valyuta bozori, yalpi jahon xo‘jaligi miqyosida amal qiluvchi, murakkab va muntazam iqtisodiy tizim sifatida

<sup>51</sup> Красавина Л.Н Международные валютно-кредитные и финансовые отношения. Москва, 2001г.

maydonga chiqadi.

Valyuta bozori yangi sharoitlarga moslashgan holda tinmay rivojlanib kelgan. U xorijiy valyutadagi veksellar bilan savdoning lokal markazlaridan tortib to birdan-bir haqiqiy xalqaro bozor shakligacha bo‘lgan yo‘lni bosib o‘tdi.

Xorijiy valyutalar bilan operatsiyalar qadimdan pullarni o‘zaro almashtirish operatsiyalari shaklida amalga oshgan. Biroq zamonaviy tushuncha sifatidagi valyuta bozorlari XIX asrga kelib shakllandi. Bunga quyidagi omillar ko‘maklashdi:

- xalqaro iqtisodiy munosabatlarning rivojlanishi;
- milliy valyuta tizimlari yuzasidan a’zo-mamlakatlar zimmlariga ma’lum bir majburiyatlarni yuklovchi jahon valyuta tizimining barpo etilishi;
- xalqaro hisob-kitoblar kredit vositalarining kengayishi;
- bank kapitali to‘planuvi va markazlashuvining kuchayishi, turli mamlakatlar banklari o‘rtasida vakillik munosabatlarining rivojlanishi, joriy vakillik hisobvaraqlarini xorijiy valyutalarda yuritilish amaliyotini kengayishi;
- valyuta bozorlari o‘zaro aloqalarini soddalashtirish hamda kredit va valyuta xatarlari darajasini kamaytirish imkonini beruvchi telegraf, telefon, teleks singari aloqa vositalarining takomillashishi;
- axborot texnologiyalarining rivojlanishi, valyuta kurslari, banklar, ularning vakillik hisob raqamlarining holatlari, iqtisodiyot va siyosat borasidagi tendensiyalar haqidagi ma’lumotlarni katta tezlikda uzatilishi.

Milliy bozorlar va ularning o‘zaro aloqalarini rivojlanib borishi bilan jahon moliyaviy markazlarida jahonning yetakchi valyutalari uchun yaxlit jahon valyuta bozori shakllandi. Zamonaviy jahon valyuta bozorlari quyidagi asosiy xususiyatlar bilan tavsiflanadi:

1) xo‘jalik aloqalarining baynalmilallahuvi, elektron aloqa vositalaridan keng foydalanish va ular orqali operatsiyalar hamda hisob-kitoblarni amalga oshirish zaminida valyuta bozorlarining baynalmilallahuvi;

2) operatsiyalar navbatni bilan jahonning barcha joylarida

uzluksiz, sutka davomida amalga oshadi. Kalendar sutkalar hisobi soat poyaslarining Grinvich – Greenwich Meridian Time (GMT) orqali o‘tadigan “0” raqamli meridianiga muvofiq valyuta bozoridagi faoliyat Yangi Zelandiya (Vellington)da boshlanadi va Sidney, Tokio, Gonkong, Singapur, Moskva, Frankfurt-Maynada, London, Nyu-York hamda Los-Anjeles ketma-ketligidagi soat poyaslarini bosib o‘tadi;

3) valyuta operatsiyalarining texnikasi soddalashtirilgan, hisob-kitoblar banklarning vakillik hisobvaraqlari orqali amalga oshadi;

4) valyuta va kredit xavf-xatarlarini sug‘urtalash maqsadida valyuta operatsiyalarining keng rivojlanishi. Bunda avval amalda bo‘lgan va bank balansida aks ettirilgan valyuta operatsiyalari balansdan tashqari hisobvaraqlarida hisobi yuritiladigan muddatli hamda boshqa turdag'i valyuta bitimlari bilan almashtiriladi;

5) chayqov va arbitraj operatsiyalari tijorat bitimlari bilan bog‘liq valyuta operatsiyalaridan ko‘p jihatdan ortiqdir, ular ishtirokchilarining soni keskin ko‘payadi va o‘z tarkibiga nafaqat bank hamda Trans Milliy Korporatsiyalarni, balki boshqa yuridik va jismoniy shaxslarni oladi;

6) kursi, xususiyatli birja tovariga o‘xshab fundamental iqtisodiy omillarga bog‘liq bo‘lмаган, o‘zining tendensiyalariga ega bo‘lgan valyutalarning barqarorsizligi. Jahon valyuta bozori eng kuchli va likvidli, ammo siyosiy hamda iqtisodiy yangiliklarga nihoyatda sezgir bozordir.

Funktional nuqtai nazardan valyuta bozorlari quyidagilarni ta’minlaydi:

- xalqaro hisob-kitoblarning o‘z vaqtida amalga oshishini;
- valyuta va kredit xavf-xatarlar sug‘urtalanishini;
- jahon valyuta, kredit va moliya bozorlarining o‘zaro alo-qalarini;
- banklar, korxonalar, davlat valyuta zaxiralarining diversifikasiyasini;
- valyuta kurslari muvofiqlashtirilishini (bozor va davlat tomonidan);

- ishtirokchilari tomonidan valyuta kurslarining farqi sifatidagi chayqov foydasi olinishini;

- iqtisodiyotni davlat tomonidan muvofiqlashtirilishiga qaratilgan valyuta siyosatini amalga oshirilishi, so‘nggi paytlarda esa mamlakatlar (“yettilik”, Iqtisodiy Hamkorlik va Rivojlanish Tashkiloti, Yevropa Ittifoqi) guruhi doirasida o‘zaro kelishilgan makroiqtisodiy siyosatning tarkibiy qismi sifatida. Valyuta bozori moliyaviy bozorning boshqa segmentlariga qaraganda o‘z operatsiyalarining ko‘lami bo‘yicha nihoyatda kattadir. Masalan 1997-yildagi aksiyalar bozoridagi kunlik operatsiyalarning hajmi 100 – 150 mlrd., obligatsiyalar bozorida 500 – 700 mlrd., valyuta bozorida esa 1,4 trln. AQSh dollari hajmida baholangan (1986-yilda ushbu operatsiyalar hajmi 205 mlrd. AQSH dollarini tashkil etgan).

Valyuta bozoridagi shartnoma instrumentlari ichida katta o‘zgarish sodir bo‘ldi. Erkin raqobat kapitalizmi davrining monometalizmi sharoitida yaxshigina rivoj topgan xalqaro hisob-kitoblarning kredit vositalaridan foydalangan holdagi xalqaro naqdsiz to‘lovlar ko‘lami katta edi. Valyuta kursi “oltin nuqtalari”ga yetgan va qarzdorga devizlar bilan emas, balki oltin bilan hisob-kitob qilish samarali bo‘lgan paytda oltin xalqaro hisob-kitoblar bo‘yicha majburiyatlarning yakuniy to‘lov vositasi sifatida ishlatilar edi. Valyuta operatsiyalarining instrumentlari bo‘lib azaldan o‘tkaziladigan tijorat veksellari (trattalar) hisoblanar edi. Tratta eksportyor yoki kreditor tomonidan importyor yoxud qarzdorga qarata yozib chiqarilgan talabnomadir. Banklar rivojlanib borgani sari ushbu trattalar bank veksellari va cheklari, XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab esa bank pul o‘tkazmalari tomonidan siqib chiqarila boshlandi. Bank vekseli – bu, ushbu mamlakat banki tomonidan o‘zining xorijiy vakili (korrespondenti)ga qarata chiqarilgan vekselidir. Qarzdor (importyor)lar mazkur veksellarni milliy (markaziy) bankdan sotib olganidan so‘ng ularni o‘z qarz majburiyatlarini so‘ndirish maqsadida kreditorlar (eksportyorlar)ga jo‘natadilar. Bank vekseli asta-sekin bank cheki bilan siqib chiqariladi. Bank cheki – bu

avuarlar egasi bo‘lmish xorijdagi bankning o‘z vakil-bankiga o‘zining joriy hisobvarag‘idan chekni taqdim etuvchiga ma’lum bir summani o‘tkazib berish to‘g‘risida yozma tarzdagi buyrug‘idir. Eksportyorlar mazkur cheklarni qo‘llariga olganlaridan so‘ng ularni o‘z banklariga sotadilar.

Xalqaro to‘lov aylanmasida oltinning o‘rnini egallagan kredit muomala qurorollari muomala xarajatlarining kamayishi hamda banklar va davlatlar o‘rtasida naqdsiz o‘zaro hisob-kitoblarning rivojlanishiga ko‘maklashadi.

Zamonaviy xalqaro to‘lov aylanmasida bank pul o‘tkazmalar, ya’ni pochta va ayniqsa telegraf pul o‘tkazmalaridan keng miqyosda foydalaniladi. Pul o‘tkazmasi – bu, bankning vakil-bankka o‘z mijozining ko‘rsatmasiga binoan xorijiy valyutadagi ma’lum bir summani boshqa mamlakatda o‘z hisobvarag‘idan to‘lash to‘g‘risidagi buyrug‘idir. Pul o‘tkazmasini amalga oshirishda bank mijozga xorijiy valyutani milliy valyutaga sotadi. Telegraf pul o‘tkazmalar hisob-kitoblarni tezlashtirishga, kreditdan foydalanish muddatini qisqartishga hamda veksel, chek, pochta pul o‘tkazmasini jo‘natish va ularni manzilga yetib kelishi davri mobaynida vujudga keladigan valyuta yo‘qotishlardan saqlashga ko‘maklashadi. Telegraf orqali pul o‘tkazmalarida maxsus kod (“kalit”)ning qo‘llanilishi suiste’molliklar (qalbaki pul o‘tkazmalar)ni istisno etadi hamda xato qilmaslikni kafolatlaydi. SVIFT tizimining rivojlanishi bilan pul o‘tkazmalarini amalga oshirishning elektron tizimi rivojvana boshladi. Valyuta operatsiyalar o‘z moddiy asoslarini tobora yo‘qotib bormoqda va vakillik hisobvaraqlari bo‘yicha yozuvlar sifatida mavjuddir.

Valyuta bozorlari institutsional nuqtai nazardan banklar, brokerlik firmalari, korporatsiyalar va ayniqsa Trans Milliy Korporatsiyalar yig‘indisidan iboratdir. Banklar, banklararo bozordagi o‘zaro hamda savdo-sanoat sohalariga aloqador mijozlar bilan valyuta bitimlarining 85-95 foizini amalga oshiradilar. Bank yoki valyuta milliy qonunchiligiga muvofiq inqirozlar davrida banklarning xalqaro operatsiyalar va valyuta bitimlarini amalga oshirishga bo‘lgan huquqlari cheklanadi yoki

mazkur operatsiyalarni amalga oshirish uchun maxsus ruxsatnomalar (litsenziya) talab etiladi. Ushbu cheklovlar amalga oshiriladigan barcha valyuta operatsiyalariga yoki ularning ayrim turlariga, masalan “offshor” hududlaridagi banklarning rezidentlar bilan valyuta bitimlariga aloqador bo‘lishi mumkin.

Valyuta operatsiyalarini amalga oshirish huquqi taqdim etilgan banklar vakolatli, devizli yoki valyutali banklar deb ataladi. Barcha devizli banklar valyuta bozorining operatsiyalarida teng asosda ishtirok eta olmaydilar. Bankning kattaligi, uning mavqeyi, xorijiy bo‘lim va filiallari tarmog‘ining rivojlanganligi, bank orqali amalga oshayotgan xalqaro hisob-kitoblarning hajmi kabi omillar bankning valyuta bozorlaridagi rolini ko‘p jihatdan belgilaydi. Bankning joylashgan joyida valyuta cheklovlarini muntazam ravishda kiritilishi, telefaks va telefon aloqalarining holati hamda ushbu bank o‘tkazayotgan siyosat yuqorida omillar bilan bir qatorda uning valyuta bozorida ishtirok etishiga ma’lum bir ta’sir o‘tkazadi. Shu sababli valyuta operatsiyalarining eng katta qismi Trans Milliy Banklar (TMB) zimmasiga to‘g‘ri keladi. Ularga Citibank, Chase Manhattan Bank, Deutsche Bank, Dresdner Bank, Barclays Bank, Union Bank Swizerland, Sumitomo Bank, Mitsubishi Bank, ABN Amro va boshqalar kiradi. Mazkur banklar nihoyatda katta summalar (100 – 500 mln. AQSH dollari)ga bitimlarni amalga oshiradilar. Shu bilan birgalikda 1 – 10 mln. dollargacha bo‘lgan standart bitim valyuta bozori holatiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi hamda ushbu bitimning egasi manfaatli bitimlar uchun kurashda raqobatli imtiyozga ega bo‘ladi. TMBlar xorijiy bo‘limlar tarmog‘iga ega bo‘lgan holda valyuta operatsiyalarini sutka davomida uzluksiz amalga oshirish imkoniyatiga ega.

Valyuta bozorining yangi ishtirokchisi bo‘lib valyutalarni turli mamlakatlar hukumatlari va korporatsiyalarining yuqori likvidli hamda ishonchli qimmatli qog‘ozlariga joylashtirgan holda aktivlar portfelining diversifikatsiyali boshqaruvini amalga oshiruvchi investitsiya fondlari maydonga chiqdi. Ulardan eng tanilganlari qatoriga Jorj Sorosning “Quantum” va “Dean Witter”

fondlari, “Lohg-Term Capital Management” xalqaro xedj-fondi kabi fondlar kiradi. Investitsiya fondlarini valyuta bozorlarini erkinlashtirish sharoitida paydo bo‘lishi o‘sgan valyuta va kredit tavakkalchiliklarini sug‘urtalash zarurati bilan bog‘liqdir. Ularni vujudga keltirishda, odatda, TMBlar hamda investitsiya fondlari ishtirok etadi. Shu sababli xedj-fondlarda nafaqat xatarlarni sug‘urtalash, balki kichik mamlakatlarning valyuta kurslarini pasaytirib yuborishga qodir bo‘lgan yirik chayqov bitimlarini tuzish imkonini beruvchi katta hajmdagi pul mablag‘lari to‘planadi. Ushbu holat 1998-yilning yozida Malayziya, Indoneziya va Gonkongning valyutalari bilan sodir bo‘ldi hamda mazkur davlatlarning keskin noroziligini keltirib chiqardi. Mazkur davlatlar yuqorida zikr etilgan yirik chayqovchilarning o‘z hududlaridagi faoliyatiga taqiqlovchi choralarни kiritdilar.

Valyuta bozorlari ishtirokchilarining qatoriga ushbu bozorlar orqali valyuta zaxiralarini boshqaradigan, milliy valyuta kursini qo‘llab-quvvatlab turadigan, valyuta intervensiysi hamda milliy valyutadagi qo‘yilmalar bo‘yicha foiz stavkalari muvofiqlash-tirilishini amalga oshiradigan mamlakatlar markaziy banklari kiradi. Jahon valyuta bozorlariga eng katta ta’sirni AQSh (Federal Zahira Tizimi), Germaniya va Buyuk Britaniya markaziy banklari o‘tkazadi.

Valyuta bozorida nobank toifasidagi institutlar (sug‘urta va pensiya fondlari, investitsiya kompaniyalari) ham ishtirok etadi. Biroq ushbu institutlar bozorda valyutani sotuvchilari va sotib oluvchilari o‘rtasida vositachilik funksiyalarini bajaruvchi bozorning yana bir muhim ishtirokchilari bo‘lmish brokerlik firmalaridan vositachilar sifatida foydalanadilar. Broker orqali ishlashning imtiyozli taraflari qatoriga bitimlar amalga oshirilishining maxfiyligi, kotirovka jarayonining uzlusizligi, o‘z baholarini berish imkoniyati kabilar kiradi. Brokerlar valyuta operatsiyalarining hajmlari, valyuta operatsiyalarining 30 foiziga yaqinini (London bozorida 35%, dollar bo‘yicha operatsiyalarda esa birmuncha ko‘proq) qamrab olgan holda doim o‘sib bormoqda. XX asrning 90-yillarining o‘rtalarida, masalan 1997-

yilda Tokioda dollar-yena operatsiyalarining 50 foiziga yaqinini amalga oshiruvchi elektron brokerlar paydo bo‘ldi. Brokerlik-dilerlik firmalari ichida yetakchi o‘rinni “Merrill Linch” (Merrill Lynch Pierce Fenner & Smith), I.F.Xatton (E.F. Hutton), “Goldman Saks” (Goldman Sachs), “Morgan Stenli” (Morgan Stanley) kabi kompaniyalar egallaydi.

Ayrim mamlakatlар (Germaniya, Fransiya, Yaponiya, Benilyuks mamlakatlari, Skandinaviya)da valyuta birjalari saqlanib qolgan bo‘lsa-da, ularning roli unchalik katta emas va bajaradigan funksiyalari valyuta savdolarini tashkil etish, bo‘sh resurslarni safarbar etish, ma’lumot-kurslarini qayd etish kabilardan iboratdir.

Yirik banklar, birinchi navbatda, TMBlar boshqa banklar, vositachilik broker firmalari hamda jahon moliya markazlari bilan elektron hisoblash mashinalari, telefon hamda teleks aloqa tizimlari orqali ulangan valyuta bo‘limlariga egadirlar. Ushbu bo‘limlar esa o‘z navbatida videoaloqa tizimlari bilan telegraf agentlik (Reyter va boshqa) tarmog‘iga ulangan. Mazkur agentliklar eng muhim siyosiy va iqtisodiy yangiliklar hamda valyutalar kurslari haqida xabar berib turadilar.

XX asrning 70-yillaridan boshlab valyutalar bilan ayrim operatsiyalar tovar birjalarida amalga oshiriladi (masalan, fyuchers va opson valyuta operatsiyalari Chikago hamda Nyu-York tovar birjalarida).

O‘zbekistonda ham valyuta birjasi tashkil etilgan va u Respublika Valyuta Birjasi deb ataladi. Mazkur birjaning xususiyatli tarafi shundaki ushbu birjada nafaqat valyuta operatsiyalari, balki fond (davlat qisqa muddatli obligatsiyalari) operatsiyalari ham amalga oshiriladi.

Valyuta, kredit, moliya va oltin bozorlari o‘rtasidagi kuchayib borayotgan bog‘liqlik munosabati bilan eng yirik banklarda “valyuta zali” konsepsiysi joriy etilgan. Bankning turli bo‘limlarida amalga oshiriladigan ushbu bozorlardagi operatsiyalar “valyuta zalida” birlashtirilgan. Bu bilan to‘liq ma’lumotga, turli bozor segmentlarining o‘zaro manfaatli operatsiyalarida dilerlar o‘rtasidagi yaqindan aloqaga, zikr etilgan bozorlarda harakatning

kelishilgan strategiya va taktikasiga erishiladi. Xorijiy valyutalardagi pozitsiyalar, oltin va qimmatli qog‘ozlarga investitsiyalar bank mablag‘larining likvidli asosda joylashtirilishining muqobil shakllari sifatida ko‘riladi. Shu bilan birgalikda xorijiy qimmatli qog‘ozlarga qo‘yilmalar va valyuta-foizli arbitraj bozorning bir nechta sektorlarida aralash operatsiyalarni vujudga keltirgan holda valyutali xedjing bilan qo‘llab-quvvatlanishi mumkin.

Kompyuter va boshqa elektron moslamalarning qo‘llanilishi har daqiqada turli valyutalardagi banklar pozitsiyalarini hamda alohida banklar bilan operatsiyalarni nazorat qilish imkonini beradi. Operatsiyalarning avtomatlashtirilgan qayta ishlovi aylanmalar imkonini oshiradi, pul o‘tkazmasining aniqligi va o‘z vaqtidaligini hamda valyuta kelib tushishini kafolatlaydi. Telekommunikatsiya tizimlarining SWIFT asosida rivojlanishi tez va kam xarajatli asosda bitimlarni amalga oshirish, xususan valyuta kelib tushganligi haqidagi tasdiqnomani bitim amalga oshganidan so‘ng ertasi kun nahorida, ya’ni banklar hisobvaraqlariga pullar olinishining real vaqtidan avvalroq olish imkonini beradi. Reyter-diling elektron tizimi banklarga ushbu tizimga ulangan manfaatdor banklar bilan bir zumda aloqalarni o‘rnatish hamda bitimlarni amalga oshirish imkonini beradi. Biroq qimmat turadigan elektron va kompyuter jihozlarini sotib olishga valyuta bozorida hukmron bo‘lgan yirik banklarninggina qurbi yetadi. Valyuta zali jihozlari hamda Reyter va Telereyt tizimlariga a’zolik, kompyuterlar hamda bitimlarning dastur ta’mintlari qiymati millionlab dollarlar, yirik zallar uchun esa o‘n millionlab dollarlar turadi. Jahonning eng yirik banklari mijozlariga uydan chiqmagan holda bankdan uzoqda joylashgan terminal orqali o‘z hisobvaraqlarini boshqarish yuzasidan operatsiyalarning ma’lum bir to‘plamini, jahon valyuta bozorlarida valyutani sotib olish va sotish operatsiyalarini amalga oshirish imkonini beruvchi “virtual banklar” (virtual banking) konsepsiyasini joriy etishga kirishdi.

XX asrning 90-yillarini ikkinchi yarmida mavjud (“REUTERS dealing 2000”, “Telereuter”, “TENFORE” va boshqa shu kabi) diling tizimlari juft valyutalarning elektron savdolarida jadal

ishlatiladigan elektron broker tizimlari bilan to‘ldirilgan edi. Konversiya bilan bog‘liq jami operatsiyalar ichida 1996-yilda USD/DEM operatsiyalari zimmasiga 22%, USD/JPYga – 17%, GBP/USDga – 11% va boshqa valyuta juftliklariga 50% to‘g‘ri kelar edi. 1996-yilda Tokio brokerlik bozoridagi dollar-yena bo‘yicha operatsiyalarning 50%dan ziyodiga elektron broker tarmoqlari tomonidan xizmat ko‘rsatilgan. Savdolar “parket”da “ovoz” orqali amalga oshadigan an’anaviy valyuta birjasidan farqli o‘larоq Chikago, Frankfurt-Mayn, Tokio, Singapur va boshqa jahon bozorlarida elektron birjalari paydo bo‘ldi. Ushbu birjalarning jihozlanishi nafaqat jahon bozorlaridagi valyuta kurslari va foiz stavkalari haqidagi har taraflama ma’lumotlarni olish hamda ushbu bozorlarda operatsiyalarni amalga oshirish, balki tahliliy ishlarni olib borish va valyuta kurslari dinamikasini prognozlash imkonini berdi.

Valyuta bo‘limlarining dilerlik xizmati bir necha o‘n, ayrim holatlarda esa yuzdan ortiq xodimlarni o‘z ichiga oladi. Ularning ichida dilerlar, iqtisodchi-tahlilchilar, menejerlar mavjud. Dilerlar (Fransiyada ularni, odatda, kambistlar deb atashadi) – valyuta oldisotdisi bo‘yicha mutaxassislardir. Ularning o‘rtasida ishning taqsimoti valyutalar va operatsiyalar (savdo-sanoat toifasidagi mijozlar, banklararo, naqdli, muddatli va boshqa shu kabilar)ning turiga qarab amalga oshadi. Nisbatan tajribali dilerlar – bosh, katta dilerlar – arbitraj operatsiyalarini amalga oshirish hamda valyutalarda chayqov pozitsiyalarini vujudga keltirish huquqiga ega. Iqtisodchi-tahlilchilar iqtisodiyot, siyosat, xalqaro hisobkitoblarning rivojlanish tendensiyalarini o‘rganish asosida valyuta kurslari va foiz stavkalari harakatini prognoz qiladi. Ular mijozlar bilan o‘zaro munosabatlarda tavsiyalar sifatida ishlatiladigan valyuta tavakkalchiliklarini baholash hamda sug‘urtalashning eng samarali usullarining ekonometrik modellarini ishlab chiqadi. Prognozlashning asosiy qismi kompyuter yordamida ekonometrik modellar negizida amalga oshadi. Statistik grafik (chart)lar asosida valyuta kurslarining harakat tendensiyalari, muayyan kurs nuqtalaridagi ularning tebranishini aniqlash “qarshilik nuqtalari”ni

hisobga oluvchi dilerlar harakatida katta rol o‘ynaydi. Ushbu “qarshilik nuqtalari”dan oshib o‘tilishi kurslarda katta o‘zgarish ro‘y berishi ehtimolini anglatadi. Valyuta operatsiyalariga umumiy rahbarlik, bankning ishchi organi bo‘lmish valyuta qo‘mitasi tomonidan tasdiqlanadigan valyuta siyosatiga amal qiluvchi menejerlar zimmasiga yuklatiladi. Nisbatan kichik banklarda diler bir vaqtning o‘zida ham ekspert, ham operator sifatida maydonga chiqadi.

Valyuta kurslarining qisqa va o‘rta muddatli dinamikasi tendensiyalarini prognozlash hamda aniqlashda valyuta bozori konyunkturasiga ta’sir etuvchi omillar (yalpi ichki mahsulotning hajmi, sanoat ishlab chiqarishining o‘sishi, ishsizlik darajasi, ulgurji va chakana baholar indekslari, to‘lov balansi asosiy moddalarining ahvoli, foiz stavkalarining dinamikasi) tahlil etiladi. Olingan ma’lumotlar asosida valyuta operatsiyalarini amalga oshirishning strategiya va taktikasi ishlab chiqiladi. Biroq prognozlarning ishonchlilik darajasi unchalik katta emas, chunki valyuta bitimlari obyektiv va subyektiv tavsifidagi xavf-xatarlar ta’siridadir. Xavf-xatarning obyektivligi, valyuta kurslarining uzoq muddatli davr ichida turli mamlakatlarning iqtisodiy ko‘rsatkichlariga, qisqa muddatli davr ichida esa siyosiy voqealar, iqtisodiy masalalar bo‘yicha davlat organlarining qarorlariga, mish-mishlar va payt poylashlarga bog‘liqligi bilan asoslanadi. Xatarning subyektivligi esa diler tomonidan o‘z vakolatlari doirasida valyuta kursidan kelib chiqqan holda amalga oshirayotgan oldi-sotdi operatsiyasining hajmi yuzasidan qabul qilayotgan qarori bilan asoslanadi. Daqiqalar ichida o‘nlab million dollarlarga bitimlar tuzilishini hisobga olgan holda dilerlarning noto‘g‘ri qabul qilgan qarorlari obyektiv omillar bilan birqalikda, ayniqsa, yirik bitimlarda, katta yo‘qotishlarga olib kelishi mumkin.

1974-yilda De Bryssel banki katta zarar ko‘rdi va bankrotlik-dan Lamber Bank hamda Bryssel-Lamber komapaniyasi bilan qo‘shilishi va ushbu asosda Bryssel-Lamber moliyaviy guruhi barpo etilishi evaziga qutildi. Ba’zi banklar valyuta chayqovi bilan haddan tashqari ko‘p shug‘ullanishi oqibatida masalan 1974-yilda

Franklin neshnl benk (AQSH), 1973-yilda Bankxaus Xershtatt (GFR) bankrotlikka uchradi. Chayqov valyuta operatsiyalari oqibatida Yaponiyaning Fudzi banki 1984-yilda 11,5 mld. yena zarar ko'rdi va ushbu zarar uning portfelidagi bir qism qimmatli qog'ozlarning sotilishi hisobiga qoplandi. 1997-1998-yillarda Janubi-Sharqiy Osiyo hududi va boshqa mamlakatlarda ro'y beragan chuqur moliyaviy hamda valyuta inqirozi jahon bo'ylab banklar va firmalarning valyutadagi katta talofatlariga olib keldi.

Banklarning bankrotligi valyuta operatsiyalari ustidan bank rahbariyati va tegishli davlat organlari nazoratining kuchayishiga olib keldi. Banklar ustidan nazoratning milliy organlari kapital harakati va banklar xavf-xatarlari hajmlarini nazorat qilish maqsadida ularning valyuta pozitsiyalarini kuzatadi. Jhon valyuta va kredit bozorlaridagi operatsiyalar milliy hamda xalqaro organlarning muntazam o'rganish obyekti bo'lib xizmat qiladi. Mazkur choraning zarurligi valyuta va qimmatli qog'ozlar kurslari hamda foiz stavkalarini eksport va import hamda kapitallar harakati orqali ishlab chiqarishning rivojlanish istiqbollari, konyunktura, inflyatsiya sur'atlariga sezilarli ta'sir qilishidadir.

Banklararo bozor to'g'ridan to'g'ri va brokerlik bozorlariga bo'linadi. Shu sababli brokerlik firmalari valyuta bozorining institutsional tarkibiy tuzilishining qismlaridan biri bo'lib hisoblanadi. Jami valyuta operatsiyalarining 30 foizi ushbu firmalar orqali o'tadi. Brokerlik firmalari xizmatlari uchun vositachilik haqi (sotilgan yoki sotib olingan har bir million dollar uchun 20 AQSH dollarigacha yoki uning ekvivalentini) oladilar. Banklararo aloqalarning elektron vositalari hamda valyuta bitimlari (Reyter-diling, Telereyt) amalga oshirilishining rivojlanishi bilan brokerlik firmalarining banklararo bozordagi roli pasaydi. Ammo xususiy shaxslar hamda nisbatan kichik firmalar operatsiyalarida ular hamon katta rol o'ynab kelmoqda.

Xalqaro amaliyotda broker xizmatlarining vositachilik haqini hisoblash tizimi qabul qilingan. Ushbu haqning to'lanishi valyutaning sotuvchisi va sotib oluvchisi o'rtalarida barobar taqsimlanadi hamda kotirovkaga qo'shilmaydi. Vositachilik haqi

kontragentlar tomonidan, odatda, oyma-oy bevosita brokerga to‘lanadi. Faqat AQSHning valyuta bozorlarida brokerning vositachilik haqi ko‘p vaqt mobaynida sotuvchilar kursiga qo‘sib kelingan va valyuta sotilganidan so‘ng brokerga to‘langan. 1978-yilning sentabridan boshlab Nyu-York valyuta brokerlari Assotsiatsiyasining qaroriga asosan broker xizmatlarining vositachilik haqi hisoblashning amalda bo‘lgan xalqaro amaliyoti AQSH valyuta bozorlariga kiritilgan.

Valyuta operatsiyalarining hajmi va tavsifi, ishlatilayotgan valyutalarning soni hamda erkinlashtirishning darajasiga ko‘ra valyuta bozorlari jahon, hududiy va milliy (mahalliy) bozorlarga bo‘linadi.

Jahon valyuta bozorlari jahon moliyaviy markazlarida to‘plangandir. Ularning ichida London, Nyu-York, Frankfurt-Mayna, Parij, Syurix, Tokio, Syangan, Singapur, Bahrayndagi valyuta bozorlari ko‘zga tashlanadi. Jahon valyuta bozorlarida banklar jahon to‘lov aylanmasida keng ishlatiladigan valyutalar bilan operatsiyalarni amalga oshiradilar. Hududiy va mahalliy ahamiyatga ega bo‘lgan valyutalar bilan esa, ularning maqomi hamda ishonchliligidan qat’i nazar, banklar bitimlarni deyarli amalga oshirmaydilar. London valyuta bozori (400-460 mlrd. dollar yoki jahondagi kunlik valyuta bitimlarining 30% dan ziyodi) yetakchilikni qo‘lda saqlab kelmoqda. Ushbu ko‘rsatkich Parijdagi valyuta operatsiyalari hajmidan 9 marta, Frankfurt-Maynadgidan 5 marta, Nyu-Yorkdagidan 2 marta ko‘pdir. Jahon valyuta aylanmasining 40 foizi Yevropa bozoriga, 40 foizi AQSh bozoriga va 20 foizi Osiyo bozoriga to‘g‘ri keladi.

London o‘zining ushbu jarayondagi katta tajribasi, valyuta operatsiyalarining likvidliliqi, xorijiy banklarning ko‘pligi (76 mamlakatdan 524 bank) tufayli xorijiy valyutalar bilan savdoda azaldan yetakchi edi. G‘arbiy Yevropadagi integratsiya jarayoni natijasida xalqaro (hududiy) Yevropa valyuta bozori shaklandi va 1979-1998-yillar mobaynida ushbu bozordagi hisob-kitoblar EGUuda amalga oshirildi. 1999-yilning yanvaridan boshlab Yevropa valyuta bozori rivojlanishining yangi bosqichi boshlandi

va undagi hisob-kitoblar Yevropaning yangi kollektiv valyutasi “yevro”da amalga oshadigan bo‘ldi. Yevro kursining dollarga va yevro hududiga kirmaydigan mamlakatlar valyutalariga nisbatan kotirovkasini Frankfurt-Mayndagi Yevropa Markaziy banki amalga oshiradi.

Osiyo hududida Singapur valyuta bozori katta odimlar bilan rivojlanmoqda. Ushbu bozor o‘zining kunlik operatsiyalari hajmi (139 mlrd. dollar) bo‘yicha Tokiodan (149 mlrd. dollar) keyin 2-o‘rinni egalladi. Osiyoning boshqa mamlakatlari bozorlariga qaraganda erkinroq bo‘lgan Singapur bozorida amalga oshirilayotgan operatsiyalar hajmining 1995-yildan 1998-yilgacha bo‘lgan davr ichida 32 foizli o‘simga erishildi. Xuddi shu davr ichida esa Tokioda ushbu operatsiyalarning hajmi 8 foizga, Gongkongda – 13 foizga qisqardi.

Hududiy va mahalliy valyuta bozorlarida konvertatsiya qilinadigan muayyan bir valyutalar bilan operatsiyalar amalga oshiriladi. Ushbu valyutalar qatoriga Singapur dollari, Saudiya riyali, Quvayt dinori va boshqa shu kabi valyutalar kiradi. Muayyan bir hududda valyuta operatsiyalari uchun ishlatiladigan valyutalarning kotirovkasi ushbu hudud banklari tomonidan nisbatan muntazam bo‘lgan asosda amalga oshiriladi. Mahalliy ahamiyatdagi valyutalarning kotirovkasi esa ushbu valyutalar mahalliy deb hisoblanmish banklar tomonidan amalga oshiriladi.

Valyuta bozorlari iqtisodiyot va siyosatdagi o‘zgarishlarga sezgir bo‘lib, ularga o‘z aks ta’sirini o‘tkazgan holda jahon xo‘jaligining muhim bo‘g‘inlaridan biri bo‘lib hisoblanadi. Xo‘jalik hayotining baynalmilallashuvi valyuta bozorlarining rivojlanishiga ko‘maklashadi. Jahon valyuta bozorlaridagi bir sutkalik bitimlarning hajmi zamonaviy sharoitda 2 trln. AQSH dollaridan ziyodni tashkil qiladi. Kurs nisbatlarining keskin tebranishi valyuta bozorlari faoliyatini qiyinlashtiradi. Valyuta bozorlarining mexanizmi valyuta chayqovi uchun sharoit yaratib beradi, chunki ushbu mexanizm valyutaga haqiqatda ega bo‘lmagan holda bitimlarni amalga oshirish imkonini beradi. Valyuta operatsiyalari natijasida “qaynoq pullar”ning stixiyali

harakati, kapitalning “qochib ketishi”, valyuta kurslarining tebranishi kuchayadi. “Valyuta talvasasi” kuchsiz valyutalarga salbiy ta’sir etadi, ayrim mamlakatlarning valyuta-iqtisodiy holati, jahon iqtisodiyoti va valyuta tizimining barqarorsizligini oshiradi. Valyuta bozorlarining stixiyali faoliyati oqibatida og‘irlashayotgan valyuta qiyinchiliklari mamlakatlar iqtisodiy siyosatiga ma’lum bir ta’sir ko‘rsatadi va iqtisodiyotni muvofiqlashtirish yuzasidan ularning o‘zaro kelishilgan xatti-harakatlarining muhim muammosi bo‘lib hisoblanadi.

### **7.3. Tijorat banklarining valyuta operasiyalari**

Valyuta – jahon bozorida, davlatlar orasida pul vazifalarini bajaruvchi, davlatlarni milliy pul birliklari. Masalan, Amerika ko‘shma Shtatlarini «dollarri», Buyuk Britaniya «funt serlingi», Kanada «dollarri», Fransiya «franki», Germaniya «markasi» va shu kabilar. Mazkur dalatlar milliy pul birliklari o‘zlarida, har biri uchun, milliy valyuta hisoblanadi. Muayyan bir davlat ichki bozoriga nisbatan olingan boshqa davlatlarning milliy valyutalari xorijiy valyutalar deb ataladi. Masalan, AQSH dollarri, Buyuk Britaniya funt serlingi, Germaniya markasi, Shvetsariya franki va boshqa shu kabi erkin muomalada yuradigan valyutalar O‘zbekiston Respublikasida xorijiy valyutalar bo‘ladi. O‘z navbatida, O‘zbekiston «so‘m»i bu davlatlar uchun xorijiy valyuta bo‘ladi.

Rus iqtisodchi olimi V.S. Safonovning ta’rifiga ko‘ra, “currency” atamasi banknotalar va tangalar ko‘rinishidagi pullar ma’nosini anglatadi. Xorijiy valyuta uchun foreign currency atamasi ishlataladi. Jahon valyuta bozori – bu foreign currency yexchange market dir, yoki oddiy qilib aytganda, FOREX.

Valyutalarning turli klassifikatsiyasi mavjud bo‘lib, asosan ularni uch guruhga ajratishadi.

Bular jahon valyuta bozorining barcha segmentlarida hech qanday cheklovlarsiz amal qiladigan valyutalardir. Ular cheklanmagan miqdorda va turli joriy va muddatli bitimlar

bo‘yicha to‘liq konvertirlana oladilar.

Bunday turdag'i valyutalar ichida katta beshlikni ajratib ko‘rsatish lozim. Ularga AQSh dollari (USD), Yevro (EUR), Shvetsariya franki (CHF), Yaponiya iyenasi (JPY) va Angliya funti (GBP) kiradi.

Asosiy valyutalarga, shuningdek, Kanada dollari (CAN) va boshqa bir nechta valyutalar (masalan, Avstraliya dollari AUD) ham kiritiladi.

Valyutalarning mazkur sirasiga Irlandiya, Singapur, Gretsya, Shvetsiya, Daniya, Oman, Quvayt, Hindiston kabi davlatlar valyutalari kiritiladi.

Bu valyutalar bo‘yicha doimo kotirovkalar mavjud, biroq ba’zida operatsiyalar miqyosi, muddatli bitimlar bozori bo‘yicha (agar u umuman mavjud bo‘lsa) katta cheklov larning bo‘lishi ehtimoli bor; shuningdek, muayyan davlatlar tomonidan ularning keng savdosiga qarshi qonuniy cheklovlar ham o‘rnataladi. Mazkur guruhga Indoneziya, Tailand, Gonkong, Malayziya, Vietnam, Fillipin kabi mamlakatlar valyutalarini kiritish mumkin.

Hozirgi kunda yangi paydo bo‘luvchi bozorlar valyutalari ham yuzaga keldi. Bular Chexiya, Slovakiya, Polsha, Rossiya, Janubiy Amerika va JAR mamlakatlari pul birliklaridir.

2016-yilda ham valyuta siyosati inflyatsiyaning maqsadli ko‘rsatkichlarini inobatga olgan holda mahalliy ishlab chiqaruvchilarning tashqi va ichki bozorlardagi raqobatbardoshligini mustahkamlash vazifalaridan kelib chiqib yuritildi.

Ushbu maqsadlarga erishishda 2016-yil davomida so‘mning AQSH dollariga nisbatan almashuv kursi bosqichma-bosqich devalvatsiya qilib borildi.

Natijada 2017-yilning 1-yanvar holatiga ko‘ra, milliy valyutaning 2016-yil boshidagi almashuv kursiga nisbatan devalvatsiya darajasi 15 foizni tashkil qilib, so‘mning AQSH dollariga nisbatan rasmiy almashuv kursi 3231,48 so‘m/AQSH dollarini tashkil etdi.

Shuningdek, valyutani tartibga solish va valyuta nazorati sohasiga doir chora-tadbirlar izchillik bilan amalga oshirildi va bu borada asosiy e’tibor eksport operatsiyalari bo‘yicha valyuta

tushumining to‘liq, o‘z vaqtida kelib tushishini ta’minlash hamda vakolatli banklarning valyuta resurslarini ko‘paytirishga qaratildi.

Mamlakatimiz tashqi savdo operatsiyalarining asosiy qismi AQSH dollarida amalga oshirilishini inobatga olib, so‘mning boshqa xorijiy valyutalarga nisbatan almashuv kurslarini belgilashda operatsion mo‘ljal sifatida so‘mning AQSH dollariga nisbatan almashuv kursidan foydalanildi.

Shunga muvofiq, so‘mning AQSH dollaridan tashqari boshqa xorijiy valyutalarga nisbatan almashuv kurslari ushbu valyutalarining tashqi valyuta bozorlaridagi AQSH dollariga nisbatan kurslari dinamikasi va ichki valyuta bozorida so‘mning AQSH dollariga nisbatan almashuv kursi ta’siri ostida shakllandi.

Jahon amaliyotida moliyaviy bozorlar faoliyatida standartlash-tirish xalqaro tashkiloti tomonidan ishlab chiqilgan, lotin tilidagi uchta harfdan iborat valyutalarning quyidagi belgihanishlari qabul qilingan bo‘lib, ular xalqaro va mahalliy amaliyotda keng qo‘llaniladi (ISO 4217 standarti – International Organization for Standardization):

O‘z navbatida, 2016-yilda so‘mning hamkor davlatlar va boshqa asosiy xorijiy valyutalarga nisbatan almashuv kursining qadrsizlanishi mamlakatimiz eksport qiluvchi korxonalari raqobatbardoshligining 2014-2015-yillardagi kuchsizlanishidan keyin tiklanishiga xizmat qildi.

Jahon amaliyotida qabul qilingan tartibga asosan, barcha davlatlarni milliy valyutalari 3 xarf bilan belgilanadi. Bu xarflarni boshidagi 2 tasi mamlakatni, so‘ngi 3 chisi yesa valyuta nomini bildiradi. Masalan, USD – AkSh dollari, ya’ni US – ko‘shma Shtatlar, D – dollar yoki GBP – Buyuk Britaniya funt serlinigi, GB – Buyuk Britaniya, P – (point) funt serling va shu kabi.

Qavslar ichidagi valyutalarning belgihanishi SWIFT tizimi foydalanuvchilari tomonidan qabul qilingan kodirovka bo‘yicha amalga oshiriladi. Qisqacha aytganda, banklar tomonidan foydalaniladigan mazkur axborot tizimi xizmat xabarlarining xavfsiz yetkazilishini ta’minlaydi.

Ba’zi bir davlatlarni milliy pul birliklarini, mazkur davlatlarda

valyuta munosabatlari borasida mavjud va harakatda bo‘lgan qonun qoidalarga asosan, xorijga chiqishi va u yerda muomalada bo‘lishi chegaralanadi. Shunga ko‘ra, muomaladagi valyutalar turli maqomlarga, ya’ni erkin muomalada yuradigan, muomalasi qisman va butunlay cheklangan, yopiq yoki ekzotik valyutalarga bo‘linadi.

Ekzotik valyutalar toifasiga Quvayt «dinori», Grek «draxmasi» va shu kabilar kiradi.

Joriy konversion operatsiyalari uchun spot almashuv kursi qo‘llaniladi. Spot kursi joriy valyuta kursi hisoblanadi va u doimo gazetalar sahifalarida, axborot agentliklari ekranlarida e’lon qilib turiladi.

Bank amaliyotida valyutalar kurslarining quyidagi belgilanshlari amal qiladi: masalan, AQSh dollarining Shvetsariya frankiga nisbatan kursi – USD/ChF kabi, dollarning rublga nisbatan kursi – USD/RUR kabi belgilanadi, va aksincha, yevroning dollarga nisbatan kursi – EUR/USD, funt sterlingning dollarga nisbatan kursi – GBP/USD kabi belgilanadi.

Mazkur belgilanshlarda chap tomonda kotirovka asosi (baza valyutasi yoki asosiy savdolanadigan valyuta), o‘ng tomonda kotirovka valyutasi yoki kotirovkalanadigan valyuta (shu jumladan, kontrvalyuta atamasi ham qo‘llaniladi) turadi:

Bu yozuv bir birlik baza valyutasiga nisbatan kotirovkalanadigan valyutaning mos keladigan miqdorini anglatadi (ya’ni 1 Amerika dollari uchun 1,7525 Shvetsariya franki).

Nominal almashuv kursi – Markaziy bank tomonidan valyuta bozorini tartibga solish borasida olib borilgan chora-tadbirlar natijasida so‘mning almashuv kursi belgilangan maqsadli koridor doirasida bo‘ldi. 2008 yilda AQSh dollarining so‘mdagi nominal qiymati yil boshidagi 1290 so‘mdan 1393 so‘mga yetdi.

Kross-kurs (cross-rates) bu – ikki valyuta o‘rtasidagi ayirboshlash kursidir, AQSh dollari bundan mustasno. Kross-kurs bo‘yicha eng faol konversion operatsiyalar bozoriga yapon iynenasiga nisbatan yevro UR□JPY, yevroga nisbatan funt sterling

UR $\square$ GBP, Shveysariya frankiga nisbatan yevro UR $\square$ ChF va boshqa valyutalar kurslari kiradi. Kross-kurslarga, shuningdek, rublning (dollardan tashqari) boshqa valyutalarga nisbatan kurslarini YeUR $\square$ RUR, GBP $\square$ RUR ham kiritish mumkin. Savdo hajmi uncha katta bo‘lmagan valyutalar bo‘yicha kross-kursslarni yaxlit tarzda olish ba’zida mushkul bo‘ladi, bunday vaziyatda bitimlarni AQSH dollari orqali amalga oshirish qo‘l keladi. Umuman olganda, kross-kursslар bilan bo‘ladigan savdo hajmi salmoqli miqyosga ega emas va ularning ulushi 10% ni tashkil qiladi, dollardagi kotirovkalar bo‘yicha aylanmalarining ulushi esa mos ravishda 90% dan iborat.

Kross-kursslarning xususiyatli jihatlaridan biri shundaki, valyutalar o‘rtasidagi kursslarning kotirovkasi qaysi bank kotirovkani o‘tkazishiga qarab turlicha bo‘lishi mumkin. Aytaylik, funt sterling va yapon iyenasi o‘rtasidagi kross-kurs uning Britaniya banki yoki Yaponiya banki kotirovkalashiga qarab turlicha bo‘ladi. Masalan, Londonda Barclays Bank funtning iyenaga nisbatan to‘g‘ri kotirovkasini 100 iyena uchun JPY/GBP = 0,5990 funt ko‘rinishida amalga oshirishi mumkin, shu bilan bir vaqtida Tokiodagi bank 1 funt sterling uchun GBP/JPY = 166,94 iyena ko‘rinishida iyenaning funtga nisbatan to‘g‘ri kotirovkasini beradi.

Jahonning asosiy kross-kursslari Reyter WX= agentligining sahifalarida to‘g‘ri va teskari kotirovkalar ko‘rinishida taqdim qilinadi va doimiy ravishda avtomatik tarzda bir necha daqiqada joriy to‘g‘ri dollar kursi assosida yangilanib turadi.

Valyuta kursslari kotirovkasi to‘g‘ri va teskari turlarga bo‘linadi.

To‘g‘ri kotirovka – bir birlik xorijiy valyuta uchun zarur bo‘ladigan milliy valyuta miqdori. Odatda ko‘pincha valyutalar Amerika dollari bilan solishtiriladi: 1 AQSh dollariga to‘g‘ri keladigan milliy valyuta miqdori (bu yerda dollar bazaviy valyuta hisoblanadi). To‘g‘ri kotirovka sifatida jahondagi ko‘pgina valyutalarning dollarga nisbatan kursi rasmiy ravishda

kotirovka qilinadi – USD/ChF, USD/RUR, USD/JPY, USD/CAD va h.k.

Yevro hududiga kiruvchi mamlakatlarning valyutalari ham yevroga almashtirilguniga qadar kurslari dollarga nisbatan to‘g‘ri kotirovka bo‘yicha belgilangan (USD/DEM, USD/FRF, USD/ITL va b.).

Teskari kotirovka – bir birlik milliy valyutada aks ettirilgan xorijiy valyuta miqdori:

$$\text{Teskari kotirovka} = \frac{1}{\text{To'g'ri kotirovka}}$$

Odatda, teskari kotirovkadan kam foydalaniladi.

Funt sterlingning bazaviy valyuta sifatida kotirovkalanishining sababi bu ingliz funtining Britaniya imperiyasi davridan beri asosiy jahon valyutasi bo‘lib kelishidadir. XX asr boshlarida boshqa mamlakatlar, shu jumladan, AQSH ham o‘z valyutalarini funt sterlingga solishtirganlar.

O‘sha davrlardan buyon funt sterlingning dollarga bo‘lgan kursini “telegraf kursi” yoki “keybl” (cable) deb atalib kelingan. Mazkur an’ananing ildizlari shunga borib taqaladiki, XX asr boshlarida birja kotirovkalari, shuningdek, Buyuk Britaniya va AQSH o‘rtasidagi hisob-kitoblar okean tubidan o‘tkazilgan sim (cable) orqali telegraf xabarları vositasida amalga oshirilgan.

Jahon bozorlarida asosiy valyuta juftligi bo‘lib AQSH dollarining yevroga kotirovkasi hisoblanadi, xalqaro muomalada uning ulushi 2001-yilda, taxminan, 30%ni tashkil qilgan. Keyingi o‘rinlarda dollar□iyena (20%), funt sterling□dollar (11%) va dollar□Shveysariya franki (5%) turadi.

#### **7.4. Valyuta munosabatlari va valyuta operatsiyalari**

Valyuta bilan birgalikda, xalqaro valyuta munosabatlari tushunchasi mavjud. Valyuta munosabatlari – bu valyutani jahon

xo‘jaligida funksional amal qilish jarayonida va xhalqaro aloqalar sohasiga xizmat ko‘rsatuvchi o‘ziga xos pul munosabatlarini yig‘indisidir. Valyuta munosabatlari jahon valyuta tizimini asosi bo‘lib xizmat qiladi. Valyuta munosabatlarining ahvoli quyidagilarga bog‘liq bo‘ladi:

- milliy va jahon iqtisodiyotining rivojlanganlik darajasiga;
- siyosiy ahvolga;
- jahon bozorida davlatlar aro munosabatlar borasidagi muammolarga va bunday muammolarning rivojlanish tendensiyalariga.

Jahon valyuta bozoridagi moliyaviy vositachilar nafaqat o‘z mijozlarini topshiriqlariga muvofiq, balki o‘z tashabbuslari bilan va o‘z manfaatlarida ham operatsiyalarni amalga oshiradilar.

Valyuta munosabatlarining paydo bo‘lishi, o‘zgartirilishi yoki tugatilishining huquqiy asoslari bo‘lib, xalqaro kelishuvlar va davlatning ichki qonun va qoidalari hisoblanadi.

“Bugungi zamonaviy holatlarda banklar faoliyatda uchrashi kuzatilayotgan holatlardan biri – bu valyuta operatsiyalari bilan bog‘liq risklarni tashqi iqtisodiy ko‘rsatgichlar bilan uzviy bog‘liqligidir”, deb ukrainalik olimalar o‘zlarining iqtisodiy tahlillarida keltirib o‘tganlar.

Valyuta munosabatlarining ahvoli quyidagilarga bog‘liq bo‘ladi:

- milliy va jaxon iqtisodiyotining rivojlanganlik darajasiga;
- jaxon bozorida davlatlararo munosabatlar borasidagi muammolarga va bunda muammolarning rivojlanish tendensiyalariga.

Valyuta munosabatlarining asosiy ishtirokchilari sifatida xalqaro moliyaviy tashkilotlar, davlatlar, davlatlarning rezident va nerezident shaxslari maydonga chiqadi.

Rezident shaxslar – bu muayyan davlat hududida yashayotgan va faoliyat ko‘rsatayotgan hamda shu davlatning fuqarosi bo‘lgan yuridik va jismoniy shaxslardir.


Nerezident shaxslar – bu muayyan davlat xududida

yashayotgan va faoliyat ko‘rsatayotgan, lekin shu davlatning fuqarosi bo‘lmagan yuridik va jismoniy shaxslardir. Masalan, elchixonalar, vakolatxonalar, chet el firma va kompaniyalarining filiallari va shu kabilar.

Tovarlar, xizmatlar, kapital va ish kuchining bir mamlakatdan boshqa mamlakatga pul oqimi yordamida o‘tishi bu harakatlarni yo‘lga qo‘yish va tartibga solishni taqozo yetdi.

Tarixan oldin xalqaro huquq me’yorlarini hisobga olgan, milliy qonunchilik bilan mustahkamlangan milliy valyuta tizimlari vujudga kelgan. Milliy valyuta tizimi nisbatan mustaqil bo‘lib, milliy chegaradan chiqsa ham, mamlakat pul tizimining tarkibiy qismi hisoblanadi.(1-chizma).

### **Valyuta munosabatlarini tartibga solish darajalari**



Milliy valyuta tizimi valyuta munosabatlarini tashkil etishning halqaro kelishuvlar bilan mustahkamlangan shakli, ya’ni jahon valyuta tizimi bilan uzviy bog‘liqdir. Xalqaro valyuta tizimi XIX asrning o‘rtalariga kelib shakllangan. Jahon valyuta tizimi faoliyatining xususiyati va barqarorligi, uning tamoyillari jahon

xo‘jaligining tarkibiga, kuchlar nisbati va ilg‘or mamlakatlar manfaatlariga qanchalik to‘g‘ri kelishiga bog‘liq bo‘ladi. Bu shartlar o‘zgarishi bilan jahon valyuta tizimining davriy inqirozi vujudga kelib, uning barbod bo‘lishi va yangi valyuta tizimining hosil bo‘lishi bilan yakunlanadi.

Tijorat banklari, milliy, hududiy va jahon valyuta bozorlarida nafaqat o‘z manfaatlari, balki, birinchi navbatda, o‘z mijozlari manfaatlarining himoyachisidir. Jahonning yirik tijorat banklari, o‘z mijozlarining topshiriqlarini yaxshi bajarish, ularning moliyaviy manfaatlarini himoya qilish va o‘z tijorat maqsadlarida jahon moliya bozorining yirik markazlarida o‘z filiallarini ochganlar.

Tijorat banklarining o‘zlarida va mijozlarida turli sabablarga ko‘ra hamda turli maqsadlarda xorijiy valyutaga extiyoj paydo bo‘ladi.

Konversion operatsiyalar – bu valyuta bozori agentlarining bir mamlakat valyuta birligining boshqa mamlakat valyutasiga kelishilgan kurs asosida o‘zaro kelishilgan summalarga muayyan muddatlarga hisoblangan holda ayrboshlashdan iborat bitimlaridir.

Yuridik jihatdan konversion operatsiyalar valyutalar oldisotdisi bitimlari hisoblanadi.

Ingliz tilida konversion operatsiyalarga nisbatan Foreign Exchange Operations (qisqacha forex yoki FX) atamasi qabul qilingan.

Konversion operatsiyalar muddatlariga qarab 2 guruhga ajratiladi:

- Spot turidagi operatsiyalar, yoki joriy konversion operatsiyalar;
- Forvard yoki muddatli konversion operatsiyalar.

Ikki guruh konversion operatsiyalar o‘rtasidagi farq valyutalash sanasida mujassamlashgan. Xalqaro amaliyotda qabul qilinishi bo‘yicha, joriy konversion operatsiyalar spot shartlari asosida, ya’ni bitim tuzilgan kundan keyingi 2-ish kuniga valyutalash sanasi bilan amalga oshiriladi. Joriy konversion

operatsiyalar xalqaro bozori spot-bozor (spot market) deb yuritiladi.

Bitim kontragentlari uchun spot hisob-kitoblari shartlari juda qulaydir: joriy va keyingi kun davomida zarur hujjatlarni ko‘rib chiqish, bitim shartlarini bajarish uchun kerak bo‘lgan to‘lov topshiriqnomalarini rasmiylashtirib olish mumkin.

Rossiyada va bir qator rivojlanayotgan mamlakatlarda konversion operatsiyalar bo‘yicha hisob-kitoblarni olib borishning o‘ziga xos amaliyoti qo‘llaniladi. Dollar rubl bozorida joriy (yoki kassa atamasi qo‘llaniladi) bitimlar “bugun” (today), “ertaga” (tomorrow) va kam hollarda spot valyutalash sanalari bilan tuziladi. “Bugun” valyutalash sanasi bilan tuziladigan bitimlar butun ish kuni davomida tuzilishi mumkin, chunki kech kirgunga qadar dollarda va rublda naqdsiz pul o‘tkazmalarini amalga oshirish mumkin (Nyu-York bilan Moskva o‘rtasida sakkiz soatlik farq mavjudligi sababli tugash vaqtini Moskvada kechqurunga to‘g‘ri keladi).

Shunday qilib, jahon amaliyotidan farqli ravishda Rossiya valyuta bozorida “bugun” valyutalash sanasi bilan bo‘ladigan bitimlarni dollar rubl joriy konversion operatsiyalari guruhiга kiritiladi.

Dollarning Kanada dollari bilan bo‘ladigan joriy konversiyalari (USD↔CAD) uchun valyutalash sanasi ertangi kun hisoblanadi (value tomorrow), chunki AQSh va Kanada hududiy jihatdan bir-biriga yaqin joylashgan. Bir qator “ekzotik” valyutalar uchun ham shu xususiyat xosdir.

Forward (muddatli) operatsiyalari (FX forward operations yoki qisqacha FWD) – bu valyutalarni avvaldan kelishilgan kurs bo‘yicha ayirboshlash bitimlaridir, bu bitimlar bugun tuziladi, biroq valyutalash sanasi (ya’ni shartnomaning bajarilishi) kelajakdagi muayyan sanaga qoldirilgan bo‘ladi.

Svop (ingl. “swap”, “swop”) – almashuv, almashtirish ma’nosini bildiradi. Svop operatsiyasi – bu hisob-kitob sanalari turlicha bo‘lgan, taxminan teng hajmdagi xorijiy valyutaning bir vaqtning o‘zida sotilishi va sotib olinishidir. Svop valyuta

operatsiyasi, valyutaning “spot” shartlari asosida, milliy valyuta evaziga sotib olinishi va keyinchalik uni qayta sotilishini ko‘zda tutadi. Demak, svop operatsiyasi – bu valyutaning miqdor jihatidan teng summalarga, ular bo‘yicha hisob-kitoblarni turli sanalarda amalga oshirish sharti bilan, bir vaqtning o‘zida sotib olinishi va sotilishidir. Qisqacha aytganda, svop bu, valyutani so‘nggi sotuv kafolati bilan vaqtinchalik sotib olishdir.

Amaliyotda svop, bir vaqtning o‘zida valyuta almashuvi bilan bog‘liq ikki alohida kontraktning imzolanishini ko‘zda tutadi. Bu shartnomalar qarama-qarshi yo‘nalishlar va turli hisob-kitob sanalariga ega. Mazkur shartnomalarning biri bo‘yicha birinchi valyuta ikkinchi valyuta hisobiga, ma’lum bir sanada yetkazib berish sharti bilan sotib olinadi. Ikkinci shartnoma bo‘yicha esa birinchi valyuta ikkinchi valyutaga, boshqa sanada yetkazib berish sharti bilan sotib yuboriladi.

Svop valyuta operatsiyalarini ko‘p hollarda banklar amalga oshiradi. Bunda ikki bank o‘rtasida ikki valyuta bilan almashuv ma’lum bir davrda bo‘lib, shartnoma oxirida dastlabki valyutalar banklarga qaytariladi. Valyutalar bilan almashuv bir vaqtning o‘zida tuziladigan, ammo valyutalarni turli sanalarda yetkazib berilishi ko‘zda tutilgan ikki qarama-qarshi shartnoma shaklida amalga oshiriladi: “spot” bir shartnoma bo‘yicha va “forward” boshqa shartnoma bo‘yicha. Buning natijasida ikkala bank ham “spot” shartlari asosida sotib olingan valyutani, to u “forward” shartlari asosida sotilgunga qadar o‘z ixtiyoriga oladi.

Valyuta svopi (Foreign exchange swap) – bu bir xil summadagi va turli valyutalash sanalaridagi ikki qarama-qarshi konversion bitimlarning kombinatsiyasidir. Svopda muddati eng yaqin bo‘lgan bitimning bajarilish sanasi valyutalash sanasi hisoblanadi, chunonchi, uzoq muddatdagi qarama-qarshi bitimning bajarilish sanasi yesa svopning yakunlanish sanasi bo‘ladi. Valyuta svopi bitimlarining katta qismi 1 yilgacha bo‘lgan muddatga tuziladi.

Riskli pozitsiyalarni ochishni nazarda tutadigan arbitraj operatsiyalardan farqli o‘laroq, bir qator konversion operatsiyalar

bank hisobidan emas, balki mijoz hisobidan va uning talabi bilan amalga oshiriladi, bular mijoz konversiyalaridir. Mijoz konversiyalarini amalga oshirish tartibi ikki – ichki va tashqi konversiyani o‘tkazishni nazarda tutadi.

### Xalqaro valyuta qonunchiligi. O‘zbekiston Respublikasi valyuta qonunchiligi.

Har qanday davlatda valyuta munosabatlari davlat tomonidan tartibga solinadi. Bunday tartibga solish, albatta, turli qonunlar yordamida amalga oshadi. Masalan, O‘zbekiston Respublikasi hududida valyuta munosabatlarini tartibga solish maqsadida 2003-yilda «O‘zbekiston Respublikasi xududida valyuta munosabatlarini tartibga solish qonuni» va 1994-yil oktabr oyida «So‘mni ichki konvertatsiyasi haqida qonun» qabul qilingan. Bundan tashqari, mazkur qonunlar harakatidan kelib chiqqan holda, tijorat banklari, jismoniy shaxslar va xo‘jalik yurituvchi subyektlarni tashki iqtisodiy faoliyatini tartibga soluvchi O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining bir qator me’yoriy hujjatlari va yo‘riqnomalari mavjud.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1994-yil 11-aprelda qabul qilingan “Pul muomalasini mustahkamlash va so‘m-kupon xarid qobiliyatini oshirishning kechiktirib bo‘lmaydigan chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori pul muomalasini barqarorlashtirish, so‘mning xarid qobiliyatini oshirish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishda muhim tadbir bo‘ldi. Ushbu qarorga muvofiq, 1994-yil 15-apreldan boshlab O‘zbekiston Respublikasi hududida Rossiya banki banknotalarining muomalada bo‘lishi hamda yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan turli to‘lov larga qabul qilinishi ta’qiqlab qo‘yildi.

Respublika hukumati tomonidan ko‘rilgan choralar natijasida pul muomalasi va iste’mol bozoridagi salbiy jarayonlar to‘xtatildi, to‘liq qiymatli milliy valyutani joriy etish uchun sharoitlar yaratildi.

Valyuta jarayonlarini tartibga solish, valyuta chegaralanishlarini va soliqlarni hisobga olmagan holda, zamonaviy sharoitda valyuta kurslarini tartibga solish bilan bog‘liq bo‘lib

qolgan.

Har qanday davlatda pul tizimi bo‘lganligi sababli, valyuta tizimi ham mavjud. Valyuta tizimi – bu, davlatlar aro kelishuvlar va shartnomalar bilan belgilanadigan xalqaro valyuta munosabatlarni tashkil etishni davlat-huuqiy shaklidir (Berjanov S.A.). Yoki, valyuta tizimi – bu xo‘jalik aloqalari baynalmilallashuvi asosida tarixan shakllangan valyuta muomalasi bilan bog‘liq iqtisodiy munosabatlar yig‘indisidir. Valyuta tizimining mohiyati, tashkiliy shakllari va roli jamiyatning iqtisodiy tizimi bilan belgilanadi.

#### Tijorat banklari tomonidan valyuta operatsiyalarini o‘tkazish tartibi.

Har qanday tashqi iqtisodiy faoliyatda moliya-valyuta operatsiyalarini o‘tkazishga litsenziyalar asosan Moliya vazirligi va Markaziy bank tomonidan mamlakatimizdagi va xorijiy banklarga, moliya muassasalariga beriladi. Ular moliya-kredit muassasalariga mamlakat ichida va uning tashqarisida chet el valyutasi bilan operatsiyalarni amalga oshirish, xorijiy moliya-kredit muassasalariga esa ichki bozorda yuridik va jismoniy shaxslarga xizmat ko‘rsatish huquqini beradi.

Har qanday tashqi iqtisodiy bitim valyuta ayirboshlash va valyuta operatsiyalari orqali amalga oshiriladi. Olish - sotish bitimi hisoblanar ekan, demak, mamlakatning jahon bozoridagi faoliyati natijalari provardida xorijiy valyuta tushumlari va xarajatlarida ifodalanadi. Shuning uchun ham to‘lov balansi – u bir tomonida chetdan barcha tushumlar, ikkinchi tomonida esa, chetga chiqaradigan barcha to‘lovlar ko‘rsatilgan hujjatdir.

Valyuta operatsiyalarini o‘tkazishda banklar turli risklarga duch keladilar. Birinchi navbatda, ular alohida valyuta bo‘yicha qoplanmagan bitimlar, ya’ni uzun va qisqa pozitsiyalar bilan bog‘liq bo‘ladi. Bo‘lishi mumkin bo‘lgan risklardan chetlanish maqsadida davlat valyuta operatsiyalari ustidan nazorat o‘rnatadi va ularni tartibga soladi. Buning zaruriyati valyuta operatsiyalaridan bo‘lgan yo‘qotishlar tufayli bir necha yirik banklarning bankrotlikka uchrashidan kelib chiqdi.

Valyuta munosabatlarini tartibga solishni har bir mamlakat o‘ziga xos yondashuvni qo‘llab, uni o‘z iqtisodiy manfaatlariga moslashtiradi.

Valyuta- kredit va moliya siyosatlari shaklidagi davlatlararo miqyosda tartibga solish quyidagi sabablardan kelib chiqadi:

1. Milliy iqtisodiyotlarning (valyuta-kredit va moliya munosabatlarini hisobga olgan holda) o‘zaro bog‘liqligining kuchayishi;

2. Xo‘jalik munosabatlarining erkinlashuvi sharoitida bozor va davlat tomonidan tartibga solish o‘rtasidagi nisbatning bozor foydasiga o‘zgarishi; Juhon maydonida kuchlar nisbatining o‘zgarishi, AQSHning mutlaq rahbarligi, hamkorlik va raqobatchilikning uch markazi (AQSH, g‘arbiy Yevropa va Yaponiya)ning hukmronligi bilan almashdi. Bundan tashqari, yosh raqobatchilar – yangi sanoat (industrial) davlatlar vujudga keldi.

3. Juhon valyuta – kredit va moliya bozorlarining yirik masshtablari. Bu bozorlar valyuta kurslari va foiz stavkalarining tebranishlari, neftga oid davriy shoklar; birja, Tijorat banklarining kredit-depozit valyuta operatsiyalari – bu erkin pul mablag‘larini joylashtirish, shuningdek, turli muddatlarda muayyan foiz asosida xorijiy valyutalarda yetishmaydigan mablag‘larni jalb qilish bo‘yicha qisqa muddatli (1 kundan 1 yilgacha) operatsiyalarning yig‘indisidir. Mazkur operatsiyalar banklar va kompaniyalarning qisqa muddali likvidligini ta’minlaydi va daromad olish maqsadiga xizmat qiladi.

Ingliz tilida bunday operatsiyalar bir atama bilan pul bozori operatsiyalari (Money Market Operations, yoki qisqacha MM) deb nomlanadi.

Pul bozori operatsiyalarida quyidagi bitim turlari farqlanadi:

- Mablag‘larni joylashtirish bo‘yicha – xorijiy valyutada kreditlash. Unga kreditlar mos keladi;

- Mablag‘larni jalb qilish bo‘yicha – xorijiy valyutada qarz olish. Unga depozitlar to‘g‘ri keladi.

- Real xalqaro va mahalliy amaliyotda pul bozorining banklararo ssuda operatsiyalarida «depozitlar» atamasi ishlataladiki, ular quyidagilarga bo‘linadi:

- Jalb qilingan depozitlar va
- Joylashtirilgan depozitlar.
- Rossiyada ko‘proq «banklararo kreditlar» atamasi ishlatiladi. qisqacha tarzda depozitlar DEPO yoki DP kabi belgilanishi mumkin.

Har bir kredit vaqt bo‘yicha muayyan muddat yoki davomiylikka egadir. Kreditni joylashtirish (yoki jalg qilish) sanasi – valyutalash sanasi, qaytarilish sanasi esa kreditning tugashi deb nomlanadi.

Muddatlari bo‘yicha depozitlarning 3 ko‘rinishi farqlanadi:

Talab qilib olgunga qadar depozitlar – mablag‘lar bankka noaniq muddatga joylashtiriladi. Biroq depozitning qaytarilishi (yoki summasining kamaytirilishi) uchun avvaldan (24 soat avval, 2 kun oldin va h.k.) xabar berish lozimligi sharti mavjud. Onkol depozitlar uchun pasaytirilgan suzib yuruvchi foiz stavkasi xususiyatlidir, u muayyan davr asosida (masalan, har hafta) ikki tomonning roziligi bilan o‘rnataladi;

- Qisqa muddatli bir kunlik depozitlar. Ularga «overnayt», «tom-nekst», «spot-nekst» tipidagi bir kunlik depozitlar kiradi. Mazkur depozit turlaridan banklarning NOSTRO schyotlari bo‘yicha qisqa muddatli likvidligini tartibga solishda foydalilaniladi.

- Qat’iy belgilangan muddatlardagi depozitlar. Odatda, depozitlar standart muddatlarga 7 kun (1 hafta), 1, 2, 3, 6 oy va 1 yilga joylashtiriladi. Bu muddatlar «to‘g‘ri sanalar» (“straight dates”) nomini olgan. Amaliyotda depozit muddatini spot sanasidan hisoblash qabul qilingan, biroq ba’zida «ertaga» (from tomorrow), yoki hattoki «bugun» (from today) valyutalash sanasi sharti asosida joylashtiriladigan depozitlar ham uchraydi, masalan: ertadan bir haftalik depozit «tom-uik» (t/w).

Valyutalash sanasining tanlanishi quyidagilarga bog‘liqdir:

- depozit valyutasi;
- joylashtirish vaqt;
- depozit valyutasi davlati va bank o‘rtasidagi soatlar farqi.

Foizlarni hisoblashda yildagi kunlar miqdoriga qarab 2 uslub

farqlanadi:

- Xalqaro uslub, unda yildagi kunlar miqdori 360 kunga teng deb olinadi;
- Britaniyalik uslub, unga ko‘ra bir yildagi kunlar soni 365 (kabisa yilida 366) kunga teng.

Mazkur uslubdan quyidagi valyutalar uchun hisob-kitoblarni bajarishda foydalaniladi: funt sterling (GBP), Singapur dollari (SGD), Janubiy Afrika rendi (ZAR) va gohida yevro.

Xalqaro amaliyotda foiz stavkasining 2 xil belgilanishi mavjud:

O‘nlik kasr soni ko‘rinishida: masalan, 5.23% / 0.0523. Bu yerda o‘n mingdan bir ulush bir foizlik yoki baza punktini tashkil qiladi. Yuz baza punktlari bir foizga teng.

Oddiy kasr ko‘rinishida: masalan, 4-3/4%. Oddiy kasr ko‘rinishidagi foiz 1/2 dan boshlanadi va kasrning kamayib borishiga qarab 1/64 gacha borishi mumkin. Biroq xalqaro pul bozorlarida foiz stavkalarining 1/2 dan 1/16 ulushigacha bo‘lgan kotirovkalari keng tarqalgan.

Odatda, depozitlarning foiz stavkasi ikki tomonlama kotirovka ko‘rinishida beriladi, masalan:

USD week =	1	BID	OFFER
		5,75	5,93

Bu yerda bid – kotirovkaning chap tomoni – jalb qilish stavkasi. Bid stavkasi bo‘yicha kotirovkani amalga oshiruvchi bank mazkur davrda depozitga mablag‘larni jalb qiladi; Offer (yoki ask) – kotirovkaning o‘ng tomoni – joylashtirish stavkasi. Offer stavkasi bo‘yicha kotirovkani amalga oshiruvchi bank mazkur davr uchun pul mablag‘larini joylashtirishni taklif qiladi.

Ikkala usul ham bir xil ahamiyatga ega va butun dunyodagi valyuta dilerlari tomonidan foydalaniladi.

Konversion operatsiyalar – bu valyuta bozori agentlarining bir mamlakat valyuta birligining boshqa mamlakat valyutasiga

kelishilgan kurs asosida o‘zaro kelishilgan summalarga muayyan muddatlarga hisoblangan holda ayirboshlashdan iborat bitimlaridir.

Yuridik jihatdan konversion operatsiyalar valyutalar oldisotdisi bitimlari hisoblanadi.

Ingliz tilida konversion operatsiyalarga nisbatan Foreign Exchange Operations (qisqacha forex yoki FX) atamasi qabul qilingan.

Konversion operatsiyalar muddatlariga qarab 2 guruhga ajratiladi:

- Spot turidagi operatsiyalar, yoki joriy konversion operatsiyalar;
- Forward yoki muddatli konversion operatsiyalar.

Ikki guruh konversion operatsiyalar o‘rtasidagi farq valyutalash sanasida mujassamlashgan. Xalqaro amaliyotda qabul qilinishi bo‘yicha, joriy konversion operatsiyalar spot shartlari asosida, ya’ni bitim tuzilgan kundan keyingi 2- ish kuniga valyutalash sanasi bilan amalga oshiriladi. Joriy konversion operatsiyalar xalqaro bozori spot-bozor deb yuritiladi.

Bitim kontragentlari uchun spot hisob-kitoblari shartlari juda qulaydir: joriy va keyingi kun davomida zarur hujjatlarni ko‘rib chiqish, bitim shartlarini bajarish uchun kerak bo‘lgan to‘lov topshiriqnomalarini rasmiylashtirib olish mumkin.

Joriy konversion operatsiyalari uchun spot almashuv kursi qo‘llaniladi. Spot kursi joriy valyuta kursi hisoblanadi va u doimo gazetalar sahifalarida, axborot agentliklari ekranlarida e’lon qilib turiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki milliy valyutaning xorijiy valyutalarga nisbatan kursining o‘zgarashi natijasida yuzaga keladigan valyuta riskini tartibga solish maqsadida vakolatli banklar uchun ochiq valyuta pozitsiyalarining limitlarini belgilaydi. Jumladan, har qanday xorijiy valyutaning bir turi bo‘yicha ochiq valyuta pozitsiyasining limiti har bir operatsion kun yakunida vakolatli bank regulyativ kapitalining 10% idan ortmasligi kerak. Har bir operatsion kun yakunida ochiq valyuta

pozitsiyalarining umumiy qiymati bank regulyativ kapitalining 20% idan oshib ketmasligi lozim.

### Xedjerlash va uning valyuta munosabatlarini tashkil qilishdagi roli.

70-yillarning boshidan barcha davlatlarning erkin suzadigan kurslar rejimiga o‘tishi, tashqi iqtisodiy munosabatlar sohasida sezilarli salbiy oqibatlarga olib keldi. Boshqacha qilib aytganda, jahon bozorida valyuta kurslarlarining erkin suzishi sharoitida iqtisodiy muvozanatsizlik kuchaydi.

Valyuta tavakkalchiligi deganda, keng ma’noda, valyuta kurslarining tebranishi oqibatida tashqi iqtisodiy operatsiyalar natijalarini va tashqi iqtisodiy munosabatlar ishtirokchilari bo‘lmish xo‘jaliklar faoliyatları natijasining o‘zgarish extimoli tushuniladi. Valyuta tavakkalchiligi ta’siri ostiga tashqi iqtisodiy munosabatlarning barcha subyektlari tushadi: davlat, banklar, savdo va sanoat kompaniyalari, boshqa yuridik va jismoniy shaxslar.

Valyuta kurslarining muvozanatsizligi xalqaro mexnat taqsimotiga salbiy ta’sir etadi, tovarlar va xizmatlar ekvivalent almashuvini qiyinlashtiradi, xalqaro savdo balansiga va hajmiga salbiy ta’sir etadi.

Valyuta kurslarining muvozanatsizligi importyor va eksportyrlarni o‘zlarining xorijdan sotib olish va xorijga sotish operatsiyalarini qisqartirishga majbur qiladi. Chunki, importyor va yeksportyorlar valyutalarning yaqin vaqt ichidagi dinamikasini oldindan bila olmaydilar. Shuning uchun, masalan, importyor ma’lum bir tovari o‘zini valyuta xavf-xatariga qo‘yib, chet davlatdan sotib olganidan ko‘ra, o‘z mamlakatida shunday ishlab chiqarilayotgan tovari sotib olmog‘i afzalroqdir.

To‘lovi kelgusida amalga oshishi ko‘zda tutilgan, shartnoma tuzilish paytida ma’lum bir summada qayd etilgan har qanday kredit operatsiyasi, shartnoma valyutasi ishtirokchi uchun xorijiy bo‘lgan tarafning valyuta xavf-xatariga chalinadi Kreditor, o‘zining xorijlik kontragentlariga kreditni bergen holda, qiymatni ekvivalent miqdorda ololmaslik xavf-xatariga uchraydi. Qarz

oluvchi ham, agarda to‘lov paytida qarz valyutasining kursi shartnoma tuzilgan sanaga nisbatan ko‘tarilsa, zarar ko‘rishi mumkin.

Eksportyor va importyorlar, valyuta tavakkalchiligi bilan, tashqi savdo operatsiyalarini amalga oshirganda to‘qnashadilar. Eksportyor, agarda u tovarlarni to‘lovi kechiktirilgan holda sotgan bo‘lsa, va baho valyutasi sifatida importyor valyutasi yoki uchinchi davlat valyutasi olingan bo‘lsa, valyuta riskiga duchor bo‘ladi. Agarda, baxo valyutasining kursi eksportyor milliy valyutasiga nisbatan pasaysa, unda eksportyor zarar ko‘rishi mumkin.

Shunday qilib, eksportyor uchun valyuta xavf-xatari bo‘lib, shartnomaning tuzilishidan to ijro etilgunga qadar davr ichida, baho valyutasi kursining milliy valyutaga nisbatan pasayishi hisoblanadi. Demak, valyuta tavakkalchiligi barcha tashqi iqtisodiy aloqalar bilan bog‘liq shartnomalarga ta’sir etadi.

Importyor uchun valyuta tavakkalchiliklari quyidagi holatlarda vujudga keladi: agarda, tovarlar, bahosi chet el valyutasida qat’iy belgilanib sotib olinayotgan bo‘lsa. Bunda, agar chet yel valyutasining kursi importyor valyutasiga nisbatan ko‘tarilsa, unda importyor tomonidan sotib olingan tovarlar uchun haq to‘lashda, milliy valyutada ko‘proq xarajat qilinishiga to‘g‘ri keladi.

Shunday qilib, ko‘rinib turibdiki, hech bir savdo shartnomai bir kun ichida amalga oshib, u bo‘yicha to‘lov ham bir kun ichida amalga oshmaydi. Shunga ko‘ra, albatta, valyuta tavakkalchiligi shartnoma muddatiga to‘g‘ri proporsional ravishda ortib boradi.

Valyuta arbitraji – bu foyda olish maqsadida valyutalarning oldi-sotdisi bilan bog‘liq operatsiyalardir. Arbitraj 2 shaklda bo‘ladi: a) valyuta arbitraji va b) foiz arbitraji.

Valyuta arbitraji (fransuzcha “arbitrage”) – bu, valyutaning, uning bir vaqtning o‘zida sotilishini hisobga olgan holda, valyuta kurslari farqlari sifatida foyda olish maqsadida, sotib olinishi.

Oddiy valyuta arbitraji – bu bir xorijiy valyuta va o‘zbek so‘mi bilan yoki ikki xorijiy valyutalar bilan amalga oshiriladigan

arbitrajdir.

Murakkab valyuta arbitraji – bu, ko‘p turdagи valyutalar bilan amalga oshiriladigan arbitrajdir.

Muvaqqat valyuta arbitraji – bu ma’lum bir vaqt davomida valyuta kurslarining farqi sifatida foyda olishga qaratilgan operatsiyadir. U o‘z ichiga quyidagi operatsiyalarni oladi:

- valyutaning birinchi spot kursi asosida sotib olinishi;
- depozitning ochilishi;
- valyutaning depozitda saqlanishi;
- valyutaning depozitdan olinishi;
- valyutaning ikkinchi spot kurs asosida sotilishi.

Dilerlar bir oz boshqacha turdagи valyuta arbitrajini amalga oshirishlari ham mumkin. Ular birjada valyutani sotib olib, xorijiy bankka o‘tkazadilar, xorijda bu valyutani naqd shakliga o‘tkazib, qaytib o‘z mamlakatiga olib kiramadilar. O‘z mamlakatida bu valyutani ular ulgurji yoki chakana sotib oluvchilarga, ustiga qo‘srimcha haq qo‘ygan holda, erkin bozor (ko‘cha) bahosida sotishlari mumkin.

Arbitraj ko‘p hollarda, spred shartnomalarining yakuni sifatida maydonga chiqadi. Spred shartnomasi, hamma vaqt, bir vaqtning o‘zida, bir valyutaning sotib olinishi va boshqa bir valyutaning sotilishini ko‘zda tutadi. Bunday valyutalar kurslari, albatta, birgalikda, ammo turli sur’atlarda, ko‘tariladi yoki pasayadi. Bunda, diler bir operatsiyada pul yo‘qotishini va boshqa bir operatsiyada foyda olishini hisobga oladi.

Fazoviy valyuta arbitraji – bu turli valyuta bozorlarida (turli birjalarda), mazkur valyuta kursi farqlari hisobiga foyda olish maqsadida o‘tkaziladigan operatsiyadir. Boshqacha qilib aytganda, bir vaqtning o‘zida, bir birjada valyuta sotib olinadi va boshqa birjada shu valyuta, nisbatan yuqori kursda sotiladi.

Fazoviy valyuta arbitraji o‘z ichiga quyidagi operatsiyalarni oladi:

1. Birinchi spot kursi asosida valyutani sotib olish.
2. Sotib olingan valyutaning boshqa joyga o‘tkazilishi.
3. Valyutaning ikkinchi spot kursi asosida sotilishi.

#### 4. Valyutaning sotilishidan olingan pulni boshqa joyga o‘tkazish.

Foiz arbitraji - bu, turli valyutalar bo‘yicha foizlar farqi sifatida foyda olish maqsadida, xo‘jalik subyektlarining (arbitrajyorlarning) o‘z qisqa muddatli aktivlari va passivlari valyuta tarkibini tartibga solishga qaratilgan valyuta (konversion) va depozit operatsiyalarini o‘zida mujassam etgan shartnomadir. Foiz arbitraji, bu, pul bozorida bir vaqtning o‘zida pullarning ma’lum bir foizga olinishi va nisbatan yuqori foizga kreditga berilishi shaklida keng qo‘llaniladi. Foiz arbitraji ikki shaklda ishlataladi: a)forvardli qoplanish bilan va b)forvardli qoplanishsiz.

Forvardli qoplanish bilan foiz arbitraji – valyutaning spot kursi asosida sotib olinishi, muddatli depozitga joylashtirilishi va shu vaqtning o‘zida forward kursi bo‘yicha sotib yuborilishi. Foiz arbitrajining bu shakli valyuta xavf-xatarlaridan holi. Bu operatsiya bo‘yicha foyda manbayi, forward marjasini xajmi bilan belgilanadigan, valyutalar bo‘yicha foizlar farqi sifatida va valyuta risklarini sug‘urta qilish qiymati hisobiga olinayotgan daromadlar darajalarining farqi xisoblanadi.

Erkin suzuvchi valyuta kurslari sharoitida valyuta kurslarining tebranishi, odatda, turli valyutalar foiz stavkalari orasidagi farqlardan oshib ketadi. Bu esa, forvardli qoplanishsiz foiz arbitrajini o‘tkazayotgan arbitrajyorlarga nafaqat foiz stavkalarining miqdoriga qarashga, balki valyuta kurslarining kutilayotgan o‘zgarishiga qarashga majbur etadi. Bunda, valyuta kurslarining keskin ko‘tarilishi, shartnomani forwardli qoplanishsiz foiz arbitrajiga aylantiradi.

Valyuta chayqovi, lotincha “speculatio” – sinchiklab qidirish, kuzatish ma’nosini beradi. Valyuta chayqovi – bu vaqt davomida valyuta kurslarining o‘zgarishi natijasida yoki valyuta risklarini bilib, o‘ziga qabul qilgan holda turli bozorlarda foyda olish maqsadida o‘tkaziladigan operatsiyadir.

Valyuta chayqoviga, birinchi navbatda, naqdli va naqdsiz valyutalar kurslarining farqiga qilinayotgan o‘yin kiradi. Bunda, so‘mlarga naqdsiz erkin muomalada yuradigan valyuta sotib

olinadi va u naqdli shaklga o‘tkazilib, so‘ng so‘mlarga sotiladi.

### **Nazorat uchun savollar**

1. Valyuta munosabatlari va ularning huquqiy asoslari
2. Valyuta operatsiyalari va ularni boshqarish tartibi
3. Xalqaro moliya va kapital bozori va ularni tahlili
4. Valyuta munosabatlari tizimida banklarning o‘rni.
5. Xalqaro valyuta qonunchiligi.
6. O‘zbekiston Respublikasida valyuta tizimining rivojlanishi
7. Chet el valyutasida kreditlash.
8. Xalqaro hisob-kitoblar va uning respublika tijorat banklari tomonidan ishlatiladigan asosiy shakllari.
9. Bozor iqtisodiyoti sharoitida banklarning valyuta operatsiyalari
10. Banklarning valyuta operatsiyalaridagi valyuta risklari va ularni boshqarish.

## **8-MAVZU: DAVLAT MOLIYASI VA SOLIQQA TORTISH**

### **Reja:**

- 8.1. Davlat moliyasi va soliqlar mohiyati va funksiyasi.
- 8.2. Soliqqa tortish tamoyil va elementlari.
- 8.3. O‘zbekiston Respublikasining soliq tizimi.

### **8.1. Davlat moliyasi va soliqlar mohiyati va funksiyasi**

Soliqlarning paydo bo‘lishi davlatning paydo bo‘lishi bilan bog‘liq bo‘lganligi uchun hamda hozirgi O‘zbekistonda ijtimoiy himoyalangan bozor iqtisodiyoti sharoitida davlat uni tashkilotchisi ekanligidan soliqlar va soliqqa tortish fani davlatning o‘ta zarur bo‘lgan xilma-xil vazifalari bilan chambarchas bog‘liq va ularga asoslanadi. Davlat mamlakatda yaratilgan ijtimoiy mahsulot ishlab chiqarish uni taqsimlashning qonun-qoidalarini ishlab chiqadi. Bu taqsimlashdagi munosabat bozor iqtisodiyoti sharoitida pul orkali amalga oshirilganligidan davlat uni taqsimlashni ham pul munosabatlari orqali, ya’ni soliq, pul va kredit orqali amalga oshiradi. Davlatning bunday faoliyatini o‘rganish – soliqlar va soliqqa tortish fanining diqqat markazida turadi.

Soliqlar va soliqqa tortish fani soliq voqe’liklarini (harakatlarini) chuqur o‘rganish asosida zaruriy xulosalar chiqarib, ularni amaliyotga tadbiq etish yo‘llarini o‘rgatadi.

Soliqlar va soliqqa tortish fani soliq amaliyotidagi eng to‘g‘ri, eng mukammal va eng progressiv voqe’liklarni o‘rganib, amaliyot uchun xuddi bir dasturiy amalday yoritib boradi. Nazariya voqe’liklarni amaliyotdan oladi va yana amaliyotga eng to‘g‘ri, ma’qul va ilg‘or tajribalar olinib amaliyotga yo‘l ko‘rsatish uchun o‘rgatiladi.

Demak, nazariya amaliyot uchun kerak va amaliyot uchun kompas, barometr, yo‘l boshlovchi vazifasini bajaradi. Nazariyasiz amaliyot yo‘ldan adashgan yo‘lovchidir. Nazariyani chuqur bilgan amaliyotchi har qanday o‘zgarishlarda ham ishlab keta oladi va

yo‘ldan adashmaydi.

Soliqlar va soliqqa tortish fanini o‘qitishning zarurligi amaliyotda yo‘ldan adashmaslik, keraksiz soliqlar bo‘yicha o‘zgartishlarga yo‘l qo‘ymaslik, amaliyotda istiqbolli qadamlar tashlash uchun va katta muvaffaqiyatlarga erishish uchun ham zarurdir.

Soliqlarning eng oddiy ta’rifi quyidagicha: Soliqlar aholidan, korxonalar va xo‘jalik yurituvchi boshqa subyektlardan davlat (markaziy va mahalliy hokimiyat organlari) tomonidan undirib olinadigan majburiy to‘lovlardir. Soliq o‘z mohiyat e’tiboriga ko‘ra ijtimoiy mahsulotning (yalpi ichki mahsulotning – YaIM) bir qismi bo‘lib, soliq to‘lovchi bundan biror-bir foyda ko‘rish ko‘rmasligidan qat’i nazar, o‘z mablag‘laridan davlat hisobiga majburiy ajratmalar ko‘rinishida aks etadi.

Soliqlarning mohiyatini tushunishga yordam beruvchi uchta tavsifni keltirib o‘taylik:

1. Soliq to‘lovchi pulning u yoki bu summasini davlatga to‘lar ekan, buning evaziga bevosita biron-bir tovar yoxud xizmat olmaydi. Alovida olingan soliq to‘lovchi tomonidan to‘langan soliq miqdori bilan u iste’mol qiladigan ijtimoiy ne’matlar o‘rtasida to‘g‘ridan to‘g‘ri bog‘liqlik mavjud bo‘lmaydi. Xuddi ana shu xususiyatiga ko‘ra soliq narxdan (tovar yoki xizmatlarni ixtiyoriy iste’mol qilganligi uchun to‘lanadigan haq sifatida) ruxsatnoma (litsenziya)lar va vositachilik yig‘imlaridan farq qiladi, chunki bular majburiy yoki ixtiyoriy to‘lovlar hisoblansada, biroq hamma vaqt hukumat tomonidan ko‘rsatilgan xizmatdan muayyan foyda (naf) ko‘rilishi bilan bog‘liqdir.

2. Soliqlar majburiy to‘lovlar hisoblanadi. Soliqlarning to‘la va o‘z vaqtida to‘lanishi uchun javobgarlik soliq to‘lovchilar zimmasiga yuklangan bo‘lsa-da, ular ixtiyoriy emas, majburiy ravishda to‘laydilar, davlat soliq to‘lashdan bo‘yin tovlaganlarni qattiq jazolaydi.

3. Davlat foydasiga soliq to‘lash orqali daromadning avvaldan belgilab qo‘yilgan, eng muhimi, qonuniy tartibda ko‘zda tutilgan qismi undirib olinadi.

Ko‘pgina davlatlarning, jumladan, O‘zbekistonning ham qonunlarida soliqlarni belgilash va ularning hajmlarini aniqlashga faqat Oliy qonun chiqaruvchi hokimiyat yoki uning tomonidan vakolat berilgan organlar haqlidirlar, deb mustahkamlab qo‘yilgan. O‘zining xohish istagiga qarab yangi soliqlar belgilash yoki ularning hajmlarini aniqlashga hech kimning haqqi yo‘q. To‘lov larning qonuniy, ochiq-oydin xususiyatga ega bo‘lishi soliqlarning bosh tavsifidir.

Soliqlarning bir nechta asosiy funksiyalari mavjud:

1. Soliqlarning asosiy funksiyasi fiskal (lotincha fiscus so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib, g‘azna degan ma’noni anglatadi) xususiyatga ega ekanligidir. Bu o‘rinda funksiyaning mohiyati shundan iboratki, soliqlar yordamida davlatning moliya resurslari hosil qilinadi hamda davlat faoliyat ko‘rsatishi uchun moddiy sharoit yaratiladi, hozirgi vaziyatda esa butun bozor xo‘jaligi tizimi ishlab turishi uchun moddiy imkoniyat vujudga keltiriladi. Soliqlar orqali korxonalar va fuqarolar daromadining bir bo‘lagini davlat apparatini, mamlakat mudofaasini, noishlab chiqarish sohasining umuman o‘z daromadlari manbayiga ega bo‘lmagan qismini (ko‘pgina madaniyat muassasalari, jumladan, kutubxonalar, arxivlar va boshqalar) yoki lozim darajada rivojlanishi ta’minalash uchun o‘zining mablag‘i yetishmaydigan tarmoqlarni (fundamental kutubxona, teatrlar, muzeylar, ko‘plab o‘quv yurtlari va hokazo) saqlab turish maqsadida undirib olish jarayoni ro‘y beradi.

Soliqlarning yana bir muhim funksiyasi iqtisodiy (izga solib turadigan) vazifani ado etishidir. Davlat soliqlar orqali ishlab chiqarish sharoitlarini, tovarlar va xizmatlarning sotilishini izga solib boradi, iqtisodiy faoliyat uchun muayyan «soliq iqlimi» yaratadi. Soliqlar o‘zining iqtisodiy funksiyasi orqali takror ishlab chiqarishga ta’sir ko‘rsatadi, uning o‘sish sur’atlarini rag‘batlantiradi yoki pasaytiradi, mablag‘ to‘planishini tezlashtiradi yoki sekinlashtiradi, aholining to‘lov qobiliyati talabini kengaytiradi yoki kamaytiradi.

Soliqlarning izga solib turuvchi sifatidagi funksiyasining

ahamiyati bozor sharoitida o'sib boradi, bu davrda tadbirkorlarni ma'muriy qaram qilish usullari yo'q bo'lib ketadi yoki juda oz holda qoladi, korxonalar faoliyatini farmoyishlar, ko'rsatmalar va buyruqlar yordamida idora qilish huquqiga ega bo'lgan «yuqori tashkilot» tushunchasining o'zi asta-sekin yo'qola boradi. Biroq iqtisodiy faollikni izga solib turish, uning rivojlanishini jamiyat uchun maqbul bo'lgan yo'nalishda rag'batlantirish zarurati saqlanib qoladi.

Soliqlarning keyingi funksiyasi qayta taqsimlash vazifasini bajarishidir. Davlat soliqlar yordamida korxonalar va tadbirkorlar foydasi, aholi daromadi bir qismini qayta taqsimlaydi, bunda olingan soliq ishlab chiqarishga va ijtimoiy tarmoqlarga ko'maklashuvchi sohalarni, ya'ni infratuzilmani rivojlantirishga, xarajatlar uzoq muddat o'tganidan keyin qoplanadigan mablag' va fond talab tarmoqlarni investitsiyalashga yo'naltiriladi. Byudjetdan kattagina mablag' qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini rivojlantirishga sarflanadi, chunki bu tarmoq oqsab qolgudek bo'lsa, butun iqtisodiyotning holatiga va aholi turmushiga katta ta'sir etadi.

Soliq tizimining qayta taqsimlash funksiyasi yaqqol ko'rinish turgan ijtimoiy ahamiyatga egadir. Tegishli tarzda tuzilgan soliq tizimi bozor iqtisodiyotiga ijtimoiy yo'nalish berishga imkon tug'diradi. Masalan, Germaniya, Shvetsiya va bir qator mamlakatlarda xuddi shunday qilingan.

Umumjahon tajribasida soliqqa tortishining progressiv stavkalari joriy etilganini, ijtimoiy himoyaga muhtoj fuqarolar soliqlardan to'la yoki qisman ozod qilinganligini ko'ramiz. Xuddi shunday yondashuv o'zbekiston Respublikasining «Fuqarolardan olinadigan daromad solig'i to'g'risida»gi qonunida ham ifodasini topgan. Aytaylik, soliqqa tortiladigan daromad aniqlanayotganida soliqqa tortilmaydigan minimum miqdoridagi daromad qo'shilmaydi, ayni paytda ortiqcha daromadlar soliqqa yuqori progressiv stavkalar bo'yicha tortiladi.

Soliqlarning funksiyalarini qisqacha ko'rib chiqish quyidagi xulosaga kelish imkonini beradi: bozor iqtisodiyotida soliq moliya

resurslarini jamlash, xo‘jalik faoliyatini izga solib turish va daromadlarni ijtimoiy ahamiyatga molik maqsadlarga qayta taqsimlash yuzasidan muhim vazifalarni bajaradi. Puxta ishlab chiqilgan, aniq amal qiladigan soliq tizimisiz ijtimoiy yo‘nalishdagi samarali bozor iqtisodiyoti bo‘lishi mumkin emas.

## **8.2. Soliqqa tortish tamoyil va elementlari**

Soliqqa tortishning to‘rtta asosiy tamoyilini ko‘rib chiqaylik. Bu tamoyillar bir vaqtlar Adam Smit (1723-1790 yillar) tomonidan ta’riflab berilgan edi.

Davlat fuqarolari davlat xarajatlarini qoplashda o‘zlari hurmat muhofazasida foydalanayotgan daromadlariga muvofiq tarzda qatnashishlari lozim.

Har bir odam to‘laydigan soliq aniq belgilab qo‘yilgan bo‘lishi kerak, bunda o‘zboshimchalik ketmaydi. Soliq miqdori, to‘lanadigan vaqt va tartibi uni to‘lovchiga ham, boshqa har qanday odamga ham birday aniq va ma’lum bo‘lishi zarur.

Har bir soliq to‘lovchiga har jihatdan qulay bo‘lgan vaqtida va tartibda undirilishi kerak.

Har bir soliq shunday tarzda tuzilishi kerakki, bunda soliq to‘lovchining hamyonidan ketadigan pul davlat byudjetiga kelib tushadigan mablag‘ga nisbatan ortiq bo‘lishiga mumkin qadar yo‘l qo‘yilmasin.

Hozirgi sharoitga tadbiqan olganda, soliqqa tortish samarali tizimining quyidagi tamoyillarini ta’riflab o‘tish mumkin:

**1. Yetarlilik tamoyili.** Mazkur tamoyilga muvofiq soliqqa tortish darajasi shunday bo‘lishi lozimki, u davlat intilayotgan xalq xo‘jaligi samaradorligiga erishishni kafolatlay olsin. Soliqqa tortish tizimi iqtisodiyot, ijtimoiy himoya, mudofaa qobiliyati va boshqa sohalardagi davlat siyosatini amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan moliya resurslari to‘planishini ta’minlasin. Shuni ham ta’kidlab o‘tish lozimki, soliq stavkalari o‘zicha olganda soliq yuki ko‘rsatkichi hisoblanmaydi, chunki soliq to‘lovchi soliq to‘lar ekan, davlat tomonidan bepul xizmatlardan bahramand bo‘lgani

holda ayni choqda o‘zining ba’zi xarajatlarini qisqartiradi. Masalan, davlat umumiy foydalanish yo‘llarining holati yaxshi saqlanishini ta’minlash bilan soliq to‘lovchining transport xarajatlarini kamaytiradi, bepul maorif, sog‘liqni saqlashni ta’minlash bilan yollanma xodimlarning xarajatlarini ham kamaytirgan bo‘ladi. Shunday qilib, to‘langan soliqlarning faqat xizmatlar ko‘rinishidagi talab etilmagan bir qismigina soliq yuki ko‘rsatkichi hisoblanadi. Xulosa qilib aytish mumkinki, yetarlilik tamoyili soliq siyosati bilan qat’iy ravishda uyg‘unlashtirishni taqozo etadi.

**2. Tadbirkorlik va investitsiyalarni rag‘barlantirish.** Soliq tizimi xo‘jalik yurituvchi subyektlarni, jumladan, chet el subyektlarini, ishlab chiqarishni rivojlantirish, uskunalar va zamonaviy texnologiyalar sotib olish uchun mablag‘ yo‘naltirishni, ya’ni kapital jamg‘arish va shu yo‘l bilan texnologiyalarni takomillashtirish, raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarishni rag‘barlantirish lozim.

Soliq tizimi resurslarning samarali taqsimlanishiga to‘sinqinlik qilmasligi hamda xo‘jalikni mustaqil yuritish omillarini cheklab qo‘ymasligi lozim. Agar soliqlar katta bo‘lgani uchun tadbirkorlarning ishlab chiqarishni kegaytirishdan, boshqa turdagи iqtisodiy faoliyat ko‘rsatishdan manfaatdorligiga putur yetkazsa, mamlakat xalq xo‘jaligi pastga qarab ketishi xavfi tug‘iladi. Soliqlar miqdori haddan tashqari katta qilib belgilansa, ishlab chaqirish hajmlari kamayib ketadi, bu jarayon zaxiralar, banklardagi pul mablag‘larining barakasi uchishiga, ilgari to‘plangan mablag‘larning yeyilib ketishiga olib keladi.

Soliqqa tortish, agar u, birinchidan, ishchi kuchini ishlab chiqarish uchun talab qilinadigan darajada saqlab turishga zarur bo‘lgan iste’molning minimal hajmlariga salbiy ta’sir etsa, ikkinchidan, mehnatga nisbatan iqtisodiy va moddiy rag‘batlarning harakat doirasini toraytirib qo‘ysa, uchinchidan, jamg‘arma miqdorini kamaytirsa va mablag‘ning to‘planish jarayonini sekinlashtirsa, ishlab chiqarish imkoniyatlarini yomonlashtirib yuborishi mumkin.

**3.Soliqqa tortishning adolatlilik tamoyili.** Adolat tamoyil-lariga muvofiq soliqlar jamiyat tomonidan oqilona va adolatli deb tan olingan umumiy obyektiv qoidalarga binoan belgilanishi lozim. Soliq solish umumiyyidir.

Soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar bo‘yicha imtiyozlarni belgilash ijtimoiy adolat prinsiplariga mos bo‘lishi kerak. Soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar bo‘yicha yakka tartibdagi xususiyatga ega bo‘lgan imtiyozlar berilishiga yo‘l qo‘yilmaydi.

Soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar kamsitish xususiyatiga ega bo‘lishi mumkin emas hamda ijtimoiy, irqiy, milliy, diniy va boshqa shu kabi mezonlardan kelib chiqqan holda qo‘llanilishi mumkin emas.

Gorizontal va vertikal adolatni bir-biridan farqlanadi. Gorizontal adolat tamoyili daromad olishining turli sharoitlarida soliq to‘lovchilarga nisbatan soliqqa tortishning taxminan teng shartlarini qo‘llanishni ko‘zda tutadi.

Vertikal adolat deganda, xo‘jalik yuritishning bir muncha-og‘ir sharoitlarida ishlayotgan subyektlar uchun soliqqa tortishning bir qadar yumshoqroq shartlarini, yengil daromad olish imkoniyatiga ega bo‘lgan subyektlar uchun esa og‘irroq shartlarini qo‘llanish tushuniladi. Soliqlarning iqtisodiy funksiyasini bajarish doirasida ikkinchi tamoyil buzilishi mumkin. Masalan, xalq iste’moli tovarlari ishlab chiqarishni rag‘batlantirish maqsadida ularni ishlab chiqarish bo‘yicha soliqqa tortishda bir qadar yumshoqroq shartlar yoki buning aksicha vino-aroq va tamaki mahsulotlarini iste’mol qilishni cheklash uchun ulardan olinadigan aksiz soliqlarning yuqori stavkalari belgilangan hollar ham bo‘ladi.

**4. Oddiylik va xolislik.** Bu tamoyil soliqqa tortish bazasini aniqlashda, soliqlarni hisoblab chiqishda oddiylik bo‘lishini, taqdim etiladigan hisobotlarning mazmunini soddalashtirishni, shuningdek soliqlarning eng muhim turlari bo‘yicha yagona stavkalar belgilashni, beriladigan imtiyozlarni iloji boricha kamaytirishni ko‘zda tutadi. Bu o‘rinda nazarda tutilayotgan narsa shuki, soliqlarning iqtisodiy funksiyasi doirasida beriladigan

imtiyozlar yakka tartibdagi xususiyatga ega bo‘lmasligi, balki muayyan faoliyat turlarini rag‘barlantirishga, soliq to‘lovchilarning mulkchilik shakli va qaysi idoraga mansubligidan qat’i nazar, ma’lum turdagи mahsulotlarni ishlab chiqarishni ko‘paytirishga qaratilmog‘i lozim. Ba’zi sohalarda paydo bo‘ladigan davlat tomonidan qo‘llab-quvatlashga ehtiyojni qondirishni byudjet-kredit siyosati orqali amalga oshirish maqsadga muvofiqdir. Buning sababi shuki, soliq imtiyozlarining haddan tashqari ko‘pligi qonunlarni murakkablashtirib yuboradi, tushunishni qiyinlashtiradi hamda turlicha talqin qilishlarga olib keladi, bu hol pirovard natijada soliq to‘lovchilarning soliqlarga nisbatan munosabatlariga salbiy ta’sir qiladi. Shu bilan birga aniq qilib belgilangan imtiyozlar soliq yukini boshqa soliq to‘lovchilar zimmasiga o‘tkazib, ijtimoiyadolatsizlik ro‘y berishiga olib keladi.

**5. Boshqarishga qulaylik.** Samarali soliq tizimiga qo‘yiladigan muhim talablardan biri boshqaruvgaga qulay bo‘lishidir. Soliqlarni undirib olishda samaradorlikka erishish ko‘p hollarda soliqlarning soliq to‘lovchilarga yaxshi tushunarli bo‘lishiga bog‘liq.

Ayrim mamlakatlarda soliqqa tortishning nihoyatda murakkab tartibi amal qiladi, aytaylik, shkala va stavkalar turi, soliqlar ro‘yxati, ularni to‘lash qoidalari va tartiblari haddan tashqari ko‘p. Buning ustiga ular soliq tushumlarining ko‘payishiga hech qanday yordam bermaydi hamda soliqlarning rag‘batlantiruvchi funksiyasi bajaralishida rol o‘ynamaydi.

**6. Soliqlarni yig‘ish jarayonini imkon qadar arzonlashtirish.** Mazkur tamoyil davlat tomonidan va soliq to‘lovchilar tomonidan soliqlarni yig‘ish uchun ketadigan xarajatlarni mumkin qadar kamaytirishni ko‘zda tutadi. Buning uchun respublikamizda soliqqa tortish tartibini takomillashtirish bilan bir qatorda soliqlarni maqbullashtirish, kompyuter texnologiyalari, soliq axborotlarining to‘g‘riligini bevosita nazorat qilish usullarini qo‘llanish orqali soliq to‘lovchilarning xarajatlarini kamaytirish maqsadida davlat hisobidan saqlanadigan servis-markazlar, soliqqa tortish masalalari xususida soliq organlari tomonidan bepul maslahatxonalar tashkil etilgan.

**7. Soliq stavkalarini qiyoslash.** Soliq stavkalari boshqa davlat-

lardagi xuddi shunday soliqlarning stavkalari bilan qiyoslanishi, ya’ni mintaqaning o‘ziga xos xususiyatlari xisobga olingan holda boshqa mamlakatlar bilan teng bo‘lgan xo‘jalik faoliyati shart-sharoitlari vujudga keltirilishi lozim. Agar qattiq shartlar belgilab qo‘yilgudek bo‘lsa, bu hol respublika iqtisodiyotiga investitsiyalarni jalg qilishni mushkullashtirib yuboradi, aksincha, yengil sharoit yaratilsa, mamlakat byudjetiga salbiy ta’sir qiladi.

O‘zbekistonda soliqqa tortish tizimi o‘z mazmuniga ko‘ra soliq elementlari, ularni tashkil qilish tamoyillari va usullarini o‘rganadi. Soliq elementlari quyidagilardan iborat:

Soliq subyekti – bu soliq munosobatlarida qatnashuvchi soliq to‘lovchilardir. Ular yuridik va jismoniy shaxslarga bo‘linadi. Soliq munosobatlarida faqat soliq to‘lovchilargina emas balkim, soliq undiruvchi (soliqchi) ham qatnashadi. Soliqni davlat undiradi, ya’ni davlat nomidan maxsus tashkilot qatnashadi. Bu ishni Davlat soliq qumitasi bajaradi. Soliqlarni to‘g‘ri hisoblash, to‘liq to‘lash javobgarligi soliq to‘lovchi subyektga yuklatiladi.

1. Soliq obyekti – bu soliq solinadigan daromad, oborot yoki mulk hisoblanadi. Unga foyda, ish haqi, qo‘srimcha qiymat, yer, imorat kabilar kiradi. Obyekt doimo subyekt bilan bog‘liq va subyektniki bo‘ladi. Soliq subyektisiz obyekt bo‘lmaydi. Masalan, QQSda obyekt orttirilgan mahsulot oborotidir, daromadga solinadigan soliqda daromad, mol-mulk solig‘ida mulk qiymati, yer solig‘ida yer maydoni va b.q.

2. Soliq manbayi – bu subyektning daromadidir. Ba’zi soliqlarda daromad va foyda ham obyekti, ham soliq manbai bo‘ladi. Lekin boshqa soliqlarda obyektlar har xil, manba esa daromad hisoblanadi.

3. Soliqki tortish birligi – bu obyektning o‘lchov birligidir. Bu daromad solig‘ida so‘m, yer solig‘ida kv.metr va b.q bilan belgilanadi.

4. Soliq stavkasi – Obyektning har bir birligi uchun davlat tomonidan belgilab qo‘yilgan me’yorlar soliq stavkasi deyiladi. Soliq stavkalari ikki xil usulda ifodalananadi: qat’iy va nisbiy stavkalar. Qat’iy stavkalar bu pul birligida ifodalangan stavkalar bo‘lsa (so‘m va b.q), nisbiy stavkalar foizlarda (%) aks ettiriladi. Bozor iqtisodiyotga o‘tish va inflyatsiya sharoitida nisbiy stavkalarni

qo'llash maqsadga muvofiqdir. Agar stavka so'mlarda hisobga olinsa, soliqlardan to'shgan byudjet daromadi yil oxiriga kelib hech qanday iqtisodiy ahamiyatga ega bo'lmay qolishi mumkin. Soliq stavkalari usullaridan tashqari, O'zbekistonda soliq qonunchiligi bo'yicha soliq stavkalarining quyidagi turlari mavjud:

- Proporsional;
- Progressiv;
- Nolli;
- Regressiv stavkalar.

Proporsional soliq stavkasida obyekt qanday bo'lishidan qat'iy nazar bir xil ulushdagi soliq to'lanadi. Masalan; QQS bo'yicha oborot 10 ming so'm bo'lsa ham, 100 ming so'm bo'lsa ham, 1 mln so'm bo'lsa ham 20% soliq olinadi. Yoki yuridik shaxslarning asosiy fondlarini qiymati qanday bo'lishidan qat'iy nazar undiriladigan mol-mulk solig'i 4 % tashkiletadi.

Progressiv soliq stavkada esa daromad obyekti ko'payishi bilan soliq stavkasi ham oshib boradi. Bu soliq stavkasi mamlakatimizda faqat jismoniy shaxslar daromadi solig'ida o'z ifodasini topgan

Nolli stavkalar. Soliqlarni tashkil etishni chet el tajribasiga moslashtirish maqsadida 1998-yildan boshlab, QQS bo'yicha ya'ni eksportga tovarlar yuborganda, qishloq xo'jaligi uchun yoqilg'i-moylash materiallari va o'g'itlar jo'natganda hamda elchixonalar va vakolatxonalarga tovarlar ortganda soliq tortish nolli stavkada belgilandi. Shu mahsulotlar bo'yicha tamomila soliq to'lamaslik joriy etildi.

Regressiv soliq stavkalar Daromad oshib borishi bilan soliq stavkalari kamayib, mahsulot ishlab chiqarishni kengaytirishni talab etadi. Chetga eksport tovarlar chiqarib, qat'iy valyuta tushumiga erishganlar iqtisodiy jihatdan qiziqtililadi, ya'ni jami ishlab chiqarilgan mahsulot sotishdan tushgan daromaddan ozod qilinadi. Bu 2000-yilning 1-iyulidan boshlab kuchga kirgan.

Yuqorida keltirilgan soliq stavkalari turlarini tahlil qilib nolli va regressiv stavkalar iqtisodiyotni ko'tarishda katta ahamiyatga ega ekan deyishimiz mumkin.

Soliq yuki – to'lovchining hamma soliqlar va yig'imar yig'indisini byudjetga to'lashidir. Soliq yuki foydaga yoki jami

daromadga nisbatan olinadi. Mamlakat miqyosida hamma to‘langan soliq va yig‘imlarning YaIMdagi salmog‘i ham soliq yukini ifodalaydi. Agar soliq to‘lovchi soliqlarni to‘g‘ri to‘lagan bo‘lsa, unga soliq yuki mos keladi. Lekin ba’zi korxonalarda egri soliqlar bo‘lib, uning huquqiy to‘lovchilari korxona hisoblansa-da, soliq yuki iste’molchi, ya’ni aholi zimmasiga tushadi. Oxirgi iste’mol qiluvchilar aholi hisoblanadi. Bu yerda egri soliqlar hisobiga aholining real daromadlarining biroz bo‘lsa-da pasayish hollari uchraydi.

### **8.3. O‘zbekiston Respublikasining soliq tizimi**

Umumdavlat soliqlari har yili qonuniy tartibda belgilanadigan normativlar bo‘yicha tegishli byudjetlar o‘rtasida taqsimlanadi.

Soliqlar soliqqa tortish obyektiga qarab beshta asosiy guruhga bo‘linadi:

- Oborotdan olinadigan soliqlar;
- Daromaddan olinadigan soliqlar;
- Mol-mulk qiymatidan olinadigan soliqlar;
- Yer maydoniga qarab olinadigan soliqlar;

Oborotdan olinadigan soliqlarga qo‘shilgan qiymat solig‘i, aksiz solig‘i, bojxona va yer osti boyliklari qiymatidan olinadigan soliqlar kiradi. Lekin oborot (aylanma) tushunchasi bizning qonunchiligidiz bo‘yicha ilgaridek mahsulot realizatsiyasi oborotidan emas, balki mahsulotlarni yuklab yuborgan qiymat bilan o‘lchanadi (KKsda). Yalpi tushumdan olinadigan yagona soliq ham oborotdan olinadigan soliqlarga kiradi.

Daromaddan olinadigan soliqlarga yuridik shaxslarning daromadiga (foydasiga), jismoniy shaxslarning daromadiga solinadigan soliq, savdo tashkilotlarining belgilangan daromadidan soliqlari kiradi. Bu guruh soliqlarga infrastrukturani rivojlantirish solig‘i ham kiradi.

Mol-mulk qiymatidan olinadigan soliqlarga mol-mulk solig‘i va boshqalar kiradi.

Yer maydonlaridan olinadigan soliqlarga qishloq xo‘jalik, tovar ishlab chiqaruvchilarning yagona yer solig‘i va yuridik (noqishloq

xo‘jalik) va jismoniy shaxslarning yer soliqlari kiradi.

Har qaysi davlatning soliq bo‘yicha qonunchiliga, boshqa huquqiy-me’yoriy hujatlariga, qolaversa milliy mentalitetiga ko‘ra soliqlar turli guruhlarga va shakllarga ajratiladi. O‘zbekiston Respublikasi hududida soliqlar byujdetga to‘lanishiga bog‘liq holda ikki toifaga bo‘linadi:

- Umumdavlat soliqlari;
- Mahalliy soliqlar va yig‘imlari.

Harakatdagi soliq qonunchiligi bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasida soliqlarning 13 turi, shu jumladan 7 umumdavlat va 6 mahalliy soliqlar mavjuddir.

Umumdavlat soliqlari bevosita davlat byujdetini daromad qismini asosiy manbasi hisoblanadi. Ushbu soliqlar davlat byudjetiga to‘lanadigan soliqlar hisoblanadi.

Mahalliy soliqlar mahalliy, viloyat, shahar va tuman byudjetiga to‘lanishi lozim bo‘lgan soliq to‘lovlari hisoblanadi.

Umumdavlat va mahalliy soliqlari **1-jadvalda** keltirilgan.

<b>№</b>	<b>Umumdavlat soliqlari</b>	<b>Mahalliy soliqlar</b>
1.	Yuridik shaxslardan olinadigan daromad (foyda) solig‘i	Mol mulk solig‘i
2.	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	Yer solig‘i
3.	Qo‘srimcha qiymat solig‘i	Infratuzilmani rivojlantirish solig‘i
4.	Aksiz solig‘i	Obodonchilik uchun yig‘im
5.	Yer osti boyliklaridan foydalanganlik uchun soliq	Savdo-sotiq qilish uchun yig‘im
6.	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	Avtotransport vositalarini olib sotishganligi uchun soliq

Soliqlarning umumdavlat (respublika) va mahalliy soliqlarga bo‘linishi hukumat idoralarining respublika hukumati va mahalliy

hukumatlarga bo‘linishi asosida kelib chiqadi. Har bir hokimiyat idoralari o‘zlarining bajaradigan muhim vazifalaridan kelib chiqib, o‘z byudjetiga va uni ta’minlaydigan soliqlarga ega bo‘lishi kerak. Respublika masshtabida juda katta vazifalarni mudofaa, xavfsizlikni saqlash, tartib intizom infratuzilmasini yaratish, aholini ijtimoiy himoyasini ta’minalash va boshqa bir qator yirik vazifalarni bajaradi. QQS, aksiz, huquqiy shaxslarning daromadidan, fuqarolar daromadidan olingan soliqlar respublika byudjetiga tushadi. Umum davlat soliqlarining muhim xususiyati shundaki, respublika byudjetiga tushadigan soliqlardan mahalliy byudjetlarni boshqarib borish uchun ajratma sifatida tushushi mumkin. Agar ajratma yetmasa subvensiya yoki subsidiya beriladi. Agar kelgusi yil mahalliy byudjetlarning o‘z manbalari (soliqlari) ko‘payib qolsa, respublika soliqlardan ajratma berishning hojati qolmaydi. Respublika va mahalliy soliqlar yagona mohiyatiga ega bo‘lib, byudjetga to‘lanishi lozim bo‘lgan to‘lovlardir.

Mahalliy soliqlar hukumatlar bajaradigan vazifalariga qarab belgilanib, ularga doimiy va to‘liq biriktirib beriladi. Mahalliy xukumatlar asosan aholiga yaqin bo‘lganligidan ularga ijtimoiy masalalarni, maktab, sog‘liqni saqlash, madaniyat, maorif, shahar va qishloqlar obodonchiligi kabi vazifalarni bajaradi. Lekin bu soliqlar va yig‘imlar ularning byudjet xarajatlarining 30-40 foizini qoplaydi, xolos. Keyingi vaqtarda mahalliy byudjetlar daromadlari salmog‘ini 50-60 foizga yetkazish kabi hukumat qarorlari mavjud. Mahalliy byudjetlar daromadlarini ko‘paytirish eng dolzarb masalalardan biridir. Faqat o‘z daromad manbaiga to‘liq ega bo‘lgan mahalliy hukumatlar o‘z faoliyatlarini to‘liq amalga oshirishlari mumkin. Aks holda, har xil moliyaviy kamchiliklar yuzaga kelishi ehtimoli bor. Mahalliy soliqlarning muxim xususiyati shundaki, ular faqat shu hududning byudjetga tushadi. Boshqa byudjetlarga ajratmalar berilmaydi.

Iqtisodiy mohiyatiga qarab soliqlar egri va to‘g‘ri soliqlarga yoki bevosita va bilvosita soliqlarga bo‘linadi. To‘g‘ri soliqlarni to‘g‘ridan to‘g‘ri soliq to‘lovchilarning o‘zi to‘laydi, ya’ni soliqni

huquqiy to‘lovchisi ham, haqiqiy to‘lovchisi ham bitta shaxs bo‘ladi. To‘g‘ri soliq yukini boshqalarga ortish holati bu yerda bo‘lmaydi. Bu soliqlarga hamma daromaddan to‘lanadigan va barcha mulk soliqlari kiradi.

To‘g‘ri soliqlardan to‘g‘ridan-to‘g‘ri daromaddan soliq to‘langanligi uchun soliqlar stavkasining kamaytirilishi korxonalar daromadining ko‘p qismini ularga qoldirib, investitsiya faoliyatini kengaytirish imkonini yaratib, bozor iqtisodiyotini rivojlantiradi. Bu soliqlarning stavkalari ko‘paytirilsa, biznes imkoniyatlari kamaya borib, iqtisodiy rivojlanishni susaytiradi. Demak bu guruh soliqlarning stavkalari to‘g‘ridan-to‘g‘ri bozor iqtisodiyoti bilan chambarchas bog‘langandir.

Egri soliqlarni huquqiy to‘lovchilari mahsulot (ish, xizmatni) yuklab yuboruvchilardir (xizmat ko‘rsatuvchilardir). Lekin soliq og‘irligini haqiqatdan ham byudjetga to‘lovchilari tovar (ish, xizmat) ni iste’mol qiluvchilardir, ya’ni haqiqiy soliq to‘lovchilar bu yerda yashiringan. Bu soliqlar tovar (ish, xizmat) – qiymati ustiga ustama ravishda qo‘yiladi.

Bu soliqlarning ijobiy tomoni respublikada ishlab chiqarilgan tovarlarni chetga chiqib ketishini chegaralangan, mamlakat ichida, tovarlar ko‘p bo‘lishiga yordam beradi. Egri soliqlar orqali tovarlar qiymati oshirilmasa, bozorlarda ularning taqchilligi ortadi. Egri soliqlar stavkasining oshirilishi korxonalar faoliyatining moliyaviy yakuniga to‘g‘ridan-to‘g‘ri ta’sir etmaydi, ya’ni investitsiya faoliyatini qisqartirmaydi. Ammo soliq stavkani tahlilsiz osha borsa korxonalar sotish qiyinchiligiga uchrab foyda olishni ham byudjetga to‘lovlarni ham kamaytirishi mumkin.

Bu soliqlarning yana bir tomoni muomaladagi ortiqcha pul massasini kamaytirib, inqirozni jilovlab boradi. Biroq bu soliqlar aholining real daromadini pasaytiradi. Korxonalarda to‘g‘ri soliqlar stavkasini kamaytirish hisobiga berilgan imkoniyat ko‘proq mahsulot ishlab chiqarishni ko‘paytirib, tovarlar mo‘lko‘lligini ta‘minlashi kerak.

Egri soliqlar tarkibiga QQS, aksiz solig‘i, bojxona boji, yer osti boyliklaridan foydalanish soliqlari kiradi. Yuqorida aytib o‘til-

ganidek, to‘g‘ri va egri soliqlar yagona soliq tizimini tashkil etib bir-biri bilan o‘zaro bog‘langan.

### **Nazorat uchun savollar**

1. Soliqlar mohiyati nimadan iborat?
2. Soliqlarning asosiy funksiyalarini sanab o‘ting?
3. Soliqqa tortish tamoyillarini ko‘rsating?
4. Soliqqa tortishning asosiy elementlari?
5. Soliq stavkasi va uning turlari?
6. Umum davlat soliqlar deganda nimani tushunasiz?
7. Mahalliy soliqlar mohiyatini tushuntirib bering?
8. To‘g‘ri soliqlar va ularning mohiyatini ayting?
9. Egri soliqlar va ularning mohiyatini ayting?

## **9-MAVZU: INFORMATSION TEXNOLOGIYA KO'NIKMALARI, MA'LUMOTLAR BILAN ISHLASH, STATISTIK MA'LUMOTLARDAN FOYDALANISH VA SHARHLASH**

### **Reja:**

- 9.1. Informatsion texnologiya ma'lumotlar bilan ishslash usullardan samarali foydalanish.
- 9.2. Informatsion texnologiya ko'nikmalari va statistik ma'lumotlarni amalga oshirish tartibi.
- 9.3. Informatsion texnologiya ko'nikmalari, ma'lumotlar bilan ishslash, statistik ma'lumotlar metodini amalga oshirish tartibi.

### **9.1. Informatsion texnologiya ma'lumotlar bilan ishslash usullardan samarali foydalanish**

Ma'ruza mashg'ulotida quyidagi interfaol o'qitish metodlari dan foydalaniladi:


Topshiriq mazmuni → «FSMU» metodi orqali berilgan fikrga munosabatlar keltirish

#### «FSMU» metodi

Texnologiyaning maqsadi: Mazkur texnologiya ishtirokchilar-dagi umumiy fikrlardan xususiy xulosalar chiqarish, taqqoslash, qiyoslash orqali axborotni o'zlashtirish, xulosalash, shuningdek, mustaqil ijodiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Mazkur texnologiyadan ma'ruza mashg'ulotlarida, mustahkamlashda, o'tilgan mavzuni so'rashda, uyga vazifa berishda hamda amaliy mashg'ulot natijalarini tahlil etishda foydalanish tavsiya etiladi.

#### Texnologiyani amalgaga oshirish tartibi:

- qatnashchilarga mavzuga oid bo'lgan yakuniy xulosa yoki g'oya taklif etiladi;
- har bir ishtirokchiga FSMU texnologiyasining bosqichlari yozilgan qog'ozlar tarqatiladi;



- ishtirokchilarning munosabatlari individual yoki guruhiy tartibda taqdimot qilinadi.

FSMU tahlili qatnashchilarda kasbiy-nazariy bilimlarni amaliy mashqlar va mavjud tajribalar asosida tezroq va muvaffaqiyatli o'zlashtirilishiga asos bo'ladi.

### Namuna.

Fikr: “Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozlarining mamlakat bank tizimiga ta'sir etmasligi uchun boshqa davlatlar bilan eksport-import operatsiyalarini olib bormaslik lozim”.

Topshiriq: Mazkur fikrga nisbatan munosabatingizni FSMU orqali tahlil qiling.

1-amaliy mashg'ulotda quyidagi interfaol o'qitish metodlaridan foydalaniladi.

1) Mashg'ulotning motivatsiya bosqichida: “SWOT-tahlil”dan foydalaniladi.

Topshiriq mazmuni → “Internet banking masofaviy bank xizmati imkoniyatlari va kamchiliklarini keltirib o'ting?”

### “SWOT-tahlil” metodi.

Metodning maqsadi: mavjud nazariy bilimlar va amaliy tajribalarni tahlil qilish, taqqoslash orqali muammoni hal etish yo'llarni topishga, bilimlarni mustahkamlash, takrorlash,

baholashga, mustaqil, tanqidiy fikrlashni, nostandard tafakkurni shakllantirishga xizmat qiladi.



Namuna: Internet banking masofaviy bank xizmati imkoniyatlarining SWOT tahlilini ushbu jadvalga tushiring.

<b>S</b>	Internet banking masofaviy bank xizmatidan foydalanishning kuchli tomonlari	To'lov tizimining elektronlashib borayotgani jarayonida mijozlar bankka bormasdan masofadan shaxsiy kompyuterlari orqali to'lovlarni amalga oshirishi...
<b>W</b>	Internet banking masofaviy bank xizmatidan foydalanishning kuchsiz tomonlari	Internetga ulangan kompyuter (noutbuk) va unga Microsoft Internet Explorer dasturining 6.0 yoki undan yuqori versiyasi o'rnatilgan bo'lishi...
<b>O</b>	Internet banking masofaviy bank xizmatidan foydalanishning imkoniyatlari (ichki)	<ul style="list-style-type: none"> <li>• o'z hisobvarag'ingizdagi operatsiyalarni osongina va yengil amalga oshirish;</li> <li>• hisobvaraqdagi pul mablag'lari harakati to'g'risidagi ko'chirma, karta hisobvaraq to'g'risidagi hisobotni olish;</li> <li>• yuqorida sanab o'tilgan funksiya-lardan sutkasiga 24 soat va haftasiga 7 kun foydalana olish...</li> </ul>
<b>T</b>	To'siqlar (tashqi)	Aholining texnik tomondan yetarli bilimga ega emasligi va viloyatlarda kommunikatsion infrastrukturaning yaxshi rivojlanmaganligi...

2-ma’ruza mashg‘ulotida quyidagi interfaol o‘qitish metodlaridan foydalaniladi:

Topshiriq mazmuni → “Masofaviy bank xizmatlari turlari va ularning misollar keltiring?

### “Xulosalash” (Rezyume, Veer) metodi

Metodning maqsadi: Bu metod murakkab, ko‘ptarmoqli, mumkin qadar, muammoli xarakteridagi mavzularni o‘rganishga qaratilgan. Metodning mohiyati shundan iboratki, bunda mavzuning turli tarmoqlari bo‘yicha bir xil axborot beriladi va ayni paytda, ularning har biri alohida aspektlarda muhokama etiladi. Masalan, muammo ijobiy va salbiy tomonlari, afzallik, fazilat va kamchiliklari, foyda va zararlari bo‘yicha o‘rganiladi. Bu interfaol metod tanqidiy, tahliliy, aniq mantiqiy fikrlashni muvaffaqiyatli rivojlantirishga hamda o‘quvchilarning mustaqil g‘oyalari, fikrlarini yozma va og‘zaki shaklda tizimli bayon etish, himoya qilishga imkoniyat yaratadi. “Xulosalash” metodidan ma’ruza mashg‘ulotlarida individual va juftliklardagi ish shaklida, amaliy va seminar mashg‘ulotlarida kichik guruhlardagi ish shaklida mavzu yuzasidan bilimlarni mustahkamlash, tahlili qilish va taqqoslash maqsadida foydalanish mumkin.

#### **Metodni amalga oshirish tartibi:**



trener o‘qituvchi ishtirokchilarni 5-6 kishidan iborat kichik guruhlarga ajratadi;



trening maqsadi, shartlari va tartibi bilan ishtirokchilarni tanishtirgach, har bir guruhga umumiy muammoni tahlil qilinishi zarur bo‘lgan qismlari tushirilgan tarqatma materiallar bilan tanishtirish;



har bir guruh o‘ziga berilgan muammoni atroflicha tahlil qilib, o‘z mulohazalarini tavsiya etilayotgan sxema bo‘yicha tarqatmaga yozma bayon qiladi;



Navbatdagi bosqichda barcha guruhlar o‘z tadqimotlarini o‘tkazadilar. Shundan so‘ng, trener tomonidan tahlillar umumlashtiriladi, zaruriy axborotlar bilan to‘ldiriladi va mavzu yakunlanadi.

### Namuna:

Masofaviy bank xizmatlari turlari					
Internet banking		SMS banking		Mobil banking	
Afzalligi	kamchi-ligi	afzalligi	kamchiligi	afzalligi	kamchiligi
Xulosa:					

2-amaliy mashg‘ulotda quyidagi interfaol o‘qitish metodlaridan foydalaniladi:

1) Mashg‘ulotning motivatsiya bosqichida: “Assesment” metodidan foydalaniladi.

Topshiriq mazmuni → Berilgan turli topshiriqlarni bajarish?  
“Assesment” metodi

Metodning maqsadi: mazkur metod ta’lim oluvchilarning bilim darajasini baholash, nazorat qilish, o‘zlashtirish ko‘rsatkichi va amaliy ko‘nikmalarini tekshirishga yo‘naltirilgan. Mazkur texnika orqali ta’lim oluvchilarning bilish faoliyati turli yo‘nalishlar (test, amaliy ko‘nikmalar, muammoli vaziyatlar mashqi, qiyosiy tahlil, simptomlarni aniqlash) bo‘yicha tashxis qilinadi va baholanadi.

## 9.2. Informatsion texnologiya ko‘nikmalari va statistik ma’lumotlarni amalga oshirish tartibi

### Metodni amalga oshirish tartibi:

“Assesment” lardan ma’ruza mashg‘ulotlarida talabalarning yoki qatnashchilarning mavjud bilim darajasini o‘rganishda, yangi ma’lumotlarni bayon qilishda, seminar, amaliy mashg‘ulotlarda esa mavzu yoki ma’lumotlarni o‘zlashtirish darajasini baholash, shuningdek, o‘z-o‘zini baholash maqsadida individual shaklda foydalanish tavsiya etiladi. Shuningdek, o‘qituvchining ijodiy yondashuvi hamda o‘quv maqsadlaridan kelib chiqib, assesmentga

qo'shimcha topshiriqlarni kiritish mumkin.

**Namuna.** Har bir katakdagi to'g'ri javob 4 ball yoki 1-4 balgacha baholanishi mumkin.



### Test

- 1. Internet banking tizimi orqali to'lovlarini amalga oshirishda lozim?
  - A. Elektron raqamli imzo
  - B. Telefon
  - C. Faks



### Qiyosiy tahlil

- Bankning kunlik balansini tahlil qiling?



### Tushunchalar tahlili

- KAMI ni izohlang...



### Amaliy ko'nikma

- Ipoteka kreditini olish uchun talab etiladigan xujjatlar nomini aytib bering?

Ma'ruza mashg'ulotida quyidagi interfaol o'qitish metodlari dan foydalilanildi:

Topshiriq mazmuni → «Tushunchalar tahlili» metodi orqali berilgan fikrga munosabatlar keltirish

### “Tushunchalar tahlili” metodi

Metodning maqsadi: mazkur metod talabalar yoki qatnashchilarini mavzu buyicha tayanch tushunchalarni o'zlashtirish darajasini aniqlash, o'z bilimlarini mustaqil ravishda tekshirish, baholash, shuningdek, yangi mavzu bo'yicha dastlabki bilimlar darajasini tashxis qilish maqsadida qo'llaniladi.

Metodni amalga oshirish tartibi:

- ishtirokchilar mashg'ulot qoidalari bilan tanishtiriladi;
- o'quvchilarga mavzuga yoki bobga tegishli bo'lgan so'zlar, tushunchalar nomi tushirilgan tarqatmalar beriladi ( individual

yoki guruhli tartibda);

- o‘quvchilar mazkur tushunchalar qanday ma’no anglatishi, qachon, qanday holatlarda qo‘llanilishi haqida yozma ma’lumot beradilar;

- belgilangan vaqt yakuniga yetgach o‘qituvchi berilgan tushunchalarning to‘g‘ri va to‘liq izohini o‘qib eshittiradi yoki slayd orqali namoyish etadi;

- har bir ishtirokchi berilgan to‘g‘ri javoblar bilan uzining shaxsiy munosabatini taqqoslaydi, farqlarini aniqlaydi va o‘z bilim darajasini tekshirib, baholaydi.

**Namuna:** “Moduldagи tayanch tushunchalar tahlili”

Tushunchalar	Sizningcha bu tushuncha qanday ma’noni anglatadi?	Qo‘srimcha ma’lumot
Inflation	bu tovar muomalasiga nisbatan qog‘oz pul massasining ortiqchaligidir.	
Income	ishlab chiqarish omillarini ishlatishdan keladigan pul va natural tushumlar.	
Currency	bu xalqaro hisob-kitoblarda ishlatiladigan u yoki bu mamlakat milliy pul birligida ifodalangan to‘lov hujjatlari va pul majburiyatlaridir.	
Audit	xo‘jalik faoliyatini tekshirish, taftish va tahlil qilish.	
Loan	u vaqtincha o‘z egalari qo‘lida bo‘sh turgan pul mablag‘larini boshqalar tomonidan ma’lum muddatga haq to‘lash sharti bilan qarzga olish va qaytarib berish yuzasidan kelib chiqadigan munosabatlarni bildiradi.	

**Izoh:** Ikkinci ustunchaga qatnashchilar tomonidan fikr bildiriladi. Mazkur tushunchalar haqida qo‘srimcha ma’lumot glossariyda keltirilgan.

Amaliy mashg‘ulotda quyidagi interfaol o‘qitish metodlaridan foydalilaniladi:

Mashg‘ulotning motivatsiya bosqichida: “Blis-so‘rov” usulidan foydalilaniladi.

#### “Blis-o‘yin” metodi

Metodning maqsadi: o‘quvchilarda tezlik, axborotlar tizmini tahlil qilish, rejalashtirish, prognozlash ko‘nikmalarini shakllantirishdan iborat. Mazkur metodni baholash va mustahkamlash maqsadida qo‘llash samarali natijalarni beradi.

#### Metodni amalga oshirish bosqichlari:

1. Dastlab ishtirokchilarga belgilangan mavzu yuzasidan tayyorlangan topshiriq, ya’ni tarqatma materiallarni alohida-alohida beriladi va ulardan materialni sinchiklab o‘rganish talab etiladi. Shundan so‘ng, ishtirokchilarga to‘g‘ri javoblar tarqatmadagi «yakka baho» kolonkasiga belgilash kerakligi tushuntiriladi. Bu bosqichda vazifa yakka tartibda bajariladi.

2. Navbatdagi bosqichda trener-o‘qituvchi ishtirokchilarni uch kishidan iborat kichik guruhlarga birlashtiradi va guruh a’zolarini o‘z fikrlari bilan guruhdoshlarini tanishtirib, bahslashib, bir-biriga ta’sir o‘tkazib, o‘z fikrlariga ishontirish, kelishgan holda bir to‘xtamga kelib, javoblarini «guruh bahosi» bo‘limiga raqamlar bilan belgilab chiqishni topshiradi. Bu vazifa uchun 15 daqiqa vaqt beriladi.

3. Barcha kichik guruhlар o‘z ishlarini tugatgach, to‘g‘ri harakatlar ketma-ketligi trener-o‘qituvchi tomonidan o‘qib eshittiriladi, va o‘quvchilardan bu javoblarni «to‘g‘ri javob» bo‘limiga yozish so‘raladi.

4. «To‘g‘ri javob» bo‘limida berilgan raqamlardan «yakka baho» bo‘limida berilgan raqamlar taqqoslanib, farq bulsa «0», mos kelsa «1» ball qo‘yish so‘raladi. Shundan so‘ng «yakka xato» bo‘limidagi farqlar yuqoridaн pastga qarab qo‘sib chiqilib, umumiylig yig‘indi hisoblanadi.

5. Xuddi shu tartibda «to‘g‘ri javob» va «guruh bahosi» o‘rtasidagi farq chiqariladi va ballar «guruh xatosi» bo‘limiga yozib, yuqoridaн pastga qarab qo‘siladi va umumiylig yig‘indi

keltirib chiqariladi.

6. Trener-o‘qituvchi yakka va guruh xatolarini to‘plangan umumiy yig‘indi bo‘yicha alohida-alohida sharhlab beradi.

7. Ishtirokchilarga olgan baholariga qarab, ularning mavzu bo‘yicha o‘zlashtirish darajalari aniqlanadi.

**«Savdo kreditining bir martaga olish va so‘ndirish»  
ketma-ketligini joylashtiring. O‘zingizni tekshirib ko‘ring!**

Harakatlar mazmuni	Yakka bahos	Yakka xato	To‘g‘ri javob	Guruh bahosi	Guruh xatosi
Talab etiladigan xujjatlar					
Yillik 18% dan berilgan kreditning 3 oylik foizini hisoblang					
Asosiy qarz va foizni so‘ndirish provotkalarini yozing					
Kreditning so‘ndirish grafigini tuzing					

4-ma’ruza mashg‘ulotida quyidagi interfaol o‘qitish metodlaridan foydalaniladi:

*Topshiriq mazmuni* → «Insert» metodi orqali berilgan fikrga munosabatlar keltirish

“Insert” metodi

Metodning maqsadi: Mazkur metod o‘quvchilarda yangi axborotlar tizimini qabul qilish va bilimlarni o‘zlashtirilishini yengillashtirish maqsadida qo‘llaniladi, shuningdek, bu metod o‘quvchilar uchun xotira mashqi vazifasini ham o‘taydi.

### **9.3. Informatsion texnologiya ko‘nikmalari, ma’lumotlar bilan ishlash, statistik ma’lumotlar metodini amalga oshirish tartibi**

Metodni amalga oshirish tartibi:

- o‘qituvchi mashg‘ulotga qadar mavzuning asosiy tushun-

chalari mazmuni yoritilgan input-matnni tarqatma yoki taqdimot ko‘rinishida tayyorlaydi;

- yangi mavzu mohiyatini yorituvchi matn ta’lim oluvchilarga tarqatiladi yoki taqdimot ko‘rinishida namoyish etiladi;

- ta’lim oluvchilar individual tarzda matn bilan tanishib chiqib, o‘z shaxsiy qarashlarini maxsus belgilar orqali ifodalaydilar. Matn bilan ishlashda talabalar yoki qatnashchilarga quyidagi maxsus belgilardan foydalanish tavsiya etiladi:

<b>Belgilar</b>	<b>1- matn</b>	<b>2- matn</b>	<b>3- matn</b>
“V” – tanish ma’lumot.			
“?” – mazkur ma’lumotni tushunmadim, izoh kerak.			
“+” bu ma’lumot men uchun yangilik.			
“–” bu fikr yoki mazkur ma’lumotga qarshiman?			

Belgilangan vaqt yakunlangach, ta’lim oluvchilar uchun notanish va tushunarsiz bo‘lgan ma’lumotlar o‘qituvchi tomonidan tahlil qilinib, izohlanadi, ularning mohiyati to‘liq yoritiladi. Savollarga javob beriladi va mashg‘ulot yakunlanadi.

Amaliy mashg‘ulotlarda quyidagi interfaol o‘qitish metodlari dan foydalaniladi:

Mashg‘ulotning motivatsiya bosqichida: “Venn Diagrammasi” usulidan foydalaniladi.

Topshiriq mazmuni → Berilgan turli topshiriqlarni bajarish?

Venn Diagrammasi metodi

Metodning maqsadi: Bu metod grafik tasvir orqali o‘qitishni tashkil etish shakli bo‘lib, u ikkita o‘zaro kesishgan aylana tasviri orqali ifodalanadi. Mazkur metod turli tushunchalar, asoslar, tasavvurlarning analiz va sintezini ikki aspekt orqali ko‘rib

chiqish, ularning umumiy va farqlovchi jihatlarini aniqlash, taqqoslash imkonini beradi.

**Metodni amalga oshirish tartibi:**

- ishtirokchilar ikki kishidan iborat juftliklarga birlashtiriladilar va ularga ko'rib chiqilayotgan tushuncha yoki asosning o'ziga xos, farqli jihatlarini (yoki aksi) doiralar ichiga yozib chiqish taklif etiladi;

- navbatdagi bosqichda ishtirokchilar to'rt kishidan iborat kichik guruhlarga birlashtiriladi va har bir juftlik o'z tahlili bilan guruh a'zolarini tanishtiradilar;

- juftliklarning tahlili eshitilgach, ular birgalashib, ko'rib chiqilayotgan muammo yoxud tushunchalarning umumiy jihatlarini (yoki farqli) izlab topadilar, umumlashtiradilar va doirachalarning kesishgan qismiga yozadilar.

**Ma'ruza mashg'ulotida** quyidagi interfaol o'qitish metodlari dan foydalilanildi:

**Topshiriq mazmuni** → «Blis-so'rov» metodi orqali berilgan fikrga munosabatlar keltirish

**“Blis-so'rov” savollari:**

1. AQSh da banklar faoliyatini nazorat qilish tizimining tashkil topishi va uning o'ziga xos xususiyatlarini ayting.

2. Buyuk Britaniyada bank nazoratini ayting.

3. Germaniya bank nazoratining o'ziga xos xususiyatlarini sanab bering.

4. Bank nazorati bo'yicha Bazel qo'mitasining vujudga kelishi va rivojlanishini ayting.

**Amaliy mashg'ulotlarda** quyidagi interfaol o'qitish metodlari dan foydalilanildi:

Mashg'ulotning motivatsiya bosqichida: “Keys-stadi” usulidan foydalilanildi.

**“Keys-stadi” metodi**

**«Keys-stadi»** – inglizcha so'z bo'lib, («case» – aniq vaziyat, hodisa, «stadi» – o'r ganmoq, tahlil qilmoq) aniq vaziyatlarni o'rganish, tahlil qilish asosida o'qitishni amalga oshirishga

qaratilgan metod hisoblanadi. Mazkur metod dastlab 1921 yil Garvard universitetida amaliy vaziyatlardan iqtisodiy boshqaruv fanlarini o‘rganishda foydalanish tartibida qo‘llanilgan. Keysda ochiq axborotlardan yoki aniq voqeа-hodisadan vaziyat sifatida tahlil uchun foydalanish mumkin. Keys harakatlari o‘z ichiga quyidagilarni qamrab oladi: Kim (Who), Qachon (When), Qaerda (Where), Nima uchun (Why), Qanday/ Qanaqa (How), Nimanatija (What).

### “Keys metodi” ni amalga oshirish bosqichlari

<b>Ish bosqichlari</b>	<b>Faoliyat shakli va mazmuni</b>
<b>1-bosqich:</b> Keys va uning axborot ta’minoti bilan tanishtirish	<ul style="list-style-type: none"> <li>✓ yakka tartibdagi audio-vizual ish;</li> <li>✓ keys bilan tanishish(matnli, audio yoki media shaklda);</li> <li>✓ axborotni umumlashtirish;</li> <li>✓ axborot tahlili;</li> <li>✓ muammolarni aniqlash</li> </ul>
<b>2-bosqich:</b> Keysni aniq-lashtirish va o‘quv topshirig‘ni belgilash	<ul style="list-style-type: none"> <li>✓ individual va guruhda ishlash;</li> <li>✓ muammolarni dolzarblik ierarxiyasini aniqlash;</li> <li>✓ asosiy muammoli vaziyatni belgilash</li> </ul>
<b>3-bosqich:</b> Keysdagi asosiy muammoni tahlil etish orqali o‘quv topshirig‘ining yechimini izlash, hal etish yo‘llarini ishlab chiqish	<ul style="list-style-type: none"> <li>✓ individual va guruhda ishlash;</li> <li>✓ muqobil yechim yo‘llarini ishlab chiqish;</li> <li>✓ har bir yechimning imkoniyatlari va to‘siqlarni tahlil qilish;</li> <li>✓ muqobil yechimlarni tanlash</li> </ul>
<b>4-bosqich:</b> Keys yechimini echimini shakllantirish va asoslash, taqdimot.	<ul style="list-style-type: none"> <li>✓ yakka va guruhda ishlash;</li> <li>✓ muqobil variantlarni amalda qo‘llash imkoniyatlarini asoslash;</li> <li>✓ ijodiy-loyiha taqdimotini tayyorlash;</li> <li>✓ yakuniy xulosa va vaziyat yechimining amaliy aspektlarini yoritish</li> </ul>

Keys. Bank tomonidan jismoniy shaxsga berilgan 10,0 mln.

so‘mlik iste’mol krediti qaytmayapti. Mijoz doimiy ishlab turgan ish joyidan bo‘shaganligi ma’lum bo‘ldi. Kredit uchun mijoz tomonidan qo‘sishimcha garov qo‘yilmagan.

### **Nazorat uchun savollar**

1. Keysdagi muammoni keltirib chiqargan asosiy sabablarni belgilang (individual va kichik guruhda).
2. Muammoni hal etish ketma-ketligini aniqlang (juftliklarda bajaring).

## **10-MAVZU: GURUHLARDA ISHLASH VA TAQDIMOTLAR TAYYORLASH**

### **Reja:**

- 10.1. Guruhlarda ishlash va taqdimotlar tayyorlashning turlari va shakllari.
- 10.2. Taqdimotga tayyorlanish bosqichlari.
- 10.3. Taqdimot va slaydlarni tayyorlash talablari.
- 10.4. Slaydlar dizayni.
- 10.5. O'zini o'zi taqdim etish (Samoprezentatsiya).

### **10.1. Guruhlarda ishlash va taqdimotlar tayyorlashning turlari va shakllari**

Yer yuzida aholi soni oshib borgani sari, turli-tuman axborotlar ham ko'payib boraveradi. Kundan kunga ko'payib borayotgan axborot oqimida insonning idrok qilishi, tabiiyki, murakkablashadi. Insonning axborotni qabul qilish va idrok etish imkoniyati bilan axborot salmog'i o'rtasida jiddiy ziddiyat vujudga keladi. Ko'payib borayotgan axborotni qabul qilishni osonlashtirish uchun uni to'g'ri tizimlashtirib taqdim etishni o'rganish zarur. To'g'ri tayyorlangan prezентatsiya yaxshi taqdimot garovidir.

*YODDA TUTING!* Prezentatsiya – bu axborotni taqdim etish usuli. Axborot ko'rgazmali va ishonchli shaklda taqdim etilishi kerak. Buning uchun grafika, video va ovozli axborotdan foydalaniladi. Asosiy g'oyalar kichik matnlarda aks etadi.

Prezentatsiyadan turli maqsadlarda foydalaniladi. Shunga ko'ra prezentatsiyalarning quyidagi turlarini ajratib ko'rsatish mumkin:

- Ma'ruzalarni to'ldiradigan prezentatsiyalar.
- O'quv maqsadlarida foydalaniladigan prezentatsiyalar.
- Savdo-sotiq va marketingda foydalaniladigan prezentatsiyalar.

Ko'rgazmali axborotni taqdim etish shakliga ko'ra

prezentatsiyalarni uch guruhga bo‘lish mumkin: oddiy, animatsiyali va multimediali.

Birinchisi oddiy slaydlar to‘plami bo‘lib, tekst, rasm, grafika-dan iborat bo‘ladi. Tayyorlash ko‘p vaqt olmagani va alohida ko‘nikmalarini talab qilmagani uchun bunday taqdimotlardan ko‘p foydalaniladi. Prezentatsiyani mustaqil tayyorlash uchun Power Point kompyuter programmasini o‘rganish yetarli. Animatsiyali prezentatsiyalarda qo‘srimcha element – animatsiyadan foydalaniladi. Uncha qiyin bo‘lmagan effektlardan foydalanish taqdimotni qiziqarli va yorqin chiqishiga ta’sir ko‘rsatadi. Animatsion effektlar ko‘p hollarda maxsus programmalariga joylashtirilganligi tufayli prezentatsiyada ulardan foydalanish qiyin ish emas. Multimediali prezentatsiyani tayyorlash esa birmuncha murakkab bo‘lib, unda grafika, video, animatsiya, ovoz, tekstdan iborat bo‘lgan interfaol elementlardan foydalaniladi.

Prezentatsiya shakllari turlicha bo‘lishi mumkin: auditoriyada ma’ruza uchun, ko‘rgazma zallarida stend shaklida, magazinda, televideniya yoki radioda va hokazo.

Taqdimotlar quyidagicha amalga oshirilishi mumkin:

- spiker tomonidan yordamchi vositalardan foydalanmagan holatda;
- spikersiz texnik vositalar yordamida (masalan, video namo-yishi);
- spiker tomonidan yordamchi vositalardan foydalangan holatda.

## **10.2. Taqdimotga tayyorlanish bosqichlari**

Har bir spikerning o‘z uslubi bo‘ladi. Ayrim prezentatsiyalar, masalan, ma’ruzalar e’tiborni jalb qilishga qaratilgan. Katta auditoriyalar uchun mo‘ljallangan ma’ruzalarda chiroyli so‘zlar ko‘p, detallar esa kam bo‘ladi. Bunday prezentatsiyalarni katta zallar uchun mo‘ljallangan prezentatsiyalar, deb atashadi.

Kam sonli tinglovchilar, masalan, mijozlar uchun mo‘ljallan-

gan prezentatsiyalar esa o‘zgacha uslubda tayyorlanadi. Ularda detallar: grafika, statistik ma’lumotlar ko‘proq bo‘lishi kerak. Bunday prezentatsiyalarning maqsadi ishontirish va ta’lim berishdir.

Ayrim prezentatsiyalarda katta bir g‘oya bitta slaydda namoyish etiladi va u uzoq vaqt muhokama qilinadi. Har bir slayd katta hajmdagi ma’lumotlarni o‘z ichiga oladi. Boshqa bir spiker ma’ruzaning ayrim jihatlarinigina slaydga joylashtiradi. Bitta g‘oya bir nechta slaydlarga bo‘lib joylashtiriladi.

Taqdimotda qaysi uslubdan foydalangan ma’qul?

Bu vaziyatga bog‘liq. Lourens Lessig uslubi

Lessig trener bir nechta, ba’zi hollarda bittagina so‘z yozilgan slayd yaratadi. Bunday slaydlar odatda oq fonga qora shrift bilan yoziladi. Spiker tomonidan bildirilayotgan fikrlarga slaydda yozilgan so‘zlar yordamida urg‘u berish mumkin.

Prezentatsiyalar bo‘yicha ekspert Aleksey Kepterev, Prezentatsiyalar insonlarga ta’sir ko‘rsatadi. Bu, prezentatsiyalar auditoriyani butunlay o‘zgartiradi, degani emas. Gap sizning boy va mashhur odamga aylanishingizda emas. Gap sizning boshqa insonga, yaxshiroq insonga aylanishingizda. Siz ko‘proq biladigan va ko‘proq tushunadigan insonga aylanasiz degan edi.

Ta’sirchan prezentatsiya, bu birinchi navbatda, qiziqarli, to‘g‘ri tuzilgan va chiroyli taqdim etilgan kontent. Bunday prezentatsiyada tinglovchi faqat bir maqsadda – slaydlarni rasmga olish uchungina telefonini qo‘liga oladi. Yaxshi tayyorlangan prezentatsiya odamlarni fikrini o‘zgartirishga yordam beradi.

Prezentatsiyaga tayyorlanishni nimadan boshlash kerak?

- Auditoriyani o‘rganish.
- Maqsadni aniqlash.
- Material tanlash va ajratish, ularni tizimli taqsimlash.
- Prezentatsiya ssenariysini tuzish.

Prezentatsiya tayyorlashni rasm qidirishdan boshlash katta xato hisoblanadi. Yaxshi tizimlashtirilmagan, maqsadsiz prezentatsiyalar, odatda, shundan boshlanadi. Agar prezentatsiya tayyorlash uchun vaqt oz bo‘lsa, umuman rasm qidirmagan

ma'qul. Ma'noli va fikrni yetkazib berishga yordamlashadigan, oq fonga qora shrift bilan yozilgan matn chiroyli ko'rindi.

Auditoriyani o'rganish. Prezentatsiyaga tayyorlanishni, birinchi navbatda, auditoriyani o'rganishdan boshlash kerak. Tinglovchilar qanday odamlar ekanini bilish juda muhim. Jinsi, yoshi, kasbi, bilim darajasi, xohishlari, qo'rquv va xavotirlari, intilishlari. Turli insonlarni ham qandaydir belgiga ko'ra birlashtirish mumkin. Tinglovchilarni qanchalik yaxshi tushunsangiz, fikrlaringizni ularni ongi va qalbiga shunchalik chuqur singdira olasiz.

- Maqsadni aniqlash. O'zingizga haqqoniy va samimiyl javob bering – tinglovchilaringiz nimani tushunishlari, qabul qilishlari va nima qilishlarini xohlaysiz? Sizning mahsulotingizni sotib olishlari kerakmi? Sizni ishga qabul qilishlari kerakmi? Bilim olishlari kerakmi? Maqsadni aniqlash prezentatsiya tayyorlashda to'g'ri yo'nalishni tanlashga yordam beradi.

### **10.3. Taqdimot va slaydlarni tayyorlash talablari**

Talablar quyidagicha bo'lishi mumkin:  
boshqalarni o'z nuqtai nazaringizga ishontirish;  
- bilim berish, tajribangiz bilan o'rtoqlashish;  
- hisobot berish;  
- mahsulotga qiziqish uyg'otish.

Maqsad juda katta bo'lishi shart emas, asosiysi – aniq bo'lishi kerak.

Mavhum maqsad	Aniq maqsad
Yaxshi chiqish qilish	Prezentatsiya tinglovchilarni xulqini o'zgartirishi mumkinligiga ishontirish
Mafkuraviy immunitetni mustahkamlash	"Ommaviy madaniyat"ni oilaviy qadriyatlarga halokatli <u>ta'sirini</u> isbotlab berish

Maqsad aniqlangandan keyin, o‘ylab qo‘ygan g‘oyalaringizni qog‘ozga tushiring. Slaydlarda yoritmoqchi bo‘lgan ma’lumotlarni avval qog‘ozga chizib chiqing. Bu nima uchun kerak?

Birinchidan, taqdimotingiz uchun nechta slayd tayyorlash kerakligini hisoblab chiqasiz.

### **Nazorat jadvali: Umumiylar shartlar**

Auditoriyani o‘rganish	Tadbir ishtirokchilari kimlar?
	Qancha odam keladi?
	Tinglovchilar shaxsan sizdan nima kutishyapti?
	Tinglovchilarning taqdimot qilinadigan mavzu yuzasidan bilim darajasi qanday?
Tadbir turi	Konferensiya, ma’ruza, targ‘ibot va b.
Atmosfera	Tadbir qanday sharoitda o‘tadi (rasmiy, tantanali yoki erkin)?
	Tinglovchilar tadbirda ixtiyoriy ishtirok etishyaptimi yoki majburiy?
Sizning chiqishingiz	Asosiy dokladchimisiz yoki boshqalar bilan teng qatorda chiqish qilasizmi?
	Sizning chiqishingizga qancha vaqt ajratilgan?
Boshqalarning chiqishi	Dasturga ko‘ra boshqa notiqlar nima haqida gapirishadi?
	Sizdan oldin qancha odam chiqish qiladi?
	Ishtirokchilar orasida sizning fikringizga qarshi fikr bildiruvchilar bormi?
Tadbir dasturi	Tadbir dasturi bilan tanishdingizmi?
	Kimdan oldin va kimdan keyin chiqish qilasiz?
Texnik vositalar	Texnik vositalar bilan ta’minlanganmi?

Maqsad aniqlangandan keyin, o‘ylab qo‘ygan g‘oyalaringizni qog‘ozga tushiring. Slaydlarda yoritmoqchi bo‘lgan ma’lumotlarni avval qog‘ozga chizib chiqing. Bu nima uchun kerak?

Birinchidan, mavzuni yoritishda mantiqiy izchillikka amal qilasiz.

Ikkinchidan, slaydlar uchun qanday dizayn to‘g‘ri kelishini aniq tasavvur qilasiz.

Uchinchidan, prezentatsiya uchun qanday rasmlar, qanday musiqa kerak bo‘lishini oldindan aniqlab olasiz.

Materiallarni ajratish va tizimlashtirish. Ko‘p sonli materiallar orasidan maqsadingizga erishishga yordam beradigan ma’lumotlarni tanlang. Buning uchun o‘zingizga shunday savol bering:

Menga ajratilgan vaqtida maqsadga erishish uchun auditoriyaga aynan nimani gapirishim kerak?

#### **10.4. Slaydlar dizayni**

##### Slayd dizaynlarida nima bo‘lmasligi kerak?

*To‘liq tekst.* Inson, bir vaqtning o‘zida ham o‘qib, ham tinglay olmaydi. Agar slaydga ko‘p matn qo‘yilgan bo‘lsa, tinglovchi matnni o‘qiyotgan vaqtida, spikerni umuman eshitmaydi. 30 ta so‘z – slaydga qo‘yiladigan tekst miqdorining chegarasi.

• *Ranglar va shriftlar xilma-xilligi.* Slaydni kamalakka aylantirishning keragi yo‘q – ikki-uch xil rang yetarli. Bir xil shriftdan foydalangan ma’qul. Uzog‘i bilan ikki xil – asosiy matn va sarlavha uchun.

• *Bir qatorga sig ‘maydigan sarlavhalar.*

• *Ko‘p sonli elementlar.* Sxemalar bundan mustasno. Ular ham maksimal darajada oddiy bo‘lishi kerak.

• *Sifatsiz rasmlar.*

##### Yaxshi prezentatsiya qanday bo‘lishi kerak?

Qiziqarli nom. Taqdimotga qiziqarli nom tanlash juda muhim, hatto kitob sotib olayotgan inson ham birinchi navbatda uning nomlanishiga e’tibor qaratadi. Odamlar prezentatsiyani aynan nomlanishiga qarab tanlashadi

*Sonlardan foydalaning.* “Taqdimot qilish to‘g‘risida 5 maslahat”.

1. *Savol qo‘ying.* “Taqdimotga qanday tayyorlanish kerak?”.
2. *Qo‘sinq, film, badiiy asarlarning nomlari, ulardagи mashhur iboralarni ishlating.* “Suyunchi! O‘zbekistonda korrupsiyaga qarshi kurash e’lon qilindi”.
3. *“Hammasi ..... haqida”, “..... nima u?” kabi usullardan foydalaning.* “Hammasi “ommaviy madaniyat haqida”, “Demokratiya eksporti” nima u?”.

Dunyodagi eng yaxshi 15 ta prezentatsiyaning 8 tasining nomlanishida savol qo‘yilgan: “....qanday ishlaydi?”, “.....uchun nima zarur?”, “Nima qilish kerak?” va hakozo. Prezentatsiyaning sirli nomlanishi ham tinglovchilarda qiziqish uyg‘otadi.

Vizuallashtirish nima uchun kerak?

- nutqning murakkab mazmunini tushunishni yengillashtirish;
- aytilgan fikrning eng muhim jihatlariga urg‘u berish;
- tushuntirishni osonlashtirish;
- ayrim fikrlarni tinglovchilarning xotirasiga muhrlash;
- elementlar o‘rtasidagi aloqalarni ko‘rsatish.

1. Birinchi slayddanoq tinglovchi bu prezentatsiyadan nima olishini tushunishi kerak. Tinglovchini hayron qoldirishning keragi yo‘q, to‘g‘ridan-to‘g‘ri keyingi jarayonda uni nima kutayotganini ko‘rsatib bergen ma’qul. “Hamma narsaga yetkazish uchun stipendiyani qanday sarflash kerak”?

2. Qiziqish uyg‘otish. Tinglovchini qiziqtirish uchun motivatsiya uyg‘otish lozim. Taqdimotning foydali tomonini tushuntirish yoki intriga uyg‘otish kerak. “Foydasi: siz stipendiyani 20% ini qanday tejashni bilib olasiz”,

3. Tezis. Taqdimotning asosiy maqsadi, odamlarga o‘rgatish kerak bo‘lgan jihatlar yoritiladi.

4. Antitezis. Tanganing ikkinchi tomonini ham ko‘rsatish lozim. Bu tinglovchilarda ishonch uyg‘otadi va amalda uchraydigan muammolardan ogohlantiradi.

“Tejash juda qiyin, chunki atrofda chiroyli narsalar juda ko‘p.

Agar o'zingizni tuta olmasdan biron narsaga pul sarflagan bo'lsangiz, bu qo'rqinchli emas"

5. Xulosa. Yomon prezentsiyalar "E'tiboringiz uchun rahmat!" so'zlar bilan tugaydi. Taqdimot yakunida xulosa yoki qisqacha rezyume berish kerak. Spikerning taqdimotidan keyin tinglovchi hozir nima qila olishini tushunishi kerak.

"Endi siz tejamkorlikning uch qoidasini bilib oldingiz.  
Bugun do'konda birontasini qo'llab ko'ring".

### **10.5. O'zini o'zi taqdim etish (Samoprezentsiya)**

Har doim zamon bilan hamnafas bo'lishga harakat qilish kerak. Tinglovchilarning mutaxassisiga bo'lgan ishonch darajasi taqdimotning qanchalik yaxshi tayyorlanganiga bog'liq bo'ladi.

Taqdimotda barcha elementlar uyg'un, ya'ni bir xil tipda bo'lishi kerak. Bunday slaydlar mavzuni tushunishni yengillash-tiradi, tinglovchilarni charchatmaydi.

Matnli, rasmlli, diagrammali slaydlar – har bir turdag'i slaydlar uchun bir nechtadan shablon yaratib olish kerak. Keyin slaydlarni nusxasini ko'chirish, faqatgina matn va tasvirlarni o'zgartirish kerak. Bir xil tipda tayyorlangan slaydlar chiroyli ko'rinadi.

Yodda tuting! Taqdimot matnlaringizni qo'yadigan joy emas – auditoriyaga teskari qarab slaydlarni o'qib bera olmaysiz, bunga umid ham qilmang. Bundan tashqari, tinglovchilar siz gapirgan-ningizdan ko'ra tezroq o'qishadi – bu isbotlangan.

Shuning uchun slaydlaringiz tinglovchilar bahra oladigan darajada chiroyli, yorqin va tushunarli bo'lsin.

Matn. Ba'zi spikerlar o'zlarining nutqlarini to'laligicha slaydlarga joylashtirishadi va mavzuni sodda, tushunarli qilib o'z so'zlar bilan gapiresh o'rniga slaydlardagi matnni o'qib berishadi. Tinglovchilarga esa bu umuman yoqmaydi, ular zerikib qolishadi. Spiker va auditoriya o'rtasida hech qanday hissiy aloqa o'rnatilmaydi.

Bunday bo‘lmasligi uchun slaydga iloji boricha kam matn qo‘yish kerak. Esda tuting, slaydlarni tayyorlashdan maqsad spikerga matnni eslatish emas, sizni auditoriyaga gapiroayotgan gaplaringizni ma’nosini kuchaytirish. Bitta slayd – bitta g‘oya. Bunday slaydni o‘qish ham, eslab qolish ham oson. Omma oldidagi nutqda bunday slayd auditoriyaning e’tiborini jalg qiladi.

Ma’lumot qismlarga bo‘linadi. Bunda ro‘yxatdan foydalaniadi.

Matn	Matnni qisqartirib ro‘yxat ko‘rinishida berilishi
XXI asrga kelib esa xavfxatarlar ro‘yxati, ayrim kuchlarning <a href="#"><u>urinishlari natijasida</u></a> , yanada kengaydi. Demografik inqiroz, missionerlik, demokratiya eksporti, “ommaviy madaniyat”, g‘arbona turmush tarzini tiqishtirish kabi xavfxatarlar paydo bo‘ldi.	XXI asrda vujudga kelgan xavfxatarlar: <ul style="list-style-type: none"> <li>- demografik inqiroz,</li> <li>- missionerlik,</li> <li>- demokratiya eksporti,</li> <li>- “ommaviy madaniyat”,</li> <li>- g‘arbona turmush tarzini tiqishtirish.</li> </ul>

Informatsiya chiroyli ko‘rinishi va esda qolishi uchun matnni sxemaga aylantirish kerak.

## MUNDARIJA

### **1-MAVZU: KIRISH. (BANK ISHI VA MOLIYA ASOSLARI FANINING ASOSIY VAZIFALARI, PREDMETI VA OBYEKTI).**

1.1. Banklarning	paydo	bo‘lish	
sabablari.....			3
1.2. Banklarning mohiyati va uning namoyon bo‘lish shakllari.....			6
1.3. Fanning boshqa iqtisodiy fanlar bilan o‘zaro aloqadorligi.....			13

### **2-MAVZU: PUL VA BANK ISHINI TARIXIY VA NAZARIY JIHATI.**

2.1. Pul aylanmasi va uni tashkil qilish prinsiplari. Naqd pullarni muomalaga chiqarish va muomaladan olish tartibi.....		17
2.2. Naqdsiz pul aylanmasi va uni tashkil qilish prinsiplari. Naqd pulsiz hisob-kitoblar tizimi va uning elementlari.....		23
2.3. O‘zbekiston Respublikasi pul tizimining rivojlanishi.....		29

### **3-MAVZU: BANK OPERATSIYALARI.**

3.1. Banklarning turlari va ular faoliyatining o‘ziga xos xususiyatlari. Bank tizimi va uning elementlari.....		37
3.2. Markaziy bank faoliyatining maqsadi va vazifalari. Markaziy bankning tashkiliy tuzilishi.....		44
3.3. Markaziy bankning funksiyalari: emission funksiya; “banklarning banki” funksiyasi, “davlatning banki” funksiyasi, rasmiy oltin-valyuta zaxiralarini boshqarish funksiyasi.....		48

## **4-MAVZU: BANK RISKLARI VA ULARNI BOSHQARISH**

4.1. Bank risklarini boshqarish tizimi va uning 55 tuzilishi.....	55
4.2. Kredit riski mazmuni, baholash va uni boshqarish.....	69
4.3. Foiz riski va uni boshqarish usullari.....	92

## **5-MAVZU: QIMMATLI QOG‘OZLAR BOZORI.**

5.1. O‘zbekistonda qimmatli qog‘ozlar bozori.....	106
5.2. Moliyaviy bozor va bunda tijorat banklarining roli.....	113
5.3. Banklarning qimmatli qog‘ozlar bo‘yicha tijorat va investitsion operatsiyalari.....	117
5.4. Tijorat banklarining qimmatli qog‘ozlar bilan passiv operatsiyalari va ularning tarkibiy tuzilishi.....	120
5.5. Tijorat banklarining qimmatli qog‘ozlar bilan aktiv operatsiyalari va ularning turkumlanishi.....	123

## **6-MAVZU: MASOFAVIY BANK XIZMATLARI.**

6.1. Bank operatsiyalari va xizmatlari klassifikatsiyasi va tarkibi.....	126
6.2. Masofaviy bank xizmatlarining vujudga kelishi va rivojlanish bosqichlari.....	132
6.3. Bank xizmatlarini transformatsiya qilishning ahamiyati va amaliyoti.....	144

## **7-MAVZU: VALYUTA BOZORLARI.**

7.1. Jahon moliyaviy markazlari va valyuta bozori tushunchasi.....	154
--	-----

7.2. Valyuta bozori tushunchasi, uning institutsional tarkibi va o‘ziga xos xususiyatlari..... 163

7.3. Tijorat banklarining valyuta operatsiyalari..... 177

7.4. Valyuta munosabatlari va valyuta operatsiyalari.. 182

## **8-MAVZU: DAVLAT MOLIYASI VA SOLIQQA TORTISH.**

8.1. Davlat moliyasi va soliqlar mohiyati va 199 funksiyasi.....

8.2. Soliqqa tortish tamoyil va elementlari..... 203

8.3. O‘zbekiston Respublikasining soliq tizimi..... 209

## **9-MAVZU: INFORMATSION TEXNOLOGIYA KO‘NIKMALARI, MA’LUMOTLAR BILAN ISHLASH, STATISTIK MA’LUMOTLARDAN FOYDALANISH VA SHARXLASH.**

9.1. Informatsion texnologiya ma’lumotlar bilan 214 ishlash usullardan samarali foydalanish.....

9.2. Informatsion texnologiya ko‘nikmalari va 218 statistik ma’lumotlarni amalga oshirish tartibi.....

9.3. Informatsion texnologiya ko‘nikmalari, 222 ma’lumotlar bilan ishlash, statistik ma’lumotlar metodini amalga oshirish tartibi.....

## **10-MAVZU: GURUHLARDA ISHLASH VA TAQDIMOTLAR TAYYORLASH.**

10.1. Guruhlarda ishlash va taqdimotlar 227 tayyorlashning turlari va shakllari.....

10.2. Taqdimotga tayyorlanish bosqichlari..... 228

10.3. Taqdimot va slaydlarni tayyorlash talablari... 230

10.4. Slaydlar dizayni..... 232

10.5. O‘zini o‘zi taqdim etish (Samoprezentatsiya)... 234

**Z.Mamadiyarov, A.Norov, O‘.Haydarov**

# **BANK ISHI VA MOLIYA ASOSLARI**

**(Darslik)**

**Toshkent – «INNOVATSION RIVOJLANISH  
NASHRIYOT-MATBAA UYI» – 2021**

Muharrir:	N.Abdullayeva
Tex. muharrir:	A. Moydinov
Musavvir:	A. Shushunov
Musahhih:	L. Ibragimov
Kompyuterda sahifalovchi:	M.Zoyirova

**E-mail: nashr2019@inbox.ru Tel: +99899920-90-35  
№ 3226-275f-3128-7d30-5c28-4094-7907, 10.08.2020.**

**Bosishga ruxsat etildi 13.09.2021.**

**Bichimi 60x84 1/16. «Timez Uz» garniturasi.**

**Offset bosma usulida bosildi.**

**Shartli bosma tabog‘i: 15,5. Nashriyot bosma tabog‘i 15,05.**

**Tiraji: 50. Buyurtma № 127**

**«INNOVATSION RIVOJLANISH NASHRIYOT-MATBAA UYI»**  
**bosmaxonasida chop etildi.**

**100174, Toshkent sh, Olmazor tumani,  
Universitet ko‘chasi, 7-uy.**